6. ГОСТ Р ИСО 5725-1-2002 "Точность (правильность и прецизионность) методов и результатов измерений. Часть 1. Основные положения и определения"
7. The ILAC Mutual Recognition Arrangement от 31.01.2001.
8. ГОСТ 16504-81 "Система государственных испытаний продукции. Испытания и контроль качества продукции. Основные термины и определения"
9. ГОСТ Р ИСО/МЭК 17065-2012 "Оценка соответствия. Требования к органам по сертификации продукции, процессов и услуг"
10. ГОСТ Р ИСО/МЭК 17021-2012 "Оценка соответствия. Требования к органам, проводящим аудит и сертификацию систем менеджмента"
11. ГОСТ ИСО/МЭК 17025-2009 "Общие требования к компетентности испытательных и калибровочных лабораторий"
12. Методы оценки несоответствия средств защиты информации. Под.ред. А. С. Маркова. — М.: Радио и связь, 2012. — 192 с.

III SHU’BA. STANDARTLASHTIRISH VA TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH FAOLIYATLARINING ISHLAB CHIQARISHDAGI O‘RNI

MURAKKAB TUZILMALI OBYEKTLARDA DINAMIK HUJJAT AYLANISH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH

Xoliqnazarov Rashidjon Xomidjonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti “Kompyuter muhandisligi va sun'iy intellekt” kafedrasi dotsenti v.b.

Ushbu maqolada DFIT (Dynamic Formation of Information Templates) tizimini ishlab chiqish jarayonini strukturaviy-parametrik sintezi bosqichlarini IDEF0 notatsiyasi orqali funktsional diagrammasi yaratildi. OTM faoliyatida axborot oqimini optimal boshqarish va hujjat ma’lumotlarini tizimli to’ldirish orqali tezkor axborot yig’ish samardorligini oshirish masalasi qaralgan.

In this article, a functional diagram of the stages of structural-parametric synthesis of the DFIT system development process using the IDEF0 notation has been created. The issue of increasing the efficiency of the operational collection of information through the systematic filling of documentary information and the optimal management of information flows in the activities of the HEI is considered.

Jahon miqyosida barcha sohalar, jumladan, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, tashkilotlar faoliyatini raqamli formatga o‘tkazishda axborot tizimlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tizimlar hujjatlar aylanishining tezligini oshiradi, ma’lumotlarni boshqarishni soddalashtiradi hamda ish jarayonlarining samaradorligini ta’minlab, tashkilot faoliyatini optimallashtirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida vaqt va resurslardan oqilona foydalanishga, tashkilot ichida va ular o‘rtasida samarali integratsiyani yo‘lga qo‘yishga, inson omili tufayli yuzaga keluvchi xatolarni kamaytirishga va axborot xavfsizligini ta’minlashga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, elektron hujjat aylanish tizimlarida hujjatlarni shakllantirish, yig‘ish, saqlash, qayta ishlash, izlash, uzatish va taqdim etish jarayonlarini boshqarish borasida AQSh, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Singapur, Xitoy va Rossiya kabi ilg‘or davlatlarning yetakchi olimlari tomonidan ilmiy va amaliy yechimlarning samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimini jadallik bilan raqamlashtirish, shuningdek, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida, 2020-yil 5-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “RAQAMLI O‘ZBEKISTON – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF–6079-son Farmoni imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–307-son qaroriga 3-ilova sifatida tasdiqlangan “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2022–2023 yillarda amalga oshirish bo‘yicha Yo‘l xaritasi”da qator muhim vazifalar belgilangan. Jumladan, 200-bandda integratsiyalashgan elektron hujjat aylanish avtomatlashtirish tizimini joriy etish, 203-bandda korporativ ma’lumotlarni saqlash (DWN) va tahliliy platformani (BI) tatbiq etish, hamda 208-bandda ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha loyihalarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar keltirilgan [1].

Yuqorida tilga olingan farmon va qarorlarga asoslanib aytish mumkinki, hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) turli soha va tarmoqlarga keng joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib borilmoqda. Endilikda korxona va tashkilotlar faoliyatining istalgan yo‘nalishini AKTdan foydalanmasdan tasavvur qilish mushkul. Har qanday tashkilotning kundalik ish faoliyatida turli xil hisobotlar, tashkiliy va ma’muriy hujjatlarni tayyorlash doimiy ravishda amalga oshiriladi. Shu bois, mavjud ma’lumotlar bazalaridan foydalanib, zarur hujjatlarni avtomatik tarzda shakllantirish jarayonini yo‘lga qo‘yish dolzarb va muhim masalalardan biri sanaladi.

Hujjatlarni ishlab chiqish va shakllantirish jarayonlarini avtomatlashtirish tashkilotlarda tashkiliy boshqaruvning samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Zero, hujjatlarni tayyorlash murakkab va ko‘p vaqt talab qiladigan jarayon bo‘lib, bu jarayonni soddalashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish, inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirish va ish tezligini oshirish mumkin. Shu bois, elektron hujjat aylanish tizimlari (EHAT) sohasida ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [2,3,4].

Ayni vaqtda EHAT yo‘nalishida bir qator dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular turli funksional imkoniyatlari bilan ajralib turadi. 2023-yil holatiga ko‘ra, tahlillar asosida 15 ta eng ilg‘or elektron hujjat aylanish tizimlari quyidagilar hisoblanadi: PandaDoc, Juro Contract Automation, Oneflow, PaperSave, Qoppa PDF Studio, Vitrium Security, ContractZen, Encyro, ContractWorks, Filemail, eFileCabinet, Templafy, Samepage, Synology Drive, va Wondershare PDFelement Pro [5].

Ushbu tizimlar hujjatlarni yaratish, saqlash, uzatish, imzolash va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali tashkilotlar ish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va tahlillar asosida oliy ta’lim muassasalari (OTM) faoliyatini chuqur tahlil qilish imkoniyati mavjud. OTMlarning tashkiliy tuzilmasi va faoliyati to‘plamlar va graflar nazariyasi asosida modellashtirilishi mumkin. Bunda graf tugunlari – bu tashkilotdagi ob’ektlar (bo‘limlar, lavozimlar, hodimlar), qovurg‘alari esa – bu ob’ektlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi yoki

boshqaruv munosabatlarini bildiradi. Ayniqsa, elektron hujjat aylanishi (EHAT) jarayonlarini tahlil qilishda bu yondashuv nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda EHAT tizimlari respublika darajasida, yirik boshqaruv organlarida, filial va tarmoqlarga ega korxona va kompaniyalarda, shuningdek, hududiy boshqaruv tizimlarida keng ko‘lamda va samarali tarzda qo‘llanilmoqda. Ushbu tizimlar orqali hujjatlar odatda tashkilotning “kirish” tuguni bo‘lgan – ko‘pchilik holatda kanselariya bo‘limiga yetkaziladi. Kanselariya hujjatni EHAT orqali qabul qilib, ro‘yxatdan o‘tkazadi va uni ijro uchun mas’ul rahbarga yo‘naltiradi.

Rahbar kiruvchi hujjatni ko‘rib chiqib, unga rekvizit – ya’ni ijrochilarni ko‘rsatadi. Ijrochilar sifatida, odatda, ichki bo‘lim vakillari belgilanadi. Zarur hollarda, bu ijrochilar o‘z navbatida hujjatni boshqa quyi bo‘limlarga yuborishlari mumkin. OTM misolida bu jarayon hujjatning bo‘lim xodimi yoki o‘qituvchiga yetib borishi bilan yakunlanadi, ya’ni u **so**‘nggi ma’lumot manbaiga yetkaziladi.

Keyinchalik, ushbu shaxslardan olingan ma’lumotlar teskari yo‘nalishda qayta yuqoriga yuboriladi, umumlashtiriladi va asosiy javob tayyorlanadi. Tayyorlangan javob hujjati tasdiqlanib, kanselariya bo‘limi tomonidan “chiquvchi” hujjat sifatida EHAT tizimi orqali qayta jo‘natiladi.

Bu jarayon:

- hujjat harakati izchilligini,
- mas’ullikni aniq taqsimlashni,
- hujjatlarni kuzatish imkoniyatini,
- inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirishni,
- vaqt va resurslarni tejashni ta’minlaydi.

Shunday qilib, OTM faoliyatida elektron hujjat aylanish tizimini graf modeli asosida ifodalash, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — oliy ta’lim muassasasi (OTM) ichki muhitida axborot oqimini samarali boshqarish, shuningdek, hujjat ma’lumotlarini tizimli tarzda to‘ldirish orqali tezkor va sifatli axborot yig‘ish samaradorligini oshirishdan iboratdir. OTMdagi elektron hujjat aylanishi jarayonlarini chuqur tahlil qilish natijasida, bu jarayonda aylanayotgan ma’lumotlarning ko‘p holatlarda takrorlanuvchan ekanligini aniqlash mumkin.

Xususan, o‘quv, ilmiy-tadqiqot va boshqaruv faoliyatlarida foydalaniladigan ko‘plab hujjatlar turli axborot tizimlarida yaratiladi va ayni turdagi ma’lumotlar bir necha bor kiritiladi. Bu esa ish jarayonlarining ortiqcha resurs talab qilishiga, inson omiliga bog‘liq xatoliklar yuzaga kelishiga va vaqt sarfi ortishiga sabab bo‘ladi.

Shu sababli, mavjud elektron hujjat aylanish tizimidan (EHAT) kelgan hujjatlarni ijro uchun ichki axborot tizimiga andozaviy va dinamik shaklda uzatish, to‘plangan ma’lumotlarni esa chiqish hujjatlari uchun statik tarzda umumlashtirishga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

Mazkur tizim DFIT (Dynamic Formation of Information Templates — Axborot Andozalarini Dinamik Shakllantirish) deb nomlanadi. Ushbu DFIT tizimi hujjatlarni qayta va takroran yaratilishini oldini oladi, turli tizimlar o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlaydi va hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish darajasini oshiradi.

Kelajakda bu tizim umumiy EHAT bilan to‘liq integratsiya qilinadi va OTMda hujjatlar oqimi, ularning ijro holati, ma’lumot to‘plash va hisobot shakllantirish kabi jarayonlar ancha tezkor, aniq va tizimli tarzda amalga oshiriladi.

OTMda DFIT tizimini loyihalashda ushbu omillar inobatga olinishi lozim:

- Statik axborotlar;
- O'quv faoliyati axborotlari;
- Ilmiy faoliyatga tegishli mualliflik ma’lumotlar jamlanmasi
- Mavjud turli format va turdagi hujjatlar va axborot resurslar;
- Faoliyatdagi dasturiy ta’minotlar, axborot tizimlari va ularning resurslari;
- Xavfsizlik nuqtai nazaridan ma'lumotlarga bo’lgan ta’sirlar.

OTM ish oqimi strukturasining o'zgaruvchanligi sababli tizim moslashuvchan bo’lishi kerak. Ya’ni, turli xil tashqi va ichki omillar ta'sirida (vazirliklar, idoralar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar buyruqlari, me’yoriy hujjatlar o’zgarishi, ko'rsatmalari, yangi ta'lim standartlari va boshq.) tashkiliy tuzilma o'zgartirildi.

Tizimni yaratish O‘z DSt 1986:2018 – “Axborot tizimlari: Yaratish bosqichlari” va O‘z DSt 1987:2018 – “Axborot tizimlari: axborot tizimini yaratish uchun texnik topshiriq” standartlari asosida ishlab chiqiladi. Bunda ATni yaratish bosqichlari qilib quyidagilar belgilangan: axborotlashtirish ob’ektini tadqiq qilish; ATni yaratish konsepsiyasi; texnik topshiriq; texnik va ishchi loyiha; ATni ishga tushirish va kuzatish.

DFITni yaratishni rasmiylashtirish uchun IDEF0 notatsiyadagi funktsional sxemalar qo'llaniladi. Birinchidan, u bo’g’inlar(domen)da sodir bo'layotgan jarayonlarni batafsil ko'rsatishga imkon beradi; ikkinchidan, kirish va chiqishlarni, boshqaruv mexanizmlarini (vositalarini) ko'rsatadi. Sodda va ixcham bo'lgan IDEF0 texnologiyasi turli darajali tafsilotlardagi modellar va jarayonlarni tasvirlash uchun ishlatiladigan standart tildir. DFITni yaratishning strukturaviy-parametrik sintezi bir nechta bosqichlarni o'z ichiga olgan IDEF0 notatsiyasi (1-rasm) funktsional diagramma sifatida taqdim etiladi.

A1: Tashkilotning axborot oqimlarini tahlil qilish

Algoritmning ushbu birinchi bosqichi ta’lim muassasasining ichki faoliyati va tashqi tizimlardan kiruvchi hujjatlar asosidagi axborot oqimlarini aniqlashga qaratilgan. Dastlabki qadamlarda mavjud axborot oqimlari chuqur o‘rganiladi hamda ular og‘zaki tavsiflar yoki grafik tasvirlash vositalari (masalan, *Microsoft Visio*) yordamida vizual shaklda qayd etiladi.

Shundan so‘ng, OTMning tashkiliy tuzilmasi, ya’ni bo‘limlar, markazlar, kafedralar va ularning o‘zaro aloqasi aniqlanadi. Har bir strukturaviy bo‘linmaning

bajaradigan funksiyalari, u orqali o‘tadigan axborot oqimlari va ishlov beriladigan ma’lumotlar turkumlanadi va tahlil qilinadi.

Keyingi bosqichda tashkilotda mavjud bo‘lgan boshqaruv organlari, ularning qaror qabul qilishdagi roli va axborot oqimlari bilan bog‘liq faoliyatlari aniqlanadi. Ushbu jarayonlar asosida DFIT tizimi uchun zarur bo‘lgan tuzilma va funksional talablar og‘zaki yoki matnli shaklda shakllantiriladi.

Bu bosqichning yakunida quyidagilar aniq bo‘ladi:

- OTMdagi axborot oqimlarining yo‘nalishlari va manbalari;
- Har bir bo‘limning hujjatlar bilan ishlashdagi ishtiroki;
- Ma’lumotlar qanday uslubda yaratilayotgani va uzatilayotgani;
- DFIT tizimining mazkur tuzilmalarga qanday integratsiyalashuvi lozimligi;
- Tizimga qo‘yiladigan dastlabki funksional va texnik talablar.

Ushbu tahliliy bosqich, DFIT tizimini samarali loyihalash va keyinchalik amaliyotga tadbiq etish uchun mustahkam asos yaratadi.



1-rasm. DFITni yaratish uchun strukturaviy-parametrik funktsional diagrammasi

A2: DFITning matematik modelini ishlab chiqish

DFIT (Dynamic Formation of Information Templates – axborot andozalarini dinamik shakllantirish) tizimining samarali ishlashi uchun uning asosiy komponentlarini matematik modellashtirish zarur. Bunda elektron hujjat aylanishi (EHAT) tizimlari va ularni modellashtirish yondashuvlari, jumladan, algoritmik, grafik, statistik va tizimli yondashuvlardan foydalaniladi. Taklif etilayotgan matematik model quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ish jarayonining tuzilmasi – Graf modeli

DFITda axborot oqimi va hujjatlar harakati orientirlangan graf orqali ifodalanadi:

$$G= (V, E)$$

bu yerda:

- V — DFIT tizimidagi tugunlar (bo‘limlar, foydalanuvchilar, xodimlar, hujjat manbalari);
- E — hujjat yoki axborot oqimlarini ifodalovchi qovurg‘alar (yo‘nalgan bog‘lanishlar).

2. Tizimning dasturiy-apparat parametrlari

DFIT ishlashi uchun zarur texnik resurslar matematik parametrlar shaklida aniqlanadi:

$$P=\{P_s,P_n,P_{sw}\}$$

- P_s — server resurslari (protsessor quvvati, tezkor xotira, saqlash hajmi);
- P_n — tarmoq kechikishi va o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari;
- P_{sw} — dasturiy modullar ishga tushish tezligi, xizmat ko‘rsatish darajasi va integratsiya imkoniyatlari.

3. Iqtisodiy xarajatlar modeli

DFIT tizimi uchun umumiy xarajatlar quyidagicha modellashtiriladi:

$$C_{total}=C_{dev}+C_{impl}+C_{maint}$$

- C_{dev} — ishlab chiqish (dizayn, dasturlash) xarajatlari;
- C_{impl} — joriy etish va sozlash xarajatlari;
- C_{maint} — ekspluatatsiya va texnik xizmat xarajatlari.

4. Ish unumdorligi va sifat ko‘rsatkichlari

DFIT samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi:

$$E=f(T_{resp},Q_{doc},R_{dup})$$

- T_{resp} — tizimning o‘rtacha javob vaqti (response time);
- Q_{doc} — hujjat sifati (rekvizitlar to‘g‘riligi, andozalarga mosligi);
- R_{dup} — axborotdagi takrorlanuvchanlik darajasi.

5. Predmet soha o‘zgaruvchilari

DFIT tizimi muayyan tashkilot (OTM) faoliyatiga moslashtirilgan holda ishlab chiqiladi. Predmet sohaga oid o‘zgaruvchilar:

$X=\{x_1,x_2,...,x_n\}$

bu yerda:

- x_i — foydalanuvchi rollari (mas’ul shaxs, ijrochi, xodim);
- hujjat turlari (buyruq, xat, hisobot va boshqalar);
- ish jarayon bosqichlari (ro‘yxatdan o‘tkazish, tahrirlash, jo‘natish).

6. DFITdagi jarayonlar majmuasi

$$J=\{j_1,j_2,...,j_m\}$$

bu yerda:

- j_1 — hujjatni qabul qilish;
- j_2 — avtomatik andoza tanlash;
- j_3 — ma’lumotni avtomatik to‘ldirish;
- j_4 — umumlashtirish va tasdiqlash;
- j_5 — chiquvchi hujjat shakllantirish.

Matematik model DFIT tizimining ishlash mantig‘i, texnik ehtiyojlari, iqtisodiy samaradorligi, va tashkiliy holatini to‘liq aks ettiradi. Bu model kelgusida:

- tizimni prototiplashtirish;
- samaradorlikni baholash;
- optimallashtirish imkoniyatlarini aniqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bu bosqich DFITni real tizimga aylantirishda ilmiy va texnologik poydevor vazifasini bajaradi.

A3: DFIT dasturiy ta’minotining xarakteristikalarini aniqlash

Ushbu bosqichda DFIT tizimining tuzilmasi hamda uning ishlash ko‘rsatkichlari — ish unumdorligi, ishonchliligi, sifati, foydalanuvchilarga qulayligi va boshqa muhim xususiyatlari aniqlanadi.

Asosiy jarayonlar:

- **Axborot tizimiga qo‘yiladigan talablarni shakllantirish.** Texnik topshiriq va masalaning rasmiy bayoni asosida tizimdan kutiladigan funksiyalar va parametrlar ro‘yxati tuziladi. Bu talablar DFIT dasturiy ta’minotining asosiy standartlari sifatida qabul qilinadi.
- **Dasturlashtirish vositalarini tanlash.** Loyihaning o‘ziga xos xususiyatlari, kerakli samaradorlik va integratsiya imkoniyatlariga mos ravishda dasturlash tillari, ramkalar (frameworks), kutubxonalar va platformalar tanlanadi.
- **Modullarning tuzilishini aniqlash.** DFIT tizimi tarkibidagi har bir modulning funksionalligi belgilab olinadi. Modul uchun kerakli kodlash kutubxonalari va interfeys andozalari ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, modullar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ma’lumot almashish mexanizmlari loyihalashtiriladi.
- **Dasturiy ta’minotning yakuniy xarakteristikalarini shakllantirish.** Belgilangan komponentlar va modullar asosida DFITning dasturiy xususiyatlari to‘liq aniqlanadi. Ushbu xususiyatlar orasida tizimning:
  - ishlash tezligi va samaradorligi,
  - ishonchlilik darajasi (xatoliklardan himoya, tiklanish imkoniyatlari),
  - foydalanuvchi interfeysining qulayligi,
  - moslashuvchanlik va kengaytirilish imkoniyatlari,
  - xavfsizlik choralari mavjud bo‘ladi.

Foydalanuvchi fikrlarini integratsiya qilish mexanizmi. DFIT dasturi foydalanuvchilar tomonidan berilgan taklif va mulohazalarni to‘plab, yangilash va optimallashtirish algoritmini boshqaradi. Bu tizimni doimiy rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhimdir.

Ushbu bosqichda ishlab chiqilgan tavsiflar va talablarga asoslanib, **DFIT dasturiy ta’minotining aniq, puxta va ishonchli xarakteristikalari** shakllanadi, bu esa uning muvaffaqiyatli yaratilib, amaliyotga joriy etilishiga asos bo‘ladi.

A4: DFITning optimal tuzilishi va parametrlarini aniqlash

Ushbu bosqichda yaratilayotgan DFIT tizimining modeli va texnik topshiriq bilan maqsadning muvofiqligi sinovdan o‘tadi.

Jarayon tavsifi:

1. **Dastlabki parametrlarni o‘rnatish.** Strukturaviy-parametrik sintezning birinchi iteratsiyasida tizimning dastlabki yaqinlashish qiymatlari belgilanadi. Bu parametrlar DFITning asosiy elementlari va ularning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi.
2. **Masala chegaralarini tekshirish.** Belgilangan parametrlar va tuzilma asosida tizimning chegaralari va ishlash diapazonlari aniqlanadi, hamda ular texnik va funksional talablar bilan solishtiriladi.
3. **Optimal qiymatlarni hisoblash.** Maqsad funktsiyasi — tizimning samaradorligi, ishonchliligi, iqtisodiyligi kabi mezonlarga ko‘ra baholanadi va ekstremum (maksimal yoki minimal) nuqtasi qidiriladi.
4. **Natijani baholash va tasdiqlash.** Agar topilgan parametrlar barcha boshqaruv cheklovlari va talablariga javob bersa, ushbu optimal qiymatlar DFIT tizimining keyingi dasturiy ta’minot bosqichlariga uzatiladi.
5. **Takroriy iteratsiyalar.** Agar parametr qiymatlarida muvofiqlik bo‘lmasa yoki maqsad funktsiyasining ekstremumiga erishilmasa, avvalgi qadamlar takrorlanadi. Bu jarayon maqsad funktsiyasi maksimal samaradorlikka erishguncha davom etadi.

Ushbu iterativ sintez orqali **DFIT tizimining eng maqbul tuzilishi va parametr qiymatlari aniqlanib,** samarali, ishonchli va talabga javob beruvchi dasturiy ta’minot yaratish ta’minlanadi.

A5: DFIT modullarini ishlab chiqish: DFIT modullari matematik modeli, tuzilmasi va parametrlarning optimal qiymatlari asosida ishlab chiqilgan. Bunda standart modul loyihalash sxemasidan foydalaniladi (2-rasm).



2-rasm. Standart modulli loyihalash sxemasi

Algoritm quyidagi bosqichlardan tashkil topgan:

1. **Ma'lumotlar bazasini yaratish.** Tizim uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi.
2. **Interfeysni dasturlash vositalari yordamida yaratish.** Foydalanuvchilar bilan o‘zaro aloqani ta’minlovchi qulay va funksional interfeys ishlab chiqiladi.
3. **Modul funktsiyalarini tadbiq qilish**
   - Kerakli kodlash kutubxonalari tanlanadi va integratsiya qilinadi.
   - Tegishli modellar yordamida kirishni boshqarish mexanizmlari joriy etiladi.
   - Turli darajadagi murakkablikdagi ma’lumotlarni qidirish vositalari tizimga qo‘shiladi.
   - Ma’lumotlar bazasida ma’lumotnomalar va yordamchi jadvallar to‘ldiriladi.
4. **DFIT modullarini ishlab chiqish.** Yuqoridagi bosqichlar asosida, tizimning funksionalligi va dasturiy ta’minot talablariga mos keladigan namunaviy modullar yaratiladi.

Ishlab chiqish jarayoni yakunlangach:

- Modullar tizimda tuziladi va sinovdan o‘tkaziladi.
- Aniqlangan xatolar, foydalanuvchilarning fikr va takliflari boshqaruv harakati sifatida A3 blokining kirish qismiga yuboriladi.
- Shundan so‘ng, DFITning strukturaviy-parametrik sintezining yangi iteratsiyasi boshlanadi, bu jarayon tizimni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yangi anzolali hujjatlarni shakllantirishda, agar boshlang‘ich hujjatni tashkil etuvchi atribut ma’lumotlar ichki va/yoki tashqi tizimlarda mavjud bo‘lsa, u holda tashqi tizim bilan bog‘lanish mexanizmi talab etiladi. Bu integratsiya DFIT tizimining samarali ishlashida muhim rol o‘ynaydi.

Maxsus shablonlar asosida hujjatlarni operativ yaratish va o'zgartirishni avtomatlashtirish mumkin. Hujjatning axborot tuzilmasini maxsus belgilar yordamida modellashtirish vositalari hujjatning axborot tuzilmasini taqdim etishda yagona yondashuvni amalga oshirish, murakkab hujjatlarni yaratish, shablonlarni ixtiyoriy sozlashni amalga oshirish va ularni dinamik to'ldirishni amalga oshirish imkonini beradi. Hulosa sifatida aytish mumkinki, DFIT ya’ni axborot andozalarini dinamik shakllantirish orqali qisqa vaqlarda shaffof malumotlarni olish imkoni tug’iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi 2022 — 2026 yillarda O’zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ-307-son qarori

2. Пенькова Т.Г. Информационная модель шаблона для автоматизиро ванного формирования документов // Матер. 10-й Всероссийской научно-практической конференции ПИР-2007. Красноярск, 2007. Т. 1. С. 157–163.

3. Нишанов А.Х., Холиқназаров Р.Х. Таълим муассасаларида электрон ҳужжат айланиши // ТАТУ хабарлари – Тошкент, 2009 – № 2 – 105-107 б.

4. Раджабов С.С., Холиқназаров Р.Х., Рўзиқулов А.Р. Программно-алгоритмические аспекты генерации произвольной требуемой информации с заданного множества информационных атрибутов // “Кибернетика масалалари” – Тошкент, 2008 – №177 – С. 94-98.

5.https://financesonline.com/best-electronic-document-management-systems

NEFT SIFAT STANDARTLARI VA MUVOFIQLIKNI BAHOLASH MEZONLARI

[1]N.Yu.Mamasodikova, [2]R. Mamatov
[1]Farg‘ona Davlat Texnika Universiteti,
[2]Farg‘ona Davlat Texnika Universiteti, talaba

Annotatsiya: Ushbu tezisda Neft sifat standartlari va muvofiqlikni baholash mezonlari global va milliy miqyosda ishlab chiqilgan talablar asosida belgilanadi. Ushbu talablar neft mahsulotlarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini, ekologik ta’sirini va ishlatilish jarayonidagi xavfsizlik darajasini tartibga soladi. Neft sanoatida xalqaro standartlar sifatida ISO, ASTM va API normativ hujjatlari asosiy rol o‘ynaydi.Milliy miqyosda esa har bir davlat o‘z qonunchiligi va muvofiqlik baholash tizimiga ega bo‘lib, u neft mahsulotlarining bozor talablari va ekologik me’yorlarga mosligini nazorat qiladi.

Tayanch so‘zlar: Neft, mahsulot, sifat, ta’minlash, ishlab chiqarish, jarayon, xomashyo, Standartlashtirish, Muvofiqlikni baholash, ISO, ASTM va EN standartlari.

Standartlashtirish jarayoni neft mahsulotlarining bir xillik darajasini oshirish, ularning sifati va xavfsizligini ta’minlash hamda xalqaro savdoni yengillashtirish uchun zarurdir. Masalan, ASTM D975 dizel yoqilg‘isi uchun, API 650 esa neft saqlash idishlari uchun standartlarni belgilaydi. Ushbu standartlar mahsulot tarkibidagi oltingugurt miqdori, zichligi, viskoziteti, bug‘lanish darajasi kabi muhim parametrlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, standartlashtirish sifat nazorati tizimlarining samaradorligini oshirish va mahsulotning uzoq muddatli sifatini kafolatlash uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [1-3].

Muvofiqlikni baholash esa mahsulotning belgilangan standartlarga javob berishini aniqlash jarayonidir. Bu jarayon laboratoriya sinovlari, sertifikatlashtirish, inspeksiya va audit kabi usullar orqali amalga oshiriladi. Masalan, neft mahsulotlarining sifatini baholashda oktan yoki setan soni, suv va cho‘kindi miqdori, metallar tarkibi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Har bir muvofiqlik baholash tizimi aniq tartib-qoidalarga asoslangan bo‘lib, xalqaro standartlarga muvofiq ravishda

ishlaydi. Shu sababli, sifat nazorati tizimlari xalqaro bozorda neft mahsulotlarining ishonchliligini oshirishga yordam beradi.

Neft zichligi tekshirgichi neft sanoatida keng qo‘llaniladigan nozik asbob bo‘lib, uning sifati va tozaligini aniqlashga yordam berish uchun uning zichligini o‘lchashga qaratilgan. ASTM D sinov standartiga ko‘ra, neft zichligi tekshirgichi quyidagi sinovlarni amalga oshirishi mumkin:

Muvofiqlikni baholash neft sanoatida sifatsiz mahsulotlar muomalasiga yo‘l qo‘ymaslik va iste’molchilarning huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon mahsulotning ishlab chiqarish bosqichidan tortib, uning iste’molchilarga yetkazilishigacha bo‘lgan barcha bosqichlarini qamrab oladi. Baholash jarayoni xalqaro miqyosda ISO 17025 va ISO 9001 standartlariga asoslanib olib boriladi. ISO 17025 laboratoriya sinovlarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa, ISO 9001 sifat menejmenti tizimini tartibga soladi. Ushbu standartlar ishlab chiqaruvchilar uchun sifat kafolati beruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, neft mahsulotlarining sifati va muvofiqligi ekologik talablar bilan ham bog‘liq. Bugungi kunda ko‘plab davlatlarda ekologik standartlar qat’iylashib, oltingugurt miqdori kamaytirilgan yoqilg‘ilarga talab ortmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqida EN 590 standarti dizel yoqilg‘isining sifat mezonlarini belgilaydi va oltingugurt miqdorini 10 ppm dan oshmasligi talabini qo‘yadi. AQShda esa EPA (Environmental Protection Agency) tomonidan belgilangan normativlar ekologik talablarni qattiq nazorat qiladi. Shu sababli, neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari ekologik muvofiqlikni ta’minlash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga majbur.

Neft sifatini nazorat qilishda foydalaniladigan asosiy laboratoriya sinovlari tarkibiy qismlar, zichlik, yonish harorati va boshqa fizik-kimyoviy xususiyatlarni baholashga yo‘naltirilgan. Misol uchun, ASTM D86 sinovi neft mahsulotlarining distillatsiya xarakteristikasini aniqlash uchun qo‘llanadi. Shu bilan birga, ASTM D445 sinovi viskozitetni baholashda ishlatiladi. Ushbu tahlillar neft mahsulotlarining har xil ish sharoitlarida qanday harakat qilishini oldindan bilish va ularning sifatini kafolatlash uchun muhim hisoblanadi.

Neft mahsulotlarining sifati va ularning standartlarga muvofiqligini baholash jarayoni qator bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda neft xomashyosining tarkibi va uni qayta ishlash natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Sifat nazorati jarayonida har bir mahsulotning xossalari belgilangan normativ hujjatlarga mosligi tekshiriladi. Masalan, benzin sifati ASTM D4814 standarti asosida nazorat qilinadi. Ushbu standart bo‘yicha benzinning bug‘ bosimi, oktan soni, kislorod miqdori, oltingugurt va boshqa aralashmalar tarkibi tahlil qilinishi talab etiladi. Shuningdek, API (American Petroleum Institute) tomonidan ishlab chiqilgan API Gravity ko‘rsatkichi ham neft mahsulotlarining zichligi va tarkibiy xususiyatlarini baholash uchun keng qo‘llaniladi [2-4].

Muvofiqlikni baholash tizimi nafaqat laboratoriya sinovlari, balki sertifikatlashtirish va inspeksiya jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Neft mahsulotlarining xalqaro bozorda erkin aylanmasini ta’minlash uchun ularning sifati ISO, ASTM va EN standartlariga javob berishi lozim. Masalan, aviatsiya yoqilg‘isi ASTM D1655 yoki Def Stan 91-91 kabi xalqaro standartlar bo‘yicha sinovdan o‘tkaziladi. Ushbu standartlar mahsulotning kimyoviy tarkibi, yonish harorati, zaharli moddalar miqdori kabi ko‘rsatkichlarini aniq belgilaydi. Sertifikatlashtirish jarayoni esa mustaqil ekspert tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi va mahsulotning bozorga chiqarilishidan oldin barcha talablar asosida sinovdan o‘tkazilishini kafolatlaydi.

Ekologik jihatdan sifat standartlariga muvofiqlik ham muhim hisoblanadi. Ko‘pgina mamlakatlarda ekologik talablar doimiy ravishda yangilanib borayotgani sababli, neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari chiqindilar miqdorini kamaytirish va zararli moddalar tarkibini minimallashtirishga harakat qilishmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqida EN 228 va EN 590 standartlari atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu talablar neft mahsulotlarining oltingugurt, benzol va boshqa zararli komponentlar miqdorini qat’iy nazorat qiladi. Xuddi shunday, AQShda EPA tomonidan belgilangan Tier 3 standarti oltingugurt miqdorini minimal darajaga tushirishni talab qiladi. Bu esa nafaqat ekologik muvofiqlikni oshirishga, balki avtomobil dvigatellarining uzoq muddat samarali ishlashiga ham yordam beradi.

Neft sanoatida sifat standartlariga muvofiqlikni ta’minlash uchun sifat menejmenti tizimlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ISO 9001 va ISO 14001 kabi xalqaro standartlar bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. ISO 9001 sifat menejmenti tizimi sifatni uzluksiz yaxshilashga qaratilgan bo‘lsa, ISO 14001 ekologik menejment tizimi ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishga asoslangan. Ushbu tizimlar orqali neft mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni doimiy ravishda takomillashtirilib, sifat nazorati yanada kuchaytiriladi. Bundan tashqari, neft kompaniyalari o‘z faoliyatlarini xalqaro standartlarga mos ravishda olib borish orqali global bozorda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi [3-8].

Neft sifat standartlari va muvofiqlikni baholash mezonlari ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Xom neft tarkibida har xil aralashmalar bo‘lishi mumkin, shuning uchun uni qayta ishlashdan oldin sifat jihatidan tahlil qilish zarur. Neft tarkibidagi oltingugurt, azot, kislorod va og‘ir metall miqdori uning keyingi ishlov berish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, oltingugurt miqdori yuqori bo‘lgan neft ekologik jihatdan zararli bo‘lib, uni qayta ishlash uchun qo‘shimcha desulfurizatsiya jarayonlari talab etiladi. Neft sifatini aniqlashda API Gravity, viskozitet, bug‘lanish darajasi va o‘z-o‘zidan alangalanish harorati kabi parametrlar ham muhim ahamiyatga ega. Sifat standartlarini ishlab chiqishda neft mahsulotlarining yakuniy iste’molchiga yetkazib berish shartlari ham e’tiborga olinadi. Masalan, avtomobil yoqilg‘ilari uchun sifat standartlari dvigatel samaradorligi va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari asosida belgilanadi. Euro 6 standarti

avtomobillardan chiqadigan zararli gazlar miqdorini sezilarli darajada kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu standartga mos keluvchi yoqilg‘ilarda oltingugurt miqdori 10 ppm dan oshmasligi kerak. Bundan tashqari, benzin va dizel yoqilg‘ilarining detonaionga qarshi xususiyatlarini baholashda oktan va setan soni muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Oktan soni yuqori bo‘lgan benzin dvigatelning samaradorligini oshirsa, setan soni yuqori bo‘lgan dizel yonilg‘isi yonish jarayonini yaxshilaydi.

Muvofiqlikni baholash tizimlarida sertifikatlashtirish jarayoni mahsulotning belgilangan standartlarga javob berishini tasdiqlovchi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Sertifikatlashtirishning xalqaro darajadagi asosiy hujjatlari ISO, ASTM va EN standartlariga mos keluvchi sertifikatlar bo‘lib, ushbu hujjatlar mahsulotning sifati va xavfsizligi bo‘yicha talablarni belgilaydi. Masalan, neft mahsulotlarini tashish va saqlashda API 653 standarti muhim rol o‘ynaydi. Bu standart neft rezervuarlarining xavfsizligini ta’minlash va ularning mustahkamligini nazorat qilish uchun ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, xalqaro miqyosda neft mahsulotlarini eksport qilish uchun ularning muvofiqligi mustaqil laboratoriyalar tomonidan tekshiriladi va maxsus inspeksiya organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Ekologik talablarni qondirish ham neft mahsulotlari sifatini baholashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, AQShda neft mahsulotlari EPA (Environmental Protection Agency) tomonidan belgilangan ekologik standartlarga mos bo‘lishi shart. Bu talablar tarkibida oltingugurt miqdori past bo‘lgan yoqilg‘ilarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Yevropada esa EN 228 va EN 590 standartlari avtomobil yoqilg‘ilarining ekologik xavfsizligini ta’minlash uchun joriy qilingan. Ushbu standartlarga ko‘ra, benzin va dizel yoqilg‘ilarining tarkibidagi zararli moddalarning miqdori qat’iy nazorat qilinishi lozim. Shu bilan birga, zamonaviy neft sanoati atrof-muhitni himoya qilish va chiqindilarni minimallashtirish maqsadida qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratmoqda. Neft mahsulotlarining sifati va muvofiqligini baholash tizimlari doimiy ravishda yangilanib boradi. Bu, asosan, xalqaro bozor talablarining o‘zgarishi, yangi ekologik me’yorlarning joriy etilishi va texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq. Masalan, avtomobil yoqilg‘isi uchun joriy qilingan yangi ekologik standartlar dvigatellarning yanada samarali ishlashi va chiqindi gazlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan [4-9].

Yevropada Euro 7 standarti muhokama qilinayotgan bo‘lib, bu kelajakda yanada past oltingugurt miqdoriga ega yoqilg‘ilarni ishlab chiqarish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shuningdek, neft mahsulotlarining sifati nafaqat yonilg‘i samaradorligi, balki ularning korroziyaga chidamliligi, qaynash harorati va boshqa fizik-kimyoviy xususiyatlari orqali ham baholanadi. Shu sababli, har bir ishlab chiqaruvchi kompaniya mahsulotlari xalqaro va mahalliy standartlarga mos kelishi uchun doimiy sifat nazorati tizimini yo‘lga qo‘yishi lozim. Neft va uning hosilalarini muvofiqlik baholash laboratoriyalari maxsus uskunalar bilan jihozlangan bo‘lib, ular har bir mahsulotning tarkibini batafsil tahlil qilish imkoniyatini beradi. Masalan, gaz xromatografiyasi usuli

orqali neft mahsulotlarining tarkibida zararli aralashmalar borligi aniqlanadi. Shu bilan birga, infraqizil spektroskopiya va boshqa fizik-kimyoviy tahlil usullari mahsulotning sifati va tozaligini baholash uchun ishlatiladi.

Xalqaro miqyosda ISO 4259 standarti neft mahsulotlarining laboratoriya sinov natijalari aniqligi va ishonchliligini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan. Ushbu standart mahsulotlarning tarkibiy o‘zgarishlarini oldindan aniqlash va ishlab chiqarish jarayonida sifatni barqaror ushlab turishga yordam beradi. Sertifikatlashtirish jarayonida neft mahsulotlari turli muvofiqlik baholash bosqichlaridan o‘tadi. Birinchi bosqichda mahsulot tarkibi laboratoriya sinovlari orqali tekshiriladi. Ikkinchi bosqichda esa mahsulotning fizik va kimyoviy xususiyatlari standartlarga mosligi baholanadi. Uchinchi bosqichda mustaqil inspeksiya organlari tomonidan mahsulotning xavfsizligi va ekologik talablar asosida sinovdan o‘tkaziladi. Masalan, xalqaro savdoda ISCC (International Sustainability & Carbon Certification) kabi ekologik muvofiqlik sertifikatlari talab etiladi. Bu, asosan, atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishish maqsadida joriy qilingan. Neft mahsulotlari eksport qilinayotganda, ularning har bir partiyasi muayyan standartlarga mosligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga yetkazib beriladi.

Sifat nazorati va muvofiqlik baholash tizimlarining samaradorligi ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy neft kompaniyalari sifat menejmenti tizimlarini joriy qilish orqali mahsulotlarining xalqaro bozorda talabgir bo‘lishini ta’minlashga harakat qilmoqda. Masalan, ISO 9001 sertifikatiga ega bo‘lgan kompaniyalar mahsulot sifatini doimiy ravishda nazorat qilib borishi talab etiladi. Shuningdek, ISO 45001 mehnat xavfsizligi menejment tizimi ham neft sanoatida keng qo‘llanilib, ishlab chiqarish jarayonining xavfsizligini oshirishga qaratilgan. Bu kabi standartlar nafaqat mahsulot sifatini yaxshilash, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ham yordam beradi.

Neft mahsulotlarining sifatini ta’minlashda ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichi qat’iy nazorat qilinadi. Neft qazib olish bosqichida xomashyoning tarkibi aniqlanib, uning qayta ishlashga yaroqliligi baholanadi. Masalan, API 12C standarti neft saqlash idishlari va ularning xavfsizlik talablarini belgilaydi. Neftni qayta ishlash zavodlarida esa ISO 29001 standarti joriy qilinib, ishlab chiqarish jarayonida sifat menejmenti tizimi asosida ish olib boriladi. Ushbu standart neft va gaz sanoati uchun maxsus ishlab chiqilgan bo‘lib, xomashyo sifatini saqlab qolish va tayyor mahsulotning talab darajasida bo‘lishini kafolatlaydi. Shu sababli, yirik neft kompaniyalari ishlab chiqarish jarayonini xalqaro talablar asosida tashkil etishga intiladi.

Neftni qayta ishlash natijasida olinadigan benzin, dizel yoqilg‘isi, aviatsiya yoqilg‘isi va boshqa neft mahsulotlarining har biri alohida standartlarga mos bo‘lishi kerak. Masalan, aviatsiya yoqilg‘isi uchun ASTM D1655 standarti mavjud bo‘lib, bu yoqilg‘ining yonish harorati, muzlash harorati va energetik samaradorligi kabi ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Shuningdek, EN 590 standarti dizel yoqilg‘isining

oltingugurt miqdori, setan soni va boshqa muhim parametrlarini tartibga soladi. Bunday standartlar mahsulotning ishlash muddatini oshirish, dvigatellar samaradorligini yaxshilash va ekologik talablarni qondirish uchun zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, neft sanoatida yoqilg‘ining barqaror sifatini ta’minlash uchun har bir mahsulot partiyasi sinovdan o‘tkazilishi lozim.

Muvofiqlikni baholash jarayonida laboratoriya sinovlari eng asosiy usullardan biri hisoblanadi. Neft mahsulotlarining tarkibi, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari va chiqindilari maxsus tahlillar yordamida aniqlanadi. Masalan, viskozimetriya usuli orqali mahsulotning quyuqlik darajasi aniqlansa, spektrofotometriya usuli tarkibidagi zararli moddalar miqdorini o‘lchash imkonini beradi. ASTM D86 distillatsiya sinovi neft mahsulotlarining bug‘lanish xususiyatlarini baholash uchun ishlatiladi, ASTM D93 esa yonish haroratini aniqlash uchun muhim laboratoriya usuli hisoblanadi. Ushbu sinov natijalari mahsulotning belgilangan standartlarga mos kelishini yoki kelmasligini aniqlash imkonini beradi. Neft sanoatida ekologik talablar yildan-yilga qat’iylashib bormoqda. Bu, asosan, global iqlim o‘zgarishi va atmosfera ifloslanishini kamaytirish maqsadi bilan bog‘liq.

Xalqaro miqyosda ko‘plab davlatlar ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun past oltingugurtli yoqilg‘ilarga o‘tishni talab qilmoqda. Masalan, AQShda EPA tomonidan ishlab chiqilgan Tier 3 standarti avtomobil yoqilg‘ilaridagi oltingugurt miqdorini minimal darajaga tushirishni nazarda tutadi. Yevropada esa Euro 6 va kelajakda kutilayotgan Euro 7 standartlari dizel va benzin mahsulotlarining ekologik tozaligini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Shu sababli, neft kompaniyalari uglerod chiqindilarini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etishga majbur bo‘lmoqda.

1. ASTM D1298: Ushbu sinov standarti densitometr yordamida suyuqlik zichligini aniqlash tamoyillari, protseduralari va hisoblash usullarini boshqaradi. Ushbu test barcha turdagi neft va suyuq yoqilg‘ilarga qo‘llaniladi.

2. ASTM D4052: Ushbu sinov standarti raqamli zichlik o‘lchagich yordamida neft va suyuq yoqilg‘ining zichligini o‘lchash usulini belgilaydi. Ushbu sinov standarti har xil turdagi neft mahsulotlariga nisbatan qo‘llaniladi.

3. ASTM D1250: Ushbu sinov standarti densitometr yordamida neft va og‘ir neftning zichligini aniqlashning standart usulini belgilaydi. Ushbu sinov standarti yopishqoqligi 10000 millisekunddan kam bo‘lgan neft va og‘ir moy namunalariga nisbatan qo‘llaniladi.

4. ASTM D5002: Ushbu sinov standarti eritmasiz yoki doimiy harorat sharoitida zichlikni o‘lchash asbobi yordamida chiqib ketish suyuqligining zichligini o‘lchash usulini belgilaydi. Ushbu sinov neft va neft bo‘lmagan suyuqliklarni kesish yoki moylash uchun qo‘llaniladi.

Neft zichligi tekshirgichi neft sanoati va tegishli sohalarda keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yuqori aniqlik, oddiy operatsiya va yuqori sezuvchanlikka ega

asbobdir. Sinov aniqligini ta'minlash va ma'lumotlar ishonchliligini oshirish uchun muntazam texnik xizmat ko‘rsatish va kalibrlashni ta'minlash juda muhimdir.

Xom neft, neft mahsulotlari, gazlar va kimyoviy tekshiruvlar

Neft mahsulotlarining deyarli barchasi neft distillangan neftni qayta ishlash zavodlaridan olinadi. Neftni qayta ishlash zavodlari ularda mavjud bo‘lgan xom neftning sifati va fazilatlaridan kelib chiqib, ehtiyojlarga muvofiq turli xil neft mahsulotlarini ishlab chiqaradilar. Bugungi kunda neftdan eng katta foydalanish energiya hisoblanadi. Turli xil xom neftdan olingan benzin va yoqilg‘i moyi iste'molning muhim shaklidir. Ammo boshqa kimyoviy moddalar neftni qayta ishlash zavodlarida ishlab chiqariladi. Neftni qayta ishlash zavodlarida ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotlar: neft kimyosi mahsulotlari (masalan, plastmassa), dizel moyi, benzin, yoqilg‘i moyi, asfalt, tar, kerosin, gaz moyi va suyultirilgan neft gaz (LPG).

Neft - bu lotin tilidan petra va oleyumning ma'nosini birlashtirib, tosh va moy degan ma'noni anglatadi. Metan, etan va propan gazlari neft aralashmasida to‘plangan. Metrodan qazib olingan neft xom holatda. Yog 'yuqorida aytib o‘tilganlarning ko‘pini ishlab chiqarish uchun qayta ishlanadi [1-6].

Birinchi marta moyni ishlatish IV asrda isitish va yoritish uchun ishlatilgan. Biroq, neft birinchi marta XIX asrning ikkinchi yarmida gaz lampalarida ishlatilgan. O‘shandan beri, ayniqsa avtoulovlarning rivojlanishi bilan, neftning ahamiyati kundan-kunga oshib bordi.

Neftning shakllanishi million yillar davom etadigan jarayondir. Bugungi kunda barcha petol konlari tuproqning chuqur qismida joylashgan.

Bugungi kunning eng muhim energiya manbalaridan biri bo‘lgan xom neft va neft mahsulotlarining sifati va sifatini aniqlash ixtisoslashuvni talab qiladi va nazorat-taftish institutlarining tajribali va ma'lumotli auditorlari ushbu xizmatlarni e'lon qilingan standartlarga muvofiq ravishda taqdim etadilar.

Xom neft, neft mahsulotlari, gazlar va kimyoviy tekshirish asosan quyidagi standartlarga muvofiq amalga oshiriladi:

API standartlari (Amerika neft instituti tomonidan o‘rnatiladigan standartlar)

ASTM standartlari (Amerika sinov va materiallar agentligi tomonidan o‘rnatiladigan standartlar).

ISO standartlari (Xalqaro standartlar tashkiloti tomonidan o‘rnatilgan standartlar).

GOST standartlari (Rossiya Federatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlar) Boshqa tegishli xalqaro standartlar.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. P.Ismatullayev, Sh.Qodirova. Metrologiya asoslari – O‘quv qo‘llanma: 389(075.8)I82, Toshkent Asian book Hause nashriyoti, 2020.-183 bet.

2. U.A.Madmarova. Mahsulot sifatini nazorat qilishni elektromagnit usullari va asboblari. O‘quv qo‘llanma: – Farg‘ona: Classic –nashriyoti, 2021.-236 bet.

3. A.A.Mamajonov, M.O.Sattarov, D.V.Xakimov. “O‘lchash usullari va vositalari”, O‘quv qo‘llanma, “NIF MSH” nashriyoti, Toshkent, 2020. -182-189 betlar.

4. Constantin Codreanu. “Basics of metrology,standardization and electrical measurements” Tutorial. UDK:006.91:621/31(075.8)C60. ISBN:978-9975-63-308-6 // Chisinau - TEHNICA-INFO. South Korea. 2021.

5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 20176.-488 bet.

6. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. – T.: 2017 yil 7 fevral, PF-4947 – sonli Farmoni.

7. F.A.Axmedjanova, Sh.Karimova, D.Mirzaaxmadov. “Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya xizmati”. – O‘quv qo‘llanma. Toshkent, nashriyoti, 2019 yil. - 177 bet.

8. Masharipov SH.M., Ergashev F.A. Metrologiya va standartlashtirish. Uslubiy qo‘llanma − T.: ToshDTU, 2019, 112 б.

9. Miralieva A.K., Bekmurotov Ch.A., Masharipov Sh.M. –T.: ToshDTU, 2018. 94b. Metrologiya asoslari fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun uslubiy ko‘rsatmalar.

SUT VA SUT MAHSULOTLARINI SIFAT VA XAVFSIZLIK KO’RSATKICHLARI TAHLILI

Topvoldiyeva Abduqaxor Abduqodir o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sut va sut mahsulotlarining inson organizmi uchun axamyati uning kimyovi tarkibi, sifat va xavfsizligini ta`minlash, ularga texnik reglamentlar asosida qo`yilgan talablar, ularning orgonaleptik, fizik-kimyoviy va mikrobialagik baholash bilan bog`liq masalalari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** *Sut va sut mahsulotlari sifati va xavfsizligi, kimyoviy tarkibi, yog`lar, oqsil, laktoza, aminokislotalar, texnik reglament, baholash usullari, texnik jihozlar.*

Qishloq xo`jalik hayvonlari suti qimmatli oziq – ovqat hisoblanadi. Chorva hayvonlari sutidan saryog`, pishloq, kazein, qatiq va boshqa maxsulotlar ishlab chiqariladi. Sigir, echki, tuya, suti ko`p iste`mol qilinadi. Hayvonlar sutining tarkibi ularning turi, yoshi, oziqlanishi va saqlanish sharoitiga, laktatsiya davriga, yil mavsumiga qarab o`zgarib turadi. Sut oqsillari asosan, kazein, albumin va globulindan iborat. Shirdon fermenti va kuchsiz kislotalar ta`sirida kazeinning ivish xususiyatida tvorog, pishloq, kazein ishlab chiqarishda foydalaniladi. Biologik xususiyatlariga ko`ra albuminli sut kazeinli sutga qaraganda foydaliroq hisoblanadi. Sut oqsilida hayotiy zarur barcha aminokislotalar, shu jumladan, almashtirib bo`lmaydigan aminokislotalarning to`liq majmui bor. Ayniqsa, sutda lizin, metionin va triptofan

maqbul nisbatlarda mavjud. Oltingugurtli aminokislotalar metioninva sistinga boy. Sut oqsillarini organizm yaxshi o`zlashtiradi.

Sovugan sutda yuzaga ko`tarilgan yog` donachalari qaymoqni hosil qiladi. Sut tarkibidagi laktoza – disaharid, sof oq kristalkukun, turli bijg`ish jarayonlariga asosan kirishadi. Sutda mineral moddalar organik va noorganik kislotalarning tuzlari shaklida mavjud. Sutdagi mineral moddalar mikroelementlar – kalsiy, fosfor, natriy, kaliy, oltingugurt, xlor, magniy va boshqa (100 gramm sutda aksariyat kalsiy – 115 – 130 mg %, fosfor – 95 – 105 mg %), mikroelementlar – rux, mis, marganets, molibden, temir, kumush va boshqalar bor. Sutda vitaminlarning ko`p turi uchraydi. Sut tarkibiga fermentlar (ulardan eng muhimlari – laktoza, peroksidaza, lipaza, amilaza, fosfataza, katalaza), garmonlar (oksitotsin, prolactin, tiroksin, follikulin, adrenalin, insulin va boshqalar), kasalliklarga qarshi immunitet paydo bo`lishiga yordam beruvchi immun tanachalar (antitoksinlar, agglyutininlar, opsoninlar va boshqalar), gazlar (SO2, O2, N2, NH3) kiradi. Sutli bijg`ishni keltirib chiqaradigon bakteriyalar sutning normal mikroflorasini hosil qiladi. Yangi sog`ilgan sut tarkibida antibakterial moddalar (lakteninlar) bo`lgani uchun u bvakteritsid xususiyatga ega. Yangi sog`ilgan sut bakteriyaga chidamliligini 2 – 3 soat saqlaydi, shuning uchun sog`ilgandan keyin sutni darhol 10o dan past haroratgacha sovutiladi, 4 – 6 o da sutni ikki sutka saqlash mumkin. Sut zavodlarda pasterlanadi va qaynatiladi. Pasterlangan sut qaymog`i olinmagan, yog`liligi standart normaga yetkazilgan, vitaminlashtirilgan bo`ladi.

O`zbekistonda sut zavodlarida sutdan separatsiya usulida qaymoq, sariyog` olinadi, pasterlangan va qaynatilgan ichimlik sut, sut kukuni, quyultirilgan (konservalangan), vitaminlar qo`shilgan sutlar va boshqa maxsulotlar ishlab chiqariladi. Sut maxsulotlari sutdan tayyorlanadigan oziq – ovqat maxsulotlaridir. Aksariyat sut maxsulotlari katta energetik qiymatga ega. Sut maxsulotlari asosan, sigir sutidan tayyorlanadi, biroq echki, qo`y, yilqi va tuya suti ham ishlatiladi. Sut sanoati – sutdan turli sut maxsulotlari ishlab chiqaradigan oziq – ovqat sanoati tarmog`i. Sut sanoati tarkibiga sariyog`, sut, qatiq, qaymoq, smetana, quruq sut, sut konservalari, pishloq (sir), tvorog, brinza, muzqaymoq, kazein va boshqa maxsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi. O`zbekistonda 20 – asrning 20 – yillari oxirlariga qadar sutdan xonaki usullarda qaymoq, qatiq, ayron, suzma, qag`anoq, pishloq, qurt kabi maxsulotlar, qatiqni kuvda pishib sariyog` tayyorlangan. So`nggi paytlarda iste`molchilarning haqli e`tirozlariga sabab bo`layotgan muammolardan biri bu- sut va sut mahsulotlarining ayrim turlari belgilangan me`yoriy hujjat talablariga mos kelmayotganligi hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 iyulda 474-sonli qarori bilan “Sut va sut mahsulotlari xavfsizligi to`g`risida”gi umumiy texnik reglament qabul qilingan. Umumiy texnik reglament: - inson xayoti va sog„lig„ini ximoya qilish va sut va sut mahsulotlarining iste`molchilarini chalg`ituvchi harakatlarning oldini olish; - texnik jihatdan tartibga solish qoidalari va prinsplarini amaliyotga joriy etish; - sut va sut mahsulotlariga belgilangan talablar, shu jumladana xavfsizlik talablarini uyg`unlashtirish masalalarini qamrab olgan. Umumiy texnik

Ro‘yxatdagi saratonlarning eng keng tarqalgan turi ko‘krak bezi saratoni bo‘lib, 2023 yilda AQSh da 300 590 yangi holat kutilmoqda. Keyingi o‘rinda prostata saratoni va o‘pka saratoni joylashgan.

Saraton genetikmi ?

Ha saraton irsiy kasallikdir. Bu hujayralarning o‘sishi va ko‘payishini boshqaradigan genlardagi o‘zgarishlar tufayli yuzaga keladi. Hujayralar tanangizning qurilish blokidir. Har bir hujayrada sizning genlaringizning nusxasi mavjut bo‘lib, ular qo‘llanma sifatida ishlaydi.

Saraton kasalligi chastotasi

1. Mo‘g‘uliston - 969.420;
2. Yangi Zelandiya - 438.100;
3. Irlandiya - 373. 700;
4. Vengirya - 368 .100.

Ko‘krak saratoni - bu ko‘krak hujayralarida hosil bo‘ladigan saraton. Teri saratonidan keyin ko‘krak saratoni AQSH ayollarida tashxis qo‘yilgan eng keng tarqalgan va saraton hisoblanadi. Ko‘krak bezi saratoni erkaklarda ham ayollarda ham paydo bo‘lishi mumkin, ammo bu ayollarda ko‘proq. Ko‘krak bezi saratoni haqida xabardorlikni oshirish va tadqiqotlarni moliyalashtirish uchun katta yordam ko‘krak saratoni tashxisi va davolashda yutuqlarni yaratishga yordam beradi [2-4].

Xulosa. Hozirgi kunda atrof muhit tabiatda saraton hujayralarini faolashtiradigan mutagenlar juda ko‘p. Shuning uchun ham qator Yevropa davlatlarida saraton hujayralarini ko‘rsatkichlari o‘sishga davom etmoqda, bularni kamaytirish uchun sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, tog‘ri ovqatlanish, meyoriy uyqu, stress uzoqda bolish kabilarga amal qilsak maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Patologik Anatomiya A.I.Sturuqov ;
2. Patologik Anatomiya Yakubov.V.C ;
3. Patologik Fiziologiya Abdullayev.N.H;
4. https://www.cancer.org ;
5. https:// www.cancer.net ;
6. https://onlinelibery.wiley.com;

MAGNETIK REZONANS TOMOGRAFIYA

I.A.Maxmudov[1], G.K.Azimova[2]
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
[1]M va S kafedrasi assistenti, [2]59-23 BM guruh talabasi

Annotatsiya: Magnit-rezonans tomografiya (MRT) ko‘plab kasalliklar va tibbiy sharoitlarni tashxislash va monitoring qilishda eng foydali vositalardan biriga aylangan ajoyib va yangi texnologiya. MRT tekshiruvidan o‘tish bemorlarni asabiylashtirishi mumkin, chunki u katta kuchli magnitlardan foydalanadi va qo‘rqinchli tovushlarni chiqaradi. Nima bo‘layotganini bilish nervlarni yengillashtirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Radio to‘lqin, paramagnetizm, chastota, to‘lqin energiyasi, impulslar oqimi, magnitlanish, gamma nurlar, to‘lqin uzunligi, faza, magnit maydon manipulyatsiyasi, elektr toki gradienti.

Kirish. MRT tekshiruvida radio to‘lqinlar bemorga uzatiladi va bemor tomonidan so‘riladi. Bu faqat magnit maydonda sodir bo‘lishi mumkin. "Bemorda" bo‘lgan radio to‘lqinlar magnit maydonni manipulyatsiya qilish orqali o‘zgartiriladi va bemor tomonidan bemor atrofidagi qabul qiluvchi bobinlarga qayta uzatiladi. Radio to‘lqinlarning o‘zgarishi ichki organlarning 3 o‘lchovli ko‘rinishini - MRT tasvirini yaratish uchun tahlil qilinishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Amper neytral moddaning ichida magnit maydonni vujudga keltiradigan molekulyar toklar oqadi deb faraz qildi. Molekulyar toklarning magnit maydoni moddaning magnitlashuvi sifatida namoyon bo‘ladi, o‘tkazuvchanlik toklarining magnit maydoniga qo‘shiladi. Doimiy magnitlarning magnit maydoni ham Shunday molekulyar toklarning maydoni sifatida tushuniladi. Molekulyar toklar haqidagi Amper gipotezasi elektrodinamikada unumli natijalarga olib keldi.

Natija va mohokama. Bunday to‘lqinlar paydo bo‘lishi va shu sababli tasvirning hosil bo‘lishiga sabalarni birin ketin ko‘rib chiqaylik: Birinchidan, tabiat ba'zi atomlarning yadrolari magnit bo‘lishini ta'minladi.

MRT uchun mos moddalar

1-jadval

Isotope	Symbol	Spin Quantum number	Gyro Magnetic Ratio (MHz/T)
Hydrogen	^{1}H	1/2	42.6
Carbon	^{13}C	1/2	10.7
Oxygen	^{17}O	5/2	5.8
Fluorine	^{19}F	1/2	40.0
Sodium	^{23}Na	3/2	11.3
Magnesium	^{25}Mg	5/2	2.6
Phosphorus	^{31}P	1/2	17.2
Sulphur	^{33}S	3/2	3.3
Iron	^{57}Fe	1/2	1.4

Hammasi emas, lekin ba'zilari tanada mavjud. Bu magnitlanish juda zaif, u paramagnetizm deb ataladi va yadroning aylanish usuli bilan bog'liq. (Bu temir elektronlar bilan bog'liq bo‘lgan magnitlanishning umumiy turidan farq qiladi). Vodorodning yadrosi bitta protondan iborat. Organizmda juda ko‘p vodorod mavjud - u H_2O suvining bir qismidir.



1-rasm. Vodorod atomi aylanish yo‘nalishi

Ikkinchidan, ular magnit maydonda bo‘lganda, bu atom yadrolari Presessiyadir. Oldindan ishlov berish aylanayotgan va aylanayotgan aylanayotgan tepaga o‘xshaydi. Aylanadigan tepadan farqli o‘laroq, ular “pastga aylanmaydi” va to‘xtamaydilar, ular faqat harakat qilishda davom etadilar.



2-rasm. Pretsesion aylanish

Pretsessiya odatda magnit maydon yo‘nalishi bo‘ylab yoki unga qarama-qarshi bo‘lishi mumkin. (Yuqoriga magnit maydon bilan bir xil yo‘nalish, pastga qarama-qarshi). Ular elektromagnit to‘lqinlarni o‘zlashtirganda (bizning holatlarimizda radioto‘lqinlar) yuqoriga qaragan ba'zilari pastga qaray boshlaydi. Odatda har birining soni teng bo‘ladi, lekin yutilishdan keyin yuqoriga qaraganda ko‘proq pastga ishora qiladi. Nomutanosiblik magnitlanishni beradi va MRT signaliga olib keladi. Ushbu nomutanosiblik 5-20 soniya ichida asta-sekin nolga qaytadi. Eng muhimi, bu presessiyaning chastotasi yadro joylashgan magnit maydonning kuchiga bog'liq. Chastotaning magnit maydon kuchiga nisbati yunoncha “gamma” harfi bilan belgilangan giromagnit nisbat deb ataladi. Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turganidek, u turli xil kimyoviy elementlar uchun farq qiladi.

3-rasm. Chastotaning magnit maydon kuchlanganligiga bog‘liqligi

Bu munosabat juda muhim. Bu shuni anglatadiki, agar siz yadro ko‘radigan magnit maydonning qiymatini o‘zgartirsangiz, uning o‘tish chastotasi ham o‘zgaradi. Yoki boshqacha qilib aytganda, yadro uzatadigan radioto‘lqinlarning chastotasi u joylashgan magnit maydon kuchining juda aniq o‘lchovidir. Hududdagi barcha yadrolar tomonidan uzatiladigan barcha radioto‘lqinlarning kuchi shunday bo‘ladi. Demak, bu fanning asosiy qismi. Biz ko‘rib chiqayotgan yadro sifatida vodorodni olib, bizda magnit maydonda joylashgan fazodagi vodorodning zichligini o‘lchash vositasi va bu hajmdagi magnit maydon kuchini o‘lchashning juda aniq usuli mavjud.

Birinchidan, bemorni qo‘yish uchun bizga katta magnit kerak. Biz bemordan qaytariladigan chastotada radio to‘lqinlarni aniq qabul qila oladigan etarlicha kuchli magnit maydonga ega bo‘lamiz. Quyida ko‘rsatilgan magnit tomonidan ishlab chiqarilgan magnit maydon 1,5 Tesla. (Tesla magnit maydon kuchining birligidir. Malumot uchun Yer magnit maydonining kuchi taxminan 0,00005 Tesla). Shuningdek, shifoxonalarda muntazam foydalanishda 3,0 Tesla magnitlari mavjud. Bunday magnitlar o‘ta o‘tkazgichdan ishlab chiqariladi va ichki qismi juda sovuq bo‘lishi kerak (-269 daraja).

4-rasm. GE Optima 1.5 Tesla MRT tomografiyasi

1,5 Tesla yoki 3,0 Tesla tanlanishining sababi shundaki, yadrolar presessining chastotasi qulay radiochastota diapazonida va radiochastotani juda aniq uzatish va qabul qilish texnologiyasi mavjud. Masalan, 1,5 Tesla uchun chastota 63,8662177 MHz. Bemorga radio to‘lqinlarni yuborish uchun bizga butun FOV bo‘ylab teng ravishda uzatish uchun radio chastota bobinlari kerak. Bemordan qaytarilgan radio chastotalarni aniqlash uchun bizga sezgir qabul qiluvchi bobinlar ham kerak. Bemordan keladigan radio chastotalar o‘zgartiriladi va bir qator chastotalar va fazalar bo‘ylab tarqaladi.

Keyinchalik, bizga FOVdagi magnit maydonni aniq ma'lum tarzda o‘zgartirish uchun vosita kerak. Bu Gradient Coils to‘plami yordamida amalga oshiriladi. Gradient bobinlari magnit maydonni FOVda ma'lum chiziqli tarzda o‘zgartirish uchun maxsus mo‘ljallangan mis bobinlardir. X, Y va Z fazosining uchta yo‘nalishi uchun uchta mustaqil gradient bobinlari mavjud. Gradient bobinlari magnitning markaziy teshigida joylashgan bo‘lib, issiq teshik deb nomlanadi. Radio chastota bobinlari ba'zan gradient bobinlari ichiga joylashtiriladi, lekin tobora ortib borayotgan radio chastotani qabul qilish bobinlari bemorning ustiga o‘ralishi mumkin. To‘liq MRT tizimida gradientga ega quvvat manbalari, radio chastota uzatgichlari va kuchaytirgichlari, radio chastota detektorlari va ko‘plab va ko‘plab dasturlar mavjud. Bu texnikaning mo‘jizalaridan biri bo‘lib, u juda ko‘p turli xil texnologiyalarni o‘z ichiga oladi, ularning barchasi aniqlik va barqarorlik chegarasiga ko‘tariladi.Shunday qilib, endi bizda bemordagi magnit maydonni (Magnit), bemorga radio to‘lqinlarini yuborish vositalarini (Radio-chastota uzatish moslamalari), magnit maydonni o‘zgartirish orqali ushbu radio to‘lqinlarni o‘zgartirish vositalarini ta'minlash uchun komponentlarimiz bor, (Gradient bobinlari) va radio to‘lqinlarni bemordan qaytarib olish vositalari (Radio-chastotani qabul qilish moslamalari). Magnit maydonlarning tabiati shundaki, ularni fazo hajmida hamma joyda har xil kuchga ega qilib bo‘lmaydi. Agar bunday bo‘lmasa, biz FOVning hamma joyida noyob qiymatga ega bo‘lgan magnit maydonni loyihalashimiz mumkin edi va keyin biz qaysi chastota qaysi joydan kelganini bilib olamiz. Biz buni qila olmaymiz, shuning uchun bemorimizdan 3 o‘lchovli ma'lumotni olish uchun ba'zi nafis va ijodiy fokuslarga murojaat qilishimiz kerak.

Xulosa. Skanerlash jarayonida elektr toklari gradient bobinlari orqali tez impulslanadi - bu oqimlar skaner chiqaradigan shovqin uchun javobgardir. Asosan, ulkan tovush o‘tkazuvchi qurilma o‘rnatiladi. Agar skanerdan o‘tayotgan bo‘lsangiz, tashvishlanmang, shovqin juda past bo‘ladi. Bir vaqtning o‘zida radioto‘lqinlar bemorga aniq chastotalarda va aniq vaqtlarda uzatiladi. Gradientlar va radiochastota impulslarining vaqti, kuchi va davomiyligi bemordan orqaga uzatiladigan radioto‘lqinlarni o‘zgartirish uchun javobgardir. Qabul qiluvchining bobini bu o‘zgartirilgan radio to‘lqinlarni aniqlaydi va dasturiy ta'minot chastotalar va ular gradient bobini va radiochastota impulslariga nisbatan qabul qilinganda aniq vaqtni tahlil qiladi.

Shunday qilib, endi siz, printsipial jihatdan, biz radio to‘lqinlarining turli chastotalari orqali “fazoviy lokalizatsiyasini” olishimiz mumkinligini ko‘rishingiz mumkin. Yuqoridagi rasmga qarab, past chastotalar boshga yaqinroq, yuqori chastotalar esa qorin bo‘shlig'iga yaqinroq ekanligini bilamiz. Bemor bo‘ylab maydon qanday o‘zgarishini bilsak, har bir chastota qaerdan kelganini bilamiz.



5-rasm. Radio to‘lqin harakati

Bu yerda gradient bobinlari kiradi. Agar biz Z gradient lasaniga bir oz oqim o‘rnatsak (Z odatda magnit o‘qi bo‘ylab, magnit maydon bilan bir xil yo‘nalishda, bosh-oyoq yo‘nalishi sifatida aniqlanadi) keyin biz quyidagi vaziyatni olamiz:



6-rasm. Inson tanasidan to‘lqinlar qaytishi

Ushbu chastotaning kuchi ushbu mintaqadagi protonlarning zichligini ifodalaydi. Yuqoridagi rasmda biz faqat Z yo‘nalishidagi pozitsiyani aniqlaymiz, bemor bo‘ylab yonma-yon yoki yuqoridan pastga yo‘nalishlarda hech qanday ma'lumotga ega emasmiz. Agar faqat tor chastota diapazonini ko‘rilsa, biz bemor orqali to‘liq bo‘lakda protonlarning umumiy zichligini olamiz, qalinligi biz aniqlashga qaror qilgan chastota diapazoni qanchalik katta yoki kichikligiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. C.Stippich (Ed.) “Clinical functional MRI” Presergical functional neuroimaging.With Contributions by: M. Blatow, C. Delmaire, H. Duffau, M. Eyssen, R. Goebel, F.D. Juengling. Springer Berlin Heidelberg New York;

2. Egamberdiyevich O.K., Malikovna Z.S., Ugli X.M., & Abdusattor Ugli, E.E. (2021). Used for effect interpretation abnormal photo voltage. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 783-786.

3. Власов Е А, Байбаков С Е Атлас нормальной анатомии магнитно резонансной. Moskva 2002

4. J. KAMOLOV, II. ISMOILOV, U. BEGIMQULOV, S. AVAZBOYEV “Elektr va magnetizm” Toshkent 2007.

5. Atakulov, S.B., Zaynolobidinova, S.M., Otajonov, S.M., & Tukhtamatov, O.A. (2011). The penetrability of potential barrier on grain boundaries in semiconductor polycrystals.

6. Uzbekiston Fizika Zhurnali, 13(5), 334-340.

BTL 6000 (LAZERLI APARATI)

I.A.Maxmudov[1], G. Tursunaliyeva[2]
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
[1]M va S kafedrasi assistenti, [2]59-23 BM guruh talabasi

1. Anotatsiya:Ushbu ilmiy ishda tibbiyot sohasida keng qo‘llanilayotgan BTL 6000 lazerli apparatning texnik xususiyatlari, fiziologik ta'siri hamda amaliyotdagi qo‘llanilish jihatlari o‘rganilgan. Lazer terapiyasi fizioterapiyaning ilg‘or yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u davo jarayonida og‘riqni kamaytirish, yallig‘lanishni bartaraf etish, qon aylanishini yaxshilash va to‘qimalarning qayta tiklanishini rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. BTL 6000 lazerli apparati yuqori intensivlikdagi lazer nurlari orqali terapevtik ta’sir ko‘rsatadi va zamonaviy klinikalarda mushak-skelet tizimi, sport jarohatlari, nevrologik kasalliklar kabi turli patologiyalarda muvaffaqiyatli qo‘llaniladi. Ushbu apparat bemorga invaziv bo‘lmagan, xavfsiz va og‘riqsiz muolajani taqdim etadi. Tezis ishida BTL 6000 lazer apparatining texnologik imkoniyatlari, tibbiy amaliyotda qo‘llanilishi, davolash samaradorligi va boshqa fizioterapevtik uslublar bilan solishtirilgan ustunliklari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot fizioterapiyada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha yangi bilim va amaliy tavsiyalarni beradi.

Tayanach so‘zlar: lazer boshliqlari, diagnostika, tibbiyot asboblari, tibbiy uskuna, ultratovush apparati, elektroterapiya asboblari, o‘lchov asboblari, konsol va boshqaruv paneli, aksessuarlar.

Kirish: Zamonaviy tibbiyot texnologiyalari doimiy ravishda rivojlanib borayotgani sababli, bemorlarni dori vositalariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirgan holda, samarali muolajalar bilan ta’minlash imkoniyati ortib bormoqda. Ayniqsa, fizioterapiya sohasida yuqori texnologiyalarga asoslangan lazer terapiyasi keng qo‘llanilmoqda. Lazer nuri biologik to‘qimalarga kirib, hujayra darajasida energiya almashinuvini faollashtirib, regenerativ jarayonlarni tezlashtiradi.

BTL-6000 yuqori intensivlikdagi lazer terapiyasi apparati bo‘lib, sport tibbiyoti, ortopediya va reabilitatsiya sohalarida keng qo‘llaniladi. U 1064 nm to‘lqin uzunligidagi lazer nurlari yordamida to‘qimalarga chuqur kirib boradi (10 sm gacha), bu esa og‘riqni kamaytirish va shikastlangan to‘qimalarning tezroq tiklanishini ta’minlaydi .BTL 6000 lazerli apparati Yevropa mamlakatlarida va dunyoning boshqa rivojlangan hududlarida fizioterapiya klinikalarida keng qo‘llaniladi. Ushbu apparat yuqori intensivlikdagi lazer nurlarini yuborish orqali turli darajadagi mushak og‘riqlari, bo‘g‘im kasalliklari, sport jarohatlari va nevrologik muammolarni samarali davolashga yordam beradi. Unga o‘rnatilgan dasturiy ta’minot yordamida bemorning holatiga mos protokollar tanlanadi va davolash samarasi yuqori bo‘ladi.

Kirish bo‘limida biz lazer terapiyasining nazariy asoslari, uning fizioterapiyadagi o‘rni, shuningdek, BTL 6000 apparatining afzalliklari va innovatsion texnologiyalar asosida ishlashi haqida fikr yuritamiz. Bu texnologiya klinik amaliyotda samarali natijalar ko‘rsatib, bemorlarning reabilitatsiya jarayonini tezlashtiradi.

Asosiy Texnik Xususiyatlari

- To‘lqin uzunligi: 1064 nm
- Quvvat variantlari: 7 Vt, 10 Vt, 12 Vt va 30 Vt
- Ishlash rejimlari: doimiy, impulsli, superimpulsli, uchburchak, ketma-ket va yakka impulsli
- Chuqur kirib borish: 10 sm gacha
- Ekran: 5.7" yoki 8.4" rangli sensorli ekran (modelga qarab)
- Oldindan sozlangan protokollar: 43 dan 61 tagacha
- Xavfsizlik: IV sinf lazer, favqulodda o‘chirish tugmasi, oyoq bilan boshqariladigan pedal, xavfsizlik qulfi
- O‘lchamlari: 320 × 190 × 280 mm
- Og‘irligi: 7–8 kg (modelga qarab)

1. Qo‘llanilishi

- Mushak va pay shikastlanishlari
- Degenerativ bo‘g‘im kasalliklari (masalan, osteoartrit)
- Bel og‘rig‘i va dorsalgiya
- Tendonitlar (Axilles, patellar)
- Uzunlik to‘lqinlari: Turli uzunlikdagi to‘lqinlar (masalan, 810 nm va 980 nm) turli to‘qimalarda va muammolarni davolashda ishlatiladi.

Kuch va energiya darajalari: BTL 6000 lazerli apparati turli kuch va energiya darajalarida ishlash imkonini beradi, bu esa individual davolash rejalarini yaratishga yordam beradi.

2. Foydalanish sohalari:

- Og'riqni boshqarish: Lazer terapiyasi og'riqni kamaytirishda, mushak va bo‘g'imlarda yallig'lanishni pasaytirishda samarali.
- Jarohatlar va tiklanish: Sport jarohatlari, jarrohlikdan keyingi davrda tiklanish jarayonini tezlashtirishda yordam beradi.
- Yallig'lanish kasalliklari: Tendinit, bursit kabi kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi.
- Epikondilit (tennischi tirsagi)
- Karpal tunnel sindromi
- Yelka-karpal sindromiTerapevtik ta'sirlar: To‘qimalarni regeneratsiya qilish, qon aylanishini yaxshilash va metabolizmni rag'batlantirishda foydali.

3. Tizim va interfeys:

• Kengaytirilgan interfeys: Foydalanuvchilar uchun qulay interfeys, parametrlarni oson sozlash imkonini beradi.

Dasturlar: Turli davolash protokollari va dasturlari oldindan o‘rnatilgan, bu esa davolash jarayonini soddalashtiradi.

4. Xavfsizlik va ehtiyot choralar:

• Xavfsizlik qoidalari: Lazer bilan ishlashda ko‘zlarni himoya qilish zarur. Shuningdek, lazer energiyasining kuchini to‘g'ri tanlash muhimdir.

BTL 6000(lazerli aparati

- Afzalliklari
- Yuqori quvvat: An’anaviy lazerlarga nisbatan 50 barobar kuchliroq, bu esa qisqa vaqt ichida samarali natijalarni ta’minlaydi.

- Robotlashtirilgan skanerlash tizimi: 30 Vt modelida mavjud bo‘lib, 1200 sm² gacha bo‘lgan maydonlarni avtomatik ravishda davolash imkonini beradi.
- Intellektual boshqaruv: Terapiyani boshqarish tugmalari bilan jihozlangan qo‘l aplikatori, avtomatik kalibrlash va xavfsizlik tizimlari bilan qulay foydalanish imkonini beradi.
- Afzalliklari:
- Invaziv bo‘lmagan usul: Lazer terapiyasi og'riqsiz va bemor uchun qulay.
- Tez tiklanish: Davolanish jarayoni tez va samarali bo‘ladi, bemorlar tezda faoliyatga qaytishlari mumkin.
- Qo‘llanilishi:
- BTL 6000 lazerli apparati ko‘plab klinikalar, reabilitatsiya markazlari vafizioterapiya muassasalarida qo‘llaniladi. U sport tibbiyotida ham keng tarqalgan.
- Natijalar va samaradorlik:

• Ko‘p hollarda bemorlar lazer terapiyasidan keyin tezkor yaxshilanishlarni his qilishadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, lazer terapiyasi og'riqni kamaytirishda va funktsional tiklanishda samarali.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BTL Industries. *BTL 6000 Series User Manual*. BTL Medical Technologies, 2021.

2. Shirokov, V. A., & Romanova, L. I. *Fizioterapiya asoslari*. Moskva: GEOTAR-Media, 2020.

3. Tunay, V., et al. "The effectiveness of high-intensity laser therapy in patients with musculoskeletal disorders." *Lasers in Medical Science*, 2019.

4. Dautov, R. R. *Lazer terapiyasi: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2022.

5. BTL Medical Technologies. *Clinical Guide: BTL High-Intensity Laser*. BTL, 2023.

TIBBIYOTNI RAQAMLASHTIRISH-ZAMON TALABI

N.Yu.Mamasodikova[1], G.X.Tursunaliyeva[2]
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
[1]M va S kafedrasi dotsenti, [2]59-23 BM guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalar, ularning pandemiya davrida Jahon jamoatchiligi hayotida tutgan tibbiy, ijtimoiy-iqtisodiy roli haqida ma‘lumot berilib, uning asosiy vazifalari ta‘kidlangan. Shuningdek COVID-19 kasalligini to‘g’ri va aniq tashxislashda IT texnologiyalarining ahamiyati,

pulsoksimetriya, elektrokardiografiya, kompyuter tomografiyaning ahamiyat keltirilgan. Shuningdek, kasallikni tashxislashda kompyuter tomografiyaning tipik va ehtimoliy belgilari, mezonlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Interstitsial pnevmoniya, axborot texnologiyalari, pulsoksimetriya, masofaviy ta‘lim, elektrokardiografiya, kompyuter tomografiya, gipoksemiya, yurak ritm buzilishlari.

Аннотатция: В данной статье представлена информация об информационных технологиях, их медицинской, социально-экономической роли в жизни мирового сообщества в период пандемии, а также выделены их основные задачи. Также представлена важность ITтехнологий, пульсоксиметрии, электрокардиографии, компьютерной томографии в правильной и точной диагностике заболевания COVID-19. Также приведены типичные и возможные признаки и критерии компьютерной томографии в диагностике заболевания.

Ключевые слова: Интерстициальная пневмония, информационные технологии, пульсоксиметрия, дистанционное обучение, электрокардиография, компьютерная томография, гипоксемия, нарушения сердечного ритма.

Abstract: This article provides information about information technologies, their medical, socio-economic role in the life of the world community during the pandemic, and highlights its main tasks. Also, the importance of IT technologies, pulse oximetry, electrocardiography, computer tomography in the correct and accurate diagnosis of the disease of COVID-19 is presented. Also, typical and possible signs and criteria of computer tomography in diagnosing the disease are given.

Key words: Interstitial pneumonia, information technologies, pulse oximetry, distance education, electrocardiography, computed tomography, hypoxemia, heart rhythm disorders.

Kirish

Hammamizga ma‘lumki, zamon rivojlanmoqda, taraqqiy etmoqda. Pandemiya sharoiti esa ilm-fan taraqqiyoti tezlashuvi, jadallashuvini taqozo etdi. Axborot texnologiyalari - bu axborotni saqlash, olish va jo‘natish uchun kompyuter tizimlari, saqlash, tarmoq va telekommunikatsiyalardan foydalanish bilan shug‘ullanadigan fan sohasi. IT sektori hozirgi COVID-19 pandemiyasining oldini olish va uni davolashda katta salohiyatga ega [7]. Dunyo 2019- yil dekabridan beri COVID-19 pandemiyasi bilan yuzma-yuz kelmoqda. COVID-19 gumon qilingan bemorlarga o‘z vaqtida va samarali tashxis qo‘yish tibbiy davolanishda muhim rol o‘ynaydi [1]. Darhaqiqat, so‘nggi bir necha yil ichida tashxislash algoritmlari, tibbiy tasvirni tahlil qilishda ajoyib natijalar bilan tasvirni aniqlash vazifalarida sezilarli yutuqlarni namoyish etmoqda [2].

Asosiy qism

Raqamli texnologiya COVID-19ning oldini olish va saqlanish uchun foydalanishdan tashqari, global sog‘liqni saqlash dasturini amalga oshirishga an‘anaviy yondashuvni to‘ldirishi yoki ba‘zi hollarda kuchaytirishi mumkin [3] Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi yangi ishlanmalar, xususan, raqamli texnologiyalar sohasida jamoat salomatligi bilan bog‘liq asosiy funksiyalarni sezilarli darajada yaxshilash potentsialiga ega – masalan, tezlik, ishonchlilik va yuqumli kasalliklarni kuzatish, oldini olish va nazorat qilish imkoniyatlari, ma‘lumotlar yig‘ish va patogenlarni topishni osonlashtirish, shu bilan birga xarajatlarni kamaytirish [5]. Aholi jon boshiga COVID-19 o‘lim darajasi past bo‘lgan mamlakatlar erta kuzatuv, testlar, kontaktlarni aniqlash va qat‘iy karantinni o‘z ichiga olgan strategiyalarni baham ko‘rishadi. Ushbu strategiyalarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muvofiqlashtirish va ma‘lumotlarni boshqarish ko‘lami - aksariyat muvaffaqiyatli mamlakatlarda - raqamli texnologiyani o‘zlashtirish va uni siyosat va sog’liqni saqlashga integratsiya qilish bilan bog’liq [6]. Axborot texnologiyalari ham pandemiya sharoitida yanada rivojlanib, insonlar og‘irini yengil qiladigan asosiy, ustuvor omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Sog‘liqni saqlash sohasi raqamli texnologiyalarni tez joriy etish orqali COVID-19 pandemiyasiga javob bermoqda [4]. Uning pandemiya sharoitidagi yutuqli tomonlari quyidagicha bo‘ldi: Birinchidan onlayn savdoning kuchayishi. Ushbu holat Xitoyda tez sur’atlar bilan rivojlanib, undan boshqa davlatlar andoza oldi. Bu holat virusli infeksiya tarqalishi oldini olishda muhim yechimlarda biri bo‘ldi. Shuningdek, restoranlar onlayn buyurtma olib, yetkazib berishdi. Ikkinchidan, elektron to‘lovlarning ahamiyati. Pandemiya davrida AQSh, Janubiy Korea, Xitoy yirik banklari banknotalar muomalaga chiqarilishidan oldin ularning xavfsizligini kafolatlaydigan turli choralarni joriy etishdi. Hozirgi vaqtda elektron to‘lovlar, ham bank kartalari, ham elektron hamyonlar orqali, COVID-19 tarqalishining oldini olish uchun tavsiya etilgan to‘lov usuli hisoblanadi. Elektron to‘lovlar aholiga onlayn xaridlarni amalga oshirish, tovarlar, xizmatlar, kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish va hatto soliq imtiyozlarini olish imkonini beradi. Uchinchidan, masofadan ishlash ko‘pgina kompaniyalar o‘z xodimlariga uyda ishlashni tavsiya qilishdi. Masofadan ishlashni ta‘minlash uchun VPN (virtual xususiy tarmoqlar), virtual konferensiyalar, jamoaviy ishlash vositalari va hattoki yuzni aniqlash texnologiyalari kabi texnologiyalar uyning maxfiyligini himoya qilish uchun virtual fonlardan foydalanishga imkon beradi. Aytish joizki, koronavirus tarqalishining oldini olishdan tashqari, masofadan turib ishlash yo‘lda sarflangan vaqtni tejashga imkon beradi va xodim uchun ish jadvalida ko‘proq moslashuvchanlikni ta‘minlaydi. To‘rtinchidan, Masofaviy o‘qitish 2020 yil aprel oyining o‘rtalariga kelib, 191 mamlakat maktablar va Universitetlarda o‘qishni to‘xtatganligini e‘lon qildi, bu kamida 1,57 milliard o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘pgina ta‘lim muassasalari karantin choralari bilan ta‘lim jarayonlarini buzmaslik uchun onlayn ta‘lim berishni boshladilar. Beshinchidan, Telemeditsina COVID-19 tarqalishining oldini olishning samarali usuli bo‘lishi mumkin, shu bilan birga

birlamchi tibbiy yordam jarayonlarini to‘liq saqlab qolish mumkin .Biroq, telemeditsina narxi yuqori bo‘lgan mamlakatlar uchun uni tibbiy sug’urta bilan qoplash muhimdir. Boshqa narsalar qatorida, uni amalga oshirish ma‘lum darajadagi texnik savodxonlikni, shuningdek barqaror Internet aloqasini talab qiladi.Raqamli texnologiyalar klinik va laboratoriya xabarnomalarini simptomlarga asoslangan holda identifikatsiyalash va jamoat sinovlari va o‘z-o‘zini tekshirishdan keng foydalanish, shuningdek, sog’liqni saqlash ma‘lumotlar bazalariga hisobot berishni avtomatlashtirish va tezlashtirish orqali to‘ldirishi mumkin [8]. Ishchi kuchi. Sog’liqni saqlash xodimlaridan maksimal darajada foydalanishning asosiy usuli bu COVID-19 bilan bog’liq klinik ko‘nikmalarga ega bo‘lganlarning eng kerakli joyga yuborilishini ta‘minlashdir. Onlayn ishga qabul qilish platformalari ushbu imkoniyatlarni real vaqtda aniqlashga yordam beradi. Nomad Health sayyohlik hamshiralari imkoniyatlari uchun noyob COVID-19 imtiyozlar siyosatiga mos keladigan maxsus ro‘yxat sahifasini yaratdi, bu o‘z ish joyida karantinga qo‘yishni so‘ragan hamshiralarning ish haqi va sog‘lig‘ini qoplashni kengaytiradi [10]. Oltinchidan, Onlayn o‘yinkulgu. Karantin choralari shaxslararo o‘zaro munosabatlarni sezilarli darajada kamaytirgan bo‘lsada, odamlarning ijodiy sa‘y-harakatlari o‘yin-kulgini onlayn sohaga olib keldi. Onlayn kontsert translyatsiyalari butun dunyo bo‘ylab jadal rivojlanmoqda; muzeylar va madaniy meros obyektlari virtual sayohatlarni taklif qilinmoqda. Epidemiya boshlanganidan beri onlayn video o‘yinlar sohasida trafik keskin oshdi.Yettinchidan, 5G va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT).Yuqoridagi barcha texnologik tendentsiyalar barqaror, yuqori tezlikda va arzon internetga tayanadi. 5G masofadan turib kuzatuv va tibbiy maslahat jarayonlarida o‘z ahamiyatini namoyish etmoqda.Ayrim mamlakatlarda 5G tarmoqlari hozirda joriy etilmoqda va mavjud simsiz tarmoqlar bilan solishtirganda, u yuqori ma’lumot uzatish tezligi, katta qurilma ulanishini joylashtirish uchun yuqori sig‘im, past kechikish, yuqori ishonchlilik, yuqori harakatchanlikni qo‘llab-quvvatlash hamda energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi [9].

Hammamizga ma‘lumki, interstitsial pnevmoniyaning provakatorlaridan biri bu koronavirusdir. Ushbu kasallikda inkubatsion davr 2 kundan 7 kungacha, ba‘zan 14 kungacha davom etishi mumkin. Bunda bemorlarda o‘tkir repsirator distress sindrom rivojlanishi mumkin. Bemorlarda umumiy holsizlik, tana haroratining subfebril ko‘tarilishi, tomoq qirilishi va og’rig’i, dastlab quruq yo‘tal,ba‘zida mushaklarda, bo‘g’imlarda og’riq, bosh og’rishi bezovta qiladi. Ayrim bemorlarda giposmiya va disgevziya ham shakllanishi mumkin. Ularda hansirash va gipoksiya belgilari kasallik paydo bo‘lgandan 7 kun keyin rivojlanadi. Uning kuchayib borishi natijasida o‘tkir respirator distress sindrom rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Kasallikning ilk belgilari paydo bo‘lganidan keyin O‘RDS rivojlanishigacha bo‘lgan davr 8 kunni tashkil etadi. Ba‘zi hollarda jarayon faqat dispeptik sindrom: qorinda ko‘chib yuruvchi og’riq, ko‘ngil aynishi, qayt qilish va ich ketishi bilan kechishi mumkin. O‘tkazilgan ayrim tadqiqotlarda koronavirusning RNKsi ekskretsiyalanishi aniqlangan. Kasallik

boshlangandan taxminan 7-14-kun ichida bemorlarda ahvolning qaytadan og’irlashishi kuzatiladi. Kasallikning keng tarqalgan belgilariga isitma, ishtahasizlik, holsizlik kuchayishi, anosmiya (hid bilishning yo‘qolishi), hansirash, yo‘tal, mialgiya (mushaklardagi og’riqlar) kiradi. Kasallik o‘ta og’ir darajada kechganda qo‘zg’alish qiyinlashuvi, parishonxotirlik, yuz va lablarda sianoz, qon aralash yo‘tal, ko‘krak qafasidagi og’riq, leykopeniya, buyrak yetishmovchiligi, isitma bilan kechishi mumkin. Kasallikning yengil kechishida zararlanish faqatgina polimeraz zanjirli reaksiya orqali aniqlanadi, ammo gipoksiya yoki o‘pka zotiljami belgilari kuzatilmaydi. Ayrim bemorlarda tana haroratiningn ko‘tarilishi, yo‘tal, tez charchash, ishtahaning yo‘qligi, hansirash va mialgiya belgilari aniqlanib, kasallik uchun maxsus bo‘lmagan ayrim belgilar: tomoqdagi og’riq , burun bitishi, bosh og’rig’i, diareya, ko‘ngil aynishi va qayt qilish, hid va ta‘m bilishning buzilishi ham kuzatilishi mumkin. Yoshi keksalar va immuniteti past ayrim kishilarda ba‘zan ayrim atipik belgilar, jumladan, umumiy holsizlik, parishoonxotirlik , diareya , ishtahaning pasayishi, tana haroratini me‘yoridaligi yoki pastligi va boshqalar bilan namoyon bo‘ladi. Homilador ayollarda homiladorlik davri asoratlari (hansirash, tana haroratining ko‘tarilishi, oshqozon-ichak tizimidagi shikoyatlar) yoki bosha kasalliklar (bezgak) belgilari COVID-19 belgilariga o‘xshab ketadi. Bunda koronavirus infektsiyasiga tashxis qo‘yishda e‘tibor berilishini talab qiladi.Ushbu kasallikda o‘smirlar va kattalarda o‘pka zotiljami belgilari paydo bo‘lib, bunda tana haroratining 38,5-40,0°Cgacha ko‘tarilishi va isitmalash 10-14-kungacha davom etishi mumkin. Bemorlarda intoksikatsiya belgilari kuchayib borib, dastlab quruq, keyinchalik balg’amli xurujsimon yo‘tal, to‘sh orti sohasida og’irlik yoki noxush sezgi, havo yetishmasligi va hansirash paydo bo‘ladi. Qon zardobida C-reaktiv oqsil ko‘rsatkichi 10mg/ldan oshadi va giperkoagulyatsiya belgilari – giperfibrinogenemiya, protrombin indeksi va D-dimer ko‘rsatkichlari referens miqdorlardan yuqori bo‘ladi. Bolalarda o‘pka zotiljamining yengil kechishi (masalan, tana haroratining ko‘tarilishi, yo‘tal, nafas olishning biroz qiyinlanishi, tez-tez nafas olish) va uning og’ir kechish belgilari deyarli kuzatilmaydi. Tez–tez nafas olish quyidagicha aniqlanadi: 2 yoshgacha bo‘lgan bolalarda 1 daqiqada nafas olishlar soni 60 yoki undan ko‘p; 2-11 yoshlar oralig’ida esa nafas olishlar sonni daqiqasiga 50ga teng yoki undan ko‘p; kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, vaksinatsiyadan keyin ham yurak–qon tomir sistemasi kasalliklari bilan og’rigan bemorlarda kasallikning o‘rta og’ir darajasi uchrashi mumkin. SARSCo-V-2 koronavirusi patogenezida sitokinlar bo‘roni kasallik kechishi va og’irligini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi. Virus bilan zararlangan bemorlarda sitokinlar bo‘roni haddan ziyod yallig’lanish oldi sitokinlarini, ya‘ni IL-1β, IL-6, IL-8, IL-18, IL-33 va boshqalar, shuningdek, xemokinlardan CCL2, CCL3, CCL5, CXCL9, CXCL10 sintezining kuchayganligini kuzatish mumkin. Shu jarayon tezlashishi sababli mahalliy yallig’anish rivojlanadi. Sitokin bo‘ronining salbiy ta’sirini tushunish uchun, avval, ularning normal miqdoridagi vazifasi bilan tanishamiz: Sitokin - bu immun hujayralari tomonidan ishlab chiqarilgan tartibga soluvchi oqsil molekulalarining nomi, begona

moddalar va patogen mikroorganizmlarga qarshi yallig’lanish va hujayra muhofazasi jarayonlarini nazorat qiladi. Odatda ular mo‘tadil miqdorda sintezlanadi organizmga kasalliklarni yengishga yordam beradi. Agar bunday molekulalar virus yoki bakteriyalar bilan reaksiya paytida juda ko‘p hosil bo‘ladigan bo‘lsa, ular tananing o‘z to‘qimalari bilan o‘zaro ta’sirlasha boshlaydi, bu esa sog‘lig‘ining yomonlashishiga va koronavirus belgilari og’irlashishiga olib keladi. Vashington Universiteti olimlari o‘lim xavfi bevosita shular bilan bog’liq, degan xulosasini e‘lon qilganlar.Har yo‘nalishda bo‘lgani kabi, ushbu kasallikning tashxisini aniq qo‘yishda, kasallikning og’irlik darajasini belgilaganda telemeditsinaning o‘rni kattadir. Pandemiya davrida interstitsial pnevmoniya to‘g’ri va aniq tashxislashda kompyuter texnologiyalarining roli nihoyatda katta bo‘ldi. COVID-19 kasalligini tashxislashda asbobiy tekshirishlardan pulsoksimetriya, elektrokardiogramma, o‘pkaning kompyuter tomografiyasi o‘tkaziladi. Pulsoksimetriya orqali qonning kislorod bilan to‘yinganligi-SpO2 aniqlanib, nafas yetishmovchiligi darajasi va gipoksemiya holati baholanadi. Alohida ko‘rsatmalarga qarab, qondagi gazlar tarkibi tahlil qilinadi. EKG tekshiruv esa keksalarda kasallik asorati sifatida shakllanuvchi ritm buzilishlari, shuningdek antibacterial terapiya nojo‘ya ta’sirlarini nazorat qilishda ahamiyat kasb etadi. O‘pkaning kompyuter tomografiyasini kasallik boshlangandan 6-8 kun o‘tib, tekshirish maqsadga muvofiq. Chunki ilk kunlarda, bu metod yetarlicha ma‘lumot bermay, aksincha bemorni ortiqcha nurlanishiga sabab bo‘ladi. O‘pkaning kompyuter tomografiya tekshiruvida bemorlarda COVID-19ga xos belgi - xiralashgan oynal‖ o‘choqlari aniqlanadi. Ushbu o‘choqlar, asosan, periferiyada joylashgan bo‘lib, ba‘zan butun o‘pka bo‘laklarini qamrab olishi mumkin. COVID19ning kompyuter tomografiya xulosasiga ko‘ra belgilari tipik va ehtimoliy bo‘ladi:Tipik belgilari: Ikki tomonlama, asosan, pastki bo‘laklarda periferik, perivaskulyar - xira oynal‖ o‘choqlari, turli shakla va formadagi ko‘p sonli - xira oynal‖ o‘choqlari, zararlanish o‘choqlarida retikulyar o‘zgarishlar, perilobulyar qalinlashish; ehtimoliy belgilari: asosan, pastki bloklarni peribronxial sohasini periferik/markaziy zararlanishi, o‘pka to‘qimasi qalinlashuvi, ortga qaytuvchi o‘zgarishlar.

Xulosa

Pandemiya davrida IT texnologiyalaridan Xolter EKG, Kompyuter tomografiya asosiy tashxislash hamda davo samaradorligini nazorat qilishda yetakchi tekshiruv metodlari hisoblanadi.Pandemiya davrida IT texnologiyalarning umumiy ahamiyati quyidagilardan iborat: onlayn savdo, elektron to‘lovlar, masofadan ishlash, masofaviy ta‘lim, telemeditsina, onlayn ko‘ngil ochar jarayonlar, 5G texnologiyalarning shakllanishi. Tibbiyotda va pandemiya davrida axborot texnologiyalarining o‘rni nihoyatda kata bo‘lib, hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, bu sohaning rivojlanishi davlat rivojlanishi, taraqqiyotining zarur sharti hamda muhim belgisidir. Ular kasalliklarni, virusli infeksiyalarni tarqalishi oldini olishda, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, davolash samaradorligini baholash va orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artificial Intelligence and Medical Internet of Things Framework for Diagnosis of Coronavirus Suspected Caseshttps: //www.researchgate.net/journal/Journal-of-HealthcareEngineering-2040-2309. Ahmed I.M.iskanderani. King Abdulaziz University Department of Electrical and Computer Engineering Doctor of Engineering.

2. How AI in Medical Imaging Services Can Detect Coronavirus Disease? Vikram Singh Bisan.

3. Digital technology applications for contact tracing: the new promise for COVID-19 and beyond? Priscilla N. Owusu .Heidelberg University, Institute of Global Health, Heidelberg, Germany.

4. How the COVID-19 pandemic is favoring the adoption of digital technologies in healthcare: a literature review. Davide Golinelli, Erik Boetto, Gherardo Carullo, Andrea Giovanni Nuzzolese, Maria Paola Landini, Maria Pia Fantini.

5. Digital technologies for the surveillance, prevention and control of infectious diseases A scoping review of the research literature 2015−2019. RAND Europe: Gemma-Claire Ali, Advait Deshpande, Joe Francombe, Akis Gkousis, Emily Ryen Gloinson, Salil Gunashekar, Brandi Leach, Sarah Parkinson.

6. Applications of digital technology in COVID-19 pandemic planning and response. Sera Whitelaw, Prof Mamas A, Prof Eric Topol, Harriette G C Van Spall.AUGUST 2020.

7. Role of Information Technology in Covid-19 Prevention. Mehtab Alam, Dr. Rizwana Parveen, Dr. Ihtiram Raza Khan, Jamia Hamdard, New Delhi, India May 2020.

8. Digital technologies in the public-health response to COVID-19. Jobie Budd, Benjamin S.Miller, Erin M.Manning, Vasileios Lampos, Mengdie Zhuang. London Centre for Nanotechnology, University College London, London, UK Division of Medicine, University College London, London, UK 07 August 2020.

9. The Role of Artificial Intelligence Driven 5G Networks in COVID-19 Outbreak: Opportunities, Challenges, and Future Outlook. Attai Ibrahim Abubakar James Watt School of Engineering, University of GlasgowGlasgow, United Kingdom.

10. Technology‟s Emerging Role in the COVID-19 Response APRIL 15, 2020 B.

ULTRATOVUSH TEKSHIRUV (UZI) APPARATI VA UNING TIBBIYOTDAGI O‘RNI

N.Yu.Mamasodikova[1], Obidov Oyatullo[2]
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
[1]M va S kafedrasi dotsenti, [2]59-23 BM guruh talabasi

Annatatsiya: Mazkur ishda zamonaviy tibbiyotda keng qo‘llanilayotgan ultratovush tekshiruv (UZI) apparatining ishlash prinsipi, tibbiyotdagi ahamiyati va diagnostikadagi o‘rni yoritib berilgan. UZI texnologiyasining inson salomatligini baholashdagi roli, turli kasalliklarni aniqlashdagi aniqligi va noinvaziv usul sifatidagi ustunliklari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, UZI apparatining afzalliklari, qo‘llanish sohalari va rivojlanish istiqbollari ham tahlil qilingan.

Tayanch So‘zlar: Ultratovush, UZI, diagnostika, tibbiy tekshiruv, noninvaziv usul, apparat, sog‘liqni saqlash, vizualizatsiya, texnologiya, tasvirlash.

So‘nggi o‘n yilliklarda tibbiyot sohasi jadal rivojlanib, zamonaviy texnologiyalarning amaliyotga keng joriy etilishi bemorlarni tashxislash, davolash va profilaktika choralarini yanada samarali va aniqlik bilan olib borish imkoniyatini yaratdi. Shu jumladan, **ultratovush tekshiruv (UZI)** texnologiyasi bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan, xavfsiz va ishonchli diagnostik usullardan biri sifatida e’tirof etil [1-4].

UZI apparatlari turli to‘lqin uzunligiga ega bo‘lgan ultratovush signallaridan foydalanib, inson organizmida joylashgan ichki organlar va to‘qimalarning holatini **real vaqt rejimida** aks ettiradi. Bu texnologiya nafaqat tashxis qo‘yishda, balki kasalliklarning kechishini monitoring qilish, jarrohlik amaliyotlarida yo‘naltiruvchi vosita sifatida, hamda onkologik, ginekologik, kardiologik va pediatrik yo‘nalishlarda keng qo‘llaniladi.

Ultratovush to‘lqinlari inson qulog‘i eshitolmaydigan yuqori chastotali (odatda 2 dan 15 MHz gacha) tovush to‘lqinlaridir. Ular tana to‘qimalariga yuborilganda, har xil zichlikdagi tuzilmalarga urilib, aks sado (eko) hosil qiladi va bu aks tovushlar apparat orqali kompyuterga uzatiladi. Hosil bo‘lgan tasvirlar ekranda ko‘rsatiladi va mutaxassis tomonidan tahlil qilinadi. Aynan shu jarayon tufayli UZI noinvaziv, og‘riqsiz, radiatsiyasiz va ko‘p marotaba foydalanishga yaroqli usul hisoblanadi.

Bugungi kunda UZI apparatlarining turlari ham ko‘paygan. Portativ, statsionar, dopplerografik, 3D va 4D ko‘rinishdagi modellari mavjud bo‘lib, ularning har biri alohida vazifalarni bajaradi. Ayniqsa, **doppler UZI** qon tomirlardagi qon oqimi holatini aniqlashda katta yordam beradi, **3D/4D UZI** esa homila rivojlanishini uch o‘lchamli ko‘rinishda tahlil qilishga imkon beradi. Bu esa shifokorlar va bemorlar uchun yanada qulay va ishonchli natijalarni taqdim etadi [2].

Shuningdek, UZI apparatlarining iqtisodiy va tibbiy samaradorligi ham e’tiborga molikdir. Ular nisbatan arzon, foydalanishda qulay va tez natija beruvchi uskunalar sifatida kichik poliklinikalar, viloyat shifoxonalari, hatto mobil tibbiy xizmatlarda keng joriy etilgan. Shuning uchun ham bu texnologiya rivojlanayotgan davlatlar uchun ham maqbul diagnostik yechim bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu ishda ultratovush tekshiruv apparatining ishlash mexanizmi, tibbiy diagnostikadagi o‘rni, texnologik ustunliklari, amaliyotdagi qo‘llanilishi hamda

istiqboldagi imkoniyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, UZI texnologiyasining sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘rni, uning boshqa tekshiruv usullari bilan solishtirilgan afzalliklari ham ilmiy asosda yoritib beriladi. Zamonaviy tibbiyotda tashxis qo‘yishning aniq, tezkor va xavfsiz usullaridan biri bu ultratovush tekshiruvi (UZI) hisoblanadi. UZI texnologiyasi inson organizmida invaziv (ya’ni, organizmga aralashuvsiz) tarzda ichki a’zolar holatini ko‘rish imkonini beradi. Bu usul arzon, qulay va juda keng qo‘llaniladi. Uning yordamida yurak, jigar, buyrak, homiladorlik jarayoni va boshqa ko‘plab organlar holatini tahlil qilish mumkin. UZI — bu zamonaviy tibbiyotda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan, xavfsiz va ishonchli diagnostika vositasidir. U nafaqat kasalliklarni erta aniqlash, balki ularning rivojlanishini kuzatish va davolash samaradorligini baholash imkonini beradi. Texnologik taraqqiyot natijasida UZI qurilmalari yanada ixcham, aniq va ko‘p funksiyali bo‘lib bormoqda. UZI tibbiyotning barcha sohalarida keng qo‘llanilishi orqali inson salomatligini saqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda [3].

UZI apparatining tarkibiy qismlari.

- Generator (transduser) – tovush to‘lqinlarini hosil qiladi va qayta qabul qiladi.
- Monitor – aks ettirilgan tasvirlarni ko‘rsatadi.
- Signal kuchaytirgich – qabul qilingan signallarni kuchaytiradi.
- Kompyuter tizimi – ma’lumotlarni qayta ishlaydi va tasvirga aylantiradi.
- Skanerlovchi datchiklar (sensorlar) – har xil sohalar uchun maxsus datchiklar mavjud (masalan, yurak uchun echokardiografik sensor, ginekologik sensorlar va h.k.).

UZIning tibbiy amaliyotdagi roli

UZI bugungi kunda **birinchi navbatdagi diagnostik vosita** sifatida keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, **tug‘ruqxonalar, poliklinikalar, shoshilinch yordam bo‘limlari** va boshqa kasalxonalarda bu usul kundalik amaliyotda qo‘llaniladi. Shuningdek, UZI vositalari portativ qurilmalar shaklida ham ishlab chiqarilmoqda, bu esa uni uy sharoitida yoki dala sharoitida ham qo‘llash imkonini bermoqda.

Ultratovush apparati inson qulog‘i eshitolmaydigan 1–20 MHz chastotali tovush to‘lqinlarini organizmga yuboradi. To‘lqinlar to‘qimalarga tegib, aks etadi va aks etgan signallar sensor tomonidan qabul qilinib, tasvirga aylantiriladi. Har bir to‘qima yoki a’zo tovush to‘lqinini o‘ziga xos tarzda aks ettiradi, bu esa uni aniqlash imkonini beradi [4-6].

Datchik (sensor) ikki tomonlama funksiyani bajaradi:

- To‘lqin uzatuvchi (generator)
- To‘lqin qabul qiluvchi (priyomnik)

Kompyuter tizimi esa ushbu signallarni kodlab, monitor orqali tasvir shaklida chiqaradi.

Zamonaviy tibbiyotda diagnostika texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir. Ultratovush tekshiruv (UZI) esa ushbu vositalar ichida o‘zining xavfsizligi, samaradorligi va ko‘p yo‘nalishliligi bilan alohida o‘rin egallaydi. UZI apparatlari yordamida inson organizmida sodir bo‘layotgan ko‘plab patologik holatlar erta

bosqichdanoq aniqlanadi, bu esa kasalliklarni samarali davolash imkonini oshiradi. Ayniqsa, ginekologiya, kardiologiya, urologiya, pediatriya, travmatologiya va boshqa ko‘plab sohalarda bu qurilmaning o‘rni beqiyosdir [5-6].

UZI texnologiyasi nafaqat tashxis, balki davolash jarayonida ham muhim vosita hisoblanadi. Masalan, biopsiya vaqtida ignaning to‘g‘ri joyga kiritilishini nazorat qilishda UZI katta yordam beradi. Bundan tashqari, qon aylanishining real vaqtdagi monitoringi yoki to‘qimalardagi shish, yallig‘lanish va boshqa holatlarni tahlil qilishda ham samaradorligi yuqori.

Hozirgi kunda UZI texnologiyasi tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda: 3D va 4D tasvirlash, elastografiya, sun’iy intellekt asosidagi avtomatik tahlil tizimlari, portativ va hatto masofaviy UZI qurilmalari bu sohani yanada qulay va universal qilib bormoqda. Bu esa kelajakda UZI apparatlarining faqat kasalxonalarda emas, balki ambulator va uy sharoitida ham keng qo‘llanilishiga yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi materiallari.
2. “Tibbiyot diagnostikasi asoslari” – Sh. A. Karimov, Toshkent, 2021.
3. WHO – Diagnostic imaging in healthcare (2022).
4. Radiopaedia.org – Medical imaging resources.
5. Ultrasonography journal – Korean Society of Ultrasound in Medicine (2020).
6. Tibbiy texnika va apparatlar. O‘quv qo‘llanma – M. M. Raximov, Toshkent, 2020.

TEZKOR TIBBIY DIAGNOSTIKA TEXNIKALARI: YANGI USULLAR VA ULARNING SAMARADORLIGI

N.Yu.Mamasodikova[1], L.O‘.Risqulova[2]
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
[1]M va S kafedrasi dotsenti, [2]58-23 BM guruh talabasi

Annatatsiya: Tezkor tibbiy diagnostika texnikalari - Ushbu ishda zamonaviy tibbiy diagnostika texnikalari, ularning turlari va amaliyotdagi samaradorligi tahlil qilinadi. An’anaviy usullar (rentgen, ultratovush, laborator tekshiruvlar) bilan bir qatorda, sun’iy intellekt, genomik diagnostika, PET/CT, MR (magnit-rezonans) tomografiya kabi ilg‘or texnologiyalarning afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Yangi usullar orqali kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, davolash natijalarini yaxshilash va bemorlar salomatligini samarali nazorat qilish imkoniyatlari tahlil etiladi. Tadqiqotda turli diagnostika metodlarining aniqlik darajasi, tejamkorligi va klinik amaliyotdagi

qo‘llanilish ko‘lami qiyosiy baholangan. Bu ish tibbiy diagnostika sohasidagi innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: Tibbiy diagnostika, zamonaviy texnologiyalar, kompyuter tomografiyasi (KT), magnit-rezonans tomografiya (MRT), positron emissiyali tomografiya (PET), molekulyar-genetik tahlil, sun’iy intellekt, individual tibbiyot, diagnostik samaradorlik, klinik amaliyot, innovatsion yondashuv, erta tashxis, sog‘liqni saqlash.

Tibbiyot texnikasi predmenti,uning tuzulishi klassifinkasi: Tibbiyot texnikasi-tibbiyotda profilaktik,diognostik va davolash maqsadlarida,shuningdek saniteriya-gigenik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni bajarishda foydalaniladigan texnik vositalarning yig‘indisidir.

Tibbiyot texnikasining rivojlanishi tibbiy texnikaning yangi namunalarini paydo bo‘lisha imkon beradigan fan va texnik rivojlanishi bilan chanbarchas bog‘liqdir.Diagnostika va davolashda yangi yonalishlarning paydo bo‘lishi davolash-proflikatik chora-tadbirlarni ijobiy natijalar bilan amalga oshirishga imkonberadigan yangi texnik vostalarini yaratilishiga shart-sharoitlar yaratiladi [1-3].

”Tibbiyot texnikasi” fanining predmeti inson organizimining normal hayot faoliyatiga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatadigan barcha jarayonlarini muayyan energiya yordamida ta’sir etish va qabul qilish yo‘li bilan o‘rganishdan iborat.

Tibbiyot amaliyotida qo‘llaniladigan elektirotibbiyot apparaturalarini texnik vositalarning umumiy tizimidagi o‘rnini baxolash uchun ular tasnifini ko‘rib chiqish talab etiladi.Barcha tibbiyot texnikasi tibbiyot texnalogiyasi jarayonida bajaradigan vazifasiga ko‘ra to‘rtta asosiy guruxga bo‘linadi;

Apparatlar
Priborlar
Asbob-uskunalar
Jihozlar

Apparat-davolash maqsadlari uchun(fizioterapetik yo‘nalishlarida) mijoz tanasiga muayyan fizikaviy fatogiriflar (elektirik,magnit elektiromagnit,UT,mexanik va h.k) bilan fiziologik ta’sir ko‘satuvchi texnik vositalar (elektiron qurulmalar) bo‘lib hisoblanadi. Apparatlar bemor bilan o‘zoro ta’sirlashuvning yoki bu darajada mustaqil, avtomatizatsiyalashgan jarayoning taminlaydi.Apparatlar diagnostic maqsadlari uchun ham foydalanish mumkin(rengen,UT va h. k apparatlar) [2].

Pribor-diagnostik maqsadlari uchun mijoz tanasidan muayyan energiya ko‘rinishda (elektir, magnit,elektiromagnit,UT, mexanik ta’sir va h.k.) axbarotni oluvchi va qayd qiluvchi texnik moslamalar bo‘lib hisoblanadi .(elektrokardiograf,sfigrmomanometr va boshqalar)

Tibbiyot amaliyoti yoki ilmiy- tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘llaniladigan priborlar va appratlrni birlashtiruvchi terminlar bo‘yicha tibbiyot apparatlaruralari deb ham yuritiladi.

Asbob-bemorga hizmat ko‘rsatish va tibbiyot texnikasi jarayonini taminlash uchun qo‘shimcha ,yordamchi qurulmalar hisoblanadi.

Tibbiyot apparaturasi – tibbiyot texnikasining anchagina murakkab shiddat bilan rivojlanib borayotganda sohasidir. Tibbiyot apparaturaning katta qismini elektiratibbiyot uskunalar va aparatlar tashkil etib, ular elektir energiyasidan foydalanishga asoslangan elektirotexnika yoki elektiron qurulmalardan iboratdir.Bundan tashqari mexanik energiyadan ham foydalanishga asoslangan appar lar mavjud, bularga qattiq tana (odatda uni mexanik aparaturalar yurutiladi)-skeletni cho‘zish uchun mexanoterapiya moslamalari; suyuqlik(gidravlik)-suv bilan davolash moslamalari;gaz-narkoz apparatlari,sun’iy o‘ka ventilyatsiyasi apparatlari va boshqalar kiradi [3].

Tibbiyot unverstiteti talabalar inson organizimini tibbiy texnika jihozlari asbob-uskunalar, pribor va apparatlar yordamida a’zo va turli sistemalarini tashxis usularini amalga oshirishda,davolashga va olgan tibbiy ma’lumotlarni klinik nuqtayi nazorztdan to‘g‘ri va ilmiy asoslangan holda talqin qilishga tayyor bo‘lishi shart.

Foydali yuza koeffitsientini aniqlashda 100×100 mm li sirtni misol uchun olamiz (o‘lchamni qancha katta olinsa, aniqlik shuncha yuqori bo‘ladi, lekin hisoblash qiyinlashadi). To‘rli sirt materialini “Listovaya uglerodistaya stal” deb qabul qilamiz. Hosil bo‘lgan to‘rli sirtning massasini aniqlaymiz. Mavjud to’rli sirtning massaviy tavsiyalarini aniqlash uchun maxsus dastur yordamida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim bo’ldi: Og’irlik markazi: X=0,00, U=-0,13, Z=0,95

Og’irlik markazining asosiy inertsiya o’qlari va momentlari quyidagicha topiladi:

I_{xx}=(0,00, 0,00, 1,00) P_x=0,32 I_{yx}=(1,00, 0,00, 0,00) P_y=4,06

I_{zx}=(0,00, 1,00, 0,00) P_z=4,28

Inertsiya momentlari (kg·m^2) og’irlik markazida aniqlanib, tizimga nisbatan tenglashtiriladi:

L_{xx}=4,06	L_{xy}=0,00	L_{xz}=0,00
L_{yx}=0,00	L_{yy}=4,28	L_{yz}=0,00
L_{zx}=0,00	L_{zy}=0,00	L_{zz}=0,32

Inertsiya momentlari chiquvchi koordinatalar tizimi yordamida hisoblanadi:

I_{xx}=16,29	I_{xy}=0,00	I_{xz}=0,00
I_{yx}=0,00	I_{yy}=16,29	I_{yz}=-1,62
I_{zx}=0,00	I_{zy}=-1,62	I_{zz}=0,54

Yuqoridagi dasturiy hisoblashlardan so’ng ishchi yuza massasini aniqlash imkoniyati paydo bo’ldi.

Mavjud to’rli sirtning massa tavsiflaridan uning zichligi 7858 m^3, massasi 13,33 kg ni tashkil qildi .

Endi teshilgandan keyingi listning yuzasini topamiz. Buning uchun sichqonchada yuzani tanlab olib, “Analizirovat” dagi “Izmerit” ga bosamiz. Ochilgan oynada uning maydoni (“Ploshad”) va perimetri (“Perimetr”) keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, to‘rli sirtning maydoni F_t 842124,4 mm^2 ni tashkil qildi.

Listning teshilishidan oldingi massasi va yuza maydonini topamiz. Yuqorida ko‘rsatilgani kabi qaytadan massasini va maydonini aniqlaymiz Og’irlik markazi: X=0,00, U=-0,13, Z=0,95

Og’irlik markazining asosiy inertsiya o’qlari va momentlari quyidagicha topiladi:

I_{xx}=(0,00, 0,00, 1,00) P_x=0,45 I_{yx}=(1,00, 0,00, 0,00) P_y=5,74

I_{zx}=(0,00, 1,00, 0,00) P_z=6,05

Inertsiya momentlari ($kg \cdot m^2$) og’irlik markazida aniqlanib, tizimga nisbatan tenglashtiriladi:

L_{xx}=5,74	L_{xy}=0,00	L_{xz}=0,00
L_{yx}=0,00	L_{yy}=6,05	L_{yz}=0,00
L_{zx}=0,00	L_{zy}=0,00	L_{zz}=0,45

Inertsiya momentlari chiquvchi koordinatalar tizimi yordamida hisoblanadi:

I_{xx}=23,07	I_{xy}=0,00	I_{xz}=0,00
I_{yx}=0,00	I_{yy}=23,07	I_{yz}=-2,29
I_{zx}=0,00	I_{zy}=-2,29	I_{zz}=0,76

Ko‘rinib turibdiki, to‘rli sirtning massasi M 18,86 kg ni, maydoni F esa 1193805,2 mm^2 ni tashkil qildi.

Foydali yuza F_f ni topish uchun to‘la yuza F dan teshik hosil bo‘lgandan keyingi list yuzasi F_t ni ayiramiz: $F_f = F - F_t = 1193805{,}2 - 842124{,}4 = 351680{,}8$ mm^2, olingan natijalarni (1) ifodaga qo‘yamiz: $k_{f.yu.} = \frac{351680{,}8}{1193805{,}2} \cdot 100\% = 29{,}5\% \cdot$

List massasini nech foyizga yengillashtirganimizni ham aniqlashimiz mumkin, uni oldingi massadan keyingi massani ayrib, oldingi massaga nisbatidan topamiz (odatda, foydali yuza koeffitsientiga mos bo‘ladi):

$$\frac{18{,}86 - 13{,}33}{18{,}86} \cdot 100\% = 29{,}3\% \cdot$$

Demak, biz qabul qilgan to‘rli sirtning foydali yuza koeffitsienti $k_{f.yu.} = 29{,}5\%$ ga teng. Xuddi shu tartibda taklif etilgan simli to‘rli sirtning foydali yuzasini aniqlaymiz.

Taklif etilayotgan simli to‘rli sirtning massasini aniqlash uchun ham maxsus dastur yordamida hisoblashlar bajarildi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan simli to‘rli sirtning massasi M_t 19,75 kg ni tashkil qildi. Diametri 4 mm bo‘lgan simning sirt maydoni F_{sim} 23876,1 mm^2 ni

tashkil qildi. Xomashyo simning ustki yarmi bilan kontaktda bo‘lishini hisobga olib, maydonni F_{sim}=7600 mm^2 deb qabul qilamiz. Bu qiymatni sim qatorlari soniga ko‘paytirsak, simli sirtning yuzasini aniqlaymiz $F_{sim\ to'la} = 7600 \cdot 72 = 547200$ mm^2.

Foydali yuza $F_{f.sim}$ ni topish uchun to‘la yuza F dan teshik hosil bo‘lgandan keyingi simli sirt yuzasi $F_{t.sim}$ ni ayriymiz:



1-rasm. Simning sirt maydoni

$$F_{f.sim} = F - F_{t.sim} = 1193805{,}2 - 547200 = 646605{,}2 \text{ mm}^2,$$

Olingan natijalarni (1) ifodaga qo‘yamiz:

$$k_{f.yu.sim} = \frac{646605{,}2}{1193805{,}2} \cdot 100\% = 54{,}2\% \cdot$$

Demak, mavjud to‘rli sirtning foydali yuza koeffitsienti $k_{f.yu.sim} = 29{,}4\%$ ni, simli sirtniki esa $k_{f.yu.sim} = 54{,}2\%$ ni tashkil qildi. Bu esa iflos aralashmalarni ishchi zonadan tezroq chiqishiga va tozalash samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Parpiyev A., Shoraxmedova M.D., Ochilov M.M. Paxta komponentlarining og‘irlik ulushlarini aniqlash. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, Toshkent, TTESI, 2014, 12-15 betlar.

2. Корабелников Р.В., Иброгимов Х.И. Комплексный показател воздействия очистителя хлопка на хлопок-сырес в протсессе очистки. Журнал Технология текстилной промышленности, №3 (308), 2008, 35-38с.

3. Obidov Avazbek, Akhmadaliyeva Dilnoza, Otaqo’ziyev Donyorjon. Development of an experimental construction of a device for cleaning from small piece of contaminants. NamMTI ilmiy-texnika jurnali. Volume 9, Issue 2, 2024, 202-207 p. (05.00.00; №33).

4. Dilnoza Akhmadaliyeva, Avazbek Obidov. Analysis of the scientific work carried out on the research paper on the cleaning of small impurities from cotton. NamTSI ilmiy-texnika jurnali, 1-T, №1, 2023, 53-57 b. (04.01.2025, №366/4).

5. Obidov Avazbek, Xudayberdiyeva Dilnoza, Xudayberdiyev Nurillo. «Paxtani mayda iflosliklardan tozalashda to’rli yuza deformatsiyasini o’rganish» Xalqaro standartlar asosida maxsulot sifatini ta’minlashda energiya va resurstejamkor zamonaviy texnologiyalarni qo’llashning innovatsion usullari mavzusidagi respublika ilmiy amaliy anjuman. NamMTI 2024 .428-432 betlar.

6. Maftuna Inoyatova, Bahriddin Mirzaboev, Dilnoza Ahmadaliyeva, Shaxnoza Karimova, Mayramxon Abduraximova, Avazbek Sharifjonov. Analysis of Technical-Constructive Capabilities and Problems of Cleaning Aggregates. Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them PTLICISIWS-2. AIP Conference Proceedings. Scopus 2023. 050004-1/ 050004-4. (Scopus)

7. A.A.Obidov, A.D.Axmadaliyeva. «Paxtadan mayda iflosliklarni tozalashda olib borilgan izlanishlar bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy ishlar taxlili». Innovatsion texnika va texnologiyalarni qishloq ho‘jaligi – oziq ovqat tamog‘idagi muommo va istiqbollari mavzusidagi 3- xalqaro ilmiy texnik anjuman. TDTU 2023/1. 146-148 betlar.

SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JORIY ETILISHI VA SAMARADORLIK TAHLILI

[1]Ochilov Murodjon Ashurqulovich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat ishlab chiqarish sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi hamda joriy texnologik transformatsiyalar doirasida yuzaga kelgan yangi muammolar tahlil qilinadi. Tahlillar natijasida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, sun’iy intellekt, IoT va bulutli texnologiyalarning sanoat samaradorligiga ta’siri ko‘rsatilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston misolida ba’zi statistik natijalar asosida amaliy ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sanoat ishlab chiqarish, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, samaradorlik, IoT, sun’iy intellekt, sanoat 4.0.

Kirish. So‘nggi yillarda global sanoat ishlab chiqarish sohasida muhim texnologik burilishlar yuz bermoqda. Bunda, ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayoni sanoat tarmoqlarining deyarli barcha yo‘nalishlariga kirib bormoqda. Sanoat 4.0 kontseptsiyasi asosida avtomatlashtirish, raqamli ma’lumotlar almashinuvi, aqlli tizimlar va real vaqtli monitoring texnologiyalarining joriy qilinishi sanoat unumdorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar, xususan, IoT (Internet of Things), sun’iy intellekt (AI), bulutli hisoblash, katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili va kiberxavfsizlik sanoat ishlab chiqarish tizimlarining ajralmas bo‘lagi bo‘lib bormoqda. Bu texnologiyalar yordamida zavod va fabrikalardagi ishlab chiqarish liniyalari aniq, tezkor va kam xatolik bilan ishlaydi.[4]

Mazkur maqolada aynan shu texnologiyalarning ishlab chiqarishdagi o‘rni, ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi va ularni O‘zbekiston sanoatiga moslashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usuli. Tadqiqotda asosiy maqsad – raqamli texnologiyalarning sanoat ishlab chiqarish tizimlariga ta’siri va ularning samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilandi:

- Raqamli texnologiyalarni joriy etish bosqichlarini o‘rganish
- Sanoat samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlash
- IoT, AI va boshqa ilg‘or texnologiyalarning ta’sirini tahlil qilish
- O‘zbekiston sanoatida raqamlashtirishga oid mavjud holatni baholash

Tadqiqot usuli sifatida iqtisodiy-statistik tahlil, grafik vizualizatsiya, komparativ (taqqoslov) tahlil va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Shu bilan birga, so‘nggi 5 yillik davrda sanoat samaradorligining indekslari asosida trend tahlili amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Sanoat ishlab chiqarish tizimlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish odatda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Jarayonlarni tahlil qilish va raqamli transformatsiyaga tayyorgarlik
- Raqamli tizimlar (sensorlar, IoT qurilmalari) ni joriy etish
- Axborot tizimlari va avtomatlashtirilgan boshqaruvni integratsiyalash
- Ma’lumotlar tahlilini amalga oshirish (AI va Big Data)
- Uzluksiz monitoring va optimallashtirish

Sanoat samaradorligi va raqamlashtirish

Pastda keltirilgan grafikda 2018–2023 yillarda raqamlashtirish jarayoni davomida sanoat samaradorligi indeksi tasvirlangan.



1-rasm. 2018–2023 yillarda sanoat raqamlashtirishining samaradorlik indeksi

Ko‘rinib turibdiki, 2018-yilda 100 indeks deb olinsa, 2023-yilda u 160 ga yetgan. Bu esa 5 yil ichida 60% o‘sish demakdir. Bu o‘sishning asosiy sabablari quyidagilar:

- Zavodlarda sun’iy int ellektga asoslangan monitoring tizimlarining joriy qilinishi
- IoT qurilmalari orqali real vaqtli nazorat
- Raqamli ishlab chiqarish liniyalari va avtomatlashtirilgan robotlar.

Raqamli texnologiyalarning afzalliklari

Raqamli texnologiyalar quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- Samaradorlik oshishi: Real vaqtda monitoring va avtomatlashtirish ishlab chiqarish vaqtini qisqartiradi.
- Xarajatlarni kamaytirish: Prediktiv tahlil uskunalar nosozliklarini oldindan aniqlaydi.
- Sifat yaxshilanishi: Intellektual tizimlar mahsulot nuqsonlarini kamaytiradi.
- Moslashuvchanlik: Bozor talablariga tez moslashish imkoniyati.
- Xavfsizlik: Xavfli vazifalarni avtomatlashtirish orqali ish joyi xavfsizligini oshirish.

Afzallik	Ta’siri	O‘lchov ko‘rsatkichi
Samaradorlik oshishi	Ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish	Ishlab chiqarish hajmi o‘sishi (%)
Xarajatlarni kamaytirish	Nosozliklar va uzilishlarni kamaytirish	Operatsion xarajatlarning kamayishi (%)
Sifat yaxshilanishi	Mahsulot nuqsonlarini kamaytirish	Nuqsonlar sonining kamayishi (%)

Moslashuvchanlik	Moslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish	Bozor talablariga javob berish vaqti (soat)
Xavfsizlik	Ish joyidagi baxtsiz hodisalarni kamaytirish	Baxtsiz hodisalar sonining kamayishi (%)

Raqamli texnologiyalarning afzalliklari va ta’siri

O‘zbekistonda raqamlashtirish istiqbollari

O‘zbekiston sanoatida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi hozircha cheklangan bo‘lsada, ayrim korxonalarda bu borada sezilarli natijalar mavjud. Masalan, neft-gaz sanoati, kimyo sanoati va elektrotexnika sohalarida real vaqtli monitoring va masofaviy boshqaruv texnologiyalari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.[3]

Tadqiqot natijalari va ularning chuqur muhokamasi.

Yuqoridagi grafikdan ko‘rinadiki, yillar davomida nafaqat samaradorlik indeksi, balki raqamlashtirilgan korxonalar soni ham keskin ortib bormoqda. Bu esa sanoat ishlab chiqarish tizimlarining tobora ilg‘or texnologiyalarga asoslanib borayotganini anglatadi.

Statistik jihatdan olaylik, agar 2018-yilda atigi 120 korxona raqamli tizimlar bilan jihozlangan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich **510 taga** yetdi, bu esa **325% o‘sish** degani. Shu davrda samaradorlik indeksi esa 60% ga oshdi.

Bundan kelib chiqadiki, har yili raqamlashtirilgan korxonalar sonining o‘sishi bilan sanoat samaradorligining ortishi o‘rtasida **korrelyatsiya** mavjud. Bu korrelyatsiyani tahlil qilishda quyidagi faktorlarni inobatga olish zarur.[3]

- Raqamli tizimlarning mehnat unumdorligiga ta’siri
- Jarayonlar avtomatlashuvi orqali vaqt va resurslar tejalishi
- Yangi texnologiyalar orqali nosozliklar kamayishi va sifat nazoratining kuchayishi

Raqamli transformatsiyaning nazariy asoslari.

Sanoat ishlab chiqarishda raqamli transformatsiya faqat texnik innovatsiyalar emas, balki butun boshqaruv, ishchi kuchi va iqtisodiy modelni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Bu jarayon quyidagi nazariy yo‘nalishlarga asoslanadi:

- Kiber-fizik tizimlar (CPS): Moddiy jism va raqamli tizimlar integratsiyasi orqali aqlli ishlab chiqarish tashkil etiladi.
- Sanoat 4.0 paradigmasi: IoT, AI, bulutli xizmatlar, robotlashtirish va real vaqtli ma’lumotlar tahlili asosida ishlab chiqarishni boshqarishning yangi modeli.
- Lean Manufacturing va Just-In-Time: Raqamli texnologiyalar ushbu modellarga qo‘shimcha ravishda real vaqtli monitoring va moslashuvchan boshqaruvni qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu yondashuvlar aynan zamonaviy sanoatning innovatsion taraqqiyotini boshqarishda asosiy nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistondagi real holat va imkoniyatlar.

O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining texnologik modernizatsiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.[3]

- Texnoparklar va innovatsion zonalar tashkil etilishi
- ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarining joriy etilishi
- Kichik va o‘rta korxonalarni raqamlashtirishga subsidiyalar ajratilishi
- Xalqaro hamkorlik orqali texnologik transferlar

Masalan, yirik korxonalarda Siemens, ABB, Bosch kabi kompaniyalarning raqamli monitoring tizimlari tatbiq etilgan. Bu usul real vaqtli axborot oqimini boshqarish, texnologik uzilishlarning oldini olish va operatsion samaradorlikni oshirishda katta imkoniyat yaratmoqda.[5]

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Sun’iy intellekt, IoT, bulutli texnologiyalar va katta ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyati sanoat tarmoqlarining moslashuvchanligini oshiradi, resurslardan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1]Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum. (2016).
[2]Statista "Smart Factory Adoption Rate Worldwide 2018-2023".(2023).
[3]O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hisobotlari, 2022–2023.
[4]Yu, L., & Liu, Y. "Digital Transformation in Industrial Systems". Journal of Industrial Tech. (2021).
[5]Siemens Digital Industries. ("The Rise of Smart Manufacturing".2022).
[6] Mallayev A. R., Jurayev F. D., Ochilov M.A., Raqamli boshqarish tizimlari. OUYlari uchun darslik. -Q.:”INTELLEKT”, 2023y. -269 b.

QISHLOQ XO‘JALIGI KOMPLEKSINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JALB QILISH ORQALI AVTOMATLASHTIRISH

Fozilov Xayot Raximovich, Farg`ona davlat texnika universiteti, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o`qituvchisi.
Fozilov Ibroximjon Raximovich, Farg`ona davlat texnika universiteti, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi katta o`qituvchisi.

Annotasiya. Qishloq xo'jaligi va uni ayni damda rivojlantirish masalasi har doimo ham baxs va munozarali masalalardan biri bo`lib kelgan. Kundalik iste`mol tovarlarining asosiy qismi ushbu soha zimmasiga to`g`ri kelishi hech kimga sir emas. Maqolada qishloq xo`jaligini rivojlantirish, sohaga innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, uning ahamiyati va zarurati, afzalligi va hosildorlikni oshirishda eng muhim omil ekanligini ko'rsatadigan tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Shu bilan birga xorijiy

davlatlar tajribalariga ham qisqacha to`xtalib uning iqtisodiy samaradorligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo`jaligi, innovatsion texnologiyalar, uning turlari, ahamiyati, u bilan bogliq muammolar, bartaraf qilish yo`llari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish.

Qishloq xo‘jaligi kompleksi insoniyat taraqqiyotining eng qadimiy sohalardan biri bo‘lib, milliy iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlikda beqiyos o‘rin tutadi. Raqamli iqtisoiyotning tez sur’atlarda o‘sishi, ekologik muammolar, yer resurslarining cheklangani va iqlim o‘zgarishlari sababli qishloq xo‘jaligi ilg‘or, samarali va barqaror texnologiyalarni talab qilmoqda. Bu esa sohaga innovatsion texnologiyalar ahamiyatini keskin oshiradi. Ular nafaqat hosildorlikni oshiradi, balki resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik va mahsulot sifatini yaxshilashda ham katta rol o‘ynaydi.

“2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida “ gi 60-sonli Prezident Farmonining 30-maqsadida qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog‘lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarni 2 baravar ko‘paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish vazifasi mavjud. Farmonda suv resurslaridan samarali foydalanish hisobiga kamida 7 milliard kub metr suvni iqtisod qilish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 1,5 — 2 barobarga oshirish maqsadlari qo`yilgani ham quvonarlidir.**[1]**

Hozirgi vaqtda sug‘oriladigan yerlarning faqatgina 1,7 foizida tomchilatib sug‘orish joriy etilgan.Dehqonchilikning irrigatsiyaga yuqori darajada bog‘liqligi sababli an’anaviy sug‘orish uslublarini qo‘llashning davom etayotganligi hamda iqlim o‘zgarishi natijasida qurg‘oqchilikning keskin kuchayishi bilan vaziyat yanada murakkablashishi mumkin.

Jahon resurslari institutining prognoziga ko‘ra, 2040-yilga borib O‘zbekiston suv tanqisligi eng yuqori bo‘lgan 33 ta mamlakatning biriga aylanadi. Hosildorlikning kamayishi oziq-ovqat xavfsizligi va to‘lov balansi uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, bu esa suv resurslarini barqaror boshqarish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash zaruratini yuzaga keltiradi. **[2]**

Innovatsion texnologiyalar bu – yangilik kiritilgan, ilg‘or texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar, axborot-kommunikatsiya vositalari va ilmiy-texnik yutuqlarga asoslangan yechimlar bo‘lib, ular qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- Avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari – suvdan tejamkor foydalanish imkonini beradi.
- GPS va GIS tizimlari – yerlarni xaritalash, ekin maydonlarini nazorat qilish uchun.

- Dronlar – havo kuzatuvi, o‘simliklar holatini baholash, o‘g‘it va pestitsidlar purkashda.
- Agrobotlar – avtomatik ravishda yig‘im-terim ishlari va boshqa agrotexnik vazifalarni bajaradi.
- Sun’iy intellekt – hosildorlikni tahlil qilish, kasalliklarni erta aniqlash va prognozlashda ishlatiladi.
- Sensorlar va IoT qurilmalari – tuproq namligi, harorati, o‘simliklar holatini real vaqt rejimida o‘lchaydi.

Fikriizcha zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi qishloq xo‘jaligi korxonalarida bir qator ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi:

1. Ishlab chiqarish samaradorligi ortadi. Avvalgi an’anaviy usullarga nisbatan, texnologik yondashuvlar orqali bir necha barobar yuqori hosil olish mumkin bo‘ladi. Masalan, dronlar va sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar ekinlarni optimal holatda yetishtirishga yordam beradi.
2. Resurslardan samarali foydalanish.Suv, urug‘, o‘g‘it, ishchi kuchi kabi resurslar aniq miqdorda va o‘z vaqtida qo‘llaniladi. Bu esa chiqindilarni kamaytiradi va xarajatlarni optimallashtiradi.
3. Atrof-muhitni muhofaza qilish. Zamonaviy texnologiyalar pestitsid va kimyoviy moddalardan foydalanishni kamaytirish orqali ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi.
4. Mehnat samaradorligini oshirish. Og‘ir va ko‘p vaqt talab qiladigan ishlarda robotlar, sensorlar va avtomatlashtirilgan uskunalar inson mehnatini yengillashtiradi.
5. Kasalliklar va zararkunandalarga qarshi samarali kurash. Dronlar va sun’iy intellekt tizimlari orqali ekinlarda erta bosqichda muammolar aniqlanadi va aniq chora ko‘riladi.

Shu o`rinda qishloq xo`jaligining qaysi sohalariga va aynan qanday innavatsion texnologiyalar qo`llanilmoqda? –degan o`rinli savol tug`ilioshi tabiiy. Innovatsion texnologiyalar qo‘llanilayotgan sohalar haqida qisqacha fikr yuritsak.

1. Dehqonchilik:
Zamonaviy traktorlar, GPS texnologiyasi, raqamli xaritalash, dronlar, tuproq sensorlari va avtomatik sug‘orish tizimlari dehqonchilikda qo‘llanilib, optimal hosildorlikka erishish imkonini bermoqda.
2. Chorvachilik:
Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan monitoring tizimlari orqali hayvonlarning sog‘lig‘i, ovqatlanish rejimi va nasldorligi kuzatib boriladi. Genetik tahlillar esa naslni yaxshilashga xizmat qiladi.
3. Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligi:
Issiqxonalarni avtomatlashtirish, iqlim nazorati, LED yoritgichlar, hidroponika va boshqa texnologiyalar har qanday mavsumda samarali mahsulot olish imkonini bermoqda. **[3]**

Har qanday faoliyatning yakuniy natijasi yoki samarasi bo`lgani kabi qishloq xo`jaligi korxonalariga innovatsion texnologiyalarni jalb qilish orqali quyiagi

natijalarga ega bo`linadi:
- Ishlab chiqarish hajmi oshadi;
- Mahsulot tannarxi kamayadi;
- Bozor talabiga mos mahsulot yetishtiriladi;
- Eksport salohiyati ortadi;
- Investitsion jozibadorlik oshadi.

Masalan, raqamli texnologiyalarni joriy qilgan bir fermer xo‘jaligi 1 gektardan olingan hosilni 30-40% ga oshirgan bo‘lsa, avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimi suvdan foydalanishni 50% gacha kamaytirgan.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish va innovatsiyalarni keng joriy etish bo‘yicha qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Jumladan:
- “Smart agriculture” konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda;
- Qishloq xo‘jaligi dronlari va sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida monitoring tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda;
- Agrar texnoparklar va inkubatorlar tashkil etilmoqda;
- Xalqaro grantlar va kreditlar jalb qilinmoqda.

Kelgusida esa agrotexnologiyalarning eksportga yo‘naltirilgan modeli, agrostartaplar qo‘llab-quvvatlanishi, ilm-fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish orqali innovatsion taraqqiyotga erishish rejalashtirilmoqda.

Shuni ta`kidlash joizki, yutuqlar haqia qancha gapirmaylik sohada aytish lozim bo`lgan ba`zi bir muammolar ham mavjud. Bular:
- Moliyaviy mablag‘ yetishmovchiligi – texnologiyalarni xarid qilish har doim ham arzon emas.
- Malakali kadrlar yetishmasligi – zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash uchun maxsus tayyorgarlik talab etiladi.
- Axborot yetishmasligi – dehqon va fermerlar orasida texnologiyalar haqida to‘liq bilimlar yo‘qligi.

Balkim, ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat tomonidan subsidiya va grantlar ajratilishi, qishloq xo‘jaligi texnologiyalari bo‘yicha o‘quv markazlari tashkil etishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish va texnologiyalarni ichki bozorga moslashtirish lozim bo`ladi.

Qishloq xo`jaligi kompleksida innovatsion texnologiyalarni qo`llash orqali ko`proq ijobiy natijalarga erishayotgan xorijiy davlatlarning boy tajribalarini sohaga jalb qilish yanada ko`proq naf keltiradi. AQSh qishloq xo‘jaligining samaradorligi bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi, bu sohada mamlakat ishchi kuchining atigi 2 foizi ishlaydi. Gollandiyada “raqamli texnologiyalar” qishloq xo‘jaligida keng qo‘llaniladi, jumladan qishloq xo‘jaligining turli xil jarayonlarni boshqarishda yordam beradigan “Internet buyumlari” (IoT) dan foydalaniladi. Isroilda suo‘orish suvining keskin tanqisligini hisobga olib, dasturiy ta’minot, sug’o‘orish tizimlari, innovatsion yig’im-terim uskunalari orqali joriy etishning yuqori intensivlik va samaradorlikga

erishildi. Koreya Respublikasida qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish tajribasi noyobdir va rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va innovatsion agrar tizimni shakllantirishda foydalanish mumkin. **[4]**

Innovatsion texnologiyalar qishloq xo‘jaligida yangi davrni boshlab bermoqda. Ular ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, atrof-muhitni asrash, inson mehnatini yengillashtirish va qishloq joylarda barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Har bir fermer, agrar tadbirkor va mutasaddi tashkilot bu imkoniyatlardan foydalanishga intilishi zarur. Faqat shundagina, biz oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlab, iqtisodiy va ekologik barqarorlik sari dadil qadam tashlaymiz. Shunday ekan, texnologiyalarni qishloq xo‘jaligiga tatbiq etish, bu sohaga innovatsion yondashuvlar kiritish – kelajak uchun eng to‘g‘ri yo‘ldir. **[5]**

Xulosa qilish mumkinki, qishloq xo'jaligida istiqbolli yuqori texnologiyalar kelajakka sakrash va chegaralar bilan harakat qilmoqda. Ular fermerlarga xarajatlarni optimallashtirish, qishloq xo'jaligini boshqarishni soddalashtirish va hosildorlikni oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarida katta yordam taklif qilmoqdalar. Hosildorlikni oshirish, shuningdek texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish rentabellikni oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, texnologiyadan foydalanish har qanday jarayonni tezroq, qulayroq va sifatli qilish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligida turli xil innovatsion platformalardan foydalanish tufayli nafaqat mahsulot sonining o'sishi, balki uning sifati ham yaxshilanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi ПФ-60-son farmoni.
[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g’risida»gi PF-5853-son Farmoni
[3]. Khalima A., Markhamat K., Malika M. DEVELOPMENT OF HARDWARE AND SOFTWARE COMPLEX FOR MONITORING SYSTEM OF AGRICULTURAL CROPS //Universum: технические науки. – 2022. – №. 9-5 (102). – С. 5-7. URL:

EKOLOGIK BARQARORLIKNI SAQLASHDA INTELLEKTUAL BOSIM DATCHIKLARIDAN FOYDALANISH

Obidov Jamshidbek G‘ayratjon o‘g‘li
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent.
Farg‘ona davlat texnika universiteti, Metrologiya va standartlashtirish kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Talabalarga global iqlim o‘zgarishi sharoitidagi ekologik barqarorlikni saqlashda intellektual bosim datchiklaridan foydalanish usullarini tahlil qilishni o‘qitish jarayonini olib borishning samarali jihatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. intellektual o‘lchash texnikasi, ekologik barqarorlik, zamonaviy usullar, suv tanqisligini ta’minlashda intellektual datchiklardan foydalanish, mustaqil ta’lim.

KIRISH. Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida va bosqichlarida tabiat bilan o‘zaro muvozanatda, bir biriga bog‘liq ravishda rivojlanib kelgan. Yaqin tarixda boshqa sohalarda o‘zaro dunyo xalqlari o‘rtasida bo‘lgani kabi ekologik sohada ham integratsiyalar muhim ahamiyatga ega. Bizning davrimizda atrof-muhit barqarorligini saqlash, bunda xalqaro hamjamiyat tajribasini o‘rganish ayniqsa muhimdir. [1; 60-b].

Bugun o‘lchash vositalarining katta miqdori ilmiy tadqiqotlar natijalarining ishonchliligini, texnologik va axborot jarayonlarini tekshirish va boshqarish tizimlarining samaradorliligini, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarni, tibbiy tashxislar to‘g‘riligini, energetik, transport tizimlari ishlarining xavfsizligini va moddiy boyliklarni hisobga olishni ta’minlagan holda insonlarga xizmat qilmoqda. Metrologik ta’minot doirasiga inson faoliyatining tobora ko‘p ob’yektlari jalb etilmoqda, o‘lchash vazifalari kengroq va xilma-xil bo‘lib bormoqda. O‘lchash texnikasi aniqligi, barqarorligi, tez harakat qilishiga qo‘yiladigan talablar uzluksiz ortmoqda. Metrologik ta’minot tabiatda amalda bo‘lgan qonuniyliklarni ochgan holda atrofdagi moddiy olamni tavsiflaydi. Hozirgi vaqtda hech bir mutaxassis ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni sifatli tavsiflaydigan aniq Metrologik ta’minotsiz tasavvur qilmaydi. Muammo qanchalik murakkab bo‘lsa, uning yechimida Metrologik ta’minot tizimining ahamiyati shunchalik katta.

Bugungi kunda metrologik ta’minot natijalari foydalanilmaydigan inson faoliyati doirasi yo‘q. Ishonchli o‘lchash axboroti xalq xo‘jaligi boshqaruvining barcha darajada iqtisodiyot va tekshiruvning asosi bo‘lib hisoblanadi.

TADQIQOT USLUBI.

Bosimni o‘lchashning mavjud usullarini metrologik tavsiflarini qiyosiy tahlil qilish va olib borilgan tajriba natijalari asosida bosim o‘zgartkichlarining usullari ichida o‘lchashning fizik asosi, texnik amalga oshirishning nisbatan soddaligi, funksional, texnik va metrologik xossalarini takomillashtirish imkoniyatlariga ega bo‘lgan usullar tanlandi va asoslandi [2; 36-b]. Jumladan, tenzometrik, tenzoqarshilikli va boshqa usullar qo‘yidagi afzalliklarga ega tez va yetarli darajada aniqlik bilan o‘lchash, shu bilan birgalikda ma’lumotlarni masofaga uzatish imkoniyatini yaratish mumkinligi bilan izohlanadi. Bosim o‘lchash o‘zgartkichlarining hozirgi kundagi kamchiliklariga muhitning tarkibi, harorati, muhitning ta’siri, elementlarning korroziyaga chidamliligi kabi faktorlar o‘lchash xatoligining oshishiga olib keladi. Ushbu tadqiqot ishida ushbu faktorlarni ta’sirini kamaytirish usullari va uning texnik yechimi taklif qilinadi.

NATIJALAR. Bosim ostida ishlaydigan tizim to‘g‘ri va samarali ishlashi uchun ishlatiladigan bosim datchigi kerak bo‘lganda va tizimning operatsion sharoitida

ta’mirlash yoki almashtirish kerak bo‘lmaganda uzoq vaqt davomida aniq o‘lchashlarni ta’minlashi muhimdir. Muayyan bosim datchigining muayyan jarayon uchun yaroqliligiga ta’sir qiluvchi bir necha omillar mavjud. Asosiy bo‘lganlari quyidagilar:

- qurilma ishlatiladigan muhitda ishlatiladigan moddalarning xususiyatlari;
- ekologik sharoit;
- bosim oralig‘i;
- o‘lchash jarayonida talab qilinadigan aniqlik va sezgirlik darajasi.

O‘lchash jarayoni. Datchik elementi (elastik element) jarayonida ishlatiladigan moddalar duchor bo‘ladi, shuning uchun bu moddalar bilan reaksiyaga yoki buzilish kuchli bo‘lgan sensor materiallaridan foydalanish mumkin emas. Membranalar (diafragmalar) juda qattiq foydalanish sharoitlari uchun ham maqbuldir.

O‘lchash va ishlatish muhiti. Muhit (bu jarayonda-modda, tebranish, harorat va boshqalar tomonidan yaratilgan muhit.), qaysi jarayonda amalga oshirilishiga karab, bosim datchigi tanlashda ham hisobga olinishi kerak. Agressiv muhitlarda, quvurda kuchli tebranishlar yoki ekstremal haroratlarda sensorlar qo‘shimcha himoya darajasiga ega bo‘lishi kerak. Yopiq, tarkibida gliserin yoki silikon o‘z ichiga olgan material bilan to‘ldirilgan kuchli korpuslar ko‘pincha sensorning ichki qismlarini (sensor elementidan boshqa) juda qattiq, agressiv muhit va tebranishlardan himoya qilish uchun ishlatiladi.

Bosim o‘lchash ko‘lami. Aksariyat jarayonlar ma’lum bosim oralig‘ida ishlaydi. Ma’lum bosim datchiklari ma’lum bosim oraliqlarida optimal ishlagani uchun, jarayon bo‘yicha belgilangan oraliqda ishlay oladigan qurilmalarni tanlash kerak.

Sezgirlik. Turli jarayonlar turli darajadagi aniqlikni talab qiladi. Umuman olganda, sensor qanchalik aniq bo‘lsa, u shunchalik qimmat bo‘ladi, shuning uchun kerakli aniqlikka imkon qadar javob bera oladigan sensorlarni tanlash iqtisodiy jihatdan samarali bo‘ladi. Aniqlik va bosim o‘zgarishini tezda aniqlash qobiliyati o‘rtasida sensorlarning narxi ham mavjud. Shuning uchun, bosim qisqa vaqt ichida juda o‘zgarib turadigan jarayonlarda, aniq bosim ko‘rsatkichlarini berish uchun ko‘proq vaqt talab qiladigan sensorlardan foydalanish amalyotda muhim emas [3; 21].

Intellektual bosim datchiklarining muayyan turini tanlash tahlili. Ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida bosim o‘lchash vositalarini tanlashda ma’lum bir talablarga tayanib ish olib borish muhim. Tadqiqot ishlarini olib borish va bosim o‘zgartkichlarini tahlil qilishda kimyo sanoatida ishlatiladigan o‘lchash o‘zgartkichlari misol sifatida olindi. Misol, 1000 atm bosimda ichida 50 kg rux bo‘lgan 1 litr sig‘imga ega yarim uzluksiz reaktor bor deb faraz qilaylik va xlorid kislota 25°S 6M teng harorat 1 l/min stavka reaktorga oqadi va boshqa jarayonda foydalanish uchun rux xlorid ishlab chiqarish uchun rux bilan reaksiyaga ega.

XULOSA. Intellektual bosim datchiklari va nazorat asboblarini global iqlim o‘zgarishi sharoitidagi ekologik barqarorlikni saqlashdagi o‘rni va ahamiyati ishlab chiqarish jarayonlaridagi metrologik ta’minot orqali ekologik muammolarni bartaraf etish yuzasidan qiyosiy tahlili qilindi. Bosim nazorat qilish sanoat ishlab chiqarish

tarmoqlarida (kimyo, neft-gaz, energiteka va boshqa sohalarda) muhim ko‘rsatkichlardan ekanligi ta’kidlab o‘tildi. Ushbu sohalarda bosimni nazorat qilishda turli usullar va o‘lchash datchiklari hamda nazorat vositalarini qo‘llash ishlari amalga oshirilayotganligi to‘g‘risida ma’lumotlar tahlil qilindi.

Tahlil qilingan ma’lumotlar asosida bosim o‘lchash datchiklari va vositalarni qo‘llashda ishchi muhit, sezgirlik, o‘lchash ko‘lami muhim omillardan ekanligi, hamda barcha industrial sanoat tarmoqlarida korxonalar tomonidan atrof-muhitga zarar ko‘lamini kamaytirish va oldini olish uchun ilg‘or ekologik tozalash texnologiya va filtrlarini majburiy qo‘llash tartibini joriy etish hamda ushbu texnologiyalarda intellektual bosim datchiklarini qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa shuki, insonning jamiyatda munosib yashash huquqi, atrof-muhit va iqtisodiy manfaatlar o‘rtasidagi balansni ta’minlash, fuqarolar va korporativ tarmoqlarning ekologik daxldorligi va mas’uliyatini oshirish, ekologik ma’lumotlarning shaffofligini ta’minlash bilan jamoatchilik nazorati imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboeva Mohim Shukurovna., “Ekologik barqarorlikni ta’minlashda xalqaro va milliy tajriba” INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BIRUNI ISSN (E) 2181-2993 Vol. 2, Issue 4. Dec. (2023).

2. Bobur Turdiyev, mustaqil tadqiqotchi., “Havo ifloslanishi va aholi salomatligi bilan bog‘liq inqirozdan chiqish: Yaponiya tajribasi”., Kun.uz - elektron sahifasi.

3. Obidov, J. G. (2023). Virtual process modeling technologies based on imitation-variability in technical higher education institutions. In E3S Web of Conferences (Vol. 452, p. 07017). EDP Sciences.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ БАРАБАННОЙ ТОРМОЗНОЙ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ И МЕТРОЛОГИЧЕСКИХ СТАНДАРТОВ

Б.З.Хайдаров
Ферганский государственный технический университет

Аннотация. *Сущностью технологии машиностроения является учение о способах и процессах промышленного производства продукции заданного качества и в требуемом количестве. Современное развитие технологии машиностроения представляет собой совокупность взаимосвязанных процессов совершенствования, прежде всего методов обработки материалов, технологического оборудования, обрабатывающего и измерительного*

инструментов, а также теоретических и практических основ процессов обработки.

Ключевые слова. *Машиностроении, обработка металлов, изготовлении деталей, Корпус втулки, зубчатое колесо, деформация заготовки.*

В машиностроении под заготовкой, согласно ГОСТ 3.1109-82, принято понимать полуфабрикат, поступающий на механическую обработку, в результате которой он превращается в годную для сборки деталь. Перед заготовительным производством стоит задача получения заготовок с максимальным приближением к форме и размерам готовой детали, максимально увеличить коэффициент использования металла, т.е. оставить на обработку резанием минимально необходимые припуски и уменьшить количество металла, обращаемого в стружку. Основное назначение заготовительного производства состоит в обеспечении механических цехов высококачественными заготовками. В машиностроении используют заготовки, получаемые литьем, обработкой давлением, сваркой, а также из пластмасс и порошковых материалов. Основными методами получения заготовок являются: литьё; обработка металлов давлением (пластическое деформирование); получение заготовок из проката; получение заготовок методом сварки. Современное заготовительное производство располагает возможностью формировать заготовки самой сложной конфигурации и самых различных размеров и точности. Различают три основных вида заготовок: машиностроительные профили, штучные и комбинированные. Машиностроительные профили изготавливают постоянного сечения или периодического. В крупносерийном и массовом производстве применяют также специальный прокат. Штучные заготовки получают литьем, ковкой, штамповкой или сваркой. Комбинированные заготовки - это сложные заготовки, получаемые соединением (например, сваркой) отдельных более простых элементов. В этом случае можно снизить массу заготовки, а для более нагруженных элементов использовать наиболее подходящие материалы. В настоящее время средняя трудоемкость заготовительных работ в машиностроении составляет 40...45% общей трудоемкости производства машин. Главная тенденция в развитии заготовительного производства состоит в снижении трудоемкости механической обработки при изготовлении деталей машин за счет повышения точности их формы и размеров. Цель - узнать о современных способах проектирования и производства заготовок и применить эти знания в работе для своей детали.

Задачи:

- по чертежу нашей детали необходимо изготовить заготовку;
- выбрать метод получения заготовки;
- подобрать станки, инструменты и оснастку.

Исходные данные

1.1 Чертеж "Втулка упорная"

1.2 Материал детали Сталь 45 ГОСТ 1050-88

1.3 Годовая программа выпуска N=4500 шт.
1.4 Тип производства – серийный

Описание конструкции детали



Втулка — это элемент механизма либо машины имеющий коническую или цилиндрическую форму. В ней имеется цилиндрическое отверстие, в которое и входит деталь, которую требуется сочленить. Служит втулка для уменьшения трения.

Корпус втулки бывает точечным, штампованным или литым. Для изготовления этой детали используют сталь или алюминиевые сплавы. По прочности лучшими считаются точечные и штампованные втулки.

Изготовление втулки, не смотря на всю её видимую простоту, – технологически сложный процесс. Он имеет целый ряд обязательных этапов — от обточки заготовки на станке, до процесса закаливания и нанесения защитного покрытия. Ошибка на любом из них приведёт к потере качества изделия.

Размер втулки Ø40 и ширина 12. Имеет отверстие 4 Ø12, с допуском по H7. Шероховатость отверстия 4 по Ra 1,6 мкм, а внешние части втулки имеют Ra 3,2 мкм.

Зубчатое колесо изготовлено из Сталь 45 ГОСТ 1050-88. Химический состав стали 45 представлен в таблице 1, механические свойства стали 45 в таблице 2.

Таблица 1

Химический состав в % материала стали 45

C	Si	Mn	Ni	S	P	Cr	Cu
0.41 - 0.49	0.17 - 0.37	0.5 - 0.8	до 0.3	до 0.035	до 0.035	0.8 - 1.1	до 0.3

Таблица 2

Сортамент	Размер	Напр.	$\sigma_в$	$\sigma_т$	δ_5	ψ	KCU	Термообр.
-	мм	-	МПа	МПа	%	%	кДж / м^2	-
Пруток, ГОСТ 4543-71	Ø 25		1030	835	9	45	490	Закалка 840°С, масло, Отпуск 520°С, вода,

Механические свойства при Т=20°С материала 45

Твердость 45Х после отжига , ГОСТ 4543-71	**НВ 10^{-1} = 229 МПа**
Твердость 45Х , Пруток горячекатан. ГОСТ 10702-78	**НВ 10^{-1} = 179 МПа**

Обоснование выбора вариантов заготовки

Втулка упорная выполнена из Стали 45 ГОСТ 1050-88. Это сталь углеродистая, конструкционная, качественная.

Масса втулки упорной составляет 0,06 кг, из расчетов МЦХ в компасе(рис.2). Ориентируясь на свойства материала детали сталь, принимаем метод обработки металлов давлением. С учетом того, что производство серийное, целесообразно получить заготовку горячей объемной штамповкой, т.к. она характеризуется более высокой производительностью и меньшей трудоемкостью, чем свободная ковка. Кроме того, горячей объемной штамповкой можно получить поковки более сложной формы.



Для изготовления заготовки детали «втулка упорная» можно применить штамповку на кривошипных горячештамповочных прессах (КГШП). Они применяются в условиях серийного производства для штамповки поковок близких по форме и размерам к готовым деталям. КГШП отличаются высокой производительностью, небольшими значениями припусков на механическую обработку. Деформация заготовки производится за один удар.

Также можно рассмотреть получение поковки на штамповочных молотах (ШМ), т.к. использовать это оборудование в условиях серийного и крупносерийного производства весьма рационально. Штамповка на ШМ характеризуется высокой производительностью, возможностью автоматизации процесса и получения заготовок с глубокими полостями и отверстиями, а также имеет сравнительно низкие значения припусков, напусков и штамповочных уклонов.

Определение припусков на механическую обработку, размеров и отклонений заготовки

Определим расчетно-аналитическим методом общий и промежуточные припуски, необходимые для механической обработки Ø40h9 детали «втулка упорная»

В соответствии с тех. маршрутом выделяем 4 перехода обработки поверхности: заготовка, черновое точение, получистовое точение и чистовое точение. Затем определяем значения составляющих элементов припусков, предельные значения размеров и припусков для каждого тех. Перехода

Таблица 3

Расчет припусков и предельных размеров обработки поверхности

№	Тех. переходы	Элементы припуска, мкм				Расчетый припус 2Zmin мкм	Расчетнй разм dp, мм	Доп. δ, мкм	Предельный размер, мм		Предельные значения припусков, мк	
		R_z	h	ρ	ε				$dmin$	$dmax$	$2z^{np}min$	$2z^{np}ma$
0	Заготовка	320	500	800	-	-	41,3	1,0	40,8	41,8	-	-
1	Черновое точение	160	200	220	30	2219	40,62	0,55	40,45	41,1	1,02	2
2	Получистовое точение	63	120	83	30	850	40,3	0,2	40,2	40,4	0,63	1
3	Чистовое точение	12,5	30	2,91	30	366,725	40	0.045	39,96	40	0,44	0,5

Суммарное значение пространственных отклонений заготовок определим по табл.3

ρ = 800

Для дальнейших операция величину пространственных отклонений определим

по формуле: $\rho = \rho i{-}1 * ki$

Где:

$\rho i{-}1$ – величина пространственных отклонений на предыдущем переходе;

ki – коэффициент уточнения (0,06)

Подставив значения в формулу, найдем ρ и запишем в таблицу полученные значения.

Рассчитаем величину минимальных припусков по формуле:

$$2z_{min} = 2 \cdot (R_{zi-1} + h_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon_{i-1}^2}),$$

где R_{zi-1} - высота неровностей на предшествующем переходе, мкм;

h_{i-1} - высота дефектного слоя на предшествующем переходе, мкм;

ρ_{i-1} - суммарное значение пространственных отклонений на предшествующем переходе, мкм;

ε_{i-1} - погрешность установки на данном переходе.

Найденные значения запишем в таблицу.

Найдем значения максимальных припусков:

$$2z_{max} = 2Z_{imin} + TD_{i-1} - TD_i,$$

где $2Z_{imin}$-минимальный припуск;

TD_{i-1} - допуск размера на предшествующем переходе;

TD_i - допуск размера на выполняемом переходе.

Список использованной литературы

1. Технологии и оборудование заготовительных производств. Методические указания к выполнению индивидуального домашнего задания для студентов направления 15.03.01- Машиностроение. В. Г. Голдобина. - Белгород, БГТУ 2016

2. Проектирование заготовок деталей машин: учебное пособие В. Г. Голдобина. - Белгород: Изд-во БГТУ, 2017

3. Справочник технолога - машиностроителя Т. 1. Под ред. А. Г. Косиловой и Р. К. Мещерякова. - 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Машиностроение, 1985

4. Справочник конструктора - машиностроителя В. И. Анурьев Т.1.- 5-е изд., перераб. и доп. - М.: Машиностроение, 1979

5. ГОСТ 7505-89. Поковки стальные штамповочные. Допуски, припуски и напуски.

6.https://studopedia.ru/7_31975_glava--osnovi-zagotovitelnogo-proizvodstva-vmashinostroenii.html

ИПТАРАНГЛОВЧИ АСБОБЛАРНИ ТАБИИЙ ИПАК ИПЛАРИНИ ТАНДАЛАШДАГИ ТУРЛИ ИМПУЛЬСЛИ ЮКЛАМАЛАР АСОСИДА МУТАНОСИБЛИГИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

Дадажонова Машхура Қурбонали қизи
Фарғона давлат техника университети

Аннотация: *Чизиқли зичлиги 2,33 ва 3,23 текс бўлган табиий ипакларни тандалашда ип тарангловчи асбобларни қайтарилувчи ёки ошиб борувчи импульси юкламалар билан таранглигични мутаносиблик коэффицентини аниқлашдаги олинган қиймат келтирилган.Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, тўқимачилик машиналарининг иптарангловчи асбобларини турли импульсли юкламалари асосида мутаносиблигини аниқлаганимизда шайбали иптаранглагичнинг мутаносиблиги юқорилиги аниқланди.*

Таянч сўз ва иборалар; *ипак, тандалаш, таранглик, импульс, сифат, иптаранглагич, кириш ва чиқиш импульси, юклама.*

Кириш. Кейинги йилларида мамлакатимизда тўқимачилик саноатининг «Хан-атлас», «Адрас», «Беқасам», «Банорас» матоларни ишлаб чиқарувчи корхоналарида маҳсулотни сифатли ва хусусиятларини яхшилаш учун, танда ипларини тўқишга таёрлаш, юқори самарадорликка эга бўлган тўқиш жараёнларини технологияларини яратишга оид кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Мавзуни долзарблиги. Бу борада, хом ипак ишлаб чиқаришни кўпайтириш, олинган хомашёдан ипак олиш даражасини оширишни таъминлайдиган янги технология ва ускуналарни яратиш, ипак қурти ҳосилдорлигига, олинган хом ипак ва ипак махсулотларининг сифатига, технологик қўрсаткичларига салбий таъсир кўрсатувчи омилларни аниқлаш ва уларни мақсадли бошқариш масалалари соҳани ривожлантиришнинг муҳим илмий-амалий йўналишлари ҳисобланади. Ўзбекистонда тўқимачилик саноати узоқ тарихга эга бўлиб, атлас, беқасам, бахмал, банорас, занданачи каби аврли тўқималарни ўрта асрларда маҳаллий ҳунармандлар тайёрлаганлар бу маҳсулотлар чет мамлакатларда машҳур бўлган. Хозирги кунда юртимизга ташриф буюрган хар бир саёҳатчида аврли газламаларга бўлган қизиқиш юқорилиги сабабли бу газламаларни истиқболли холда ишлаб чиқариш, албатта туризмни ривожлантиришида хам ўз хиссасини қўшади.

Муаммолар ва уларнинг ечилиши.Тўқимани дастгоҳда тўқиш вақтида иплар таранглигининг нотекислиги, кўплаб узилишларга сабаб бўлади. Шу сабабли газламаларнинг технологик жараёнларини ва параметрларини ишлаб

чиқиш, бозор иқтисоди шароитига жавоб берадиган миллий матоларни янги турларини яратиш, уларнинг сифат кўсаткичларини оширишга оид илмий тадқиқотларни ўтказиш муҳим аҳамиятга эгадир.

Бу махсулотларни ишлаб чиқаришда технологияни такомиллаштирмасдан ва технологик ускуналарни такомиллаштиришнинг илмий асосланган усуллари ва усулларини ишлаб чиқмасдан туриб, хом ашёлардан оқилона фойдаланишни, ярим тайёр маҳсулотларнинг сифатини таъминлаш мумкин эмас[1].

Тўқимачилик машиналарида чизиқли зичлиги 2,33 ва 3,23 текс бўлган табиий ипакларни тандалашда ип таранглovчи асбобларини ўсиб борувчи кўп импульсли юкламалар асосида мутаносиблигини аниқлашдан мақсад, иптаранглагичнинг динамик иш шароитларини ва уларнинг ишлаб чиқарилишини ҳисобга олган ҳолда, ипни бобина ўрамидан чиқишида пайдо бўладиган импульс юкига ипни таранглovчи мосламасининг таъсирини амалда аниқлашга имкон берадиган мослама ва усулини ишлаб чиқишдир[5].

Тадқиқотларимизни олиб боришда “Ип таранглагични технологиклигини аниқлаш усули ва уни амалга ошириш учун қурилма”дан фойдаланилди. Тадқиқотларимиз давомида, табиий ипак ипларини тандалашда иптаранглovчи асбобларини ўсиб борувчи кўп импульсли юкламалар асосида мутаносиблиги тадқиқ қилинди[4].

Ўтказилган тадқиқотларимиз натижаларида ипнинг таранглагичга киришдаги ва чиқишдаги импульс таранглигининг осциллограммаларда кўрсатган кўрсаткичларини суратларга олинди. Уларни ишлов натижалари ва иптаранглагичларнинг ўсиб борувчи кўп импульсли юкламалар асосидаги мутаносиблик коэффициенти 1-расмда келтирилган. [7]:



а б



в г

1-расм. *Ипнинг таранглагичга киришдаги ва чиқишдаги ўсиб борувчи кўп импульсли таранглиги: а – демпферли таранглагич, б – Новетта, в – дискли, г – шайбали*

Юқорида келтирилган маълумотларга асосан ўсиб борувчи импульсли юкламалар таъсирида ипнинг импульс таранглиги ва иптарангловчи асбобларни кўп импульсли юкламалар асосидаги мутаносиблик коэффициенти 1-жадвалда келтирилган[1].

1-Жадвал

	Кўрсаткичлар номлари	Ўлчов. бирли-ги.	Иптаранглагич тури			
			Демп-ферли	Новетта	Дискли	Шайбали
Ипнинг таранглагичга киришдаги импульс таранглиги						
	Таранглик: ўртача минимал	сН	109,38	97,40	119,59	128,08
	максимал	сН	85	67	89	104
		сН	138	137	153	160
	Дисперсия	сН2	113,76	223	145,06	158,66
	Ўртача квадратик оғиш	сН	10,66	14,96	12,04	12,59
	Оғиш (вариация) коэффициенти	%	9,75	15,35	10,07	9,75
	Ишончли хатолик					
	- абсолют	сН	2,13	2,99	2,40	2,51
	- нисбий	%	1,95	3,07	2,01	1,95

	Мутаносиблик коэффициенти		0,78	0,69	0,85	0,91
Ипнинг таранглагичдан чиқишдаги импульс таранглиги						
	Таранглик: ўртача минимал	сН	143,39	141,15	139,65	139,66
	максимал	сН	110	111	112	109
		сН	173	168	176	173
	Дисперсия	сН2	144,5	171,73	163,33	146,88
	Ўртача квадратик оғиш	сН	12,02	13,15	12,78	12,12
	Оғиш (вариация) коэффициенти	%	9,99	9,28	9,15	8,68
	Ишончли хатолик					
	абсолют	сН	2,21	2,62	2,56	2,42
	нисбий	%	2,00	1,85	1,83	1,74
	Мутаносиблик коэффициенти		0,76	0,69	0,86	0,92

Ип тарангловчи мосламаларни мутаносиблигини аниқлашдаги икки усулдан фойдаланилган. Юқоридаги жадвал кўрсаткичлари танлаган иккинчи усулнинг иккинчи варианти бўлиб, бунга асосан ипнинг таранглагичга киришдаги импульс таранглиги ва ипнинг таранглагичдан чиқишдаги импульс таранглиги аниқланган. Ипнинг тарангловчи мосламага кириш ва чиқишдаги ўртача таранглиги тадқиқот натижасида аниқланган[3].

Хулоса; Юқоридагиларни инобатга олиб шуни хулоса қилиб айтиш мумкинки, қайтарилувчи ёки ошиб борувчи импульси юкламаларни ип таранглагичларга қўйганимизда, таранглигични мутаносиблик коэффицентини аниқлашдаги олинган қиймат келтирилди[8]. Тўқимачилик машиналарининг иптаранглагич асбобларини ўсиб борувчи кўп импульсли юкламалар асосида мутаносиблигини аниқлаш экспериментал тадқиқотлар асосида шайбали иптаранглагичнинг мутаносиблиги юқорилиги аниқланди[1].

Фойдаланилган адабиётлар.

Onlayn va gibrid ta’lim tizimlarining samaradorligini oshirish uchun interaktiv darsliklar, videokonferensiya vositalari, testlar va baholash tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy raqamli platformalar o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida tezkor muloqot va fikr almashishni ta’minlaydi.

Biroq, texnologik cheklovlar, internet sifati va talabalar o‘rtasida texnologiyalardan foydalanish darajasidagi farqlar onlayn va gibrid ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, ta’lim muassasalari texnik infratuzilmani yaxshilash va talabalarni texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratishi lozim.

Shuningdek, onlayn va gibrid ta’limda o‘quvchilarning ijtimoiy izolyatsiyaga uchrashi, motivatsiyaning pasayishi va e’tiborni jamlashdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun pedagogik yondashuvlarni yangilash, mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish va interaktiv o‘quv usullarini kengaytirish zarur.

Yana bir muhim jihat — o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishdir. Ular zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishni o‘rganib, ta’lim sifatini yanada yaxshilashi kerak.

Onlayn ta’lim tizimlari raqamli platformalar orqali o‘quvchilarga o‘z vaqtida va joyida ta’lim olish imkonini beradi. Bu tizimlar o‘quvchilarning shaxsiy o‘rganish tezligini hisobga olib, interaktiv materiallar, video darsliklar va virtual laboratoriyalar orqali bilim olishni ta’minlaydi. Onlayn ta’limda o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi, biroq bu jarayonda talabalar motivatsiyasini saqlash va o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish qiyinchiliklari yuzaga keladi. Shu sababli, o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishi muhim ahamiyatga ega.

Gibrid ta’lim tizimi esa an’anaviy va onlayn ta’lim elementlarini birlashtirib, har ikkala tizimning afzalliklarini birlashtiradi. Bu yondashuv o‘quvchilarga o‘quv jarayonida ko‘proq moslashuvchanlik beradi va shu bilan birga yuzma-yuz muloqot imkoniyatini ham saqlab qoladi. Gibrid ta’limda o‘qituvchilar o‘quvchilar ehtiyojlarini

yaxshiroq anglab, individual yondashuvni amalga oshirishi mumkin. Shu bois, gibrid ta’lim samaradorligi yuqori bo‘lib, o‘quvchilar o‘rtasida bilim qabul qilish darajasi oshadi.

Ta’lim jarayonida texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog‘liq texnik muammolar ham mavjud. Internetning sifatli va barqaror bo‘lmasligi, qurilmalar yetishmovchiligi, platformalarning murakkabligi kabi omillar onlayn va gibrid ta’limning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Ayniqsa, qishloq joylarda bu muammolar kuchliroq seziladi. Shu sababli, ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish va texnologiyalarni kengroq joriy qilish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarur.

Shuningdek, onlayn va gibrid ta’lim tizimlarining samaradorligi o‘quvchilarning ijtimoiy va psixologik holatiga ham bog‘liq. Yuzma-yuz muloqotning kamayishi ba’zi talabalar uchun o‘zini yolg‘iz his qilish, motivatsiya pasayishi kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu bois, ta’lim jarayonida ijtimoiy faoliyatlarni, guruh ishlarini va interaktiv mashg‘ulotlarni ko‘paytirish orqali o‘quvchilarning o‘zaro aloqalarini rag‘batlantirish muhimdir. Bu ta’lim jarayonining yanada samarali va qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi.

Kelajakda raqamli ta’lim tizimlari sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va adaptiv o‘quv platformalari orqali yanada takomillashadi. Bu esa ta’limni yanada shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va samarali qiladi. Shu bilan birga, ta’limda raqamli adabiyotlar, virtual laboratoriyalar va onlayn baholash tizimlari keng qo‘llanilishi o‘quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, onlayn va gibrid ta’lim kelajakda zamonaviy ta’limning asosiy shakllaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

Natijalar. Tahlil natijasida onlayn va gibrid ta’lim tizimlari ta’lim jarayonining moslashuvchanligini va ochiqligini oshirishda samarali ekanligi aniqlandi. Gibrid ta’limda talabalar yuzma-yuz va onlayn aloqaning uyg‘unligi tufayli yanada yuqori o‘rganish motivatsiyasiga ega bo‘ladi. Biroq, texnik cheklovlar va o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar bo‘lib qolmoqda.

Xulosa Raqamli davrda onlayn va gibrid ta’lim tizimlari ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular ta’limning ko‘lamini kengaytirib, o‘quvchilar uchun qulay va samarali o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, texnologik, pedagogik va ijtimoiy jihatlarni hisobga olgan holda tizimlarni doimiy takomillashtirish zarur.

Kelajakda raqamli ta’limning rivojlanishi va kengayishi pedagoglar, talabalar va ta’lim muassasalari uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ta’lim sifatini yanada yuqori darajaga ko‘tarishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

27. Mahmudova, M., & Kodirov, A. (2023, October). ANALYSIS OF SOFTWARE VERSION CONTROL SYSTEMS. In *Conference on Digital Innovation:"*

Modern Problems and Solutions".
28. Mahmudova, M., & Abdullayev, A. (2023, October). HAR BIR WEB-ISHLAB CHIQUVCHI BILISHI KERAK BO ‘LGAN WEB-TEXNOLOGIYALAR. In *Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions"*.
29. Mahmudova, M. (2023, October). MA’LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORTIMLASHNING TAHLILI JARAYONI. In *Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions"*.
30. Mahmudova, M., & Toxirova, S. (2023, October). MULTISERVISLI TARMOQ XAVFSIZLIGIDA NEYRON TARMOQLARINI O ‘RNI. In *Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions"*.
31. Zulunov, R. M., & Mahmudova, M. (2022). Sun’iy intellektning insoniyat faoliyatida tutgan o ‘rni va neyrokibernetika sohasi. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(7), 2-7.
32. Mahmudova, M., & Zulunov, R. (2023). TIBBIYOT MUASSASALARIDA ELEKTRON NAVBAT TIZIMI. *Потомки Аль-Фаргани*, *1*(2), 53-57.
33. Jasur K. CONSULTING AS A RESOURCE FOR PROFESSIONAL AND PERSONAL DEVELOPMENT OF LEADERS OF TERRITORIAL INTERNAL AFFAIRS //E-Conference Globe. – 2021. – С. 54-57.
34. Xolmatov A. A., Karimov J. X., Xayitov A. M. Effect of crystallizer catalyst on properties of glass-crystalline materials //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2021. – С. 273-275.
35. Каримов Ж. Х., Фозилов И. Р. Управление многостадийными процессами путём оптимизации глобальных целей системы //Universum: технические науки. – 2020. – №. 3-1 (72). – С. 16-20.
36. Jasur K. POSSIBILITIES OF MODERN POLYGRAPH INSTRUMENTS IN THE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF THE INTERNAL AFFAIRS //E-Conference Globe. – 2021. – С. 312-314.
37. Каримов Ж. Х. ПРОЦЕДУРЫ ОПТИМИЗАЦИИ ГЛОБАЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МНОГОСТАДИЙНЫМИ ПРОЦЕССАМИ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-1 (92). – С. 48-52.

TA’LIMDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IMKONIYATLARI VA XAVFSIZLIK MASALALARI

Karimov Jasurbek Xasanboyevich
Farg‘ona davlat texnika universiteti AT va T kafedrasi kata o’qituvchi
Mahmudova Muqaddasxon Abdubannob qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti AT va T kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim sohasida blokcheyn texnologiyasining qo‘llanilishi, uning imkoniyatlari va xavfsizlik muammolari tahlil qilinadi. Blokcheyn orqali ta’lim ma’lumotlarini shaffof, o‘zgarmas va ishonchli saqlash, diplom va sertifikatlarning haqiqiyligini tekshirish kabi amaliyotlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, texnologiyaning xavfsizlik tomonlari, muammolari va ularni hal etish usullari batafsil o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: blokcheyn, ta’limda blokcheyn, xavfsizlik, sertifikatlarning haqiqiyligi, ma’lumotlarni himoya qilish, shaffoflik, raqamli identifikatsiya.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi axborot texnologiyalari asosida rivojlanmoqda va buning natijasida ma’lumotlarni ishonchli va xavfsiz saqlash talab etiladi. Blokcheyn texnologiyasi ta’limda ma’lumotlarni shaffof, o‘zgarmas va xavfsiz tarzda boshqarish imkonini beradi. Ushbu texnologiya ayniqsa talabalarning diplomlari, sertifikatlari va akademik ma’lumotlarining haqiqiyligini tekshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Blokcheyn — bu markazlashtirilmagan, tarqatilgan va kriptografik usullar bilan himoyalangan ma’lumotlar bazasi bo‘lib, u ta’lim sohasida ishonch va xavfsizlikni oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, blokcheynning ta’lim tizimidagi roli va xavfsizlik masalalari bugungi kunda dolzarb ilmiy tadqiqotlar mavzusidir.

So‘nggi tadqiqotlarda blokcheyn texnologiyasining ta’limda qo‘llanilishi va uning afzalliklari keng ko‘rib chiqilgan. *Tapscott va Tapscott (2018)* ta’limda blokcheyn ma’lumotlar yaxlitligini ta’minlash, talaba ma’lumotlarining o‘zgarmasligini kafolatlash uchun ideal texnologiya ekanligini ta’kidlagan. *Grech va Camilleri (2017)* esa blokcheyn asosida yaratilgan sertifikatlar soxtalashtirishni oldini olishda samarali ekanligini ko‘rsatgan.

Xavfsizlik sohasida *Zyskind va boshq. (2015)* blokcheynning kriptografik himoyasi va markazlashtirilmagan arxitekturasi orqali ma’lumotlarning maxfiyligi va yaxlitligini saqlashni ta’kidlashgan. Shu bilan birga, *Christidis va Devetsikiotis (2016)* blokcheynning kengaytirilishida yuzaga keladigan muammolar, jumladan, ma’lumotlarning katta hajmi va tranzaksiya tezligi cheklovlarini qayd etgan.

Blokcheyn texnologiyasining ta’lim sohasidagi eng muhim imkoniyatlaridan biri — talabalarning akademik yutuqlari va sertifikatlarini raqamli va o‘zgarmas shaklda saqlashdir. Bu nafaqat soxtalashtirish xavfini kamaytiradi, balki ish beruvchilar va ta’lim muassasalari uchun ham hujjatlarning haqiqiyligini tez va oson tekshirish imkonini beradi.

Blokcheyn yordamida ta’lim muassasalari o‘zaro ma’lumot almashishda ishonchli tarmoq yaratishi mumkin. Bu tizimda barcha tranzaksiyalar (sertifikatlar berilishi, kurslar tamomlanishi) vaqt belgisi bilan qayd etilib, ularni tahrirlash yoki o‘chirish imkoni bo‘lmaydi.

Shuningdek, blokcheyn asosidagi tizimlar talabalar uchun shaxsiy ta’lim tarixini boshqarish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali talabalar o‘z ma’lumotlarini butunlay nazorat qilishi va istalgan joyda ko‘rsatishi mumkin.

Biroq, blokcheynning keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq xavfsizlik muammolari ham mavjud. Eng asosiy muammo — ma’lumotlar hajmining o‘sishi va tarmoqdagi tranzaksiyalar tezligining kamayishi. Bu ta’lim tizimlarining tezkor ishlashiga ta’sir qilishi mumkin.

Yana bir muhim xavfsizlik jihati — kriptografik kalitlarning xavfsizligi. Agar talabalar yoki muassasalar kalitlarini yo‘qotib qo‘ysa yoki ularning maxfiyligi buzilsa, ma’lumotlar xavf ostida qoladi. Shu sababli, kalitlarni boshqarish va xavfsiz saqlashga katta e’tibor berilishi kerak.

Shuningdek, blokcheyn tizimlarini o‘rnatish va integratsiyalashda texnik murakkabliklar, infratuzilma xarajatlari va xodimlarning texnologiyaga o‘rganish muammolari yuzaga keladi. Bu omillar ta’lim muassasalari uchun katta chaqiriq hisoblanadi.

Ta’limda blokcheyn texnologiyasining samaradorligini oshirish uchun xavfsizlik protokollarini kuchaytirish, tizimni optimallashtirish va foydalanuvchilarni texnologiya bo‘yicha o‘qitish zarur. Shu bilan birga, hukumat va nodavlat tashkilotlar tomonidan blokcheyn asosidagi ta’lim platformalariga qo‘llab-quvvatlash ta’minlanishi muhimdir

Blokcheyn texnologiyasining ta’lim sohasidagi eng katta imkoniyatlaridan biri – bu talabalarning diplomlari, sertifikatlari va boshqa hujjatlarini o‘zgarmas va ishonchli tarzda saqlashdir. An’anaviy tizimlarda hujjatlarni soxtalashtirish va o‘zgartirish holatlari ko‘p uchrashi mumkin bo‘lsa, blokcheyn orqali yaratilgan tizimlarda har bir tranzaksiya yoki ma’lumot o‘zgartirilsa, tizimdagi barcha ishtirokchilar tomonidan ko‘riladi va bu o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Natijada ta’lim hujjatlari haqiqiyligi kafolatlanadi, bu esa talaba va ish beruvchilar uchun muhimdir.

Blokcheynning yana bir muhim imkoniyati – bu ta’lim jarayonining shaffofligini oshirishdir. Ta’lim muassasalari va talabalar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi real vaqt rejimida amalga oshiriladi, bu esa noto‘g‘ri ma’lumotlar kiritilishi yoki noto‘g‘ri hisob-kitoblarning oldini oladi. Shu bilan birga, blokcheyn tizimlari talabalarning o‘quv natijalarini kuzatib borish va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi, bu ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xavfsizlik masalalariga kelsak, blokcheyn tizimlari kriptografik usullar bilan himoyalangan bo‘lsa-da, ular ham o‘zining kamchiliklariga ega. Masalan, blokcheyn tarmog‘ining ko‘p energiya sarflashi va ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi ba’zi holatlarda muammo tug‘diradi. Bundan tashqari, agar foydalanuvchilarning shaxsiy kalitlari yo‘qolsa yoki buzilsa, ma’lumotlarga kirish imkoniyati yo‘qoladi, bu esa xavfsizlik va foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyasini ta’lim tizimiga integratsiya qilish jarayonida texnik murakkabliklar va infratuzilma xarajatlari ham katta rol o‘ynaydi.

Ta’lim muassasalari uchun blokcheyn tizimini yaratish va uni doimiy ravishda yangilab borish katta mablag‘ va malakali kadrlarni talab qiladi. Bu holat ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologiyani keng joriy etishni sekinlashtiradi.

Blokcheyn texnologiyasining ta’limda keng qo‘llanilishi uchun qonuniy va tashkiliy jihatlar ham muhimdir. Ta’lim muassasalari, hukumatlar va texnologik kompaniyalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, standartlarni ishlab chiqish va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yagona siyosatni yaratish zarur. Bu esa ta’lim sohasida blokcheyn texnologiyasining samarali va xavfsiz qo‘llanilishini ta’minlashga yordam beradi.

Natijalar. Tahlil ko‘rsatdiki, blokcheyn texnologiyasi ta’lim tizimida ma’lumotlar xavfsizligi va shaffofligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu texnologiya orqali akademik ma’lumotlar soxtalashtirilishining oldi olinadi, talaba sertifikatlarini ishonchli tekshirish imkoniyati yaratiladi. Biroq, texnik va xavfsizlik muammolari mavjudligi tizimning kengayishi va samaradorligini cheklab qo‘yishi mumkin.

Xulosa Ta’limda blokcheyn texnologiyasining joriy etilishi ta’lim jarayonini ishonchli, shaffof va xavfsiz qilishda yangi imkoniyatlar ochadi. Shu bilan birga, texnologiyaning samarali va xavfsiz ishlashi uchun zamonaviy xavfsizlik protokollarini joriy etish, texnik cheklovlarni bartaraf etish va foydalanuvchilarni tayyorlash muhimdir.

Kelajakda ta’lim muassasalari blokcheyn texnologiyasidan kengroq foydalanib, raqamli ta’limni yangi bosqichga ko‘tarish imkoniga ega bo‘lishadi. Bu jarayon global ta’lim tizimlarining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mahmudova, M., & Kodirov, A. (2023, October). ANALYSIS OF SOFTWARE VERSION CONTROL SYSTEMS. In *Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions"*.
2. Mahmudova, M., & Abdullayev, A. (2023, October). HAR BIR WEB-ISHLAB CHIQUVCHI BILISHI KERAK BO ‘LGAN WEB-TEXNOLOGIYALAR. In *Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions"*.
3. Mahmudova, M. (2023, October). MA’LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORTIMLASHNING TAHLILI JARAYONI. In *Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions"*.
5. Mahmudova, M., & Toxirova, S. (2023, October). MULTISERVISLI TARMOQ XAVFSIZLIGIDA NEYRON TARMOQLARINI O ‘RNI. In *Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions"*.
6. Zulunov, R. M., & Mahmudova, M. (2022). Sun’iy intellektning insoniyat faoliyatida tutgan o ‘rni va neyrokibernetika sohasi. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(7), 2-7.

7. Mahmudova, M., & Zulunov, R. (2023). TIBBIYOT MUASSASALARIDA ELEKTRON NAVBAT TIZIMI. *Потомки Аль-Фаргани*, *1*(2), 53-57.
8. Jasur K. CONSULTING AS A RESOURCE FOR PROFESSIONAL AND PERSONAL DEVELOPMENT OF LEADERS OF TERRITORIAL INTERNAL AFFAIRS //E-Conference Globe. – 2021. – С. 54-57.
9. Xolmatov A. A., Karimov J. X., Xayitov A. M. Effect of crystallizer catalyst on properties of glass-crystalline materials //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2021. – С. 273-275.
10. Каримов Ж. Х., Фозилов И. Р. Управление многостадийными процессами путём оптимизации глобальных целей системы //Universum: технические науки. – 2020. – №. 3-1 (72). – С. 16-20.
11. Jasur K. POSSIBILITIES OF MODERN POLYGRAPH INSTRUMENTS IN THE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF THE INTERNAL AFFAIRS //E-Conference Globe. – 2021. – С. 312-314.
12. Каримов Ж. Х. ПРОЦЕДУРЫ ОПТИМИЗАЦИИ ГЛОБАЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МНОГОСТАДИЙНЫМИ ПРОЦЕССАМИ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-1 (92). – С. 48-52.

O`ZBEKISTON MILLIY STATISTIKA TIZIMI VA UNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI.

Fozilov Hayot Raximovich, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Farg‘ona Davlat texnika universiteti.
Fozilov Ibroximjon Raximovich, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Farg‘ona Davlat texnika universiteti.

ANNOTATSIYA: Maqolada O`zbekiston milliy statistika tizimi, uning o`tmishi, rivojlanish bosqichlari, prinsiplari, hamda raqamli iqtisodiyot sharoitidagi ahamiyati, statistika tizimini rivojlantirishdagi ayrim muammo va kamchiliklar, shuningdek, ularni bartaraf qilish yo`llariga batafsil tuxtalib o`tiladi.

**KALIT SO`ZLAR:** Raqamli iqtisodiyot, statistika, uning prinsiplari, mustaqillik, shaffoflik, maxfiylik, dolzarblik, aholini ro`yxatga olish, milliy boylik.

Iqtisodiy islohotlar rivojlanib borar ekan o`tayotgan har bir kunimizda yangidan-yangi iqtisodiy kategoriyalar, tushunchalar hayotimizga juda tez sur`atda kirib kelmoqdaki, hatto ularni aniglash, idrok qilish, nazariy va amaliy jihatdan anglab olishning o`zi ko`pincha qiyinchilik tug`dirmoqda. Ana shunday tushunchalardan biri bo`lgan “raqamli iqtisodiyot” termini bugungi kunda juda ko`p baxs va munozaraga boy mavzulardan biri ekani hech kimga sir emas.

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo`llash asosida amalga oshirish tizimidir. Mutaxassislarning fikriga qaraganda 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “**raqamli iqtisodiyot**” terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu iborani butun dunyodagi siyosatchi va iqtisodchilar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo`llamoqda.

Ta`kidlash joizki, bugungi kunda O`zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun imkoniyatlar, shart-sharoitlar yetarlicha, biroq fikrimizcha rivojlanish bosqichi juda sekin bormoqda**[2].**

Statistika raqamlardan iborat, ha u asosan raqamlar bilan ishlaydi. Unga asosan sonlar, raqamlar ularning o`zgarishi dinamikasiga albatta hisob-kitoblar asosida baho beriladi. Bir so`z bilan aytganda har kunlik hayotimizning o`zi ham bevosita raqamlar bilan bog`liq. Raqamli iqtisodiyot noldan boshlangan butunlay yangi iqtisodiyot deyish o`rinli emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko`chirish deganidir. Masalan, xaridorga biror bir buyum kerak bo`ldida , aytaylik uni bozorga tushib o`zi bevosita tanlab va naqd pulga sotib oldi, bu an`anaviy iqtisodiyot. SHuni telegramdagi biron savdo boti orqali o`ziga ma`qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to`lov tizimi orqali to`lasa va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olsa, bu – raqamli iqtisodiyot deyiladi. Aslida, hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan deyarli har kuni foydalanamiz. Masalan, oyliklarning plastik kartalarga tushishi, elektron to`lov orqali kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to`lovlar qilish, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi topshirish, kartadan kartaga pul o`tkazish, uyga taom buyurtma qilish va hokazo.

Dastlab ana shu raqamlardan iborat bo`lgan statistika haqida, uning bugungi kuni, barcha talablarga javob berishi, aniqroq aytadigan bo`lsak statistika amalda barcha printsiplariga mos keladimi yoki yo`qmi? –degan o`rinli savolga javob berib o`tsak..

Statistikaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

-mustaqillik;
-tushunarlilik va shaffoflik;
-aniqlik va ishonchlilik;
-beg`arazlik va xolislik;
-statistik maxfiylik;
-dolzarblik.

Davlat va jamiyat boshqaruvida qarorlar qabul qilish jarayonlarini miqdoriy va sifatli ko`rsatkichlar bilan ta`minlashda statistika tizimining ahamiyati va o`rni beqiyos **[1].**

Bundan tashqari, parlament nazoratini samarali amalga oshirish, qonun hujjatlarini qabul qilishda ham statistik ma`lumotlarga tayaniladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida statistika davlat, jamiyat va biznesni ob`yektiv, ishonchli hamda shaffof ma`lumotlar bilan ta`minlovchi umummilliy manba sifatida shakllanishi kun tartibida eng dolzarb masala sifatida turibdi. Sir emaski, bugungi kunda, statistik ma`lumotlardan

jamiyatning barcha a`zolari to`liq va cheklovlarsiz foydalanishi, statistikaning ijtimoiy ne`mat sifatida shakllanishi uchun ma`lumotlarning ochiq va ishonchli bo`lishiga talab tobora kuchayib bormoqda.

Sohada sanab o`tish joiz bo`lgan kamchiliklar ham bor albatta. Ularning ayrimlariga to`xtalib o`tsak. Ushbu kamchiliklardan biri bevosita aholi statistikasi xususan aholini ro`yxatga olish tadbirlari bilan bog`liqdir.

Aholini ro`yxatga olish** – bu mamlakat aholisining muayyan vaqtdagi **“fotosurati”**ni olish imkonini beruvchi umumdavlat miqyosidagi keng ko`lamli tadbir bo`lib, aholi soni va tarkibi to`g`risidagi ishonchli axborot manbai hisoblanadi. Agar ushbu tarif to`g`ri bo`ladigan bo`lsa nima uchun mustaqilligimizga 30 yildan oshayotgan bo`lsada bu tadbir amalga oshirilmagan. Yoki biz ushbu tadbirga ketadigan mablag`ni tejab, biror bir undanda foydali va muhimroq bo`lgan sohalarni rivojlantirish bilan bandmizmi? Negadir O`zbekiston hududida aholini ro`yxatga olish ishlari oxirgi marotaba 1989 yilda amalga oshirilgan xolos **[5,6].

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi “O`zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro`yxatga olishni o`tkazish kontseptsiyasini tasdiqlash to`g`risida” PF-5655-sonli Farmoniga ko`ra 2022 yilda aholini ro`yxatga olish o`tkazilishi nazarda tutilgan edi. Farmonda keltirilishicha, mustaqillik yillarida O`zbekistonda aholini ro`yxatga olish o`tkazilmagan. Respublikamizda demografik jarayonlarning holatini o`rganishda mamlakat hududida o`tkazilgan aholi ro`yxati ma`lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Manbalarga ko`ra, O`zbekiston hududida dastlabki aholi ro`yxati 1897 yilda o`tkazilgan bo`lib, ushbu ro`yxat ma`lumotlari XIX asr oxirida O`zbekistonda mavjud oilalar soni, aholi soni, yoshi va jinsi, tug`ilish, o`lim kabi demografik jarayonlar haqida tassavvur hosil qilishga yordam bergan .

Yana bir ma`lumot statistikada O`zbekiston Respublikasi milliy boyligining hajmi 1991 yil 1 sentyabrdan hisoblana boshlangani ta`kidlab o`tiladi. Lekin manbalarda na 1991 yilgi va na hozirgi davrdagi milliy boylikning hajmi haqidagi ma`lumotlarni ko`rish mumkin. Bu nimadan dalolat beradi ?. Bu ko`rsatkichlarni hisoblashga, uni keng ommaga haqqoniy va shaffoflik printsipida yetkazib berilishiga nima to`sqinlik qiladi?-degan o`rinli savol barchani qiynab kelmoqda. Fikrimizcha, statistika yuqorida sanab o`tilgan barcha printsiplarga amal qilgan holda yuritilishi shart **[6]**

Ta`kidlash joizki, mamlakatimizda so`nggi yillarda statistika tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O`zbekiston Respublikasi prezidentining «O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 2017 yil 31 iyuldagi PQ-3165-son va «Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta`minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi 2019 yil 9 apreldagi PQ-4273-son qarorlari, 2021 yil 11 avgustda «***Rasmiy statistika to`g`risida***»gi O`RQ-707-son Qonuni qabul qilingan.

Natijada, statistika tizimida bir qator ijobiy o`zgarishlarga erishildi.

Jumladan:

- inflyasiyani hisoblash usuli xalqaro standartlarga moslashtirilib, kuzatuvdagi tovarlar tarkibi 334 tadan 2020 yilgan boshlab 510 taga kengaytirildi;
- oltin zaxirasi, tabiiy boyliklar, Davlat byudjeti va tashqi qarz haqidagi ma`lumotlar ochiq e`lon qilinmoqda;
- Jahon bankining statistika salohiyati indeksida O`zbekiston ko`rsatkichi 2021 yilda 67,8 ballgacha ko`tarildi va 154 davlat orasida 67 o`ringa ega bo`ldi;
- Xalqaro valyuta jamg`armasining ma`lumotlarni tarqatish umumiy tizimi doirasida axborot almashinuvi yo`lga qo`yildi;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining «UN Comtrade» xalqaro tashqi savdosi axborotlar bazasiga qo`shilishi ta`minlandi .

Shu bilan birga, sohada axborotlarning umumiy foydalanish uchun ochiqlik holati, ochiq ma`lumotlarning oshkoralik va sifat darajasi, ularni fuqarolarga va jahon hamjamiyatiga yetkazishning amaldagi mexanizmlari qabul qilingan xalqaro talablarga to`liq javob bermasligi kabi bir qator muammolarning mavjudligi mamlakatimizning statistika salohiyati indeksidagi o`rni pastligiga sabab bo`lmoqda.

Bugungi kunga kelib statistika tizimida ham avtomatlashgan tizimdan keng foydalanilmoqda. Masalan, EXCELL dasturidan foydalanib korxonalar, moliya, bank, sug’urta, statistik tahlil va boshqa barcha xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatiga avtomatlashgan chizmalar, grafik va diogrammalar asosida baho berilmoqda. 1S dasturining joriy qilinishi ham buxgalteriya hisobidagi yana bir muvoffaqiyatdir. SHunday ekan, statistik tadqiqotlarni amalga oshirishning murakkabligini kamaytirish va ma’lumotlarning ob’ektivligini, haqqoniyligi va shaffofligini oshirish uchun ma’lumotlarni birlamchi ro’yxatdan o’tkazishni mashinalarga o’tkazish maqsadga muvofiqdir. Axborotga qo’yiladigan talablardan biri buxgalteriya hisobi va statistik ma’lumotlarining birligi. Birlamchi hujjatlar birlashtirilgan bo’lishi kerak.

Kompyuterlar nafaqat odamni, menejment, iqtisodiyot, statistika yoki buxgalteriya hisobidagi muntazam ma’lumotlarni qayta ishlashdan ozod qiladi, balki ularning asosida yangi axborot va texnologik qarorlar qabul qilish bazasi shakllanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar kompyuter modellashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayni paytda dasturiy ta’minotning yangi versiyalari, statistik tizimning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish tizimlari tobora ko’payib bormoqda, yangi dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bunga statistiklar, iqtisodchilar va dasturchilar-ishlab chiquvchilarning birgalikdagi faoliyati yordam beradi **[3,4].**

Statistika tizimidagi ushbu muammolarni bartaraf etish amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ta`minlashda, mamlakatimiz nufuzi va investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlashda, jahon hamjamiyati oldida rivojlanishning ochiqlik prinsiplarini namoyish etishda asosiy vosita sifatida namoyon bo`ladi.

Sohada xorijiy davlatlar tajribasiga nazar soladigan bo`lsak, AQSh, Germaniya va Hindiston kabi iqtisodiyoti rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarning statistika tizimi bir necha alohida mustaqil organlardan tashkil topgan. Ushbu organlar

faoliyati o`zaro uzviylikda va uyg`unlikda amalga oshirilib yagona tizimni tashkil etadi. Misol uchun, AQShda Sog`liqni saqlash statistikasi milliy markazi, Ta`lim statistikasi milliy markazi, Mehnat statistikasi byurosi kabi 9 dan ortiq statistik organlar o`zaro uyg`unlikda faoliyat yuritib yagona federal statistika tizimini tashkil etgan**[5]**.

Fikrimiz nihoyasida shuni aytish mumkinki, milliy statistika tizimini rivojlantirish o`z navbatida mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jabhalarida barqaror rivojlanishni ta`minlashda, amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning natijadorligini aks ettirishda hamda mavjud kamchiliklarni belgilab olish va istiqbolda ularni samarali bartaraf etishda xizmat qiluvchi ko`zgu sifatida namoyon bo`ladi. Shaffof, ochiq va ishonchli statistik ma`lumotlarning mavjudligi mamlakat ravnaqining va unda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. «*Rasmiy statistika to`g`risida*»gi Qonun. O`RQ-707-son.2021 yil 11 avgust .
2. Jumaev.N. / Raqamli iqtisodiyot nega kerak va u nima beradi? / https://review.uz/oz/post/ raqamli iqtisodiyot-mamlakatimiz taraqqiyoti garovidir.
3. Rakhimovich, Fozilov Ibrokhimjon, and Fozilov Hayotjon Rakhimovich. "ASPECTS OF DEVELOPMENT OF ECONOMIC ANALYSIS IN THE CONDITIONS OF DIGITAL ECONOMY." life 2.15: 17.
4. Фозилов, Х. Р., & Фозилов, И. Р. (2020). Экономический анализ и его роль в управлении предприятием. Вопросы управления и экономики: современное состояние актуальных проблем (pp. 16-19).
5. Fozilov H.R. Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy statistika tizimidagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etish yo`llari. FarPI, ilmiy-texnika jurnali 10-son 235-238 b.
6.Fozilov H.R. O`zbekiston milliy statistika tizimini takomillashtirish masalalari. FarPI, ilmiy-texnika jurnali 13-son 257-260 b.

ENERGETIKA RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI .

Fozilov Hayot raximovich, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Farg‘ona Politexnika Instituti.
Fozilov Ibroximjon Raximovich, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Farg‘ona Davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda mamlakat sanoat korxonalarida energetika resurslaridan foydalanish holati,uning samaradorligi tahlili, unda xarajatlarni tejash, energetika samaradorligini oshirish bo`yicha chora tadbirlar masalalariga atroflicha to`xtalib o`tilgan.

Kalit so‘zlar: Sanoat korxonalari, energiya resurslari, energiya resurslariga talab, samara, samaradorlik tahlili, tizimli tahlil, energiya tejash siyosati.

Аннотация: В данном исследовании подробно рассмотрено состояние использования энергетических ресурсов на промышленных предприятиях страны, анализ его эффективности, меры по экономии затрат, повышению энергоэффективности.
Ключевые слова: Промышленные предприятия, энергоресурсы, спрос на энергоресурсы, эффективность, анализ эффективности, системный анализ, политика энергосбережения.

Abstract: This study examines in detail the state of use of energy resources at industrial enterprises in the country, analysis of its effectiveness, measures to save costs, and improve energy efficiency.
Key words: Industrial enterprises, energy resources, demand for energy resources, efficiency, efficiency analysis, system analysis, energy saving policy.

Mamlakatimizda energiya resurslaridan oqilona foydalanish masalasi har doim kun tartibidagi dolzarb vazifa bo'lib hisoblangan. Energiya resurslariga bo'lgan talabning tobora ortib borayotgan bugungi davrida bu masala yanada ko`proq baxs-munozaralarga sabab bo`lmoqda. Bugungi kunda energiya tejamkorligining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini shu yo'nalishda yaqin yillar ichida qabul qilingan va qilinayotgan farmon, qaror va bir qator me'yoriy hujjatlar misolida ko'rish mumkin. Bu kabi amaliy ishlarning mantiqiy davomi sifatida jahon andozalari asosida sanoat korxonalarining texnologik jarayonlarda, maishiy iste'molchilarda va boshqa turdagi energiya iste'moli obyektlarida yangi energiya tejash texnologiyalari joriy etilmoqda. Shundan kelib chiqib, energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan malakali yosh mutaxassislarni tayyorlash yuqoridagi dolzarb vazifaning yechilishida muhim rol o 'ynaydi. Bu vazifalarni esa ushbu sohadagi korxonalar faoliyatini tizimli tahlil qilish orqali amalga oshirish mumkin.
Tizimli tahlil usullarini qo‘llash natijasida quyidagi ishlar bajariladi:

- Energiya iste’moli anomal yuqori bo‘lgan barcha korxonalarni aniqlash;
- Energetika tekshiruvlarini o‘tkazish va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni joriy qilish uchun birlamchi korxonalarni aniqlash;
- Energiya iste’molini tejashga doir texnik va tashkiliy chora tadbirlarni rejalashtirish uchun korxonalarning energiya iste’molini prognoz qiymatlarini aniqlash;
- Korxonalarda energiya iste’molini nazorat etish uchun yillik me’yorlarini (limitlarni) aniqlash.

Tizimli tahlil natijalari asosida quyidagilarga erishiladi:

- Energiya iste’moli anomal yuqori bo‘lgan barcha korxonalarga tavsiyalar ishlab chiqiladi;

- Umumiy tizim (soha) bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi;
- Hisobot shakllantiriladi.

Milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini kuchaytirish va tarkibiy islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani ro‘yobga chiqarish, muvaffaqiyatlarni mustahkamlash uchun yana bir qator dolzarb masalalarni hal qilish talab etiladi. Xususan, mamlakatda energetika resurslaridan foydalanish tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqilib, taraqqiyotning energiya samaradorligini ta'minlaydigan modeliga o‘tish bugungi kun zaruratidir.

Binobarin, respublikamizda sanoatlashish sur'ati hamda aholi sonining jadal o‘sishi tufayli energiya iste'moli, ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlarining energetika resurslariga bo‘lgan ehtiyoji sezilarli darajada ortib boraveradi. Chunki mamlakatimiz aholi soni bir kunda 2000 taga yaqin ko`paymoqda. Bu, o‘z navbatida, uglevodorod resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanishni taqozo qiladi. Nega deganda, ushbu xomashyo zaxiralari chegaralangan. Hisob-kitoblarga qaraganda, resurslar iste'molining bugungi hajmi saqlanib qoladigan bo‘lsa, 2030 yilda energetika resurslarining tanqisligi jami ehtiyojga nisbatan 65,4 foizni tashkil qilishi ehtimoli bor.

Uglevodorod resurslari orasida tabiiy gazga alohida e'tibor talab etiladi. Chunki elektr energetikasida birlamchi issiqlik-energetika resurslari ehtiyojlari tarkibida tabiiy gazga bog‘liqlik 85 foizdan ortadi. Tabiiy gaz sarfining 42 foizi elektr energiyasini ishlab chiqarishga, 27 foizi aholi, 26 foizi iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini ta'minlashga to‘g‘ri keladi.

Kimyo sanoatidagi yuqori energiya sarfi o‘z-o‘zidan mahsulot tannarxining ortishiga hamda uning yetarli darajada raqobatdosh emasligiga asosiy sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston kimyo sanoati korxonalarida mahsulot chiqarish narxida xarajatlar ulushi 99,7-100 foizni tashkil qiladi. Ulardan 64 foizi aynan energetika resurslariga sarflanadi. Vaholonki, zamonaviy texnologiya va asbob-uskunalarni qo‘llaydigan xorijiy korxonalarda bu ko‘rsatkich 25 — 30 foizdan iborat, xolos.

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatayaptiki, O‘zbekistonda birmuncha tejamkor quvvatlar ishga tushirilsa, energiya sarfini 2 — 2,5 baravarga, ammiakning tannarxini esa 1,8 baravarga pasaytirish mumkin. Bunday holat boshqa turdagi mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishda ham kuzatilmoqda. Masalan, azot ishlab chiqarishda mahsulot tannarxida energiya resurslarining ulushi 70 foizdan ortiqni tashkil qiladi, energiya sarfi esa xorijdagiga nisbatan 2 — 2,5 baravardan oshadi.

Bunda kimyo sanoatida energiya samaradorligini oshirish mavjud ammiak va azot ishlab chiqarish quvvatlarini ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish orqali to‘liq modernizatsiyalashni hamda energiya ko‘p iste'mol qiladigan quvvatlarni ekspluatatsiyadan chiqarishni taqozo etmoqda. Bu ammiak tayyorlashda energiya sarfini 1,5 — 2 baravarga kamaytirishga zamin yaratadi. “Farg‘onaazot”da bu borada aniq bir strategiya yo‘q. Taajublanadigan tomoni shundaki, ushbu korxona mahsulotlari tashqi bozor u yoqda tursin, ichki bozordagi raqobatga ham bardosh bera olmayapti.

Qurilish materiallari sanoati ham issiqlik-energetika resurslarining yirik iste'molchisi hisoblanadi. Mazkur sohada mahsulot ishlab chiqarish hamda sotishda yonilg‘i va energiya sarfi ulushi 50 foizga yetadi. Misol uchun, “Ohangaronsement”da bir tonna mahsulot ishlab chiqarishga 286,7 kilogramm, “Quvasoysement”da 246,6 kilogramm, “Bekobodsement”da esa 230 kilogramm shartli yonilg‘i ketadi. Ammo ushbu ko‘rsatkich ham Yaponiya, Koreya Respublikasidagi tegishli korxonalar bilan qiyoslanganda, 30 foiz ko‘p. Samaradorligi yuqori bo‘lgan texnologiyalarni joriy etish orqali energiya iste'molini, hatto, 30 foizga kamaytirish istiqbolda sement zavodlarida 230 ming tonna shartli yonilg‘i yoki 200 million kub metr tabiiy gaz tejab qolish imkoni tug`iladi. Natijada sement tannarxi 15 - 20 foiz arzonlashishi mumkin.

Bularning barchasi energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha uzoq muddatli davlat strategiyasini ishlab chiqish va qabul qilish zaruratini tug‘dirmoqda. Unda iqtisodiyotning barcha soha hamda tarmog‘ida energiyani tejash, xalq xo‘jaligi va aholi iste'molida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, elektr energiyasi ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy quvvatlarni ishga tushirish, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish masalalarini kompleks hal qilish yo‘llari nazarda tutilardi. Energiya samaradorligini yuksaltirishdek foydalanilmay yotgan ulkan zaxirani ishga solish, shubhasiz, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan belgilab berilgan milliy iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirish hamda yalpi ichki mahsulotimizning yuqori sur'atlarda o‘sishini ta'minlash bo‘yicha ustuvor vazifalarni hal qilishda muhim o‘rin tutadi.

Davlatning energiya tejash siyosati - bu quyidagi yo'llar bilan energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha uzoq kelajakka m'oljallangan tadbirlar majmuasidir:

- jamiyat talabining zarur hajmini qoniqtirishda oxirgi (so'nggi) energiya sarfini qisqartirish;
- «qazib olish-o'zgartirish -taqsimlash - foydalanish» tizimining har bir bosqichini takomillashtirish hisobiga energiya resurslaridan samarali foydalanishni oshirish;
-zaxirasi chegaralangan energiya manbalarini (tabiiy gaz va nefit) boshqa ancha arzon bo'lgan (ko'mir) va tiklanuvchi energiya manbalari bilan almashtirish;
-ekologiya talablarini qondirgan holda, energiya resurslaridan foydalanishning energiya samaradorligini oshiradigan kelajagi porloq texnogoliyalami qoilash.

Energiya tejashning
davlat tomonidan rostlanadigan va amalga oshiriladigan tadbir majmuasi tizimining asosiy masalalari:

-energiya tejash tadbirlarini amalga oshirishni rag'batlantirishga mos keladigan qonuniy, huquqiy - me'yoriy va uslubiy asoslami hosil qilish;
-elektr energiya ishlab-chiqaruvchilarni huquqiy va iqtisodiy jihatdan qiziqtiradigan mos sharoitlar bilan ta'minlash;
-iste'molchilar tomonidan energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi darajasini va energiya tejash potensialini aniqlash.

Xulosa qilib aytganda, energiya samaradorligini yuksaltirishdek foydalanilmay yotgan ulkan zaxirani ishga solish, shubhasiz, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan belgilab berilgan milliy iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirish hamda yalpi ichki mahsulotimizning yuqori sur'atlarda o‘sishini ta'minlash bo‘yicha ustuvor vazifalarni hal qilishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. ENERGETIKA SOHASINI ISLOH QILISHNING NAVBATDAGI BOSQICHINI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.09.2023 yildagi PF-166-son

2.Костикова, В. С. (2019). Формирование интегрированной системы учета затрат и калькулирования себестоимости на электротехнических предприятиях. Молодой ученый, (32), 30-32.

3. Фозилов Х.Р./Роль экономического анализа в эффективном управлении предприятиями//UNIVERSUM: ЭКОНОМИКА И ЮРИСПРУДЕНЦИЯ/№9-10(74) сентябрь,2020

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Energetika sanoati

5. https://yuz.uz/uz/news/2016--2022-yillarda-respublikamizda-qancha-elektr-energiyasi-ishlab-chiqarilgan

3D LOYIHALARNI DASTURLASH JARAYONI VA UNING ZAMONAVIY YECHIMLARI

Fozilov Ibroximjon Raximobich
FDTU, Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi katta o’qituvchisi
Quchqarova Mavludaxon Mamirovna
FDTU, Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada modellashtiruvchi dasturlar va ularning qo’llanilish soxalari haqida aytib o’tilgan. Rivojlanib borayotgan soxaning kelajak tizimlarini yaratishdagi o’rni va ishlab chiqarish jarayonlaridagi ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so’zlar: *modellashtirish, model, kimyo sanoati, muhandislik tizimlari, mexanika.*

Hozirgi vaqtda kompyuterlashtirish ilmiy-tadqiqot va loyihalash tashkilotlari faoliyatiga jadal kirib bormoqda, loyihalash ishlari prinsipial jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda, bunda loyihalash tezligi va sifati sezilarli darajada tezlashadi, murakkab muhandislik muammolari katta asosli hal qilinmoqda. Ko'p jihatdan bunga mustaqil dasturiy mahsulotlar sifatida ham, taniqli amaliy dasturlar paketlariga qo'shimchalar va ilovalar sifatida ham amalga oshiriladigan yuqori samarali ixtisoslashtirilgan dasturlardan foydalanish yordam beradi. Ixtisoslashtirilgan dasturiy mahsulotlar va

loyihalash ishlarini avtomatlashtirish uchun maxsus texnik vositalarni yaratish bo'yicha tadbirlar modellashtirishni yaratish doirasida amalga oshiriladi.

CAD (inglizcha CAD, Computer-Aided Design) - texnik ob'ektlarni ishlab chiqish (loyihalash) va texnologik va / yoki loyiha hujjatlarini bajarish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot to'plami.

Ko'p funksiyali modellashtirish tizimlari tarkibida, qoida tariqasida, uchta komponent mavjud: modellashtirish, CDAM, CAE. CAD (Computer Aided Designed) blok modullari asosan grafik ishlarni bajarish uchun, CAM (Computer Aided Manufacturing) modullari - ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashdagi muammolarni hal qilish uchun, CAE (Computer Aided Engineering) modullari - muhandislik hisoblari, tahlil qilish va tekshirish uchun ishlatiladi. dizayn yechimlari.

Hozirgi vaqtda barcha yirik ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlari, ishlab chiqarish korxonalari va muhandislik firmalari o'z ishlarida texnologik jarayonlarni hisoblash dasturlarini almashtirgan kompyuterga asoslangan jarayonlarni modellashtirish tizimlaridan (CAM / CAE-tizimlari) foydalanadilar. CAM/CAE tizimlari deyarli har qanday jarayonlar va texnologik sxemalarni tez “yig‘ish” imkonini beruvchi “dasturiy ta’minot konstruktorlari” bo‘lib, texnologik ish rejimlarining ko‘p qirrali hisob-kitoblarini, moddiy va issiqlik balanslarini, xom ashyo va mahsulotlar sifatining asosiy ko‘rsatkichlarini bajarishga imkon beradi. Eng "ilg'or" jarayonni simulyatsiya qilish tizimlari jarayon parametrlarini avtomatik tartibga solish va boshqarish uchun tizimlar va alohida sxemalarni yaratishi, jarayon parametrlarini va ularning tanlangan jarayon sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini hisoblashni amalga oshirishi, optimallashtirish muammolarini hal qilishi mumkin. Bundan tashqari, bir qator tizimlar nafaqat o'rnatish sxemalari bilan, balki ustaxonalar, fabrikalar va hatto korxonalar bilan ham ishlashga imkon beradi. CAM/CAE tizimlarining ko'lami texnologiya holatini batafsil tahlil qilish va mavjud tarmoqlar uchun zarur bo'lgan yetishmayotgan ma'lumotlarni aniqlash, yangi ishlab chiqarishlarni optimal loyihalash va mavjud tarmoqlarni modernizatsiya qilish uchun texnik echimlarni ishlab chiqish, uzoq muddatli istiqbollarni asoslashdir. va xomashyoni qayta ishlashning joriy rejalari va boshqalar. Shunday qilib, ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlari va korxonalarida texnologik simulyatsiya tizimlari zudlik bilan zarur.

Ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va texnologiyani modernizatsiya qilish yechimlarini topishda jarayonni modellashtirishdan foydalanish ham juda samarali. qoida tariqasida, korxonalarning ishlashi davomida vaqti-vaqti bilan ba'zi texnologik qurilmalarni, ularning quvurlarini muqobil texnik yechimlarni oldindan o'rganish bilan rekonstruksiya qilish zarurati tug'iladi. Korxonada ishlaydigan obyektlarning texnologik modellari yordamida bu vazifani juda mohirona va minimal xatolar bilan hal qilish mumkin. Bu modellarning hisoblash tahlili oxir-oqibatda barcha irratsional variantlardan voz kechish, qayta qurish tushunchalarini aniqlashtirish va minimal vaqt va kuch sarflagan holda barcha maqbul echimlarni aniqlash imkonini berishi bilan

izohlanadi. Nihoyat, texnologik modellar texnologiya holatini tahlil qilish, shuningdek, uzoq muddatli va joriy rejalarni asoslash uchun juda foydali.

Hozirgi vaqtda simulyatsiya tizimlari bozorida uchta kompaniyaning mahsulotlari - Hyprotech, Aspen Technologies va Simulation Sciences (SimSci) yetakchilari hisoblanadi. Kanadaning Hyprotech LTD kompaniyasining dasturiy mahsulotlari hisoblanadi. Neftni qayta ishlash, gazni qayta ishlash va neft kimyosining asosiy jarayonlarini statik modellashtirish uchun mo'ljallangan. Aspen Plus - kimyoviy va fazali o'zgarishlarga asoslangan jarayonlarni statik modellashtirish uchun ochiq tizim. Pro II / ProVision deyarli barcha kimyo va neft-kimyo sanoatini taqlid qilish qobiliyatiga ega bo’lib, tizimda elektrolitlar eritmalari bilan jarayonlarni qayta ishlash, reaktorlar, ajratish uskunalari, patnis va qadoqlangan distillash ustunlarining gidravlik hisob-kitoblarini bajarish uchun keng imkoniyatlar mavjud. COMFORT - bu simulyatsiya tizimi bo'lib, u turli xil kimyo sanoatining moddiy va issiqlik balanslarini loyihalash va tekshirish hisoblarini amalga oshirish uchun vositadir. Autodesk, Inc. kompaniyasi dizaynerlar, muhandislar, arxitektorlar uchun loyihalarning raqamli modellarini yaratishga imkon beruvchi keng ko'lamli dasturiy yechimlarni yaratmoqda. Kompaniya yaratgan AutoCAD va 3Ds MAX dasturlari juda ham mashxur bo’lib, sohalarda keng qo’llanilmoqda. Pro/ENGINEER - loyihalashning barcha sohalarini, ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash va mahsulot ishlab chiqarishni qamrab oluvchi tizim. 3D modellash vositalarining keng imkoniyatlari, dizayn natijasining yuqori sifati, uning keyingi o'zgartirish va takomillashtirishga chidamliligi CAD/CAM/CAE tizimlarida uni yuqori darajali dastur sifatida namoyon qiladi. VariCAD dasturi standart mexanik qismlar kutubxonalarini, 3D modellashtirish va 2D chizish vositalarini, ular uchun zarur bo'lgan barcha hisoblash usullarini o'z ichiga oladi. *SolidWorks - SolidWorks korporatsiyasining mahsuloti bo'lib, kompyuter yordamida loyihalash, muhandislik tahlili va har qanday murakkablik va maqsadli mahsulotlarni ishlab chiqarishga tayyorlash tizimi bo’lib mashinasozlik va murakkab tizimlarni avtomatlashtirish jarayonida keng qo’llab kelinmoqda.* Robototexnika soxasida ham modellashtirish jarayoni, innovatsion loyihalarni axborot tizimlarida qo‘llash uchun, uch o'lchamli tasvirlarning sohada qo'llab-quvvatlash va ahamiyati haqida ma'lumot berilgan 3D tasvirlar qo'lga kiritilgan tekshiruvlar ko'rib chiqilmoqda.

Ushbu tizimlarni o’rganish va amaliyotga joriy etish hali ham davom etmoqda. Kelajakda barcha sohada modellashtirish va uni real obyektga aylantirish jarayoni kuzatilishi bilan birga uni amaliyotga tatbiq qilish mumkin. CAD/CAM/CAE tizimlari ko’payib borishi zamonning talabi va biz unga bo’lgan munosabatlarni barcha sohalarda joriy etilishi bilan bog’lay olamiz. Yuqoridagi tizimlarini rivojlantirish istiqbollari tegishli dasturlar bilan yaqin integratsiyadir. Ushbu integratsiyaning mohiyati hisoblash va grafik dasturlari o'rtasida yaqin aloqani o'rnatishdan iborat. Bunday integratsiya jarayonlarni avtomatlashtirish orqali texnologik hisob-kitoblar, modellashtirish va loyihalashning barcha bosqichlarini yagona axborot makonida

birlashtirish va buning natijasida “loyihalash – ishlab chiqarish – sinovdan o‘tkazish” kabi qimmat va uzoq davom etadigan rivojlanish sikllaridan qochish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ofurovich, T. X. A., & Esonali o‘g‘li, M. Y. (2022). Computer Using Dynamic System Modelling Environments. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(2), 9-13.
2. Avazjon o‘g‘li, V. D., & Esonali o‘g‘li, M. Y. (2022). Use and Importance of Three-Dimensional Images in Fields. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(2), 1-4.
3. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.

INFLIYATSIYA VA UNI JILOVLASH USULLARI.

I.R.Fozilov FDTU “ATT” kafedrasi katta o’qituvchisi.
G.K.Isomitdinova FDTU “MvaBH” kafedrasi assistenti.

Inflyasiya haqida ommaviy axborot vositalari va o‘zaro suhbat orqali ko‘proq eshitamiz. Natijada inflyasiya borasida bizni qo‘rquvga soladigan fikrlar paydo bo‘lishi tabiiy. Axir kim ham ham o‘z mehnati bilan erishgan pul mablag‘lari xarid qobiliyatining kuchsizlanishini istashi mumkin? Bu hodisaning turlicha ko‘rinishlari mavjud. Bugungi kunda bu jarayon bilan ko‘pgina mamlakatlar to‘qnash kelmoqda. Keling, inflyasiya atamasiga soddaroq yondashamiz.

Inflyasiya bu muayyan bir mamlakatdagi qog‘oz pullar aylanmasining ortishi natijasida pulning qadrsizlanishi va mahsulot narxlarining oshishidir. Boshqacha qilib aytganda, sotuvchilar va iste’molchilar qo‘lidagi pul hajmining real taklifdan ko‘ra ancha balandligidir. Talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatning talab foydasiga buzilishi oqibatidir.

Har qanday mamlakatda iqtisodiy inqiroz nafaqat bir odamga, balki butun aholisiga ta'sir qilishi mumkin. Natijalar hayotning barcha sohalariga zararli bo'lishi bilan xavflidir. Inflyatsiya nima ekanligi, turlari, uning paydo bo`lish sabablari, oldini olish va uni bartaraf qilish yo`llari kabi masalalar bugungi kunda ham iqtisodchilar diqqat markazida.

"Inflyatsiya" termini -lotincha "inflation" so'zidan olingan bo'lib, "shishirilgan", "bo'rttirilgan", "ko'pchigan" degan ma'nolarni anglatadi. Inflyatsiyaning iqtisodiy mohiyati muomaladagi naqd pullarning sotib olish qobiliyatining pasayishi, tovarlar va xizmatlarning bahosini o'sib borishini anglatadi. Bu so'z XIX asrning o'rtalaridan boshlab iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy termin sifatida ishlatilgunga qadar, u

tibbiyotda xavfli o'sma kasalligini ifodalashda qo'llanilgan. Tarix haqiqatdan ham bu so'zning har tomonlama xavfli ekanligini ko'rsatdi. Chunki inflyatsiya qandaydir alohida olingan bozorlarda tovarlar va xizmatlar narxining o'sishidangina iborat bo'lmasdan, bu umumiqtisod uchun xavfli hodisadir. Inflyatsiya so'zining iqtisodiy o'girtmasi - muomalada mavjud bo'lgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan ko'p pul chiqarish degan ma'noni anglatadi. Agar tarixga e'tibor beradigan bo'lsak, urush va boshqa ofatlar sababli boshqa xarajatlarning oshib ketishi, inflyatsiya bilan uzviy bog'liq. Masalan, Angliyada kuchli inflyatsiya XIX asrning boshida Napaleon bilan urush davrida, Fransiyada - fransuz revolyutsiyasi davrida, Rossiyada XIX asrning o'rtalarida namoyon bo'lgan. Germaniyada juda yuqori su'atlardagi inflyatsiya 1923 - yillarda bo'lib, muomaladagi pul massasi 496 kvintillion markagacha yetgan va pul birligi trillion marta qadrsizlangan. Bu tarixiy misollar ko'rsatadiki, inflyatsiya hozirgi davr jarayoni bo'lmasdan, balki tarixan mavjud bo'lgan jarayon bo'lib hisoblanadi. Inflyatsiya va uning rivojlanishi alohida olingan mamlakatda ma'lum xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

2023 yili esa 5 % gacha tushirish rejasi mavjud bo`lgani holda, statistik ma`lumot 8,5-9,5 % ni ko`rsatmoqda.

Hozirgi davr inflyatsiyasi, o'tgan davr inflyatsiyasidan farq qiluvchi xusuiyatlarga ega. Oldingi inflyatsiyalar vaqtinchalik bo'lib, ular odatda urush vaqtida harbiy xarajatlarni qoplash uchun qog'oz pullar chiqarilishi natijasida yuzaga kelgan. Oldingi davr inflyatsiyalarining yana bir xususiyati shundaki, ular ma'lum davrda namoyon bo'lgan. Hozirgi davr inflyatsiyasi esa odatda doimiy (xronik) xarakterga ega bo'lib, xo'jalik hayotining barcha sohalarini qamrab olishi bilan, pul omillarida tashqari boshqa iqtisodiy omillarga ta'sir qilishi bilan farqlanadi. Oxirgi yillarda inflyatsiya tez - tez uchrab turadigan jarayon bo'lib, sifati ham o'zgarib bormoqda. Buning sababi shundaki, hozirgi kunlardagi inflyatsiya: birinchidan, uzluksiz baholarning oshishiga; ikkinchidan, pul muomalasi qonuning buzilishi natijasida umumxo'jalik mexanizmining ishdan chiqishiga olib keladi. XX asr inflyatsiyasining asosiy sababi tovar kamyobligigina bo'lib qolmasdan, ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishda krizislar mavjudligi bilan ifodalanadi.

Hozirgi davr inflyatsiyasi:

-birinchidan, pul talabining Tovar taklifidan oshishi natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi;

-ikkinchidan, ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar salmog'ining o'sishi natijasida tovarlar bahosining oshishi va shu sababli pul massasining ortib borishi bilann ifodalanadi.

Endi esa inflyatsiyani jilovlashning bugungi kungi usullaridan biri "Inflyatsion targetlash" usuliga qisqacha to'xtalib o'tsak:

Hozirgi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo'lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda. "Target" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "maqsad" degan ma'noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target) o'rnatiladi. Inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (targeti)ga erishish uchun pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushbu rejimga o'tkazilib, inflyatsiyani pasaytirishda samarali instrument sifatida foydalaniladi. O'z navbatida, ushbu rejimning qo'llanilishi narxlar barqarorligini ta'minlash orqali o'rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy bank inflyatsiya darajasining eng mos maqsad (target)ini aniqlab olib, unga pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanishni muntazam tahlil qilish va pul-kredit siyosati rejalarini keng yoritish orqali erishadi.

Bu rejim o'zining qabul qilingan standartlari va tartiblariga ega. Masalan, makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish tizimidan keng foydalangan holda qaror qabul qilish, suzuvchi valyuta kursidan foydalanish, kommunikatsiyaviy siyosat tamoyillari, valyuta intervensiyasi strategiyasi va boshqalar. Markaziy bank inflyatsiyaning erishilishi zarur eng mos maqsad (target)ini (masalan, inflyatsiyaning 5 foizli darajasiga erishish) o'rnatib, ushbu targetni pulkredit siyosati instrumentlaridan foydalangan holda saqlashi lozim. Narxlar barqarorligini ta'minlash_inflyatsion targetlash rejimiga o'tishda samarali usullardan biri bo'lib, u o'z navbatida, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Markaziy bankning bank tizimi va to'lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta'minlash singari asosiy maqsadlari qatorida turadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, inflyatsion targetlash deganda - oldindan belgilanadigan inflyatsiya darajasi (target)ni keng jamoatchilikka e'lon qilish, hamda ushbu ko'rsatkichga erishish va uni saqlab qolish jarayoni tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tilayotgan bo'lib, 2023 yilda 5 foiz darajadagi inflyatsion maqsad (target)ga erishish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.A.A.Omonov, T.M.Qoraliyev. Pul va banklar: Darslik /- T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. - 448 b

4. Mardonova A.T. Pul va banklar. O’quv qo’llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021 yil, 216 bet.

5.Камолова Л.И. Инфляция ва уни тартибга солишнинг долзарб муаммолари: тизимли ёндашув // Деньги и кредит. 2021. № 3.

6. Муродов С.Р. Инфляция: современный взгляд на вечную проблему. М.: Маркет ДС Корпорейшэн, 2021.

INTELLEKTUAL BOSHQARISH TIZIMLARI: IMKONIYATLARI VA QO'LLANILISH SOHALARI

[1]Minamatov Yusupali Esonali o‘g‘li, [2]Fozilov Ibroximjon Raximovich
1.Stajyor-tadqiqotchi
2.Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada intellektual boshqarish tizimlarining imkoniyatlari va qo'llanilish sohalari tahlil qilinadi. Intellektual boshqarish tizimlari ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Ular biznes, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda qo'llanilib, tashkilotlarga samaradorlikni oshirish va mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash imkoniyatini taqdim etadi. Maqolada IBT’larning amaliy qo'llanilishi va ularning tashkilotlar uchun afzalliklari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: intellektual boshqarish tizimlari, ma'lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, resurslarni boshqarish, mijozlar bilan munosabatlar

Zamonaviy sanoatda murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish tobora qiyinlashib bormoqda. An’anaviy avtomatlashtirilgan tizimlar ko‘pincha moslashuvchanlik va real vaqt rejimida qaror qabul qilish qobiliyatiga ega emas. Shu sababli, intellektual boshqarish tizimlari (IBT) rivojlantirilmoqda. Bu tizimlar texnologik jarayonlarni aniq va samarali boshqarish uchun sun'iy intellekt va mashinali o‘qitish texnologiyalaridan foydalanadi.

IBT real vaqt rejimida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, jarayonlarni optimallashtiradi va inson aralashuvisiz mustaqil qarorlar qabul qiladi. Bu tizimlarning asosiy imkoniyatlari:

- Jarayonlarni avtomatlashtirish va ularning sifatini oshirish;
- Nosozliklarni oldindan aniqlash va profilaktik texnik xizmat ko‘rsatish;
- Energiya samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish.

IBT quyidagi sohalarda keng qo‘llanilmoqda:

- Ishlab chiqarish: Fabrika va zavodlarda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish.
- Transport: Avtonom transport vositalarini boshqarish va yo‘l harakati xavfsizligini ta'minlash.
- Sog‘liqni saqlash: Bemor holatini kuzatish va tibbiy qurilmalarni boshqarish.

Intellektual boshqarish tizimlari sanoatning deyarli barcha sohalarida jarayonlarni avtomatlashtirishni kuchaytiradi. Masalan, avtomobil zavodlarida robotlar yordamida ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi inson omilini kamaytiradi va aniqlikni oshiradi.

Sun'iy intellekt o‘z ichiga sensorlardan olinadigan ma'lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilib, nosozliklarni aniqlash imkonini beradi. Bu texnik xizmat ko‘rsatishni vaqtida amalga oshirib, xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Masalan, havo kemalarida yoki katta ishlab chiqarish ob’ektlarida mashina nosozliklarini ilgariroq aniqlash, muhandislar va texnik xizmat ko‘rsatuvchilar uchun muhimdir.

Intellektual tizimlar energiya resurslarini optimallashtirish orqali energiya sarfini kamaytiradi. Misol uchun, aqlli uy tizimlari elektr energiyasi, isitish yoki sovutishni real vaqt rejimida boshqarib, ortiqcha sarflarni oldini oladi.

Intellektual boshqarish tizimlari (IBT) hozirgi kunda korxona va tashkilotlar uchun strategik ahamiyatga ega. Ular ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilash orqali tashkilotlarning samaradorligini oshiradi. Quyida IBT’larning amaliy qo'llanilishi va ularning tahliliy jihatlari keltiriladi.

IBT’lar katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va samarali ravishda to'playdi. Ushbu tizimlar orqali tashkilotlar o'z ma'lumotlarini markazlashtirilgan platformalarda saqlash va real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniga ega. Masalan, tashkilotlar mijozlar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish orqali ularning ehtiyojlari va xulq-atvorini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

IBT’lar qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish va aniqroq qilishga yordam beradi. Masalan, o'z-o'zini o'rganuvchi algoritmlar yordamida tashkilotlar kelgusidagi tendentsiyalarni prognoz qilish imkoniga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

IBT’lar tashkilotlarning resurslarini yanada samarali boshqarish imkonini beradi. Ular ish jarayonlaridagi samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun foydalidir. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlarida IBT’lar yordamida xatolarni aniqlash va bartaraf etish mumkin.

Intellektual boshqarish tizimlari mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish uchun ham keng qo'llaniladi. Ular mijozlarning fikrlarini tahlil qilish va ularga shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif qilish imkonini beradi. Bu esa mijozlar qoniqishini oshiradi va ularni uzoq muddatli hamkorlikka jalb qiladi.

IBT’lar tashkilotlarga innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishda yordam beradi. Ular yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishda foydalanish uchun ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa raqobatbardosh ustunlik yaratadi.

Xulosa. Intellektual boshqarish tizimlari zamonaviy boshqaruvning ajralmas qismi bo'lib, ularning amaliy qo'llanilishi tashkilotlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Ular ma'lumotlardan samarali foydalanish, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish, resurslarni boshqarish, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash va innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun tashkilotlar IBT’larni o'z faoliyatlariga joriy etish orqali raqobatbardoshligini oshirishlari zarur. IBT texnologiyalari sanoatda samaradorlik va xavfsizlikni oshirishga katta hissa qo‘shmoqda va kelajakda ularning qo‘llanilishi kengayib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davenport, T. H., & Harris, J. G. (2007). Competing on analytics: The new science of winning. Harvard Business Press.
2. Nonaka, I., & Takeuchi, H. (1995). The knowledge-creating company: How Japanese companies create the dynamics of innovation. Oxford University Press.

BIONEFT MAHSULOTLARINING SIFATINI BELGILOVCHI ASOSIY FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLAR

[1]N.Yu.Mamasodikova, [2]R. Mamatov
[1]Farg‘ona Davlat Texnika Universiteti,
[2]Farg‘ona Davlat Texnika Universiteti, talaba

Annotatsiya: Ushbu tezisda bioneft mahsulotlarining sifatini belgilovchi asosiy fizik-kimyoviy xususiyatlar sohasidagi zamonaviy texnologik yutuqlar va ularning qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar: Bioneft, tashqi ko‘rinishlar, hidli, quyuq, moysimon, suyuqlik, turli tusdagi jigar rang, fizik-kimyoviy, analiz, usul, xossa, tarkib, naften uglevodorodlar, aromatik uglevodorodlar, piroliz qurilmasi.

Fizik kimyoviy analiz - modda yoki sistemaning fizik xossalari bilan uning tarkibi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadigan kimyoviy termodinamika usuli. Fizik kimyoviy analizda sistemaning turli fizik xossalari, ko‘pincha fazaviy o‘tish temperaturasi va boshqa issiklik xossalari (issiklik o‘tkazuvchanligi, issiqdik sig‘imi, issiqlikdan kengayishi), elektr (elektr o‘tkazuvchanligi, dielektrik singdiruvchanligi), optik (sindirish ko‘rsatkichi), zichlik, qovushqoqlik, qattiqlik kabi xossalari o‘rganiladi.

Fizik kimyoviy analizning asosiy usuli — xossa (tarkib) o‘zgarishi bilan holat o‘zgarishining geometrik analiziga asoslangan. Chunki fazalar muvozanatlarini analitik aniqlash usuli qiyin bo‘lib, fazalar sohasini taqriban aniqlay oladi. Diagrammalarni geometrik analiz qilish usuli faza strukturasi va tarkibining o‘zgarishini to‘g‘ri aniklashga imkon beradigan yagona usul hisoblanadi.

Bu Fizik kimyoviy analizning ba’zi ko‘p fazali, ko‘p komponentli sistemalar — qotishmalar, minerallar, eritmalar, karbidlar, oksidlar, yarim o‘tkazgich va o‘ta o‘tkazgich materiallar, organik birikmalardan iborat sistemalar va boshqalarni tadqiq qiluvchi muhim usulga aylanishiga keng yo‘l ochadi.

Bioneft tashqi ko‘rinishlarga ko‘ra o‘ziga hos hidli quyuq moysimon suyuqlik turli tusdagi jigar rang ko‘rinishga ega. Bioneftning zichligi 770–920 kg/m^3, yonish issiqligi 43000–45500 kDj/kg [1]. Bioneftda uglerod miqdori taxminan 84–86%, vodorod miqdori – 10–14%,oltingugurt, kislorod va azot miqdori 1–3% bo‘ladi. Massa bo‘yichauglevodorodlarniig umumiy miqdori 97–98% ni tashkil etadi.

Tarkibidagielementlarning o‘xshashligiga qaramasdan turli joydan olingan neftlarning fizik vakimyoviy xossalari har xil bo‘ladi. Bunga sabab, uglerod va vodorod atomlariningo‘zaro turli shaklda birika olishida [2]. Bioneft tarkibidagi barcha uglevodorodlar kimyoviy strukturasi bo‘yicha 4guruhga bo‘linadi [3].

I. To‘yingan yoki parafin uglevodorodlar, umumiy formulasi: CnH2n+2 To‘yingan uglevodorodlar bioneftning tarkibida asosan past temperaturada qaynaydigan (engil) fraktsiyalarda ko‘proq bo‘ladi. Bu uglevodorodlarning birinchi 4 ta vakili 0°S haroratda va 0,1 MPa bosim ostida gaz holatida bo‘ladi. Bularga: metan CH4, etan C2H6, propan C3H8, butan C4H10 kiradi. To‘yingan uglevodorodlarning beshinchi vakili pentan C5H12 dan C16H34 vakiligacha suyuq holatda va C17H36 dan boshlab qattiq holatda bo‘ladilar.

Parafin uglevodorodlar kimyoviy strukturasiga qarab ikki xil guruhga bo‘linadi:

- normal–parafin uglovodorodlar;
- izomer–parafin uglevodorodlar.

II. Naften uglevodorodlar, kimyoviy formulasi: CnH2n.

Bu uglevodorodlar tsiklik strukturaga ega. Ular parafin uglevodorodlardan 2 ta vodorod atomi kamligi bilan farq qiladi. Naften uglevodorodlar quyidagi strukturaga ega:



Siklopentan



Siklogeksan

III. Aromatik uglevodorodlar, umumiy formulasi: CnH2n–6 , CnH2n–12 Aromatik uglevodorodlar neft tarkibida parafin va naften uglevodo–rodlarga nisbatan oz miqdorda (5–20%) uchraydi [4-5].



Benzol



Naftalin

Ularning birinchi vakili benzol, bo‘lib, uning benzin tarkibida bo‘lishi oktan sonini oshiradi. Lekin bu uglevodorodlarning miqdori chegaralanadi, chunki ular yuqori temperaturada detallarga yopishib qurum va qotishmalar hosil qiladi. Aromatik uglevodorodlarning dizel yoqilg‘isida kam bo‘lgani yaxshi, chunki ular dizel yoqilg‘isida qiyin oksidlanib, alangalanish vaqtini uzaytirib yuboradi, natijada

dvigagel samarasiz ishlaydi. Moylarda esa, aromatik uglevodorodlar ko‘p qurum hosil bo‘lishiga olib keladi, shuningdek, temperatura pasayganda moylarning qovushqoqligini oshirib yuboradi. Shuning uchun aromatic uglevodorodlar moylash materiallariga kam qo‘shiladi.

IV. To‘yinmagan uglevodorodlar, umumiy formulasi: CnH2n, CnH2n–2.

Neftni qayta ishlash jarayonida ko‘pgina to‘yinmagan uglevodorodlar hosil bo‘ladi. To‘yinmagan uglevodorodlar reaktsiyaga moyilligi katta bo‘ladi, ular uchun qo‘shbog‘li bog‘lanish hisobiga biriktirib olish reaktsiyasiga ko‘prok moyil bo‘ladi. Ular osongina oksidlanib smolalar, organik kislotalar va boshqa birikmalar hosil qiladi.



Piroliz qurilmasining sxemasi

1–bioreator, 2–sovutkich (radiator), 3–bioneft to‘planadigan idish, 4–gaz golder, 5–issiqlik beriladigan qismi (gaz gorelka), 6–xom ashyo solinadigan qismi (qopqoq), 7–manometer, 8–vintel, 9–sovuq suv kiradigan qismi, 10–issiq suv chiqadigan qismi, 11–gaz trubkasi, 12–gaz gorelkasi.

To‘yinmagan uglevodorodlar har qanday neft mahsulotlarining xossalarini yomonlashtiradi, shuning uchun ular yoqilg‘ida ham moyda ham bo‘lishi maqsadga muvofiq emas. To‘yinmagan uglevodorodlar tarkibida qo‘shbog‘soniga qarab quyidagicha bo‘ladi: bitta qo‘shbog‘li–olefinlar: CnH2n; ikkita qo‘shbog‘li–diolefinlar: CnH2n–2. Bundan tashqari, neft maxsulotlari tarkibida [3]:

- oltingugurtli birikmalar;
- kislorodli birikmalar;
- azotli birikmalar xam bo‘ladi.

Bu birikmalar avtomobil yoqilg‘ilari va moylari sifatini yomonlashtiradi. Oltingugurtli birikmalar – detallar korroziyalanishini oshiradi: Oltingugurt miqdori

benzinda – 0,1–0,2% va dizel yoqilg‘isida – 0,2 – 0,4% dan oshmasligi maqsadga muvofiq bo‘ladi . Kislorodli birikmalar – ko‘pincha neft mahsulotlarining yuqori fraktsiyalarida (kerosindan boshlab) bo‘ladi. Ularning miqdori 10% dan oshmaydi. Bu birikmalar asosan har xil kislotalar ko‘rinishida bo‘ladi. Ular detallarning korroziyalanishini oshiradi. Bioneftda smolali–asfal’t moddalarning hosil bo‘lishiga olib keladi.

Azotli birikmalar – bioneft mahsulotlari tarkibida deyarli juda kam miqdorda, asosan smolali–asfal’t moddalari ko‘rinishida (0.3 %) uchraydi. Bu moddalar issiq detallarda qurum va lok paydo bo‘lishini ko‘paytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

10. P.Ismatullayev, Sh.Qodirova. Metrologiya asoslari – O‘quv qo‘llanma: 389(075.8)I82, Toshkent Asian book Hause nashriyoti, 2020.-183 bet.

11. U.A.Madmarova. Mahsulot sifatini nazorat qilishni elektromagnit usullari va asboblari. O‘quv qo‘llanma: – Farg‘ona: Classic –nashriyoti, 2021.-236 bet.

12. A.A.Mamajonov, M.O.Sattarov, D.V.Xakimov. “O‘lchash usullari va vositalari”, O‘quv qo‘llanma, “NIF MSH” nashriyoti, Toshkent, 2020. -182-189 betlar.

13. Constantin Codreanu. “Basics of metrology,standardization and electrical measurements” Tutorial. UDK:006.91:621/31(075.8)C60. ISBN:978-9975-63-308-6 // Chisinau - TEHNICA-INFO. South Korea. 2021.

14. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 20176.-488 bet.

SOG’LIQNI SAQLASH MUASSASALARIDA XARAJATLARNING QIYOSIY TAHLILI

Fozilov Xayot Raximovich, Farg`ona davlat texnika universiteti, “Moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o`qituvchisi.
Fozilov Ibroximjon Raximovich, Farg`ona davlat texnika universiteti, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi katta o`qituvchisi.

Annotasiya. Ushbu maqolada sog‘liqni saqlash tizimi, uning meyoriy-huquqiy asoslari, xarajat va daromadlar, ularning benchmarking tahlili, tibbiyot muassasalarida xarajatlarni pasaytirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash orqali uning barqarorligiga erishish yo`llari ko`rib chiqilgan. Shu bilan birga qiyosiy (benchmarking) tahlili, uning mazmuni, amalga oshirish bosqichlari hamda uning afzalliklari keng yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Sog‘liqni saqlash tizimi, xarajat va daromadlar tahlili, benchmarking tahlil, uning mazmuni, bosqichlari, maqsadlarni aniqlash, ma`lumotlarni yig`ish, tahlil qilish.

Kirish.

Sog‘liqni saqlash muassasalaridagi xarajatlarni samarali boshqarish nafaqat tizim barqarorligini ta'minlash, balki aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvning eng samarali vositalaridan biri qiyosiy(benchmarking) tahlil hisoblanadi. Benchmarking — bu eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash va ularni o‘z tizimingizda qo‘llash orqali samaradorlikni oshirish usulidir. Bu jarayon sog‘liqni saqlash muassasalarining faoliyatini ob'ektiv baholash, ularning moliyaviy resurslardan foydalanish darajasini aniqlash, isrofgarchilik holatlarini aniqlash hamda optimal qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ko‘plab davlatlar sog‘liqni saqlash tizimlarida qiyosiy(benchmarking) yondashuvini qo‘llab, bu orqali xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va aholining salomatligini mustahkamlashga erishmoqda. O‘zbekiston sharoitida bu uslubning qo‘llanilishi yangi bosqichda bo‘lsa-da, mavjud ma'lumotlar asosida tahliliy yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Sog‘liqni saqlash muassasalarining xarajatlarini tahlil qilish sog‘liqni saqlash tashkilotining moliyaviy holati to‘g‘risida barcha zarur ma‘lumotlarni to‘plashdan boshlanadi. Ushbu ma‘lumotlarga pullik xizmatlar, davlat subsidiyalari va boshqa manbalardan olingan daromadlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shuningdek, ish haqi, dori-darmon va tibbiy asbob-uskunalar sotib olish, binolarni ijaraga olish, kommunal to‘lovlar va boshqa xarajatlar bo‘yicha xarajatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kiradi. So‘ngra umumiy xarajatlar tahlil qilinadi va solishtiriladi, ularning qay darajada mos kelishi, moliyalashtirishda ortiqcha yoki kamomad bor-yo‘qligi aniqlanadi. Tahlil shuningdek, sog`liqni saqlash muassasasining moliyaviy faoliyatidagi qiyinchiliklarni aniqlash va xarajatlarni optimallashtirish bilan birga daromadlarni oshirish imkoniyatlarini izlashni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimiz sog‘liqni saqlash sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish imkonini beruvchi me‘yoriy-huquqiy bazaning yaratilishi amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning muhim natijasi bo‘ldi. Nafaqat davlat sog‘liqni saqlash tizimi, balki xususiy tibbiyot muassasalarining rivojlanib borishi, sifatli tibbiy xizmat va albatta ertangi sog`lom avlod uchun ham dastlabki qadamdir. Mamlakatimiz rahbari tomonidan ushbu sohaga qaratilayotgan e`tiborda ham bir qancha ma`no mujassam. Xususan “Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5199-son hamda PF-156 – son “Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror va farmonlarning e’lon qilingani ta`kidlash joizki ushbu sohaga mamlakat rahbarining bee`tibor emasligining yaqqol namunasidir[1,2].

Bu sohadagi sifat o‘zgarishlari shahardan to chekka hududlargacha, bolajonlardan tortib keksalargacha – hammaning hayotida aks etadi. Shu bois unga ajratilayotgan budjet mablag‘lari har yili ko‘paytirib borilmoqda. Barcha ijtimoiy xizmatlar qatori tibbiyot ham xalqimizga yaqinlashtirilmoqda. Birlamchi bo‘g‘inda 18 mingdan ziyod tibbiy brigada tashkil qilingan. Kasalliklarni aniqlash va davolash

amaliyotiga zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Ixtisoslashgan tibbiy xizmatda diagnostika usullari 500 dan, davolash usullari esa 800 dan oshdi. Xususiy tibbiyot rivojiga keng yo‘l ochilgani tufayli xizmatlar tarmog‘i va tanlash imkoniyati ko‘paydi. 2024-yilda sohaga 36 trillion so‘m ajratilgan edi. Bu o‘tgan yilga nisbatan 25 foiz ko‘pdir. Birlamchi bo‘g‘inda 6 turdagi skrining tekshiruvi yo‘lga qo‘yildi. Natijada 106 ming odamda qandli diabet, 194 ming nafarida yurak qon-tomir, 2 mingdan ziyod ayolda saraton, mingga yaqin bolalarda onkogematologik kasallik erta bosqichda aniqlandi.

Davolash sifati va samaradorligi alohida e’tibor talab qiladi. Shu maqsadda 2 mingdan ziyod mutaxassis xorijda qayta o‘qitildi. Natijada hududlardagi yuqori texnologik operatsiyalar ulushi 61 foizga yetdi. 43 ta yo‘nalishdagi 191 ta klinik protokol xalqaro andozalar asosida yangilandi. Ixtisoslashgan markazlar va filiallarda bu yil 100 ming bemor imtiyozli yo‘llanma asosida davolandi. 7 ta ixtisoslashgan markaz sifat nazorati bo‘yicha xalqaro akkreditatsiyadan o‘tdi.

2025 yilda sog‘liqni saqlash sohasiga 41 trillion so‘m ajratilishi ko‘zda tutilgan. Buning hisobidan yangi shifoxonalar tashkil etish va jihozlash, mavjud quvvatlarni kengaytirish, tibbiy ko‘rik qamrovini kengaytirish rejalashtirilgan.

Ma`lumki bugungi kunda mamlakatimizda sogliqni saqlash tizimiga alohida e`tibor qaratilmoqda. Jumladan aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini tubdan yaxshilash, sog‘liqni saqlash tizimiga asosan xorijiy investitsiytalarni jalb qilish hisobiga uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, nafaqat shahar balki chekka hudud aholisiga ham sifatli tibbiy xizmatlar hajmini oshirish bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Sohada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xususida fikr yuritilar ekan, ushbu islohotlarning diqqat markazida asosan sog‘liqni saqlash tizimidagi kadrlar yetishmovchiligi va uni bartaraf etish, xususan sohadagi kadrlar salohiyatini mustahkamlash, ularning tibbiy bilim va ko`nikmalarini oshirish orqali sog‘liqni saqlashning samaradorligi, qulayligi va sifatini oshirish, shuningdek, xarajatlarni minimallashtirish, daromadlarni maksimallashtirish, pirovardida esa tizim barqarorligini ta`minlashdan iborat. [3].

Sog'liqni saqlash tizimida qiyosiy tahlil (benchmarking) — bu bir yoki bir nechta sog'liqni saqlash tizimlari, tashkilotlari yoki xizmatlarini boshqa tizimlar yoki standartlar bilan taqqoslash jarayonidir. Ushbu tahlilning maqsadi samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini yaxshilashdir. Qiyosiy tahlil quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Maqsadlarni aniqlash.

Qiyosiy tahlilni boshlashdan oldin, tahlilning maqsadlari aniqlanishi kerak. Bu maqsadlar sog'liqni saqlash tizimining qaysi jihatlarini yaxshilashni xohlayotganingizni belgilaydi, masalan:

- Xarajatlarni kamaytirish;
- Xizmat sifatini oshirish;
- Bemorlar uchun natijalarni yaxshilash;

2. Taqqoslash ob'ektlarini tanlash.

Qiyosiy tahlil uchun taqqoslash ob'ektlari tanlanadi. Bu ob'ektlar:
- Boshqa sog'liqni saqlash tizimlari yoki tashkilotlari;
- Mamlakatlar yoki mintaqalar;
- Sog'liqni saqlash xizmatlari yoki dasturlari;

3. Ma'lumotlarni yig'ish.

Tanlangan ob'ektlar haqida ma'lumotlar yig'iladi. Bu ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:
- Xarajatlar va daromadlar;
- Xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari (masalan, bemorlar soni, kutish vaqti);
- Sifat ko'rsatkichlari (masalan, bemorlarning qoniqish darajasi);

4. Tahlil qilish.

Yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu jarayonda:
- Taqqoslash ko'rsatkichlari aniqlanadi (masalan, xarajatlar va natijalar o'rtasidagi nisbat);
- Olingan natijalar asosida farqlar va o'xshashliklar aniqlanadi;

5. Natijalarni baholash.

Tahlil natijalari baholanadi va ularning ahamiyati aniqlanadi. Bu jarayonda:
- Qanday o'zgarishlar amalga oshirilishi kerakligi haqida tavsiyalar beriladi;
- Olingan natijalar asosida strategik rejalashtirish amalga oshiriladi;

6. Amalga oshirish.

Tahlil natijalari asosida taklif etilgan o'zgarishlar amalga oshiriladi. Bu jarayonda:
- Yangi strategiyalar va jarayonlar joriy etiladi;
- O'zgarishlarning samaradorligi kuzatiladi;

7. Monitoring va qayta tahlil.

Amalga oshirilgan o'zgarishlar natijalari doimiy ravishda monitoring qilinadi va kerak bo'lganda qayta tahlil qilinadi. Bu jarayon sog'liqni saqlash tizimining doimiy ravishda yaxshilanishini ta'minlaydi.

Qiyosiy tahlilning afzalliklari:
- Samaradorlikni oshirish: Boshqa tizimlar tajribasidan foydalanish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyati;
- Xarajatlarni kamaytirish: Eng yaxshi amaliyotlarni o'rganish orqali xarajatlarni kamaytirish;
- Sifatni yaxshilash: Xizmat sifatini oshirish va bemorlar qoniqishini yaxshilash;

Qiyosiy tahlil sog'liqni saqlash tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi [5].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, sog‘liqni saqlash muassasalarida benchmarking tahlilini muntazam ravishda olib borish orqali xarajatlar samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Ayrim muassasalarda isrofgarchilik holatlari, ya'ni dori vositalarini ortiqcha zaxiralash, tibbiy jihozlarning noto‘g‘ri rejalashtirilishi va infratuzilma xarajatlarining haddan tashqari oshib ketishi kuzatiladi.

Xususiy sektor tajribasini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:
- Moliyaviy intizom va ichki nazoratning mavjudligi xarajatlarni kamaytiradi.
- Tashqi audit va KPI tizimi orqali har bir xarajat asoslantirilgan bo‘ladi.
- Raqamlashtirish orqali resurslar harakati aniq kuzatib boriladi.

Benchmarking tahlilining yo‘lga qo‘yilishi, bir tomondan, muassasalar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi, ikkinchi tomondan esa — resurslardan foydalanishda shaffoflik va samaradorlikni oshiradi.

Ushbu iqtisodiy islohotlardan ko‘zlangan maqsad sog‘liqni saqlashning samaradorligi, qulayligi va sifatini oshirish, shuningdek, xarajatlarni kamaytirish va tizim barqarorligini ta’minlashdan iborat. Sog’liqni saqlash tizimi faoliyatining samaradorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy omillar, jumladan, boshqaruv ham muhim o’ringa ega. Bu omillar qatoriga birinchi o’rinda, oqilona boshqaruv shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish - kontsentratsiya, ixtisoslashtirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin. Boshqaruvda esa, boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag’batlantirishning usul va shakllarini, ya’ni muassasa faoliyatining butun xo’jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi. Korxona rahbarining ish stili va usullari fan-texnika taraqqiyoti va bugungi erkin iqtisodiyot tamoillariga mos kelishi zarur. Masalan, tibbiy muassasa rahbari yoki bosh shifokor bilimi, tajribasi va professional malakasiga ko’ra, oddiy xodimlar va bo’linma rahbarlaridan yuqori turishi lozim. Aks holda u jamoani kerakli tarzda boshqara olishi hamda muvaffaqiyatga erishishi va imidjga ega bo’lishi qiyin. [4].

Qiyosiy tahlilning asosiy maqsadlaridan biri bu xarajatlarni pasaytirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash orqali samaradorlikka erishishdan iborat ekan demak sog’liqni saqlash tizimida dunyo bo’yicha eng sifatli va samarali xizmat ko’rsatayotgan bir qator davlatlarning ilg`or tajribalarini taqqoslash orqali fikrimizni davom ettirsak mubolag`a bo`lmaydi. Masalan:

1. Shveytsariya: Shveytsariya sog'liqni saqlash tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri hisoblanadi. Bu aholini to‘liq qamrab olish va yuqori sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish, jumladan, mutaxassislardan tezkor foydalanish va davolashning innovatsion usullarini ta’minlaydi.
2. Frantsiya: Frantsiya sog'liqni saqlash tizimi ham tibbiy xizmatlardan universal foydalanish va keng ko'lamli davolanishni ta'minlovchi eng yaxshi tizimlardan biri hisoblanadi. U majburiy ijtimoiy sug'urta modeliga asoslanadi.
3. Singapur: Singapur sog'liqni saqlash tizimi xususiy va davlat mablag'lari asosida qurilgan yuqori sifatli tibbiy yordamni taqdim etadi. Singapur sog'liqni saqlash sohasidagi ilg'or texnologiyalari va innovatsiyalari bilan ham tanilgan.
4. Germaniya: Germaniya dunyodagi eng rivojlangan sog'liqni saqlash tizimlaridan biriga ega. Uning modeli majburiy ijtimoiy sug'urtaga asoslangan bo'lib, u hamma uchun foydalanish imkoniyatini va tibbiy xizmatning yuqori darajasini ta'minlaydi.

5. Lyuksemburg: Lyuksemburg barcha fuqarolar va aholiga bepul majburiy tibbiy xizmatni, shu jumladan yuqori sifatli tibbiyot va innovatsion texnologiyalardan universal foydalanishni taklif etadi.
6. Shvetsiya: Shvetsiya sog'liqni saqlash tizimi ham dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri hisoblanadi. U majburiy ijtimoiy sug'urtaga asoslangan bo'lib, sog'liqni saqlash xizmatlarining hamma uchun qulayligi, yuqori sifati va bir tekis taqsimlanishini ta'minlaydi.Bular faqat ba’zi davlatlar va ro‘yxatni boshqa davlatlar ham qamrab olishi mumkin. Sog'liqni saqlash tizimidagi yordam sifati ko'plab omillarga, jumladan, foydalanish imkoniyati, samaradorlik, innovatsiyalar va ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarning mavjudligiga bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, sog'liqni saqlash xizmatlarining narxi mamlakat ichida ham, xizmat turi, mintaqa, xususiy yoki davlat sog'liqni saqlash tizimi va boshqalar kabi turli omillarga qarab katta farq qilishi mumkin. Biroq, sog'liqni saqlash xarajatlari nisbatan pastligi bilan mashhur bo'lgan mamlakatlar ham alohida e`tiborga sazovor bo`lib kelmoqda. Chunki ayniqsa tibbiy xizmat narxining arzon bo`lishi barcha xalqlar uchun ham muhim va ahamiyatlidir. Masalan, Hindiston tibbiy va jarrohlik xizmatlari uchun past narxlari bilan mashhur. Ko‘pgina xorijlik bemorlar ham arzon narxlar va yuqori darajadagi tibbiy yordam tufayli davolanish uchun Hindistonga boradilar. Tailand esa arzon tibbiy xizmatlarni qidirayotgan xalqaro bemorlar orasida juda mashhur. Tibbiy turizm arzon narxlardagi tibbiy xizmatning mavjudligi va sifati tufayli faol rivojlanmoqda. Xorijiy mamlakatlar orasida Meksika hamyonbop narxlarda keng turdagi tibbiy xizmatlarni taklif etadi. Eng qiziqarlisi shundaki, shuning uchun ham ko'pgina amerikaliklar arzon tibbiy yordam olish uchun Meksika chegarasini kesib o'tadilar. Kuba tibbiy va stomatologiya xizmatlari uchun past narxlarni taklif qilayotgan mamlakatlardan biridir. U tibbiyot san’ati sohasida yaxshi obro‘ga ega, tibbiyot xodimlarining malakasi juda yuqori. O`ylaymizki, O`zbekiston ana shu xorijiy mamlakatlar bilan sog`liqni saqlash tizimi borasida iqtisodiy aloqalarini yaxshilab, ularning boy va ilg`or tajribalarini to`liq o`rganib, mamlakatimizda tibbiy sohani rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishi zarur. [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1].“Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5199-son 28.07.2022y.

[2].“Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-156 –son 06.09.2023-y.

[3].Косорукова И. В., Мощенко О. В., Усанов А. Ю. “Экономический анализ”: Учебник для бакалавриата и магистратури.– Москва: Университет “Синергия”, 2021. – 360

[4].M.Y.Raximov, N.N.Mavlanov N.N.Kalandarova; Iqtisodiy tahlil. Darslik.– T.: “Iqtisod-Moliya”, 2022.

[5]. I.N.Qo‘ziyev, SH.V.G‘aniyev, A.S.Ramazonov. Byudjet hisobi va nazorati: Darslik. – T.: “Nihol print” OK, 2022. 632 b.
[6]. Mualliflar tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

MA’LUMOTLARNING RELYATSION MODELI.

Fozilov Ibroximjon Raximovich[1], Vaxobov Davronbek Avazjon o’g’li[2]
1.FDTU katta o’qituvchisi,
2.FDTU assistenti

Kalit so’zlar: Relyatsion MO asosiy baza tushunchalari, ma’lumotlarning toifalari, munosabatlarning fundamental xususiyatlari, ma’lumotlarning relyatsion modeli.

Annotatsiya: *Relyatsion MO asosiy baza tushunchalari, ma’lumotlarning toifalari, munosabatlarning fundamental xususiyatlari, ma’lumotlarning relyatsion modeli haqida ma’lumotlar berish, amaliy malaka-ko’nikmalarini rivojlantirish va mustahkamlash.*

Ma’lumotlarning relyatsion modeli konsyepsiyasi 1970-yilda Ye. F. Kodd tomonidan taklif qilingan bo‘lib, u ma’lumotlarni tavsiflash va tasvirlashning amaliy dasturlaridan bog‘liq bo‘lmasligini ta’minlash masalasini hal qilish uchun xizmat qiladi. Ma’lumotlarning ryelyatsion modyeli asosida “munosabat” tushunchasi yotib, u inglizcha “relation” so‘zidan olingan. Ba’zi bir qoidalarga amal qilgan holda munosabatlarni ikki o‘lchovli jadval ko‘rinishida tasvirlash mumkin. Jadval har qanday odamga tushunarli va qulaydir. Ryeal dunyo obyektlari haqidagi ma’lumotlarni kompyuter xotirasida saqlash va ular orasidagi aloqalarni modyellashtirish uchun munosabatlar (jadval) to‘plamidan foydalanish mumkin- ligini Ye. F. Kodd isbotlab byerdi.

Mohiyat har xil obyekt (obyekt bu biz ularni bir-biridan farqlaymiz), uning ma’lumotlari ma’lumotlar bazasida saqlanadi. Mohiyat odam, joy, samolyot, ryeyslar, gullar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Mohiyat turi va mohiyat nusxasi tushunchalari mavjud, ularni bir-biridan farqlash kyerak. Mohiyat turi tushunchasi bir jinsli narsalar, hodisalar, shaxslar uchun qaraladi. Mohiyat nusxasiga aniq narsalar to‘plami sifatida qaraladi. Masalan, mohiyat turi Shahar, uning nusxasi esa toshkent, moskva bo‘lishi mumkin.

Atribut mohiyatni xaraktyerlovchi nomlar. U o‘zida yagona murakkab bo‘lmagan strukturani tasvirlab, mohiyat holatini xaraktyerlaydi. Masalan, “O‘quvchi” mohiyati atributi kod, familiya, ism, manzil, yosh va boshqalar. Mohiyat atributlari to‘plami chyeksizdir. U axborot tizimlari bilan ishlaydigan foydalanuvchi talabiga va yyechiladigan masalaga bog‘liqdir. Yana bir misol: avtomobil mohiyati atributi bu tur,

marka, nomyer byelgisi, rangi va boshqalar. Bu yyerda tur bilan nusxa orasida farq mavjud. Rang atributi turi ko‘p qiymatli yoki nusxali: qizil, ko‘k, oq va boshqalar. Mohiyat va atribut turlari orasida absolyut farq yo‘q. Mohiyat turi bilan aloqada faqat atribut bor. Boshqacha kontyekstda atribut o‘zi mustaqil mohiyat bo‘lib qatnashishi ham mumkin. Masalan, avtomobil zavodi uchun rang bu faqat ishlab chiqarish mahsuloti atributi, lok-bo‘yoq fabrikasi uchun esa rang mohiyat turidir.

Kalit atributlarning minimal to‘plami, uning qiymati yordamida kerakli mohiyat nusxasini topish mumkin. Masalan, samolyotlar uchishi uchun “Reys jadvali” mohiyati kalitlari “Reys nomyeri” yoki “Jo‘nash joyi”, “Uchish vaqti” va “Qo‘nish joyi” to‘plami bo‘lisi mumkin.

Aloqa ikki yoki undan ortiq mohiyatlarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanishidir. Agar ma’lumotlar bazasini faqat bir-biri bilan bog‘lanmagan ma’lumotlar bilan to‘ldirishga yo‘naltirilsa, u holda uning strukturasi juda oddiy bo‘ladi. Lekin, MBni tuzishning asosiy talablaridan biri bu boshqa mohiyat qiymati bo‘yicha bitta mohiyatni izlab topish imkoniyatini ta’minlashdir. Buning uchun ular orasida aloqani aniqlashni tashkil etish zarur. Ryeal ma’lumotlar bazasida yuzlab yoki minglab mohiyatlar bir-biri bilan millionlab bog‘lanish o‘rnatishi kamdan kam. Bunday bog‘lanishlar to‘plami infologik modyelning

Ma’lumotlarning relyatsion strukturasi Ma’lumotlarni qayta ishlash uchun to‘plamlar nazariyasi ishlatiladi (birlashma, kesishma, farqlash, dekart ko‘paytma). Matematikadan ma’lumki, har qanday ma’lumotlarni tasvirlash ikki o‘lchovli maxsus turli bog‘lanishli relyatsion jadvallar to‘plamiga keladi. Relyatsion model ma’lumotlarining eng kichik birligi bu model ma’lumotlar qiymati uchun alohida atomardir. Bir xil turdagi atomar qiymatlar to‘plamiga domen deyiladi. Masalan, Reys nomeri domeni butun musbat sonlar to‘plami. Domen ma’nosi quyidagilardan iborat. Agar ikki atribut qiymatlari bir domendan olingan bo‘lsa, unda bu ikkita ishlatiladigan atributlarni taqqoslash ma’nosi bor. Agar ikkita atribut qiy- matlari har xil domenlardan olingan bo‘lsa, ularni taqqoslash ma’no bermaydi. Masalan, reys nomeri bilan chipta narxini so- lishtirish mumkinmi?

Munosabat D1,D2,..,Dn domenlarda (ularning bari har xil bo‘lishligi shart emas) sarlavha va tanadan iborat bo‘ladi.

Sarlavha A1,A2,..,An fiksirlangan atributlar to‘plamidan iborat bo‘lib, ular bilan, y’ani Ai atributlar va ularni aniqlovchi Di domenlar orasida o‘zaro bir xil moslik mavjud.

Tana vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi kortejlar to‘plamidan iborat bo‘ladi. Bu yerda o‘z navbatida kortej juft atributlar qiymatlari (Ai:Vi), (i=1,2,..,n) iborat bo‘ladi.

Munosabat darajasi bu uning atributlar soni. Munosabat darajasi bitta bo‘lsa unar deyiladi. Ikkita daraja bo‘lsa binar deyiladi. Uch daraja bo‘lsa ternar va hokazo.

Kordinal son yoki munosabat quvvat bu uning kortejlar soni. Kordinal munosabatlar soni vaqt bo‘yicha o‘zgaradi. Munosabat bu to‘plamlardir. To‘plam esa ta’rif bo‘yicha mos elementlarni o‘ziga olmaydi. Aytaylik, R munosabat A1,A2,..,An

atributlarga ega. Aytiladiki, R munosabat atributlar to‘plami K=(Ai,Aj,..,Ak) qachonki ikkita vaqtga bog‘liq bo‘lmagan shart bajarilsa kalit bo‘lishi mumkin.

Unikallik: ixtiyoriy berilgan vaqt momentida ikkita har xil kortejlar Ai,Aj,.,Ak lar uchun bir xil qiymatga ega emas.

Minimallik: Ai,Aj,.,Ak atributlarda birortasi unikallik buzulmasa K dan o‘chirilishi mumkin emas. Ko‘pgina relyatsion MBBT foydalanuvchilar uchun quyidagi ekvivalent tushunchalarini ishlatish maqsadga muvofiqdir: Munosabat jadval (ayrim holda fayl); Kortej qator (ayrim holda yozuv); Atribut ustun, maydon. Ko‘p hollarda “Yozuv” ni “Yozuv nusxasi” deb, “Maydon” esa “Maydon nomi va turi” deb qabul qilinadi. Relyatsion ma’lumotlar bazasi bu ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi munosabatlar to‘plami va ular MB da saqlanadi. Foydalanuvchi bunday MBni jadvallar to‘plami deb qabul qilishi kerak:

1.Har bir jadval bir xil turdagi qatordan iborat bo‘lib, u unikal (yagona) nomga ega bo‘lishi kerak.

2.Har bir qator fiksirlangan maydonlar va qiymatlariga ega.

3.Jadval qatori bir-biri bilan kamida biror bir qiymat bilan farq qiladi.

4.Jadval ustuni bir qiymatli nomga yuboriladi va ma’lumotlarning bir jinsli qiymatlari joylashtiriladi (sana, familiya, butun son yoki pul belgisi, yig‘indi).

5.Ma’lumotlar bazasida joylashgan ma’lumotlar aniq qiymatlar ko‘rinishida tasvirlanadi va ma’lumotlarni tasvirlashning bunday usuli yagona bo‘lib hisoblanadi. Umuman olganda jadvallarni bir biri bilan bog‘lashning qaysidir maxsus “aloqa” vositasi yoki ko‘rsatmasi yo‘q.

6.Jadval qatorlari va ustunlari bilan ish yuritganda ma’lumotlarning qanday joylashishiga qaramasdan ular qayta ishlanishi mumkin. Bunga ko‘proq jadvallarning nomi va ularning ustunlari soni imkon beradi. Ma’lumotlarni saqlash uchun jadvallar sonini minimal- lashtirishga intilish MBni yangilashda har xil muammolarga olib kelishi mumkin.

Ma’lumotlarning relyatsion modeli uchun relyatsion algebra munosabat amalida ishlashga qulay vosita mavjud. Relyatsion algebraning barcha amallarini bajaradigan ma’lumotlar ustida manipulyatsiya (ish olib boradigan) qiladigan tillar yaratilgan. Bu tillar orasida SQL (Structured Query Language strukturalashtirilgan so‘rov tili) va QBE (Quere-By-Example namuna bo‘yicha so‘rov) tillari eng ko‘p tarqalgan. Bu ikki til ham yuqori darajali til bo‘lib, ular yordamida foydalanuvchi kerakli ma’lumotlar bilan ish olib borishi mumkin.

Relyasion ma’lumotlar modeli Tushunchalar. Munosabatlar. Ma’lumotlarning relyasion modeli3 1970 yil IBM firmasining xodimi Edgar Kodd tomonidan taklif etilgan. Relyasion ma’lumotlar bazasining asosiy g’oyasi ma’lumotlar bazasi strukturasini soddalashtirishga qaratilgan. Unda ierarxik modeldagi kabi avlod va ajdodlarga yaqqol ko’rsatgichlar yo’q, barcha ma’lumotlar star va ustunlarga bo’lingan oddiy jadvallarda tasvirlanadi. Relyasion modeldagi asosiy tushuncha “munosabat” (relation) xisoblanadi. Relyasion modelda o’ziga xos atamalar ishlatiladi, biroq bu

model moxiyatini o’zgartirmaydi. Masalan, mantiqiy darajada element atribut deb ataladi. Bundan tashqari u uchun “kolonka”, “ustun” va “maydon” atamalari ham ishlatiladi. Atributlar to’plami kortejni (qator, yozuv, satr) xosil qiladi. Kortejlar to’plami munosabatni (MB jadvali yoki faylini) xosil qiladi. Relyasion modelda fayllar o’rtasidagi bog’lanishlar yaqqol tarzda tavsiflanmasligi ham mumkin. Bu bog’lanishlar ma’lumotlarni qayta ishlash vaqtida dinamik ravishda mos maydonlarning qiymatlari bo’yicha o’rnatiladi. Relyasion MB da yozuvlar chiziqli strukturaga ega. Har bir munosabat kalitga, ya’ni kortejni bir qiymatli identifikatsiyalovchi atribut(oddiy kalit) yoki atributlar to’plamiga (tarkibiy kalit) ega. Qaralayotgan munosabatda kalit bo’lmagan atribut yoki atributlar guruxi boshqa munosabatda kalit bo’lsa, bu atribut yoki atributlar guruxi tashqi kalit deb ataladi. Agar biror jadval tashqi kalitga ega bo’lsau xolda u: a)mos birlamchi kalitga ega bo’lgan jadval bilan mantiqan bog’langan; b) bu bog’lanish birga ko’p xarakterga bo’ladi. Shunday qilib relyasion model 1969–70 yillarda Kodd tomonidan munosabatlarning matematik nazariyasi asosida yaratilgan bo’lib, quyidagi asosiy tushunchalarga asoslanadi jadval, munosabat, satr, ustun, birlamchi kalit, tashqi kalit.

Ma’lumotlarning shunday modeliga relyasion model deyiladi, unda barcha ma’lumotlar foydalanuvchiga jadval shaklida xavola etiladi va ma’lumotlar bazasi ustidagi barcha amallar jadvalllar ustiga amallarga olib kelinadi. Har bir jadval ma’lumotlar bazasi tarkibida o’z nomiga ega bo’ladi, hamda satr va ustunlardan iborat bo’ladi. Har bir jadval real dunyodagi ob’ektlar (mohiyat) tipini aks ettiradi, har bir satri esa ob’ektning konkret nusxasini bildiradi. Relyasion modelning har bir tushunchasini “Xodim” mohiyati (ob’ekti) misolida ko’rib chiqamiz: Har bir ustun o’z nomiga ega bo’ladi va ustun nomi odatda jadvalning ustki qismida ko’rsatiladi. Uning nomi joriy jadvalda boshqa ustun uchun takrorlanmasligi kerak, biroq bu nom boshqa jadvalning ustun nomi sifatida ishlatilishi mumkin. Ya’ni turli jadvallar bir xil nomli ustunga ega bo’lishi mumkin. Ixtiyoriy jadval kamida bitta ustunga ega bo’ladi; ustunlar jadvalda ularni yaratish tartibida joylashadi. Satrlar ustunlardan (atributlar) farqli ravishda nomga va joylashish tartibiga ega emas. Ularning miqdori chegaralanmagan. Ixtiyoriy jadval shunday ustunga yoki ustunlarga (kalitga) ega bo’ladi, undagi qiymatlar har bir satrni takrorlanmas qiymat bilan identifikatsiyalaydi. Rasmda keltirilgan misolda kalit bu “tabel nomeri” ustunidir. Atributlar qiymati eng kichik axborot birligi domen yordamida ko’rsatiladi. Boshqacha aytganda domen bu ob’ekt atributining mumkin bo’lgan barcha qiymatlar to’plamidir. Yana ikkita tushunchani ko’rib o’tamiz. Bu “daraja” va “Kardinal son” tushunchalari. Munosabatlarning kardinal soni deganda kortejlar soni tushuniladi, munosabat darajasi bu joriy munosabatning atributlar sonidir.

Jadvallar o’rtasidagi aloqa relyasion ma’lumotlar modelining asosiy elementi xisoblanadi. Bu aloqa tashqi kalitlar yordamida qo’llab quvvatlanadi. Misol sifatida biror korxonaning MB sida saqlanayotgan xodimlar (“xodimlar” jadvali) va boshliqlar (“boshliqlar” jadvali) haqidagi ma’lumotlarni ko’rib chiqamiz. “Boshliqlar” jadvalida

birlamchi kalit “nomer” ustini. “Familiya” ustunining qiymatlari takrorlanuvchi bo’lganligi uchun birlamchi kalit sifatida qo’llash mumkin emas. “Xodimlar” jadvalida “Boshliq nomeri” ustuni tashqi kalit xisoblanadi. MB da ma’lumotlar bilan birga ma’lumotlar lug’ati va boshqa ob’ektlar, masalan, ekran formalari, xisobotlar, tasvirlovchi formalar (views) va amaliy dasturlar joylashadi. Relyasion MB ni butunlik cheklanishi ba’zi talablarni, masalan, atribut qiymati faqat mos domen ichidan olinishini yoki tashqi kalit jadvaldagi mavjud bo’lmagan satrni ko’rsatmasligi kerak (ko’rsatgich bo’yicha yaxlitlik). “Munosabat” tushunchasini batafsil ko’rib chiqamiz. Relyasion modellarda o’zgaruvchi munosabatlar va munosabat qiymatini farqlash kerak.

O’zgaruvchi munosabat bu xuddi dasturlash tilidagi kabi oddiy o’zgaruvchilar, ya’ni qiymati vaqt o’tishi bilan o’zgaruvchi nomlangan ob’ekt. Ushbu o’zgaruvchining ixtiyoriy vaqt momentidagi qiymati munosabat qiymati xisoblanadi.

Ekvivalent tushunchalar Jadvalli munosabatni ba’zan sxematik ravishda ko’rsatiladi. Bunda munosabat nomi yokiga qavs ichida atributlarni nomi yoziladi. Talaba (shaxsiy nomer, FIO, to‘g‘ilgan sana, kurs mutaxasislik) Relyasion MB munosabatlarni o’zaro bog’langan to’plamidir. Har bir munosabat kompyuterda fayl ko’rinishida tasvirlanadi.

Fayl	Yozuv	Maydon
Jadval	Satr	Ustun
Munosabat	Kortej	Atribut
Mohiyat	Mohiyat nushasi	Atribut

Munosabatlar jadval ko’rinishida berilganda quyidagi xossalarg ega bo’ladi:

1.Jadvalni har bir elementi ma’lumot elementi hisoblanadi va takrorlanuvchi guruxlar bo’lmaydi;

2.Barcha ustunlar jadvalda bir jinslidir;

3.Har bir ustunda nom tayinlangan;

4.Jadvalda bir xil satr ikki marta uchramaydi;

5.Bunday jadvallarda satr va ustunlar ixtiyoriy tartibda qaraladi va ixtiyoriy ketma ketlikda ishlatilishi mumkin. Bunday xususiyatli jadvallar munosabat deb kelishilgan.

Munosabat asosida kurilgan MB relyasion MB deyiladi. Misol uchun jadvalni sxematik kiskartirilgan kurinishi (sxemasi) Xizmatchi (xiz.nom F.I.SH. unvoni, tugilgan yili, bulim, mut.kodi. mansab, maosh); Bunday yozuv ma’lumot baza sxemasi deyiladi SHunday kilib, relyasion MB ma’lumot elementlar tuplami asosida kuriladi. Munosabat yoki jadvalni kortejlar to’plami deb karash mumkin. Agar jadvalda n ta ustun bulsa, u n tartibli kortejdan iborat deyiladi va munosabat xam n-darajali deyiladi. Xar bir atribut kiymatlari tuplami domen deyiladi.

FARG‘ONA BOZORLARINING O‘RGANILISH MANBALARI (MUSTAQILLIK DAVRIDA)

Inamov Odil Tolibovich
Farg'ona davlat texnika universiteti assistenti

Annotatsiya. (Abstract). Ushbu maqolada Farg‘ona viloyati bozorlari faoliyati Farg‘ona, Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlaridagi yirik bozorlarining faoliyati bilan bog‘liq manbalar tadqiqining bayoni berilgan bo‘lib, ular guruhlarga bo‘lingan holda o‘rganilgan, bir guruh manbalar boshqa guruh manbaalari bilan taqqoslangan. Muallif tomonidan ushbu bozorlar faoliyati bilan bog‘liq muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan xulosalar berilgan.

Tayanch so‘zlar (Key words). bozor, savdo, patta to‘lovi, arxiv xujjatlari, og‘zaki tarix ma’lumotlari, bozorlar pasporti.

Many products require verification of compliance with a specific international standard or legal regulation in their intended sales market. It is necessary to implement the following practices:

- Security test;
- Product performance and durability testing;
- Check the composition and purity of the material;

- A comparative test or comparison, usually with respect to the performance of a competing product;
- Packaging test.

The fourth stage. Define your tolerances for quality defects in the quality manual.

The company should have a quality manual or quality checklist as a primary resource for staff requirements. Quality checklists for simple products are typically 3-10 pages long, while checklists for more complex products that have undergone extensive testing may be longer. An effective quality manual includes relevant information for the plant and inspection staff, including:

- Product specifications;
- Your tolerance for quality defects;
- Product inspection requirements, including on-site product testing;
- Packaging requirements, including shipping and retail packaging;

One of the most common causes of quality defects is not understanding what you want in the first place. It is necessary to know the following concepts.

- Sending a quality checklist to your supplier:
- To know if there are any questions about your requirements.

Of course, another way to do this is to constantly post information on the company's social site, such as testing procedures, including which tests will be conducted for the product and what equipment will be used. Procedures for classifying defects, including issuing a "defective" or "defective" result for inspection based on the type and number of defects found.

In 1955, the Saratov aircraft manufacturing plant in the city of Saratov created and introduced a system of manufacturing a flawless product and organizing its delivery from the first presentation to the technical control department or the customer (Saratov) [1,2]. This system has been created and implemented. The basis of the labor quality assessment system is the percentage of the delivered product in the reporting period T (day, week, month):

$$K = \frac{P_T}{N_T} 100\% \qquad (1)$$

here, P_T is the number of products received by the technical control department from the first presentation at time T; N_T is the number of products entered into the technical control department at time T.

The quality of the work of an individual worker, group, department is evaluated, and the value of the reward is determined based on the result. Creating a defect-free product and moving to a defect-free labor system usually requires improvement of the production technical base [4]. In the conditions of implementation of the system, control, accounting, analysis, employee training systems were reorganized and improved in the enterprises. Quality schools and quality days are widely used.

List of used literature.

[1] Abduvaliyev A.A “metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” Darslik. SHarq nashiryoti, Toshkent 2018y.

[2] P.R.Ismatullaev, B.M.Axmedov, P.M.Matyakubova, G‘.X.Xamroqulov, Sh.A.Turaev “Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirish” Darslik. “Sano-standarti” nashiryoti, Toshkent 2014y.

[3] Abduvaliyev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S. R., Hakimov O.Sh., Xvan V. I. “Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat” O’quv qo’llanma. Toshkent, SMSITI 2008. – 267 bet.

[4] Ахмедов Б.М., Абасов А.А. “Система менежмента качества – основа конкурентоспособности”. Изд. «Asr-matbuot». 2004. 96 bet.

[5] www.standart.uz

[6] www.quality.eup.ru

SIFAT MENEJMENTI KONSEPTSIYASI USTOZI- PROFESSOR KAORU ISIKOVA

I.Ya. Xasanov
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Sifat sohasidagi atoqli olimlardan biri yaponiyalik olim - Kaoru Isikova o’zining butun faoliyati davomida mahsulot sifati, sifatni yaxshilash va sifatni boshqarish bo’yicha ilmiy-nazariy va amaliy ishlar bilan izchil shug’ullandi va katta yutuqlaring asosiy omili uning har bi rishi ishlab chiqarishga qaratilganligidadir.

Doktor Isikova 1915- yilda tug’ilgan. 1939- yil Tokio universitetini “amaliy ximya” mutaxassisligi bo’yicha tamomlab, 1960-yil muhandislik fanlari doktori, professor unvoniga sazovor bo’ladi. Shuningdek u, sifat nazorati sohasidagi ishlar va maqolalari uchun Deming, Nibon Keizai va Yaponiyaning sanoat va standardlashtirish sohasidagi mukofotlarga sazovor bo’lgan. U umrining so’nggi yillarida Musasi institute prezidenti va sifat boshqaruvi bo’yicha yetakchi maslaxatchi lavozimlarida faoliyat ko’rsatdi. K.Isikova yirik Amerika firmalari, jumladan Ford Motors bilan (1) hamkorlik qilgan.

1981-yil aprel oyida K.Isikova Yaponiyada tashkil etilgan minginchi sifat to’garagini nishonlash vaqtida so’zlagan nutqida shunday degan edi: “Avvalo men ishchilarni sifat nazoratini tushunishlari va amalda joriy qilishlariga qanday erishish mumkinligi to’g’risida bosh qotirdim. Mamlakatdagi barcha korxonalar ishchilari o’rgatilsa, ajoyib bo’lar ediku, biroq bu juda qiyin ish. Shu bois men eng avvalo, korxona mutaxassis ustalari va bo’lim rahbarlarini o’qitish kerak,- degan fikrga keldim” .

K.Isikova 1968 yilda sifat to’garaklari a’zolari uchun sifat taxlili bo’yicha qo’llanma yaratdi. Bu kitob “Sifat nazorati bo’yicha qo’llanma” (Guide to quality

control) deb nomlanib, 1971-yil ingliz tiliga tarjima qilindi va 1986-yil Asian Productivity Organization tomonidan qayta nashr qilindi. Bu davrda olimning shuningdek, “Umumiy sifat nazorati nima?. Yaponcha yo’l” (“What is Total Quality Control? The Japenese Way”) nomli kitobi ham nashr qilindi.

1-расм. Сабаб ва оқибатлар диаграммасига мисол

Professor K.Isikova Yaponiya sanoatida maxsulot ishlab chiqarishda sifat nazoratining statistik uslublariga ko’proq e’tibor bergan. U ma’lumotlarni halol to’plash va taqdim qilish, Pareto diagrammasidan foydalanish va sabab-oqibat (Cause-and-Effect) diagrammasini sifatini yaxshilashda keng qo’llash zarurligini ta’kidlaydi.

Doktor Isikova birinchi “sabab-oqibat” diagrammasini 1943-yil Kavasaki metallurgiya zavodi muhandislar guruhiga sifatga ta’sir qilivchi omillarni tushuntirish uchun ishlab chiqdi. Keyinchalik ular Yaponiya sanoati va xorijda keng ommalashdi. Shu bois sabab va oqibat diagrammasi amalda profesor Isikova diagrammasi deb ham ataladi. Isikova diagrammasiga sifat to’garaklarida sifatni yaxshilashni o’rganish vositasi deb qaraydi. U diagrammalar qurishda turli bo’g’inlar orasidagi o’zaro aloqa muhim ahamiyatga ega bo’lishini alohida ta’kidlagan. Isikova diagrammalari mahsulot siati o’zgarishi sabablarini topish, tahlil qilish va hujjatlashtirishning tizimli uslubi sifatida foydali. Shu sababli K.Isikova Yaponiyada sifat togaraklarining asoschisi sifatida tan olingan.

1955-1960- yillarda Yaponiya “Kompaniya doirasida sifatni boshqarish” (“Company Wide Quality Control”) xarakati rivojlandi. Bu harakat sifatni boshqar9ishda kompaniyaning barcha xodimlari- birinchi rahbardan boshlab, oddiy ishchigacha faol qatnashishi bilan harakatlanadi. Undan tashqari, ularning barcha statistik uslublarni o’rganishadi. Sifatni boshqarishda butun jamoa- muhandislar, loyihalash, tadqiqod, sotish, rejalashtirish, buxgalteriya, kadrlar bo’limi va ishlab chiqarish bo’limlari faol qatnashadi. “Butun kompaniyani qamrab oladigan sifatni ta’minlaydi, balki kompaniya biznesi uchun ham salmoqli hissadir” deydi K.Isikava.

K.Isikaba ushbu harakat oqibatlarini quyidagicha izohlaydi:

- ✓ mahsulot sifati yaxshilanadi va barqarorlik shakllana boshlaydi;
- ✓ nuqsonlar soni kamayadi;

- ✓ mahsulotning ishonchliligi ortadi;
- ✓ chiqimlar kamayadi;
- ✓ mahsulot hajmi ko’payadi, ishlab chiqarishning maqbul grafigini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo’ladi;
- ✓ chiqindi va qayta ishlashlar kamayadi;
- ✓ texnik uslublar ishlab chiqiladi va yaxshilanadi;
- ✓ tekshirish va sinashga ketadigan chiqimlar kamayadi;
- ✓ sotuvchi va iste’molchilar o’rtasidagi shartnomalar afzallashtiriladi;
- ✓ mahsulot ko’proq sotiladi;
- ✓ bo’linmalar o’rtasidagi aloqalar yaxshilanadi;
- ✓ muhokamalar ko’proq erkin va demokratik olib boriladi;
- ✓ majlislar izchanlik va o’zaro ishonch ruhida o’tadi;
- ✓ uskunalarni o’rnatish va ta’mirlash yanada puxta amalga oshiriladi;
- ✓ insoniy munosabatlar yaxshilanadi.

Yaponiyada “Butun kompaniyada sifat nazorati” harakati (1962-63-y) dan, ya’ni birinchi to’garak – Nippon Telegraph and Telephone Public Corporation da ro’yxatga olinishi bilan boshlangan. Dastlab harakat mamlakatning sanoatini qamrab olgan bo’lsa, keyinchalik bank, chakana savdo tizimlarida tarqaladi va barcha sohalarga, hattoki G’arbga ham yoyiladi.

Sifat to’garaklarining ahamiyati va mohiyati turli kompaniyalarda turlicha. Yaponiyada odatdagi sifat to’garaklari ixtiyoriy 5-10 ishchidan iborat bo’lib, mutaxassis, uning yoramchisi yoki birorta ishchi boshchiligida yig’ilishadi.

Bunday to’garaklar o’z oldiga quyidagi maqsadlarni qo’yadi:

- o korxona yaxshilanishiga va rivojlanishiga o’z xissasini qo’shish;
- o insoniy munosabatlarni hurmat qilish va har bir hodim o’z ishidan qanoatlanishiga zamin yaratadigan faoliyatni tahkil qilish;
- o ishchilarni o’zining butun salohiyati bilan ishlashiga sharoit yaratish.

To’garak a’zolari sifatning statistik nazorati va u bilan bog’liq metodlarining to’liq o’zlashtiradilar va amalda qo’llaydilar hamda sifatni yaxshilash, chiqimlarni kamaytirish ishlab chiqarish samaradorligimi oshirish va mehnat xavfsizligia sezilarli natijalarga erishadilar.

To’garakning barcha a’zolari doimo o’z ustida ishlash va o’zaro rivojlanish, ishlarni yuqori saviyada tashkil etish va ishlab chiqarishni takomillashtirishga jalb qilingan. Imkoni bo’lganda muammolarni o’zlari hal qiladilar. Boshqa hollarda qabul qilingan qarorlarini rahbariyat oldida qat’iy himoya qiladilar. To’garak a’zolari ishni takomillashtirish borasidagi takliflari uchun moliyaviy rag’batlantirilmaydi. Albatta, bunday paytda firmaning yuqori rahbariyati erishilgan natijalarga asoslanib, sifatni yaxshilash borasida jonkuyarlik qilayotgan ishchilarni rag’batlantirishi ularning yanada samarali ishlashiga sabab bo’lardi.

Yaponiyaning sifat to’garaklari tajribasi g’arb davlatlarida ham asqotdi. Ammo ko’pgina g’arb kompaniyalari to’garaklarning yaponcha kelib chiqishini yashirishdi,

aftidan, ular “Yapon supurgisi”ni o’z yerlarida qo’llayapti mazmunidagi psixologik qarashlardan qochishgan(1).

Jahonning 50dan ortiq davlatida sifat to’garaklari sifat boshqaruvi tizimida qo’llaniladi. Ammo ishchilar hech qayerda sifat to’garaklariga yaponiyadagidek ommaviy tarzda jalb etilmagan. 1995-yilgi rasmiy ma’lumotlarga ko’ra, 385150 sifat to’garaklari ro’yxatga olingan bo’lib, ularning 3 m.l.n. a’zosi bor. Ammo yaponlarning o’z hisob-kitobiga ko’ra haqiqiy miqdor undan 3 marta ko’p bo’lib, 14,5 mln a’zodan iborat. Bu barcha ishlaydigan ishchilarning 24% tashkil qiladi. Ularning 50% ishlab chiqarishda 24% xizmat ko’rsatish tizimida ishlaydi. Sifat to’garaklarining 1995-yildagi iqtisodiy samarasi 100mln dollarni tashkil qildi (2).

70-yillarning oxirlarida Yaponiya avtomabil, televizor, nusxalash, foto va kinotexnika, integral sxemalar, maishiy texnikani sifatli ishlab chiqarish bo’yicha jahonda yetakchi edi. 80-yillarda Yaponiyaning jahon kapitalistik ishlab chiqaruvi orasidagi ulushi rangli televizor, 3-4 tranzistorli radio qabul qilgichlar bo’yicha 40% videomagnitafonlar bo’yicha esa 90%ni tashkil qilar edi.

Shu o’rinda quyidagi savollarga javob topish muhim hisoblanadi: “Bunday natijalarga qanday erishildi?”, “Ish qanday tashkillashtirildi?”, “Bunday rahbarlikning tamoyillari qanday?”. Albatta sifatni yaxshilash bo’yicha ishlarni amaliy tashkillashtirish uchun aynan tizim strukturasi, unung maqsadi, ayrim masala va funksiyalarning mohiyati, ishlab chiqarish qatnashchilari orasida uni taqsimlash birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ammo mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash muammosi shu qadar murakkab va turli-tumanki, uni ishlab chiqarish jarayoning barcha ishtirokchilari yuqori rahbariyatdan tortib to ishchigacha anglagan holdagina muvaffaqiyatli bo’lishi mumkin.

K.Isikava sifat boshqaruvi korxona, firmalarning barcha ishchilari va bo’linmalarining majburiyati deb hisoblaydi. Sifatga Yaponcha yondoshish, sifat boshqaruvi metodlarini o’rganish, rivojlantirish va amalga oshirishda hamma bo’linma va ishchilar faol qatnashishini o’z ichiga oladi. Hattoki, Professor Isikava Yaponcha yondashuvga A.Feygenbaumdan farqli ravishda mahsus- “Firma doirasida sifatni boshqarish ” atamasini kiritdi. Haqiqatdan ham Yaponcha metod sifat boshqaruvida hamma qatnashishini ko’zda tutadi. Firma iste’molchilarning ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati haqidagi fikrlarini o’rganish aosida sifatni boshqarish sohasidagi o’z maqsad va vazifalarini juda puxtalik bilan ishlab chiqadi. Buning uchun firma oldida turgan, jumladan har bir bo’linma oldida turgan maqsad hodimlarga tushuntiriladi hamda ular maxsus dasturlar asosida o’qitiladi. Yuqori rahbariyat maxsulot sifati yaxshilanishi yoki qo’yilgan maqsad qanday bajarilayotganligini diqqat bilan tekshiradi va nazoratga oladi. Ishlab chiqarish jarayonida hamma bo’linmalar o’ziga rejalashtirilgan sifat barqarorligini ta’minlaydi.

Har qanday firma, jumladan, yapon firmalari uchun ham sifat- foyda olish vositasidir. Bunda shuni ta’kidlash kerakki, yaponiyalik tadbirkorlar AQSh va g’arbiy

yevropalik hamkasblaridan farqli o’laroq, sifatga foyda keltiruvchi vosita sifatida ko’proq e’tibor qaratadilar.

Yaponiyaning sifatni ta’minlash sohasidagi tajribasi shunday xulosaga olib keladiki, sifat boshqaruvi mamlakatda keng tarqalgan bo’lib, ular prinspial jihatdan bir-biridan farq qilmaydigan kompleks sifat boshqaruviga (KSB) asoslanadi.

Isikava shuni ta’kidlaydiki, sifat boshqaruviga o’tish firma va korxona rahbarlaridan tafakkurni qaytadn qurishni talab qiladi. Olim Amerika-Yaponiya qo’shma korxonalaridan biri rahbari bilan suhbatlashganda u quyidagilarni ta’kidlagan:

“Ko’pgina xorijliklar firmamizni kelib ko’rishgn va shunga ajablanishganki, bizda ham AQSh va Yevropadagi kabi texnologiya, qurilmalar, xom-ashyo bo’lsada mahsulotimiz sifatliroq edi. Ular bilmaydilarki, mahsulotga sifatni dastgohlar emas inson beradi.”. K.Isikava ushbu rahbar fikriga Yaponiya iqtisodiyoti barqarorligining eng yaxshi ta’rifi deb baho bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.A.Kanstantinova.Kaoru Isikava// “стандард и качества”. – 1999. №11. –c. 90-92

2.Efimov V.V. управление качеством: учеб.пособие. – Ульяновск: УлГТУ,2000. 40c.

3. IsikavaK. Японские методы управления качестом, -M.:Экономика, 1988. C.-91

“SPC” JARAYONLARNI STATISTIK BOSHQARISH USULI

I.Y.Xasanov
Farg‘ona davlat texnika universiteti, O‘zbekiston.

Anattatsiya: *So'nggi o'n yilliklarda sifat tushunchasi tobora ortib bormoqda. Ishlab chiqarish jarayoniga kelsak, sifat nazoratini amalga oshirish ishlab chiqaruvchi korxonalarga yuqori sifatli mahsulotni ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa iste’molchilar ehtiyojini qondirishga ijobiy ta'sir qiladi. Ushbu maqola sifat Jarayonlarni statistik boshqarish usulining ahamiyatini aks ettirishga qaratilgan. Mazkur maqolamizda texnologik jarayonlardagi nomuvofiqlikni oldini olishda qo'llanadigan samarali metodlardan biri bo'lgan SPC (Statistical Process Control) jarayonlarini statistik boshqarish metodi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Sifat nazorati, kamxarijlik, ishlab chiqarish, statistik usul, o‘zgaruvchanlik; nazorat kartasi.*

Аннотация: *В последние десятилетия концепция качества становится все более важной. Что касается производственного процесса, то внедрение контроля качества позволяет производственным предприятиям*

разрабатывать высококачественную продукцию, что положительно влияет на удовлетворение потребностей потребителей. Целью данной статьи является отражение важности метода статистического контроля процессов качества. В данной статье объясняется метод статистического контроля процессов SPC (Statistical Process Control), который является одним из эффективных методов, используемых для предотвращения несогласованности технологических процессов.

Ключевые слова: *Контроль качества, экономика, производство, статистический метод, изменчивость; контрольная карта.*

Abstract: *In recent decades, the concept of quality has become more and more important. As for the production process, the implementation of quality control allows manufacturing enterprises to develop a high-quality product, which positively affects the satisfaction of consumer needs. This article aims to reflect the importance of the method of statistical control of quality processes. In this article, the SPC (Statistical Process Control) method of statistical control of processes, which is one of the effective methods used to prevent inconsistency in technological processes, is explained.*

Keywords: *Quality control, economy, production, statistical method, variability; control card.*

Statistik usullar yordamida sifat va nazorat bo‘yicha tadqiqotlarni ishlab chiqish mahsulot ishlab chiqariladigan har qanday soha uchun juda muhimdir, chunki u mahsulotlarning o‘zgaruvchanligini kamaytirish va bu orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Ushbu sifat nazorati orqali mumkin bo‘lgan kamchiliklarni aniqlash, tegishli choralarni ko‘rish, ishlab chiqarishga moslashtirilgan mahsulotning yakuniy dizaynini taklif qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, statistik usullarni to‘g‘ri joriy etish sifat menejmenti tizimlarini (ISO standartlari) sertifikatlash imkonini beradi, bu bozor oldida bir qator afzalliklarga olib kelishi mumkin, chunki bu ishlab chiqarish korxonalar tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlarning imidjini yaxshiroq ta’minlashga imkon beradi hamda iste’molchilar sonini yoki sotish hajmini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ishlab chiqarish korxonalarda sifatni nazorat qilishning statistik usullari yillar davomida ahamiyat kasb etmoqda. Shunday qilib, sifatning ahamiyati ish vaqtidan oshib ketganidek, bu kontseptsiya bilan ham xuddi shunday bo'ldi. Bundan tashqari, sifatni nazorat qilishning ushbu statistik usullari har qanday ishlab chiqarish korxonaga moslashtirilishi va ularning samaradorligi oshirishi mumkin. Ma’lumotlariga ko‘ra, sifat tushunchasi quyidagi to‘rt bosqichdan iborat bo‘lgan:

Sifat nazorati, 1940-1959 yillar. Ushbu bosqichda sifat spetsifikatsiyalarni tasdiqlash sifatida aniqlanadi, shuning uchun yuqori xarajatlarni nazarda tutadigan noto‘g‘ri mahsulotlarning iste’molchilarga kelishini oldini olish uchun mahsulotning ushbu spetsifikatsiyalarini tekshirish va nazorat qilish usullari orqali tekshirishga qaratilgan;

1960-1979 yillarda, sifat foydalanishga yaroqli narsa sifatida aniqlanadi. Ushbu davrda ishlab chiqarish korxonalarning eng yuqori cho‘qqilari sifat jahon va kuchli raqobat bozorida muhimligini ta‘kidlaydi. Bu fikr ishlab chiqarish korxonalarni sifat menejmenti tizimini yaratishga undaydi. Bunday holda, sifat endi yuqori xarajatli sarmoya emas balki, raqobatbardosh ustunligiga aylanadi.

1980-1999 yillar mobaynida sifat mahsulot, xizmat va boshqaruv sifatiga javob berishga qaratilgan umumiy sifat deb nomlanuvchi mijozning qoniqishiga qarab belgilanadi. Shu sababli, sifat endi nafaqat sifat va ishlab chiqarish bo‘limining mas’uliyati, balki ishlab chiqarish korxonaning barcha bo‘limlari uchun kengaytirilgan.

Biznes mukammalligi, 2000-yildan hozirgi kungacha. Bu sifat kontseptsiyasi evolyutsiyasining so’nggi davri. Ushbu bosqichda sifat mijozlar ehtiyojini qondirish va iqtisodiy samaradorlik sifatida aniqlanadi. Mijozlarning qoniqishi iste’molchining ehtiyojlari, istaklari yoki kutganlariga erishilganligini qadrlashi sifatida tushuniladi.

Faraz qiling, mahsulotning dastlabki ishlab chiqaruvchisi biror mahsulotni tayyorlar ekan, uning keyingilarini nazorat qilgan holda talabga javob bermaydiganlarini ajratib olgan. Ayrim hollarda xatolarni bartaraf etish maqsadida tekshirish va tuzatishlar olib borilgan. Bu ikkala holat ham topish bo‘lib, mahsulot tayyorlash hamda xizmat ko‘rsatishda vaqtning bexuda ketishi va tayyorlov, butlov materiallarining yo‘qotilishiga sabab bo‘ladi. Iqtsodchilar, marketologlar nuqsonsiz mahsulot ishlab chiqarish va bu bilan kamxarjlikka e’tibor berish strategiyasi doimo samara berishini ta‘kidlab kelishadi. Bu strategiyani ko‘pchilik xodimlarga “birinchi martada to‘g‘ri bajar!” shiori bilan etkazish mumkin. Biroq bu birgina shiorga amal qilish bilan kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi[1]. Shu bois biz mazkur maqolamizda texnologik jarayonlardagi nomuvofiqlikni oldini olishda qo‘llanadigan samarali metodlardan biri bo‘lgan SPC (Statistical Process Control) jarayonlarini statistik boshqarish metodi haqida so‘z yuritamiz.

Avvalo SRS metodi to‘g‘risida to‘xtalsak. U o‘tgan asrning 1960 yillarida AQShning (AIAG)- avtomobilsozlik sanoati standartlashtirish guruhi va (ASQC)- sifatni boshqarish bo‘yicha Amerika jamiyatining avtomobilsozlik bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan.

1990 yilda Kraysler, Ford va Jeneral Motorslarning yetkazuvchilarni attestasiyalash va sifatini baholash guruhi bilan AIAG kelishilgan holda SPC metodini qo‘llanma sifatida ishlab chiqqan va o‘zlarining etkazuvchilariga uni qo‘llashni talab eta boshlagan[2]. Avtomobilsozlikda sifat menejmeti tizimi xalqaro (O‘zDSt ISO/TS 16949:2011) standartining 8.1.1 va 8.1.2 bandlari quyidagilarni, ya'ni [3]:

- har bir jarayon uchun bo‘lgan muvofiq statistik metodlar (SPC) kelajakda ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini rejalashtirish va boshqarish rejasida aniqlangan bo‘lishi;

- asosiy tushunchalar quloch (variasiya), stabillik (turg‘unlik)ni boshqarish, jarayonlar imkoniyati (Cpk Ppk) va ortiqcha sozlashlar tashkilot bo‘yicha barchaga tushunarli bo‘lish va qo‘llashni talab etadi.

Asosiy e’tiborni jarayonlarni statistik boshqarish tizimi elementlarini tushunishga qaratish lozim:

- jarayonlarni boshqarish tizimi (yetkazuvchi, iste’molchi, 5M, malumotlar samarasi, jarayon va maxsulot) ustida ishlash;
- jarayonlar chiqishga o'zgaruvchanlik (odatiy va maxsus sabablar) ta‘sirini o'rganish;
- o‘zgaruvchanlikni tuzatish local (15 foiz jarayon ichidagi ishtirokchilar tomonidan) va tizim (85 foiz menejment) ta’sirida bartaraf qilish;
- jarayon va uni takrorlanuvchanligini boshqarish;
- jarayonlarga takomillashtirish (PDCA) tsiklini qo‘llash;
- nazorat kartasi va uni qo‘llash.

Jarayonlarni statistik boshqarish vositasi - nazorat kartasini qo‘llash ustunligi:

- ishchi (operator) jarayoni hozirgi holatini boshqara oladi;
- jarayonni stabil ishlashiga yordam beradi, sifat va kamxarajatni ta’minlaydi; -nuqsonning oldi olinadi;
- sifatni oshiradi;
- yagona mahsulot tannarxini kamaytiradi;
- ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi;
- jarayonlar imkoniyatini tahlil etish uchun umumiy yagona til yuzaga keladi;
- o‘zgaruvchanlik sabablari odatiy va maxsusga ajratiladi, ular lokal yoki tizimli chora ko'rishga yo'naltiriladi.

Nazorat kartasi - statistik yondashuvdagi grafik ko‘rinish vositasi bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish uchun qo‘llaniladi. Nazorat kartasini ishlab chiqarish jarayonlariga qo‘llashni birinchi bo‘lib 1924 yilda doktor U.Shuxart taklif etgan. Nazorat kartasining maqsadi takrorlanuvchi jarayon natijalaridagi nomuvofiq o‘zgarishlarni aniqlash va statistik boshqarish yo‘lga qo‘yilmagan joylar uchun mezonlarni topishdan iboratdir.

Jarayonlarni statistik boshqarishning vazifasi jarayonlarni ma‘qul va stabil (turg‘un) holatda saqlash va ta'minlash hamda mahsulot yoki xizmatni talabga muvofikligini kafolatlashdan iborat. Nazorat kartasi - jarayonlardagi mahsulot sifati bo‘yicha olingan natijalarni yozish, belgilangan chegaralar ichida borayotganligini kuzatib borish, jarayonlarni statistik boshqarish xolatini aniqlash va ushbu holatni saqlashda keng qo‘llaniladi. Nazorat kartani qo‘llash. Miqdor natijalar uchun nazorat kartasi qo‘llangunga qadar quyidagilarni amalga oshirish lozim, ya'ni:

- qulay atrof muhitni yaratish;
- resurslar bilan ta’minlash;

- jarayon (jihoz, materil, metod, muhit va inson) bog‘liqligi va ta’sirini aniqlash va tushunarli bo‘lishi ta’minlash;
- o‘lchash tavsif aniqlash, qaysiki kartaga tushirilishi lozim bo‘lgan tavsif, bunda iste’molchi talablarini, mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va tavsiflar orasidagi korrelasiyalarni hisobga olish;
- o‘lchash tizimini aniqlash, tavsif ish jarayoni davrida o‘lchanishi va natijalar barcha qiziquvchi tomonlarga etkazilishi lozim. O‘lchash va o‘lchov vositasi haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatish;
- barcha ta’sirlarni hisobga olgan holda o‘zgaruvchanlikni minimallashtirish.

Nazorat kartasi tuzish uchun o‘lchash hajmi, namuna chastotasi va guruhlar sonini aniqlashda:

- yetarli guruhni aniqlashda shunday guruh tanlash kerakki u ichki o‘zgaruvchanlikni ko‘rsatsin.

Ishlab chiqarishdan, qisqa vaqt oralig‘idagi ketma-ket mahsulotdan 4-5 tadan, tanlov soni barcha guruhlarda bir xil hajmda bo‘lsin;

- namuna chastotasi stabil holatgacha guruhlarni tanlash qisqa vaqt oralig‘ini, stabil holatda esa uni kengaytish mumkin.

O‘zgarishlar tanaffus, smena va material partiyasi almashishi, muhit va boshqalarda bo‘lishi mumkin;

- guruhlar hajmini aniqlash - shunday yetarli guruhlar tanlash lozimki, o‘zgaruvchanlikni barcha sabablari yuzaga chiqsin. 100 dan ortiq individual qiymatlarni o‘z ichiga olgan 25 yoki undan ortiq guruh bo‘lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan nazorat kartasiga qo'yilgan talablarni o'rganib, "O‘z Dong Von Ko" korxonasida "Nazorat rejasi" berilgan maxsus tavsiflarni nazorat qilish uchun komyuter dasturi ishlab chiqilib, miqdor yoki (sifat) alternativ natijalarga qo‘llandi (1-rasm) va jarayonlarni statistik boshqarish holatiga olib kelindi [2].



1-rasm. Nazorat kartasining ko‘rinishi

USL – Upper Specification limit;
SL – Specification limit;

LSL – Lower Specification limit.

Sifat har qanday ishlab chiqarish korxonada raqobatdosh ustunlikka erishish va tegishli bozor ulushiga erishish uchun asosiy talab sifatida zarur element hisoblanadi. Ammo, ishlab chiqarish korxonalar nafaqat mahsulot sifatini izlashlari. balki mijozlarning talablarini ham o‘rganishlari kerak. Shuning uchun ishlab chiqarish korxonalar o‘z mahsulotlaridan ko‘ra ko‘proq mijozga e‘tibor berishadi, chunki agar mijoz nuqsonli mahsulotni olsa, ishlab chiqarish korxonasi o‘zining aslligini yo‘qotadi.

O‘z navbatida, bu xususiyatlar spetsifikatsiyalar deb ataladigan narsalarga muvofiq baholanadi. Bu mahsulotni tashkil etuvchi komponentlar:

- kichik qismlarda topilgan sifat ko‘rsatkichlarining kerakli o‘lchovlari;
- yakuniy mahsulotdagi sifat ko‘rsatkichlari uchun kerakli qiymatlar.

Sifat xarakteristikasi uchun kerakli qiymat maqsad yoki nominal qiymat sifatida tanilgan, bu xususiyat uchun minimal ruxsat etilgan qiymat pastki spetsifikatsiya chegarasi (Lower Specification limit-LSL) deb ataladi va maksimal ruxsat etilgan qiymat yuqori spetsifikatsiya chegarasi (Upper Specification limit-USL) deb ataladi [4].

Agar mahsulot biron bir spetsifikatsiyaga javob bermasa, u nomuvofiq deb hisoblanadi, ammo bu uning mos emasligini anglatmaydi. Shuning uchun, bu mos keladigan qiymat yoki holatga nisbatan sifat xususiyatidan og‘ish sifatida tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гугелев А.В. Стандартизация, метрология и сертификация: Учебное пособие. А.В.Гугелев.-2-е изд.-М: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К", 2012.-212с.
2. Статистическое управление процессами. SPC. Ссылочное руководство. Перевод с английского второго издания от июля 2005 года. - Н.Новгород: ООО СМЦ «Приоритет», 2007. 224 с.
3. O'zDSt ISO/TS 16949:2011 Sifat menejmenti tizimi. Avtomobilsozlik sanoati va tashkilotlari butlovchi qisimlar ishlab chiqaruvchilariga ISO 9001:2008ni qo‘llash bo‘yicha maxsus talablar.
4. Besterfield, D. H. (2009). Control de calidad. México: Prentice Hall.

AXBOROT RESURS BAZALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA STANDARTLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Olimova Odinaxon Satvoldiyevna
Farg‘ona davlat texnika universiteti
“Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Raqamli iqtisodiyot keng taraqqiy etgayotgan jamiyatimiz hayotida kutubxonalarning missiyasi birmuncha o‘zgarishi zarur va bosqichma bosqich soha negizida islohotlar bo’lmoqda. Axborot texnologiyalari va Axborot resurs markazining integratsiyalashuvi hamda kutubxonachining professional faoliyatida qoidalar yangilanishiga ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. Endi tadbirlar miqdori, kitobxonlar va berilgan kitoblar soni kabi ko‘rsatkichlar Axborot-resurs markazi faoliyatini baholashda bosh omil bo‘lolmaydi. Kutubxonachidan audiovizual va elektron hujjatlar, zamonaviy texnika bilan ishlash malakasi ham talab etiladi.

Axborot-kutubxona faoliyatini aniq va samarali boshqarish, foydalanuvchilar qiziqishlarini himoya qilish, yaratilayotgan axborot resurslari va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining va tezligining yuqori bo‘lishi standart talablarini qay darajada bajarilishiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, hozirgi kundagi muammolardan bu axborotlar, bibliografiya, kutubxonachilik, fondni butlash va nashriyot ishi bo‘yicha standartlar tizimini (SIBID) o‘rganish, ishlab chiqish, moslashtirish, tasdiqlash va tatbiq qilish, AKM va ARM larni tashkil etish hisoblanadi. [1]. Respublikamizda tashkil qilinayotgan AKM va ARM oldiga an’anaviy kutubxona xizmati ko‘rsatishdan o‘z axborot resurslarini yaratish va jahon ilmiy-ta’lim axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini berish yo‘li bilan axborot kutubxona xizmatini ko‘rsatishga o‘tish kabi bir qator vazifalar qo‘yilgan. Bunday vazifalarni bajarish uchun AKM va ARMlarda avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimlari (AAKT) yaratishni talab qiladi. AAKT ning dasturiy ta’minotini yaratish, kutubxonachilik va nashriyot uchun standartlar tizimini yaratishni taqozo qilmoqda.

Zamonaviy kutubxonalar bosma hujjatlarni saqlaydigan passiv omborlardan, faol ishlaydigan avtomatlashtirilgan axborot markazlariga, elektron kutubxonalarga, hujjatlarni elektron pochta, global telekommunikatsiya va internet orqali uzatuvchi va qabul qiluvchi markazlarga aylanmoqda.

Axborot texnologiyalarini jamiyatimizning turli sohalarida keng tatbiq qilinishi, kitobxonlarga xizmat ko‘rsatuvchi kutubxonalar faoliyatida tub islohotlar o‘tkazishni talab qilmoqda. [2]. Masalan, kutubxonaga kelib tushgan kitoblarning bibliografik tasvirini yaratishda kataloglashtiruvchi zarur bo‘lgan ma’lumotlarni kitob muqovasidan ham, titul varaqasidan ham topishning iloji yo‘q. Shu sababli ham kitob chop qilish jarayonida standart talablariga rioya qilish zarur. Aks holda, kataloglashtiruvchi kitobda mavjud bo‘lmagan bibliografik tasvir elementlarini topa olmaydi. Demak, kitob chop qilish jarayoniga oid standartlar xalqaro qoidalarga mos ravishda ishlab chiqilishi va respublika nashriyot sohasiga tatbiq qilinishi zarur.

Axborot-kutubxona faoliyatiga oid standartlar tarkibi:

- Birinchi guruhga kiruvchi mavjud barcha standartlarning juda ko‘pchiligi asosan axborot-kutubxona sohasidagi asosiy tushunchalar, atamalar va ta’riflarni qisqa, lo‘nda va aniq ifodalashga yo‘naltirilgan.

Hozirgi paytda atamalar standartlari asosan: axborot-kutubxona faoliyati, bibliografiya, bibliografiyashunoslik, axborotlarni qidirish va tarqatish, axborot-qidiruv tillari, kataloglashtirish, fondni butlash, elektron nashrlar sohalarini butunlay qamrab olgan.

- Ikkinchi guruhga kiruvchi standartlar texnologik standartlar bo‘lib, ular asosan kutubxona-axborot va nashriyot texnologiyalariga oiddir:

hujjatlarning bibliografik tasviri, alohida ko‘rinishdagi hujjatlarning bibliografik tasviri;
hujjatlar uchun annotatsiya va referatlar yozish;
kataloglar va kartotekalar uchun kartochkalarni shakllantirish;
alohida ko‘rinishdagi hujjatlarni rasmiylashtirish;
turli ko‘rinishdagi hujjatlarni saqlash va konservatsiya;
rubrikatorlarni yuritish;
bibliografik ma’lumotlarni almashtirish.

- Uchinchi guruhga kiruvchi standartlar axborot-kutubxona xizmati ishlarini hisobga olishni (fond abonentlar va kitobxonlar bilan ishlashni hisobga olish) boshqarishga mo‘ljallangan. Axborotlashtirish va aloqa agentligi tomonidan mazkur standartlarning ishlab chiqilishi kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan milliy tizim uchun nazariy va amaliy asos yaratishga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raqamli iqtisodiyot asoslari. R.H.Ayupov., G.R.Boltaboyeva, Toshkent Moliya instituti. Darslik. – Toshkent, 2020. – 116-132 b.
2. Obidov, J. G. (2023). Virtual process modeling technologies based on imitation-variability in technical higher education institutions. In E3S Web of Conferences (Vol. 452, p. 07017). EDP Sciences.

ПРИМЕНЕНИЕ МИКРОПРОЦЕССОРОВ В ИЗМЕРИТЕЛЬНЫХ ПРИБОРАХ

Ж.М.Иброхимов
Ферганский государственный технический университет

Применение микропроцессоров и микро-ЭВМ в измерительных приборах явилось одним из важнейших этапов в развитии приборостроения.

Следует отметить, что микропроцессоры не являются измерительными устройствами. Они предназначены для выполнения вычислительных и логических операций с высокой скоростью и точностью. Совместная их работа с аналого-цифровыми и цифро-аналоговыми преобразователями в измерительной технике позволила резко повысить точность, надёжность и быстродействие приборов, расширить их возможности, создавать программируемые, полностью автоматизированные устройства.

Применение микропроцессоров позволило прежде всего улучшить метрологические характеристики — точность, чувствительность, помехоустойчивость. Повышение точности было достигнуто за счет введения калибровочных операций, позволяющих минимизировать как аддитивную, так и мультипликативную погрешность. Для исключения аддитивной составляющей погрешности АЦП его входные зажимы замыкаются накоротко и заземляются. При этом число, полученное на выходе АЦП, характеризующее смещение, запоминается. При измерении оно вноситься в результат как поправка.

Для исключения мультипликативной составляющей погрешности перед циклом измерения на вход АЦП подаётся воспроизводимая мерой величина А0. На выходе при номинальном значении чувствительности должно быть число В. Такое же число хранится в памяти микропроцессорной системы. При изменении чувствительности преобразователя на выходе АЦП получим число. Отношение В/В/, вычисляемое микропроцессором, вводиться как поправочный множитель.

Повышение пороговой чувствительности и помехоустойчивости приборов достигается обработкой сигнала по алгоритмам, приведённым в первой главе, или по другим алгоритмам, включающим операции вычисления оценки среднеквадратического отклонения результата измерения, решения вопроса, выполняется ли гипотеза о нормальном распределении вероятностей случайных погрешностей, а также операции вычисления доверительных границ случайных погрешностей.

Цифровая фильтрация сигналов позволяет повысить чувствительность и расширить диапазон измеряемых величин в сторону малых значений.

Рассмотренные приёмы позволяют полнее использовать метрологические свойства мер и приблизить погрешности измерительных приборов к погрешностям применяемых в них образцовых мер.

Важным направлением применения микропроцессоров в измерительной технике является возможность получения различных математических функций измеренных значений и решения систем уравнений, что позволяет сравнительно просто перейти от косвенных, совокупных или совместных измерений к прямым. Причём микропроцессорные вычислители могут осуществлять эти операции с высокой точностью, значительно превышающей точность аналоговых вычислительных устройств. Многие приборы, содержащие микропроцессоры, позволяют автоматически выполнять запрограммированные функциональные и логические преобразования, например:

- умножение найденного значения на константу;
- определение отклонения измеряемой величины от заданной в абсолютных единицах, относительных или в процентах;
- сложение или вычитание константы;

- вычисление отношений: деление на константу, нахождение частного от деления одного результата измерения на другой результат, деление константы на результат измерения;
- нахождение максимума и минимума из ряда измерений;
- определение выхода измеряемой величины за пределы уставки максимума и минимума. Представление результата измерения в логарифмических единицах;
- линеаризация зависимостей;

Применение микропроцессорной техники позволило создавать многофункциональные приборы, предназначенные для измерения нескольких параметров сигналов или характеристик объекта исследования. Функциональные возможности таких устройств определяются выполняемой программой, их можно легко видоизменить путем перехода к другой программе, хранимой в ПЗУ. Программируемая логика работы в отличие от жесткой создает гибкость перестройки, позволяет наращивать функции при модернизации прибора без существенных изменений в его схеме.

В результате сокращения числа компонентов в схеме прибора вследствие выполнения многих функций микропроцессорными системами уменьшились их габариты, вес, потребляемая мощность и стоимость. Существенно сократились сроки разработки измерительной аппаратуры.

Часто для получения новых свойств прибора не требуется значительных изменений в его схеме и тем более в конструкции. Разработка сводится к созданию необходимого программного обеспечения. Если учесть, что имеется библиотека совершенных типовых прикладных программ, то разработка программного обеспечения сводится к рациональному выбору имеющихся программ.

Литература

1. Швецкий Б. И., Электронные измерительные приборы с цифровым отсчётом, 2 изд., К., 1970;
2. Шкурин Г. П., Справочник по электро- и электронно-измерительным приборам, М., 1972;
3. Орнатский П. П., Автоматические измерения и приборы, 3 изд., К., 1973; Шляндин В. М.,
4. Цифровые измерительные преобразователи и приборы, М., 1973; Электрические измерения, под ред. А. В. Фремке, 14 изд., Л., 1973;
5. Гитис Э. И., Преобразователи информации для электронных цифровых вычислительных устройств, 3 изд., М., 1975.

МОДЕЛИРОВАНИЕ СРЕДСТВ ИЗМЕРЕНИЙ. СТАТИСТИЧЕСКОЕ И МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ.

Ж.М.Иброхимов
Ферганский государственный технический университет

Прежде чем претворять в жизнь новый, только что придуманный аппарат (устройство), или новый вариант доработки схем какого-либо устройства, необходимо убедиться в том, что обновленное устройство будет работать лучше старого. Для этих целей конструкторы нового прибора или устройства всегда начинали с создания некоторого опытного образца или макета, который позволял бы без больших затрат убедиться в работоспособности или в преимуществах нового устройства перед старым. Профессионалы создание подобного опытного образца часто называют процессом физического моделирования.

С появлением и широким распространением профессиональных компьютеров отдельными фирмами были разработаны компьютерные программы, позволяющие выполнять компьютерное (математическое) моделирование различных электронных схем.

Физическое моделирование связано с большими материальными затратами, поскольку требуется изготовление макетов и их трудоемкое исследование. Часто физическое моделирование просто невозможно из-за чрезвычайно сложности устройства, например, при разработке больших и сверхбольших интегральных микросхем. В этом случае прибегают к математическому моделированию с использованием средств и методов вычислительной техники.

Моделирование является одним из фундаментальных научных методов познания и исследования процессов, систем и устройств.

Модель – это формализованная сущность, отражающая наиболее общие и существенные свойства объекта.

Можно выделить три основных вида задач, решаемых с помощью моделирования:

- *анализ* – процесс определения параметров и характеристик системы по заданным или по известным параметрам компонентов и устройств, из которых образована изучаемая система;
- *синтез* – процесс достижения или получения заданных параметров и характеристик системы путем подбора или вариации параметров компонентов и устройств, входящих в систему;
- *диагностика* – процесс сравнения работы реальной системы и ее модели для определения работоспособности или нахождения неисправности системы.

Математическая модель – это приближенное описание объекта, системы, процесса с помощью математических методов. Под математическим

моделированием понимают процесс установления соответствия данному реальному объекту некоторого математического объекта, называемого математической моделью, и исследование этой модели, позволяющего получать характеристики реального объекта.

В метрологии используется моделирование измерительных сигналов и моделирование средств измерений.

Математическая модель СИ описывает взаимосвязь его показаний Y со значением измеряемой величины X, конструктивными параметрами $a_1, a_2, \dots a_n$, и влияющими величинами $z_1, z_2, \dots z_n$:

$$Y = f(x; a_1; a_2, \dots a_n; z_1, z_2, \dots z_n).$$

Для построения математических моделей (ММ) СИ необходимо знать, как устроены СИ и каким образом происходит преобразование измерительных сигналов, т.е. нужно знать структуру СИ. Для сложных СИ, каковыми являются большинство современных приборов, анализ их составных частей и ММ является далеко не простой задачей. Для ее оптимального решения, а также для упрощения анализа процессов, протекающих в СИ, введены понятия структурной схемы и* измерительных цепи, канала и тракта.

Структурные схемы состоят из соединенных определенным образом структурных компонентов (блоков), каждый из которых выполняет одну из ряда функций, связанных с измерением, каждое преобразование сигнала происходит в отдельном звене или блоке. Свойства структурных элементов или их совокупностей описываются с помощью соответствующих уравнений, известных из физики, электротехники, электроники и других технических наук.

Основной характеристикой структурного элемента является его *функция (уравнение) преобразования* $Y = f(X, A, Z)$ — уравнение, связывающее между собой входной X и выходной Y сигналы элемента, его параметры A - и в ряде случаев внешние влияющие величины Z. Функция преобразования структурного блока является его математической моделью. Ее вид зависит от того, насколько полно элемент необходимо описать, и какие его свойства являются для исследователя наиболее важными. Например, ММ идеального усилителя может быть записана в виде $U_{вых}(t) = k \cdot U_{вх}(t)$, где k — коэффициент усиления, являющийся постоянным параметром усилителя. Если необходимо учесть напряжение смещения U_0 на его выходе, модель запишется в виде $U_{вых}(t) = k \cdot U_{вх}(t) + U_0$. Процесс уточнения модели усилителя можно продолжить и дальше. Например, учесть его фазочастотные характеристики, влияние внешней температуры и т.д.

Список литературы

1. В.Н. Строителев. Методы и средства измерений, испытаний и контроля. - М.: «Европейский центр по качеству», 2002.- 152с.

2. В.И. Нефедов, В.И. Хахин и др. Метрология и радиоизмерения. Учебник для вузов. М.: Высшая школа,2003.-526с.
3. В.Д.Казаков, Д.В.Лазерев.Основы метрологии, измерений, стандартизации и сертификации в радиоэлектронике. Учебное пособие. Чебоксары. Чувашский ун-т,2006

QOG‘OZ QALINLIGINI NAZORAT QILUVCHI OPTOELEKTRON QURILMA

Alixonov Elmurod Jamoldinovich, Ergashev Ollohmurod Ikromjonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
[1]M va S kafedrasi katta o‘qituvchisi, [2]69-23 TJBAKT guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qog‘oz sanoatida qog‘oz qalinligini o‘lchash va nazorat qilishda qo‘llanilayotgan optoelektron usullar va qurilmalar batafsil tahlil qilinadi. Mavjud o‘lchash texnologiyalari solishtiriladi, optoelektron qurilmaning ishlash printsipi, tuzilishi va afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, qurilmaning sanoat jarayonlaridagi samaradorligi, aniqligi va amaliy qo‘llanilishi baholanadi. Maqola yakunida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *qog‘oz qalinligi, optoelektron qurilma, o‘lchash texnologiyasi, optik sensor, sanoat avtomatizatsiyasi, qalinlik nazorati.*

Qog‘oz ishlab chiqarish sanoatida mahsulot sifatining yuqori darajada bo‘lishi uchun qog‘ozning qalinligini doimiy nazorat qilish zarur. An’anaviy mexanik usullar qog‘oz yuzasiga ta’sir qilishi va aniqlikni kamaytirishi mumkin. Shu sababli, optoelektron usullar – ya’ni, yorug‘likning o‘tish, aks etish yoki so‘rilish xususiyatlariga asoslangan sensorlar qo‘llaniladi. Ushbu maqolada qog‘oz qalinligini o‘lchash uchun mo‘ljallangan optoelektron qurilmaning konstruktsiyasi va ishlash printsipi tahlil qilinadi.

Qog‘oz qalinligi ishlab chiqarish jarayonida sifatni ta’minlash uchun eng muhim parametr hisoblanadi. Qalinlikdagi kichik farqlar mahsulotning texnik ko‘rsatkichlariga va foydalanish qulayligiga ta’sir qiladi. Mexanik o‘lchash usullari ko‘pincha qog‘oz yuzasini shikastlashi yoki real vaqt rejimida ishlamasligi sababli zamonaviy optoelektron usullar rivojlanmoqda.

Qog‘oz qalinligini o‘lchash uchun keng qo‘llaniladigan usullar quyidagilardan iborat:

1. Mexanik o‘lchash usullari. Mexanik qalinlik o‘lchagichlar qog‘ozga fizik ta’sir ko‘rsatib, uning qalinligini o‘lchaydi. Bunday usullar an’anaviy va oddiy bo‘lsa-

da, ular qog‘oz yuzasiga zarar yetkazishi va real vaqt rejimida ishlashda cheklovlarga ega.

Mexanik o‘lchash usulining kamchiliklari: qog‘oz yuzasiga ta’sir qiladi, bu esa o‘lchashda noaniqliklar keltirib chiqaradi, real vaqt rejimida ishlab chiqarish liniyasida o‘lchash qiyin, past o‘lchash tezligi.

2. Ultratovush usullar. Ultratovush to‘lqinlar qog‘oz orqali o‘tish va aks etish vaqtiga asoslanadi. Ushbu usullar kontaktlarsiz ishlaydi, ammo qog‘ozning namligi va zichligi o‘lchash natijalariga ta’sir qilishi mumkin.

Ultratovush usullarining kamchiliklari: qalinligi juda ingichka qog‘ozlarda o‘lchash aniqligi pasayishi mumkin, sensorlar yuqori sifat va kalibrlash talab qiladi, qurilma narxi o‘rtacha yuqori.

3. Rentgen va gama-nurlari usullari. Qalinlik o‘lchashda rentgen va gama nurlaridan foydalaniladi. Ularning yuqori aniqligi mavjud bo‘lsa-da, xavfsizlik talablariga rioya qilish zarur va qurilmalarning narxi yuqori.

Rentgen va gama-nurlari usullarining kamchiliklari: xavfsizlik talablarining yuqoriligi, qurilmalar qimmat va murakkab, sanoatda kamroq qo‘llaniladi, asosan laboratoriya sharoitida.

4. Optoelektron usullar. Yorug‘likning qog‘oz yuzasidan o‘tish, yutilish yoki aks etish xususiyatlariga asoslangan usullar. Bu usullar yuqori aniqlik, tezlik va shikast yetkazmaslik jihatidan afzal hisoblanadi.

Optoelektron qurilma yorug‘lik manbai, qog‘oz namunasi va fotodioddan tashkil topgan. Qurilma yorug‘lik nurlarini qog‘ozga yo‘naltiradi va qog‘ozdan o‘tgan yoki undan aks etgan yorug‘lik intensivligini o‘lchaydi. Yorug‘likning o‘tish darajasi qog‘oz qalinligiga bog‘liq bo‘lib, olingan signal elektron tizimda qayta ishlanadi va qalinlik qiymatiga aylantiriladi.

Qurilmaning texnik xususiyatlari:

– Yorug‘lik manbai yuqori aniqlik va fokuslash imkonini beradi, LEDlar esa qulay va energiya tejamkor.

– Fotodiodlar yuqori sezgirlik va tezlikni ta’minlaydi.

– Analog signallarni kuchaytirish va raqamlashtirish, shuningdek, shovqinni kamaytirish algoritmlari qo‘llaniladi.

– Qurilma mikrokontroller yoki kompyuterga ulangan bo‘lib, real vaqt rejimida ma’lumotlarni ko‘rsatadi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga integratsiya qilinadi.

Optoelektron qalinlik o‘lchash qurilmalari qog‘oz ishlab chiqarish liniyalarida sifat nazoratini avtomatlashtirish uchun keng foydalaniladi. Ular o‘lchash jarayonini doimiy monitoring qiladi, qalinlikdagi o‘zgarishlarni aniqlaydi va ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini ta’minlaydi. Shuningdek, qurilmalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Optoelektron qalinlik o‘lchash qurilmalarida qog‘oz qalinligini o‘lchash jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari:

1. Chang, namlik va tashqi yorug‘lik ta’sirini kamaytirish uchun qurilmaga himoya tizimlarini o‘rnatish.

2. Turli rang va teksturalarni hisobga oladigan kalibrlash algoritmlari ishlab chiqish.

3. Raqamli filtrlar va sun’iy intellekt yordamida signalni tozalash.

Optoelektron qalinlik o‘lchash qurilmalarining afzalliklari:

1. Mexanik kontakt yo‘q, shuning uchun qog‘oz zarar ko‘rmaydi.
2. Real vaqt rejimida o‘lchash imkoniyati.
3. Yuqori aniqlik va takrorlanuvchanlik.

Xulosa va takliflar

Optoelektron qurilmalar qog‘oz qalinligini o‘lchashda yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonining sifatini oshiradi. Kelajakda qurilmalarning chidamliligi va aniqligini oshirish uchun yangi yorug‘lik manbalari va sensor texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, ma’lumotlarni qayta ishlash uchun ilg‘or algoritmlarni qo‘llash tavsiya etiladi. Bundan tashqari, sanoat sharoitida qurilmalarni mustahkamlash va avtomatlashtirish darajasini oshirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith, J., “Optical Thickness Measurement in Paper Industry,” *Journal of Optical Engineering*, 2021.
- students' mastering of modern information technologies. In lessons integrated with computer science, students master computer literacy and learn how to use it in preparation for classes in special disciplines.

The disadvantages and problems of using ICT include:

- not all students have their own (home) computer, which is necessary for independent study;

- teachers do not have enough time to prepare for a lesson that uses modern ICT;

- insufficient computer literacy of the teachers themselves;

- there is no time in the teacher's work schedule to explore the possibilities of the Internet;

- there is a possibility that, having become interested in the use of ICT in the classroom, the teacher will switch from developmental learning to visual and illustrative methods.

However, these disadvantages can be eliminated and in no way diminish the importance of ICT in the education process as a whole, including in educational institutions of railway transport.

List of literatures

1. Морева, О. А. (2022). Информационные технологии в образовании. — М.: Академия.
2. Selwyn, N. (2016). Education and Technology: Key Issues and Debates (2nd ed.). Bloomsbury Academic.
3. Обухова, Л. А., & Калинин, С. В. (2021). Цифровизация образования: технологии, инструменты, методики. — СПб.: Питер.
4. UNESCO Institute for Information Technologies in Education (2020). ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications.

VII SHU’BA. ZAMONAVIY TA'LIM: DAVR VA ZAMON

TALABALARDA MUSTAQIL TA’LIM OLISH KO‘NIKMASINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

[2] *Erkin Imamnazarov,* [3]*Otabek Parpiyev*
Namanga davlat texnika universiteti

Annotatsiya (Abstract). Talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘llaniladigan eng so‘nggi texnologik yondashuvlar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar (Key words). Ta’lim tizimi, mustaqil ta’lim, innovatsion**,** gamifikatsiya, sun’iy intellekt, personalizatsiya.

Zamonaviy axborot jamiyatida ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – talabalarda **mustaqil ta’lim olish (self-directed learning) qobiliyatini** shakllantirishdir. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi, chunki ular bilim olishni shaxsiylashtirish, interfaollikni oshirish va o‘quv jarayonini qiziqarli qilish imkoniyatlarini beradi.

Hozirgi kunda ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim jarayonida yangi yondashuvlar va ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash nafaqat bilimlarni samarali o‘zlashtirishga, balki talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Mustaqil ta’lim olish esa o‘z navbatida talabaning ijodiy fikrlash, tahlil qilish va muammoni yechish qobiliyatini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalar yordamida bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin.

Mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasi zamonaviy talabalar uchun eng zarur bo‘lgan ma’lumot olish shaklidir. Bu ko‘nikmalar talabalarga o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z bilimlarini yangilash, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Mustaqil ta’limning afzalliklari orasida vaqtni tejash, o‘rganish jarayonida maxsus yondashuvlar va individual tezlikda ishlashni ta’minlash kabi jihatlar mavjud.

Mustaqil ta’lim – bu talabaning o‘z bilim olish jarayonini rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashi qobiliyatidir. Uning afzalliklari:

- ijodkorlikni oshiradi;
- mas’uliyat hissini rivojlantiradi;
- hayot davomida o‘rganish (lifelong learning) uchun asos yaratadi.

Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish va o‘rgatish jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. O‘qituvchilar va talabalar uchun interaktiv ta’lim

[2] *Imamnazarov Erkin - p.f.b.f.d. PhD. katta o‘qituvchi, Namangan davlat texnika universiteti*
[3] *Parpiyev Otabek - katta o‘qituvchi, Namangan davlat texnika universiteti*

platformalari, onlayn kurslar, video darslar va virtual laboratoriyalar kabi vositalar yordamida mustaqil ta’limning samaradorligini oshirish mumkin. Masalan,

1. *Sun’iy intellekt (AI) va adaptiv o‘quv platformalari:*
   - sun’iy intellekt asosidagi o‘quv dasturlari (masalan, ChatGPT, Khan Academy, Coursera) har bir talabaning darajasiga moslashuvchi materiallarni taklif qiladi.
   - Virtual repetitorlar (Aleks, Socratic) – shaxsiy savollarga javob berish orqali mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi.
2. *AR/VR texnologiyalari (kengaytirilgan va virtual reallik)*
   - Virtual laboratoriyalar (Labster) – talabalarga xavfsiz tarzda tajriba o‘tkazish imkoniyatini beradi.
   - 3D modellar – murakkab tushunchalarni vizuallashtirishda yordam beradi.
3. *Gamifikatsiya va interfaol o‘quv dasturlari.*
   - Duolingo, Quizlet – o‘yinlashtirilgan usullar orqali motivatsiyani oshiradi.
   - Minecraft: Education Edition – kreativ tarzda muammolarni hal qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.
4. *Bulutli ta’lim resurslari va MOOCS.*
   - Google Classroom, Moodle – uydan mustaqil ishlash uchun materiallar bazasi.
   - Massiv ochiq onlayn kurslar (MOOCS) – edX, Udemy platformalari orqali dunyo universitetlaridan bilim olish kabi onlayn kurslar talabaga o‘z maqsadiga erishishda yordam beradi, ularni o‘z vaqtida va o‘zgaruvchan tezlikda o‘rganish imkoniyatlari bilan ta’minlaydi.

Mustaqil ta’lim olishda yangicha uslublar va texnologiyalarni qo‘llash talabalar uchun yanada samarali o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Quyidagi uslublar talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishi mumkin:

- Gamifikatsiya: O‘yin elementlarini o‘qish jarayoniga kiritish, talabalarni yanada qiziqtiradi va bilim olishda o‘zlarini yanada motivatsiyalashga yordam beradi. Masalan, darslarni o‘yin shaklida tashkil qilish, bellashuvlar va ranking tizimlari orqali talabalar o‘rtasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish mumkin.
- Personalizatsiya: Har bir talabaga individual yondashuvni ta’minlash, uning o‘rganish usuliga moslashtirilgan materiallarni taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida talabalar o‘rganish jarayonini real vaqtda tahlil qilib, ularning zaif va kuchli tomonlarini aniqlash va tegishli tavsiyalar berish mumkin.
- Blended learning (Aralash ta’lim): Bu uslubda talabalar mustaqil ravishda elektron materiallar yordamida o‘rganishadi, lekin shu bilan birga o‘qituvchi bilan yuzma-yuz aloqada bo‘lishadi. Bu yondashuv talabalar uchun ko‘proq vaqtni mustaqil o‘rganishga ajratish imkonini yaratadi, o‘qituvchi esa savollarni

muhokama qilish va tushunmovchiliklarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu bilan birgalikda, innovatsion texnologiyalar yordamida talabalar turli elektron resurslardan foydalanishlari mumkin. Onlayn kutubxonalar, digital arxivlar, virtual laboratoriyalar va elektron darsliklar yordamida talabalar o‘qish jarayonini mustaqil ravishda davom ettirishlari mumkin. Masalan, Khan Academy, Coursera, edX kabi resurslar talabalarni nafaqat ma'lum bir fan bo‘yicha bilim olish, balki ijodiy fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni yanada kengaytirish uchun talabalarga kerakli texnik vositalarni taqdim etish zarur. Har bir talabaga portativ qurilmalar (kompyuterlar, planshetlar, telefonlar), internetga kirish imkoniyati, zamonaviy ta’lim platformalari va onlayn resurslarga ega bo‘lishi ta’minlanishi kerak. Buning uchun universitetlar va ta’lim muassasalari ilg‘or texnologiyalarni o‘z o‘quv jarayonlariga joriy etishlari lozim.

- Erkinlik va moslashuvchanlik: Talabalar o‘zining o‘rganish tezligini belgilab, vaqtni o‘rganish uchun eng samarali shaklda taqsimlaydilar.
- Ta'limni individualizatsiya qilish: Har bir talaba o‘ziga mos yondashuvga ega bo‘ladi, bu esa samarali natijalarga olib keladi.
- O‘z-o‘zini baholash: Talabalar o‘rganish jarayonini baholash va o‘zlarining rivojlanishini mustaqil tarzda kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
- Texnologiyalar yordamida o‘rganishning zamonaviyligi: O‘rganish jarayoni zamonaviy texnologiyalar orqali amalga oshiriladi, bu esa ta’limni interaktiv va qiziqarli qiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalar yordamida talabalarda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, nafaqat o‘qish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi, balki talabalar uchun ilmiy va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni ta’lim tizimiga kirishning yuqori samarali yondashuvlari orqali, talabalar o‘z maqsadlariga erishishda yanada mustahkam poydevorga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Муслимов Н.А. Формирование профессиональной компетенции будущих педагогов основе применения информационных и педагогических технологий. Молодой ученый. 2012 - г. - №1. 0,36 б.т.
2. Muslimov N.A., Abdullayeva., Kuysinov O.A., N.S.Gaipova. Monografiya. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. —T.: ≪Fan va texnologiya≫, 2013, 128 bet.
3. Parpiyev, O. T., & Imamnazarov, E. D. UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA O‘QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGI. Namangan muhandislik-texnologiya instituti ILMIY-TEXNIKA JURNALI.
4. Имамназаров, Э. Д., & Парпиев, О. Т. (2022). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Экономика и социум, (10-2 (101)), 324-328.
5. Imamnazarov, E. D. (2024). FACTORS OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGINEERS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 4(40), 171-173.
6. Imamnazarov, E. (2023). METHODS OF IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGINEERS IN THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGIES. Science and innovation, 2(B5), 57-62.
7. Imamnazarov, E. D., & Parpiyev, O. T. (2021). Teaching educational technologies in pedagogical activities. Экономика и социум, (6-1 (85)), 94-96.

TEXNIKA FANLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMO VA YECHIMLARI

Olimova Odinaxon Satvoldiyevna
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnika fanlarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar, ularning afzalliklari, duch kelinayotgan muammolar va ularning amaliy yechimlari haqida fikr yuritiladi. Zamonaviy texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, robototexnika elementlari va interaktiv platformalarning o‘quv jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning qiziqishini oshirish hamda amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda bu yondashuvlarning roli misollar bilan asoslab beriladi.

Tayanch so‘zlar. innovatsion yondashuv, texnika fanlari, virtual laboratoriya, interaktiv platforma, STEM, robototexnika, o‘quv jarayoni, amaliy ko‘nikma, zamonaviy texnologiya, pedagogik metod.

Аннотация. В данной статье рассматриваются инновационные подходы в преподавании технических дисциплин, их преимущества, существующие проблемы и практические решения. Анализируется влияние современных технологий, виртуальных лабораторий, элементов робототехники и интерактивных платформ на учебный процесс. Также обоснована роль этих подходов в повышении интереса учащихся и развитии практических навыков с примерами.

Ключевые слова. инновационный подход, технические науки, виртуальная лаборатория, интерактивная платформа, STEM, робототехника, учебный процесс, практические навыки, современные технологии, педагогический метод.

Annotation. This article discusses innovative approaches in teaching technical subjects, their advantages, existing problems, and practical solutions. The impact of

modern technologies, virtual laboratories, robotics elements, and interactive platforms on the learning process is analyzed. The article also provides examples to justify the role of these approaches in increasing student interest and developing practical skills.

Keywords. innovative approach, technical subjects, virtual laboratory, interactive platform, STEM, robotics, learning process, practical skills, modern technology, pedagogical method

Texnika fanlari jamiyat taraqqiyoti, sanoat va texnologik rivojlanishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, bu fanlarni o‘qitish zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi lozim. An’anaviy dars uslublarining o‘ziga xos cheklovlari mavjud: talabalar passiv ishtirokchi bo‘lib qoladi, murakkab jarayonlarni amaliy ko‘rinishda ko‘ra olmaydi. Innovatsion yondashuvlar esa bu muammolarga echim bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada texnika fanlarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar, mavjud muammolar va ularning amaliy yechimlari keng tahlil qilinadi.

Hozirgi kunda texnika fanlarini o‘qitishda bir qator innovatsion yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Ulardan biri – virtual laboratoriyalar bo‘lib, bu tizim orqali talabalar real tajribalarni simulyatsiya qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Natijada, an’anaviy laboratoriya jihozlariga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada kamayadi. Masalan, fizika fanida elektr zanjirlarini virtual tarzda yig‘ish orqali talabalar xavfsiz va samarali tarzda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, interaktiv o‘quv platformalari ham o‘quv jarayonini sezilarli darajada jonlantiradi. Xususan, Google Classroom, Moodle, Phet Interactive Simulations kabi vositalar yordamida talabalar uy vazifalarini onlayn tarzda topshirishlari, test sinovlarini bajarishlari hamda o‘qituvchilar bilan bevosita muloqotda bo‘lishlari mumkin. Bu esa o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlab, talabalarning faol ishtirokini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, robototexnika va **STEM** (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvi ham zamonaviy texnik ta’limda muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu yondashuv orqali talabalar mexanika, elektronika va dasturlash fanlarini integratsiyalashgan holda o‘rganadilar. Masalan, Arduino platformasi yordamida oddiy qurilmalarni yasash orqali nafaqat texnik bilimlar, balki ijodkorlik, muammo yechish ko‘nikmalari va mustaqil fikrlash kabi kompetensiyalar ham shakllanadi. Shu tariqa, innovatsion yondashuvlar texnika fanlarini zamonaviy va interaktiv tarzda o‘qitish imkonini beradi.

Innovatsion metodlarni o‘quv jarayoniga joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Eng avvalo, ko‘plab ta’lim muassasalarida texnik vositalarning yetishmasligi kuzatiladi. Jumladan, kompyuterlar, internet tarmog‘iga ulanish imkoniyatlari hamda zamonaviy dasturiy ta’minotlar yetarli emasligi, bu boradagi asosiy to‘siqlardan biridir. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha malakasi yetarli darajada emas. Pedagogik jamoaning bir qismi hali ham

an’anaviy metodlardan voz kecha olmayotgani sababli, innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayoniga to‘liq joriy etilmayapti.

Yana bir muhim muammo – talabalarni o‘qishga jalb qilish, ularni innovatsion metodlar orqali faol ishtirokchi sifatida shakllantirishda yuzaga chiqadi. Texnika fanlarining murakkabligi bois, ba’zi talabalar ushbu fanlarga nisbatan yetarlicha qiziqish bildirmaydilar. Buning ustiga, o‘quv adabiyotlari va darsliklarning zamonaviy talablarga mos, yangilangan versiyalarining yetishmasligi ham innovatsion metodlarni joriy etishda jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu muammolarni tizimli tarzda hal etish innovatsion ta’limni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida tilga olingan muammolarni bartaraf etish maqsadida bir qator amaliy yechimlar taklif etiladi. Eng avvalo, ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan to‘liq ta’minlash zarur. Har bir sinfda kompyuter, interaktiv doska hamda internetga ulanadigan qurilmalarning mavjudligi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularni yangi texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash maqsadida muntazam ravishda qayta tayyorlash kurslari, seminarlar hamda vebinarlar tashkil etilishi lozim. Bu orqali pedagoglar innovatsion yondashuvlarni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, ochiq ta’lim platformalaridan, ya’ni Khan Academy, Coursera kabi bepul onlayn resurslardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish ta’lim sifatini oshiradi. O‘quvchilarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda esa loyihalarga asoslangan o‘qitish uslubini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Har bir mavzuni o‘zlashtirgach, talabalar kichik hajmdagi loyiha ustida ishlashi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bular bilan birga, mahalliy startap kompaniyalar bilan hamkorlikda texnologik yo‘nalishdagi amaliy darslar tashkil etish ham ijobiy samara beradi. Bunday darslarda real hayotdagi ishbilarmonlar ishtiroki talabalar uchun katta motivatsiya manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Texnika fanlarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar talabalarning bilim sifati va amaliy ko‘nikmalarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Virtual laboratoriyalar, interaktiv platformalar va robototexnika kabi vositalar orqali o‘quv jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo‘ladi. Muammolar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni amaliy yechimlar bilan bartaraf etish mumkin. Innovatsion metodlarni keng joriy etish orqali texnik ta’limning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. “Texnik ta’limda innovatsiyalar”, Toshkent, 2021
2. Rustamova Z. “Pedagogik texnologiyalar asoslari”, 2020.
3. S. Aminov, M. Qo‘chqorov. “STEM yondashuvi asosida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish”.

4. Obidov J. G., Ibrohimov J. M. Application and research of energy-saving lighting devices in engineering networks //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 1370-1375.S. Aminov, M. Qo‘chqorov. “STEM yondashuvi asosida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish”.
5. Obidov J. G., Alixonov E. J. Organization of the education process based on a credit system, advantages and prospects //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 1149-1155.
6. Obidov, J. G. O. "About safety technique and issues of supplying electricity of the textile industry." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10.9 (2020): 123-127.
7. Obidov J. G., Ibrohimov J. M. Application and research of energy-saving lighting devices in engineering networks //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 1370-1375.
8. Pisetskiy, Yu V., S. S. Dusmatov, and O. S. Olimova. "ADVANTAGES AND PECULIARITIES OF USING FIBER-OPTIC COMMUNICATION LINES." Scientific-technical journal 1.2 (2018): 165-168.

THE ESSENCE AND FORMS OF TECHNOLOGIES FOR IMPROVING EDUCATION MATERIALS BASED ON IMITATION-VARIATION IN TEACHING VIRTUAL LABORATORIES (ON THE EXAMPLE OF THE EDUCATIONAL DIRECTION OF METROLOGY AND STANDARDIZATION)

Obidov Jamshidbek Gayratjon ogli
doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences, associate professor
Fergana State Technical University

Abstract: In this article reveals the scientific significance of simulation technologies in the educational process of higher education. On the basis of the technology of simulation modeling, the problems of the formation and development of the pedagogical activity of the educational process are investigated.

Keywords: didactic features of the formation of educational materials, engineering technologies, innovative methods, imitation modeling, modeling of educational materials based on imitation-variability, independent education.

Introduction. Different methods to be understandable to the student in teaching independent education a lesson is taught through. This thing arouses interest in the student. As a result of this interest in science will increase, after which the result will

be known. When teaching innovative technologies, the first thing that matters is how it is taught is considered

The information sphere is a constantly expanding area of human activity associated with the production of new information products, services and technologies [1]. Today, the information sphere includes not only research and information centers, networks, libraries and archives, but also office systems, mass media, educational, electoral and information technologies, which generally form the industry of creating, storing, processing and distributing information in all areas of human activity.

Imitation through innovative methods models can be created because the method virtual resources how realizes and ensures that it is referred to. Therefore, when creating virtual resources through simulation models, it is necessary to pay attention not only to its educational methodical views, but also to its normative content. Because its direction is defined through content. Creating a structure and creating a process is formed on the basis of imitation-variability.

Educational modeling environments (eng. Education modeling). Every simulation term that is used in general in the training of future engineers-metrologists or product quality managers, whose professional functions are now quite common, is called "man-machine".

Research methodology. The creation of laboratories for simulation models is carried out in several stages. At the first stage, the technical equipment of the laboratory will be carried out. At the second stage, laboratory topics are formed in accordance with the requirements of the state educational standard of higher education and the professional standard approved for the teacher. One of the most important decisions a modeller must make is the choice of this software. If the program is not flexible enough or it is difficult to work with it, then simulation modeling may give incorrect results or even be impossible.

The simulation technology is based on the construction and solution of increasingly complex pedagogical situations under the guidance of a teacher. The created situation is virtual, and the sessions are dynamic, based on real experience, trying to put the process into practice as much as possible. By its very nature, a virtual process is a conditional environment in which the reader feels more confident and natural than in a real environment. Practice shows that this approach makes it possible to form the pedagogical skills and competencies provided to students, which can then be easily applied in future activities [2]. To implement the process of introducing a student to pedagogical situations, the following are used: algorithmic exercises for mechanical repetition; simulation models - process formation models; situations associated with the solution of increasingly complex pedagogical problems



Figure 1. From the imitation-variational model to machine-level programming with a single agent model (DATG, dynamic activity-transition graph; AAPL, agent-oriented programming language; AFL, Agent ForthProgramming Language; AML, Agent Forth Machine Language; MAS , multi-agent system;

The development of simulated learning environments is not only in the independent learning process, but also for the traditional educational process in digital education. Their design in the form of software is carried out before work, which summarizes and schematizes positive and negative professional experience. analysts, the role of teachers in the implementation of causal relations and relations of learning, and the integration of a large variety of skills into the learning process and the final environments, thus demonstrating the formation of a holistic didactic system.

Teaching-methodical axioms and its normative structure in creating improved models based on imitation-variability. Today, the rapid development of the innovative sector in the life of society, the growth of the share of intellectual products, information and scientific-technical and innovative activities in the economy has led to the fact that

innovations, like minerals, production capacities and intellectual potential, are considered the wealth of the country. Effective use of innovative and scientific and technical potential for the benefit of our country and its citizens would not have been possible without the formation of a comprehensive innovation policy in the country and the creation of legislative foundations for its implementation [3].

Conclusion and suggestions. In conclusion, we can say that almost all traditional methods of interaction between a teacher and a student can be implemented through simulation. The means of simulation models can be technical devices, virtual analogs of personal interaction, as well as some processes. The results of the study showed that, in fact, activities in the context of student involvement in modeling professional activities in a specialized laboratory have a positive effect on the formation of pedagogical skills. The development of a professional orientation in the process of mastering the educational process using a simulation model is an important condition for the formation of readiness for future professional activity, as a result of which the interest of students increases, the necessary skills and abilities are activated, skills and professional qualities are developed.

References:

1. J.Suyumov, G.Madaliyeva, K.Xakimova IMITATION MODELING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATIONAL PROCESS// "Теория и практика современной науки" №5(71) 2021. 18-19 pages.
2. Rasulovna M.K, “Innovation teaching method in primary education” //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. - 2022. - T. 5. - S. 31-34.
3. Mukhina T.G. Active and interactive educational technologies (forms of conducting classes) in higher education: textbook. allowance. Nizhny Novgorod: NNGASU, 2013. 97-pages.

MUTAXASSIS FANLARIDA MUOMMALI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

Yusupova F.T., t.f., PhD
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy nufuzini oshirishga bog‘liqdir. Shunday ekan, sog‘lom, har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqdir.

Bugungi kunda, muammoli o‘qitish deganda mashg‘ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida talabalar kasbiy bilimlarga, ko‘nikmalarga, malakalarga ega bo‘ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Muammoli o‘qitish, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs subyekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyg‘otishdir [1].

Muammoli o‘qitish, pedagogning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o‘zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy, bayon etish o‘quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, talaba uni yechishga yo‘naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o‘qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo‘lishi individual holat bo‘lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

O‘quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda pedagog bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, talabalar oldiga muammoli masalalar qo‘yadi, ularni yechimining yo‘llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o‘zi yo‘lga boshlaydi.

Shuni qat’iyatlik bilan ta’kidlash lozimki, bu yerda yangi bilimlar ma’lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni yechimi uchun beriladi. An’anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – talabalar mustaqil ilmiy izlanish ko‘nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o‘zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O‘zlashtirilgan bilimlar takrorlash bilan bog‘liq bo‘lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.

Agar inson muntazam tayyor bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga o‘rgatilgan bo‘lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so‘ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a’lo darajada namoyon bo‘ladi va rivojlanadi.

Muammoli o‘qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo‘ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma’lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo‘lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo‘ladi, «gap nimada?» degan savol tug‘iladi.

Talaba noma’lum yechimni topish uchun mustaqil yoki pedagog yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo‘luvchi subyekt-obyekt-subyekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli o‘qitishning asosiy belgisi, bu ilmiy, o‘quv yoki barcha faoliyat turlarida paydo bo‘ladigan zaruriy obyektiv qarama-qarshiliklar aksi hisoblanadi. Bu

esa barcha sohalarning harakatlantiruvchi va rivojlantiruvchi manbaidir. Shu sababli muammoli o‘qitishni rivojlantiruvchi deb atash mumkin, zero uning maqsadi – bilimlarni, farazlarni shakllantirish, ularni ishlab chiqish va yechishdan iboratdir. Muammoli o‘qitishda fikrlash jarayoni faqat muammoli vaziyatni yechish maqsadida joriy etiladi, u nostandart masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan fikrlashni shakllantiradi [2].

Muammoli o‘qitish samaradorligining to‘rtta bosh sharti mavjud:

- muammo mazmuniga qarab, yetarli qiziqish uyg‘otishni ta’minlash;
- muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo‘ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta’minlash (ma’lum va noma’lumlar nisbatining maqbulligi);
- muammo yechimida olinadigan axborotni talabalar uchun muhimligi;
- pedagog va talaba orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya’ni talabalar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e’tiborsiz va rag‘batsiz qolmasligi zarur.

Muammoli o‘qitishning pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ta’lim oluvchining fikrlash doirasi va qobiliyatlarini o‘stirish, ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko‘nikmalarni ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko‘nikmalar an’anaviy o‘qitishdagidan ko‘ra ancha mustahkam bo‘lishi;
- kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o‘zining xususiyatlariga egaligi.

Har qanday o‘quv materiali ham muammoli bayon etishga mos kelavermaydi. Mutaxassis fannii o‘qitishda muammoli vaziyatlarni yaratish oson. Farazlar, yechimlar fandagi yangi ma’lumotlar takroriy bosqichidagi an’anaviy tasavvurlarning inqirozi, muammoga yangicha yondashuvlarni izlash va hokazolar muammoli bayon etish uchun mos keluvchi mavzular hisoblanadi. G‘oyalar orqali izlanish mantiqini egallash – muammoli fikrlashni shakllantirishning asosiy istiqbolli yo‘llardan biridir.

Adabiyotlar

1. Omonov X.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent-2012 yil.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent-2008.

TEXNIKA FANLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Yusupova F.T., t.f., PhD
Farg‘ona davlat texnika universiteti

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim jarayonida mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, yaratuvchanlikka intiluvchi shijoatkor, mutaxassis kadrlar yetishtirishga katta e’tibor berilmoqda. Ma’lumki, barcha davrlarda ham o‘qitish mazmuni, ta’lim tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o‘zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Ro‘y bergan ijtimoiy o‘zgarishlarning barchasi muayyan darajada ta’lim mazmunida o‘z aksini topadi. Buni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida ro‘y bergan o‘zgarishlarning o‘qitish jarayoniga tatbiqi misolida ham ko‘rish mumkin. Talabalarni ta’lim olishga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan kasblarini egallashlari uchun mutaxassis fanlarni o‘qitish, mustaqil va ijodiy ishlashlarini samarali tashkil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikamizga turli sohalarda keng qamrovli tafakkuri rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan mutaxassislar zarur [1].

Texnika fanlarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi egallagan pedagoglar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab etiladi [2]:

–fanni o‘qitish va rivojlantirishda kompyuterdan foydalanish imkoniyatlarini bilish;

–fanni o‘qitishni tashkil etishda kompyuterdan foydalanish usullariga ega bo‘lish;

– o‘tilgan mavzuni nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilishni tashkil etishda kompyuterni qo‘llashni bilish;

–o‘qitishning kompyuterli va an’anaviy texnologiyalarini optimal moslashtirishni bilish;

–talabalarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash va boshqalar.

Bugungi kunda ta’lim muassasasi pedagogi uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, vaziyatga ko‘ra o‘z kasbiga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgarishi, shuningdek, boshqalarda ham innovatsion g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

Innovatsion faoliyat quyidagi belgilar asosida namoyon bo‘ladi [3]:

- ijodiy faoliyatni egallashga intilish;
- tadqiqot metodlarini egallash;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish;
- o‘zidan boshqa tadqiqotchining tajribalarini qo‘llash;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

Pedagoglarninig innovatsion faoliyatini tashkil etish ishlari asosiy maqsadga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu boiz, oliy ta’lim muassasasida asosiy o‘zgarishlar vujudga keladi. Mazkur maqsadlarga erishishda qator vazifalarni bajarish zarur: uzluksiz ta’lim g‘oyalarini amalga oshirishning dolzarb ehtiyojlarini ifodalovchi

texnologik va dasturiy mahsulotlarni yaratish; o‘qitish vositalarini tanlash; oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish; pedagog va talabalar hamkorligida innovatsion faoliyatini tashkil etish; talabalarni kasbga yo‘naltirish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish (ta’lim dasturlarini yangilash)dan iborat.

Texnika fanlari bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni olib borishda pedagogik texnologiyalardan aqliy hujum, baliq skleti, Ven diagrammasi hamda shu kabi metodlarni qo‘llash orqali mavzuning maqsad va vazifalarini to‘liq yechishga qaratiladi. Talabalarni ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishi yanada ortadi.

Yo‘nalishlar bo‘yicha texnika fanlarni o‘qitishda sanoat va ishlab chiqarish korxonalarda amaliy mashg‘ulotlarni olib borish orqali talabalarda bilim, ko‘nikma va malaka shakllanadi. Bundan tasqari, laboratoriya mashg‘ulotlarini zavod, korxona va boshqa oliy ta’lim muassasalari bilan dual ta’limni olib borish orqali ta’lim sifatini oshirishga erishiladi.

Talabalarni uztoz-shogirt hamkorligidagi loyihalarda qatnashish orqali nazaiy bilimlarini amaliyotga joriy etilib, uning bilim darajasini oshirishga hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yavkochdiyeva D.E. Innovatsion yondashuv ta’lim tizimini modernizatsiyalash omili sifatida. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye 2021, 4 (101).

2. Muslimov N.A va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya-T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

3. Raxmonova S.M., D.M.Murtozayeva. Ta’lim jarayonida pedagogning innovatsiyon kasbiy faoliyati va xususiyatlari. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 May 2023 / Volume 4 Issue 5.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK KASB TA’LIMI O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING METODIK SHART-SHAROITLARI

Assistent N.M.Muzafarova
Farg’ona davlat texnika universiteti

Annotasiya

Ushbu maqolada hozirgi globallashuv davrida texnik oliy ta’lim muassasalari talabalariga, texnika fanlarini o‘qitishda pedagogik muammolarni aniqlash va tahlil

qilish, *Integrativ yondashuvning mazmun-mohiyati va konseptual* usullardan foydalangan holda texnologik madaniyatni rivojlantirish usullari yoritilgan.

Kalit so’zlar: texno-etika, texnologik muammolar, *integrativ yondashuv* omillar, metodlar, texnika fanlarining pedagogikk tamoyillari.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash bilan birga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish va mehnat bozorida munosib o‘rin topishiga tayyorlash uchun ularda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish talab etilmoqda. Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun o‘quv-bilish jarayonida bo‘lajak pedagoglarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik tizimida talabalar faolligini oshirishga yordam beradigan texnologiyalarni uchta blokka bo‘lish mumkin:

1. Motivasion jozibali - talabalarning shaxsiy xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda qiziqish, mustaqil faoliyat bilan shug‘ullanish istagi, ijodkorlik, innovasion faol va interfaol usullarning kombinatsiyasi - muammoli, loyihaviy, pedagogik va ishbilarmonlik vaziyatlari va o‘yinlari, biografik usul (taniqli shaxslarning tarjimai hollari va taqdirlari to‘g‘risida shaxsiy tushunchalar) va boshqalar.

2. Murakkab psixologik - barcha analizatorlarga ta’sir qilish, og‘zaki, vizual, eshitish xususiyatidagi turli xil vositalardan, zamonaviy dars shakllaridan foydalanish - videodars, videokonferensiya, kvest, ekskursiya va b.; talabalarni kasbiy amaliyotlarga, kasbiy faoliyatning individual, guruhiy va ommaviy shakllariga jalb qilish.

3. Tarixiy-madaniy - jamiyat, mamlakat, dunyo madaniyati yangiliklari bilan talabalarning “madaniy maydoni”ni boyitish - bilimlar, tarixiy voqealar, ijtimoiy o‘zgarishlarning mohiyati va ma’nosini bilish va anglash darajasi, O‘zbekistonning madaniy hodisalari - muzey madaniyati bilan amaliy tanishtirish, bayramlarda qatnashish tajribalari, urf-odatlar, an’analar, madaniy yutuqlarga munosabati, milliy odob-axloq, mentalitet, turmush tarzi, umuminsoniy qadriyatlarni milliy shakllarda ochib berish.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash doimiy nazoratni (monitoringni) talab qiladi va shu bilan murakkablik kasb etadi. Monitoring ko‘rsatkichlari quyidagilar:

a) bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini rivojlantirish;

b) qo‘llaniladigan usullar va texnologiyalarning muvaffaqiyati yoki samarasizligi;

v) tuzatish ishlari.

Ushbu ko‘rsatkichlar auditoriyada, mustaqil ish jarayonida bajarilgan o‘quv-ijodiy vazifalarni baholash, testlar, so‘rovnomalar o‘tkazish, kasbiy bilimlarni

o‘zlashtirish jarayonida motivatsiya darajasi va mazmunini aniqlash uchun talabalarni so‘roq qilish orqali aniqlanishi kerak.

Bo‘lajak o‘qituvchi shu tariqa kuzatuvlar uning dunyoqarashi, motivatsiyasi, maqsadga muvofiqligi, intellektual va ma’naviy-axloqiy rivojlanishi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar to‘g‘risida xabardorligi va ularni rivojlantirish, kasbiy mahoratining o‘sishi bo‘yicha bosqichma-bosqich o‘zgarishlarni ko‘rish imkonini beradi.

OTMlarda o‘quv-tarbiya jarayonining eng muhim tarbiyaviy omili bu o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotdir. Agar faoliyatining turli shakl va usullarini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida birgalikdagi muloqot sub’yektiv xususiyatga ega bo‘lsa (insonparvarlik, xayrixohlik, qulaylik), unda OTMda o‘qitish va tarbiyalash jarayonlarining samaradorligi va ta’sirchanligi oshadi. Kadrlar tayyorlash jarayonida o‘qituvchining ma’naviy, ijtimoiy kasbiy va umumiy madaniyatning tashuvchisi sifatidagi faoliyati ustunlik qiladi.

OTMda o‘qish jarayonida psixologik qulaylik, o‘qituvchi va talabaning o‘quv va auditoriyadan tashqari ishlardagi insonparvarlik munosabatlari talabaning kayfiyatiga sezilarli ta’sir qiladi, u OTMdagi insonparvarlik muhitidan qoniqish hosil qiladi, ustozga bo‘lgan ishonchi ortadi, tarbiyaviy ta’sir samaradorligi oshadi. Bizning fikrimizcha, tadqiqotimiz muammosi ma’naviy, gumanitar va estetik qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uni hal qilishda quyidagi pedagogik tamoyillar asos bo‘la oladi:

1. Gumanizatsiya (insonparvarlik) tamoyili. Bu talaba shaxsining qiziqish yo‘nalishlari, vazifa va istiqbollariga e’tibor qaratishni, uning qobiliyatlari va imkoniyatlari doirasini kengaytirishni, ijtimoiy aloqalari va kasbiy harakatlari uyg‘unligini ta’minlashni anglatadi.

2. Hamkorlik tamoyili. Hamkorlik sub’yektlari o‘zaro munosabatlari jarayonida o‘zaro bir-birini tushunish, mazmunli ma’lumotlar almashinuviga erishishga harakat qiladi. Hamkorlikka erishish yo‘llari sifatida bu yaxshi tashkil etilgan talabalarning o‘zini o‘zi boshqaruv tizimi, insoniy munosabatlar madaniyati, OTMdagi o‘qish va hayotini boshqarishning demokratik uslubini keltirish mumkin.

3. Vorislik tamoyili. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy rivojlanishi sohasidagi vorisiylikning o‘ziga xos xususiyatlarini yoshlar o‘rtasida milliy va umuminsoniy, axloqiy, ijtimoiy va madaniy me’yorlarni faol o‘zlashtirishga psixologik ko‘rsatma berish tarzida ifodalash mumkin.

4. Kreativlik (ijodkorlik) tamoyili. Kasbiy ko‘nikmalarni ijodkorlik komponentisiz shakllantirish mumkin emas. Har qanday ijodiy faoliyat ijtimoiydir, chunki uning natijalari jamiyatni va uning vakillarini yaxshilashga qaratilgan. Ijodkorlik jarayonida mustaqillik, shaxsning faolligi, dialektik fikr yuritish va standart munosabatlarga muvofiq harakat qilish kabi fazilatlar rivojlanadi.

Ta’lim jarayonida innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayoni qatnashchilarining mavjud o‘zaro aloqalarini o‘zgartirib yubormoqda.

O‘qituvchilar va ta’lim oluvchilarga yangi talablarni ilgari surmoqda, biroq ta’limning chiziqsiz muhitini qurish uchun buning o‘zi yetarli emas.

Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofaviy ta'lim nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent:
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: "Fan va texnika" nashriyoti
3. Asqarov I.B. Bo'lajak kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarini ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-metodik modeli. “Pedagogika” ilmiy-nazariy va uslubiy jurnali. - T., 2016
4. Asqarov I.B., Muslimov N.A., Turmatov J.R. Talabalarni mustaqil tadqiqotga tayyorlashning mazmuni va mohiyati. Ta'lim, fan va innovatsiyalar. T., 2018 yil. 3-son.

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.

“EvaA” kafedrasi assistenti N.Muzafarova

Ma’lumki, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining qariyb85–90foiziO‘zbekistonning tabiiy boyligi hisoblanmishko‘mir,tabiiy gazva boshqaneft mahsulotlarini yoqish evazigaishlab chiqariladi. Vaholanki,O‘zbekistonqaytatiklanadiganenergiyamanbalaridanfoydalanishbo‘yichaju dayuqorisalohiyatgaega.Hozircha O‘zbekistondagi “yashil energiya”salmog‘i atigi10–14 foiznitashkil etadi [1].

Bugungi kunda energiya tejamkorligini oshirish, ekologik toza, noan’anaviy va qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamini yanada kengaytirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan unumli foydalanish yer osti boyliklari va zaxiralarini tejash barobarida ekologiyaga chiqarilayotgan zararli gazlarning miqdorini kamaytirish imkonini beradi. Shu bois butun dunyoda iqtisodiyotning turli sohalarida muqobil energiya manbalaridan foydalanishga katta e’tibor qaratilyapdi.

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish borasida keng tabiiy, ilmiy va amaliy imkoniyatlar mavjud. Xususan ona zaminimizda quyosh qurilmalar uchun zarur bo‘lgan tabiiy ma’danlarning boy zaxiralari mavjudligi mazkur yo‘nalishda ishlab chiqarishni sanoat asosida rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi

Olimlarimizning mazkur sohadagi ilmiy ishlanmalari va eksperimental tajribalari jahon miqiyosida e’tirof etilgan. O‘zbekistonda ushbu sohani rivojlantirishda, muqobil energiya manbalaridan eng avvalo quyosh energiyasidan

foydalanish sohasida ilmiy va eksperimental tadqiqotlar olib borish borasida salmoqli tajriba to‘plangan, ular yuzasidan bir qancha yillar mobaynida olimlarimiz tomonidan ishlanmalar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirish strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Garchi, hozir qayta tiklanadigan energetika texnologiyalari uchun xarajatlar miqdori energiya olishning an’anaviy texnologiyalari sarf - xarajatlaridan ancha oshsada, bugungi kunda ular joriy etiladigan obyektlarni aniq qayd etish mumkin. O‘zbekiston uchun – bu birinchi navbatda, elektr energiyasi va issiqlik olish uchun mahalliy sanoat va qurilish sektorining kam quvvatli obyektlari qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy - maishiy soha obyektlari, fermerlik va issiqxona xo‘jaliklari hamda boshqa obyektlar uchun mo‘ljallangan qurilmalardir. Bugun tog‘li va yarim cho‘l hududlarida joylashgan olis, shuningdek, yaylovlarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalanish an’anaviy energiya manbalari bilan bemalol raqobatlasha oladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarida - organik chiqindilar (hayvonlar ekskrementlari, maishiy chiqindilar, qishloq va o‘rmon xo‘jaliklari o‘simlik qoldiqlari va shahar oqava suvlaridan foydalanish tufayli olinadigan energiya), daryolar, suv omborlari va irrigatsiya kanallarining gidroenergetika salohiyati, quyosh, shamol energiyasi, suvning ko‘tarilishi va okean to‘lqinlari energiyasi, geotermal energiya, energiyaning muqobil turlarida o‘z ifodasini topgan

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlatishdan asosiy maqsad qimmatli resurslar zaxirasini kamaytirmaslik, atrof-muhitning issiqxona gazlari bilan ifloslanishi va tuzlarning dunyo bo‘ylab ko‘chib yurishini cheklash, yer yuzasining yemirilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaslik hamda energiyani behuda ishlab chiqarmaslikdir.

O‘zbekiston tarixida birinchi marta aholi xonadonlarida o‘rnatilgan quyosh batareyalari yordamida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini davlat xaridi amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Xonadonlarga quyosh batareyalari va quyosh suv isitish moslamalarini o‘rnatishda jismoniy shaxslarga qator imtiyozlar joriy etilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. **Qodirov Bahodir Tursunivich.** O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI ISTIQBOLLARI. Vol. 4 No. 03 (2024): Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting.
2. https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/521.
3. Xasanov M., Urinboy J. Reconfiguration of Radial Distribution System to Minimize Active Power Loss //International Journal of Engineering and Information Systems(IJEAIS)-2021.-T.5.-№ 2.-C. 154-156.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASH

Norbo‘tayev Ma’sudjon Abdurasulovich, Norbo‘tayeva Sarvinoz Ismatillayevna
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya Mazkur maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim sohasidagi roli, ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni va istiqbollari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt vositalari yordamida individual yondashuvni shakllantirish, bilimlarni baholash tizimini avtomatlashtirish, o‘quvchilar ehtiyojlariga mos ta’lim resurslarini ishlab chiqish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Xorijiy tajribalarga tayangan holda O‘zbekiston ta’lim tizimida SI texnologiyalarini integratsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab beriladi.

2. Raqamli sanoat — bu raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli boshqarish, optimallashtirish va avtomatlashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), Internet of Things (IoT), blokcheyn, bulutli hisoblash kabi texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi.
3. Raqamli sanoatning asosiy afzalliklari:
4. - Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
5. - Mahsulot sifatini oshirish;
6. - Resurslardan samarali foydalanish;
7. - Bozor ehtiyojlariga moslashuvchan javob qaytarish.

2. Avtomatlashtirish tizimlarining rivojlanishi

Avtomatlashtirish - bu inson ishtirokisiz yoki uning ishtirokini kamaytirgan holda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish tizimi. Klassik avtomatlashtirish mexanik vositalarga asoslangan bo‘lsa, hozirgi zamonaviy avtomatlashtirish raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda, intellektual tizimlar shaklida rivojlanmoqda.

Zamonaviy avtomatlashtirish vositalariga quyidagilar kiradi:

PLC (Programmable Logic Controller) tizimlari;

- SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) tizimlari;
- Robotlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari;
- Aqlli sensorlar va aktuatorlar.

3. Innovatsion yechimlar: sun’iy intellekt va IoT

Innovatsion yechimlar ishlab chiqarishni yanada samaraliroq, xavfsiz va ekologik toza qilish imkonini beradi. Ayniqsa, sun’iy intellekt (AI) va narsalar interneti (IoT) texnologiyalari sanoatni tubdan o‘zgartirib yubormoqda.

- Sun’iy intellekt yordamida mashinalar mustaqil qaror qabul qilishi, nosozliklarni oldindan aniqlashi va texnik xizmat ko‘rsatishni avtomatlashtirishi mumkin.

- IoT esa har bir qurilmaning internet orqali o‘zaro bog‘lanishini ta’minlaydi. Bu esa real vaqt rejimida monitoring va tahlil qilish imkonini beradi.

4. Raqamli egizak (Digital Twin) texnologiyasi

Raqamli egizak texnologiyasi — bu fizikaviy ob’ekt yoki tizimning raqamli nusxasini yaratish texnologiyasi bo‘lib, u orqali real vaqtli tahlil, nazorat va prognoz qilish imkoniyati mavjud. Masalan, zavodning yoki mashinaning to‘liq raqamli nusxasi orqali u qanday ishlayotganini virtual muhitda sinab ko‘rish mumkin.

5. O‘zbekistonda raqamli sanoat va avtomatlashtirishning rivojlanish istiqbollari

O‘zbekiston hukumati tomonidan so‘nggi yillarda "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasi qabul qilinib, barcha sohalarda raqamlashtirish jarayonlari boshlab yuborildi. Xususan, yirik sanoat korxonalarida avtomatlashtirish tizimlari joriy qilinmoqda. Yangi IT-parklar, texnoparklar va startaplar orqali innovatsion g‘oyalar qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Raqamli sanoat va avtomatlashtirish sohasida kadrlar tayyorlash ham dolzarb masala bo‘lib, texnik universitetlar, kollejlar va xususiy o‘quv markazlarida bu yo‘nalishda ta’lim tizimi shakllanmoqda.

Xulosa

Raqamli sanoat va avtomatlashtirish tizimlarida innovatsion yechimlar bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir. Bu yechimlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy o‘sishni, ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi. Kelajakda ushbu texnologiyalar asosida raqobatbardosh, intellektual sanoat tarmoqlari shakllanishi kutilmoqda. O‘zbekiston bu yo‘nalishda to‘g‘ri strategiyalar asosida harakat qilmoqda va bu sohada katta salohiyatga ega.

Raqamli sanoat va avtomatlashtirish tizimlarining o‘zaro integratsiyasi korxonalar uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Ularning uyg‘unlashuvi natijasida ishlab chiqarish jarayonlari yanada soddalashmoqda, mahsulotlar sifati yaxshilanmoqda va xizmat ko‘rsatish darajasi oshmoqda. Bunda sun’iy intellekt algoritmlari, ma’lumotlar bazasi va dasturiy ta’minotlar muhim rol o‘ynaydi.

Avtomatlashtirish tizimlari yordamida ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish, ularni tahlil qilish va natijalar asosida tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Masalan, avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodlarda robot qo‘llar yordamida yig‘ish jarayonlari amalga oshirilmoqda, bu esa ishlab chiqarish tezligini oshirib, inson omili ta’sirini kamaytiradi.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosida yaratilgan tizimlar yordamida ishlab chiqarish jarayonlaridagi nosozliklar va ehtimoliy muammolarni oldindan aniqlash va

ularga barham berish imkoniyati mavjud. Bu esa korxonalar uchun texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytiradi.

IoT texnologiyalari yordamida turli qurilmalar va jihozlar bir-biri bilan bog‘lanadi, ulardan olingan ma’lumotlar markazlashgan tizim orqali qayta ishlanadi. Bu texnologiya, ayniqsa, energetika, qishloq xo‘jaligi va transport sohalarida keng qo‘llanilmoqda.

Bulutli texnologiyalar esa ishlab chiqarish korxonalariga IT infratuzilmani soddalashtirish imkonini beradi. Bulutli xizmatlar orqali ma’lumotlar saqlanishi, ularga masofadan kirish, real vaqt rejimida monitoring qilish, zaxira nusxalar yaratish va xavfsizlikni ta’minlash mumkin.

Blokcheyn texnologiyasi esa mahsulotlar harakatining shaffofligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U yordamida mahsulotning ishlab chiqarilganidan tortib, mijozga yetkazilganigacha bo‘lgan har bir bosqichini kuzatish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida sanoat korxonalarini raqamlashtirish, xususan, neft-gaz, kimyo va avtomobilsozlik sohalarida raqamli tizimlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan grantlar, soliq imtiyozlari va innovatsion markazlar bu sohani yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Kelajakda raqamli sanoat sohasidagi innovatsiyalar yanada chuqurlashadi. Xususan, kvant hisoblash, ilg‘or robototexnika va neyrotarmoqlar yordamida ishlab chiqarish to‘liq raqamli tizimlar orqali boshqarilishi mumkin bo‘ladi. Bu esa inson mehnatini minimal darajaga tushirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov A., Jo‘rayev R. – Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022.

2. Karimov N. – Sun’iy intellekt va IoT tizimlari asoslari. – Toshkent: “Innovatsiya”, 2021.

3. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2020-yil.

4. G‘ulomov S., Allaberganov A. – Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari. – Toshkent: TATU nashriyoti, 2020.

5. Schwab K. – To‘rtinchi sanoat inqilobi. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2019

6. Lee J., Bagheri B., Kao H.A. – A Cyber-Physical Systems architecture for Industry 4.0-based manufacturing systems. – Manufacturing Letters, 2015.

ОРГАНИЗАЦИЯ И ПРОВЕДЕНИЕ НОРМАТИВНОГО КОНТРОЛЯ ТЕХНИЧЕСКОЙ ДОКУМЕНТАЦИИ

Мамасодикова Н.Ю., Маматова Ч.У.
Ферганский Государственный Технический Университет

Аннотация:

В данной статье рассматриваются ключевые аспекты организации и проведения нормативного контроля технической документации на предприятиях. Проанализированы основные этапы процесса контроля, представлены методики эффективной организации системы нормоконтроля, выявлены типичные проблемы и предложены пути их решения. Особое внимание уделяется современным подходам к автоматизации процессов нормоконтроля и обеспечению соответствия документации нормативным требованиям.

Ключевые слова:

Нормоконтроль, техническая документация, стандартизация, система менеджмента качества, нормативные требования, автоматизация контроля, ЕСКД, ЕСТД, метрологическое обеспечение, верификация документации.

Введение:

Нормативный контроль технической документации является одним из важнейших элементов системы управления качеством на предприятии. В условиях современного производства, характеризующегося высокой конкуренцией и жесткими требованиями к качеству продукции, эффективная организация нормоконтроля становится критическим фактором успеха. Техническая документация служит основой для производственных процессов, и ошибки в ней могут привести к серьезным последствиям – от увеличения себестоимости продукции до угрозы безопасности её эксплуатации.

Нормоконтроль представляет собой проверку технической документации на соответствие действующим стандартам, нормам и правилам. Его основная цель – обеспечение качества документации как инструмента повышения качества изделий и сокращения затрат на их разработку и производство. В данной работе мы рассмотрим современные подходы к организации этого важного процесса.

Основная часть:

1. Нормативно-правовая база нормоконтроля.

Система нормативного контроля технической документации базируется на обширной нормативно-правовой основе. Фундаментом служат государственные стандарты ЕСКД (Единая система конструкторской документации) и ЕСТД

(Единая система технологической документации), а также отраслевые стандарты и стандарты организаций. Ключевыми документами являются:

- ГОСТ 2.111-2013 ЕСКД "Нормоконтроль"
- ГОСТ 3.1116-2011 ЕСТД "Нормоконтроль"
- ГОСТ Р ИСО 9001-2015 "Системы менеджмента качества. Требования"

Данные нормативные документы определяют основные цели, задачи, порядок проведения нормоконтроля и требования к специалистам, выполняющим данную работу.

2. Организационная структура нормоконтроля

Организация нормоконтроля на предприятии может быть реализована в различных формах в зависимости от масштаба предприятия, специфики производства и объема документооборота:

- Централизованная система – все функции нормоконтроля сосредоточены в едином подразделении
- Децентрализованная система – функции распределены между отдельными подразделениями
- Смешанная система – комбинирует элементы первых двух

Независимо от выбранной структуры, ключевое значение имеет обеспечение независимости нормоконтролеров от разработчиков документации. Нормоконтролер подчиняется непосредственно руководителю соответствующего уровня, что исключает давление со стороны авторов документации.

3. Требования к квалификации нормоконтролеров

Эффективность нормоконтроля напрямую зависит от квалификации специалистов. Нормоконтролер должен обладать:

- Высшим техническим образованием в соответствующей отрасли
- Знанием нормативно-технической документации в области стандартизации
- Практическим опытом работы в сфере разработки технической документации
- Навыками работы с системами автоматизированного проектирования
- Аналитическим мышлением и внимательностью к деталям

Рекомендуется проводить регулярное повышение квалификации нормоконтролеров в связи с постоянным обновлением нормативной базы.

4. Этапы процесса нормоконтроля

Процесс нормоконтроля включает следующие основные этапы:

1) Подготовительный этап:
   - Прием документации и проверка комплектности
   - Анализ применимых нормативных требований
   - Планирование работ по контролю

2) Основной этап:

- Проверка соответствия оформления документации требованиям стандартов
- Контроль правильности применения терминологии
- Проверка соблюдения требований к метрологическому обеспечению
- Контроль соответствия документации нормам и правилам безопасности
- Проверка согласованности взаимосвязанных документов

3) Заключительный этап:

- Оформление результатов нормоконтроля
- Согласование замечаний с разработчиками
- Контроль внесения необходимых исправлений
- Утверждение окончательной версии документации

5. Автоматизация процессов нормоконтроля

Современные системы автоматизированного проектирования (САПР) и электронного документооборота позволяют существенно повысить эффективность нормоконтроля:

- Автоматическая проверка оформления документов
- Выявление несоответствий в технических характеристиках
- Контроль полноты документации
- Отслеживание изменений и версий документов
- Формирование отчетов о результатах нормоконтроля

Наибольшую эффективность показывает комбинированный подход, сочетающий автоматизированный контроль с экспертной оценкой квалифицированными специалистами.

6. Типичные проблемы и пути их решения.

В процессе нормоконтроля организации сталкиваются с рядом проблем:

- Сопротивление разработчиков и конфликты при обнаружении несоответствий
- Недостаточное знание актуальных требований нормативных документов
- Сжатые сроки проведения нормоконтроля
- Сложность отслеживания изменений в нормативной документации

Решение этих проблем требует комплексного подхода:

- Регламентация процессов взаимодействия разработчиков и нормоконтролеров
- Создание системы непрерывного обучения персонала
- Внедрение информационных систем мониторинга изменений в нормативной базе
- Разработка четких критериев оценки документации

7. Оценка эффективности нормоконтроля.

Для объективной оценки эффективности системы нормоконтроля рекомендуется использовать следующие показатели:

- Количество ошибок, выявленных на этапе нормоконтроля
- Количество ошибок, не выявленных при нормоконтроле и обнаруженных на последующих этапах
- Среднее время проведения нормоконтроля одного комплекта документации
- Процент документов, прошедших нормоконтроль с первого раза
- Экономический эффект от предотвращения ошибок в документации

Выводы:

Эффективная организация нормативного контроля технической документации является важным элементом системы обеспечения качества на предприятии. Правильно выстроенный процесс нормоконтроля позволяет:

1.Значительно повысить качество технической документации, что напрямую влияет на качество конечной продукции.

2. Сократить сроки разработки за счет раннего выявления и устранения ошибок и несоответствий.

3.Обеспечить соответствие продукции требованиям стандартов и нормативных документов, что является необходимым условием для сертификации.

4.Снизить издержки производства, связанные с переработкой документации и исправлением ошибок на поздних стадиях жизненного цикла изделия.

5. Создать единый информационный язык для всех участников процесса разработки и производства.

Современные тенденции развития системы нормоконтроля связаны с внедрением цифровых технологий, автоматизацией рутинных операций и переходом к концепции управления жизненным циклом изделия (PLM). Это требует постоянного совершенствования методологии нормоконтроля, повышения квалификации специалистов и модернизации нормативной базы.

Литература:

1. Артемьева И.В., Петров А.М. Организация системы нормоконтроля технической документации. М.: Стандартинформ, 2023.

2. Бережной В.И., Смирнова Н.К. Нормоконтроль как элемент системы менеджмента качества // Вестник машиностроения. 2022. №4. С. 45-52.

3. ГОСТ 2.111-2013 ЕСКД "Нормоконтроль". М.: Стандартинформ, 2019.

4. ГОСТ 3.1116-2011 ЕСТД "Нормоконтроль". М.: Стандартинформ, 2012.

5.Игнатьев С.А., Морозов А.В. Автоматизация процессов нормоконтроля в современном инженерном проектировании. СПб.: Питер, 2023.

6.Лебедев В.Т. Метрологическое обеспечение технической документации. М.: Техносфера, 2022.

MURAKKAB TUZILMALI OBYEKTLARDA DINAMIK HUJJAT AYLANISH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH

Xoliqnazarov Rashidjon Xomidjonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti “Kompyuter muhandisligi va sun'iy intellekt” kafedrasi dotsenti v.b.

Ushbu maqolada DFIT (Dynamic Formation of Information Templates) tizimini ishlab chiqish jarayonini strukturaviy-parametrik sintezi bosqichlarini IDEF0 notatsiyasi orqali funktsional diagrammasi yaratildi. OTM faoliyatida axborot oqimini optimal boshqarish va hujjat ma’lumotlarini tizimli to’ldirish orqali tezkor axborot yig’ish samardorligini oshirish masalasi qaralgan.

In this article, a functional diagram of the stages of structural-parametric synthesis of the DFIT system development process using the IDEF0 notation has been created. The issue of increasing the efficiency of the operational collection of information through the systematic filling of documentary information and the optimal management of information flows in the activities of the HEI is considered.

Jahon miqyosida barcha sohalar, jumladan, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, tashkilotlar faoliyatini raqamli formatga o‘tkazishda axborot tizimlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tizimlar hujjatlar aylanishining tezligini oshiradi, ma’lumotlarni boshqarishni soddalashtiradi hamda ish jarayonlarining samaradorligini ta’minlab, tashkilot faoliyatini optimallashtirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida vaqt va resurslardan oqilona foydalanishga, tashkilot ichida va ular o‘rtasida samarali integratsiyani yo‘lga qo‘yishga, inson omili tufayli yuzaga keluvchi xatolarni kamaytirishga va axborot xavfsizligini ta’minlashga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, elektron hujjat aylanish tizimlarida hujjatlarni shakllantirish, yig‘ish, saqlash, qayta ishlash, izlash, uzatish va taqdim etish jarayonlarini boshqarish borasida AQSh, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Singapur, Xitoy va Rossiya kabi ilg‘or davlatlarning yetakchi olimlari tomonidan ilmiy va amaliy yechimlarning samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimini jadallik bilan raqamlashtirish, shuningdek, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida, 2020-yil 5-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “RAQAMLI O‘ZBEKISTON – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF–6079-son Farmoni imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–307-son qaroriga 3-ilova

sifatida tasdiqlangan “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2022–2023 yillarda amalga oshirish bo‘yicha Yo‘l xaritasi”da qator muhim vazifalar belgilangan. Jumladan, 200-bandda integratsiyalashgan elektron hujjat aylanish avtomatlashtirish tizimini joriy etish, 203-bandda korporativ ma’lumotlarni saqlash (DWN) va tahliliy platformani (BI) tatbiq etish, hamda 208-bandda ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha loyihalarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar keltirilgan [1].

Yuqorida tilga olingan farmon va qarorlarga asoslanib aytish mumkinki, hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) turli soha va tarmoqlarga keng joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib borilmoqda. Endilikda korxona va tashkilotlar faoliyatining istalgan yo‘nalishini AKTdan foydalanmasdan tasavvur qilish mushkul. Har qanday tashkilotning kundalik ish faoliyatida turli xil hisobotlar, tashkiliy va ma’muriy hujjatlarni tayyorlash doimiy ravishda amalga oshiriladi. Shu bois, mavjud ma’lumotlar bazalaridan foydalanib, zarur hujjatlarni avtomatik tarzda shakllantirish jarayonini yo‘lga qo‘yish dolzarb va muhim masalalardan biri sanaladi.

Hujjatlarni ishlab chiqish va shakllantirish jarayonlarini avtomatlashtirish tashkilotlarda tashkiliy boshqaruvning samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Zero, hujjatlarni tayyorlash murakkab va ko‘p vaqt talab qiladigan jarayon bo‘lib, bu jarayonni soddalashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish, inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirish va ish tezligini oshirish mumkin. Shu bois, elektron hujjat aylanish tizimlari (EHAT) sohasida ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [2,3,4].

Ayni vaqtda EHAT yo‘nalishida bir qator dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular turli funksional imkoniyatlari bilan ajralib turadi. 2023-yil holatiga ko‘ra, tahlillar asosida 15 ta eng ilg‘or elektron hujjat aylanish tizimlari quyidagilar hisoblanadi: PandaDoc, Juro Contract Automation, Oneflow, PaperSave, Qoppa PDF Studio, Vitrium Security, ContractZen, Encyro, ContractWorks, Filemail, eFileCabinet, Templafy, Samepage, Synology Drive, va Wondershare PDFelement Pro [5].

Ushbu tizimlar hujjatlarni yaratish, saqlash, uzatish, imzolash va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali tashkilotlar ish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va tahlillar asosida oliy ta’lim muassasalari (OTM) faoliyatini chuqur tahlil qilish imkoniyati mavjud. OTMlarning tashkiliy tuzilmasi va faoliyati to‘plamlar va graflar nazariyasi asosida modellashtirilishi mumkin. Bunda graf tugunlari – bu tashkilotdagi ob’ektlar (bo‘limlar, lavozimlar, hodimlar), qovurg‘alari esa – bu ob’ektlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi yoki boshqaruv munosabatlarini bildiradi. Ayniqsa, elektron hujjat aylanishi (EHAT) jarayonlarini tahlil qilishda bu yondashuv nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda EHAT tizimlari respublika darajasida, yirik boshqaruv organlarida, filial va tarmoqlarga ega korxona va kompaniyalarda, shuningdek, hududiy boshqaruv tizimlarida keng ko‘lamda va samarali tarzda qo‘llanilmoqda. Ushbu tizimlar orqali hujjatlar odatda tashkilotning “kirish” tuguni bo‘lgan – ko‘pchilik holatda kanselariya bo‘limiga yetkaziladi. Kanselariya hujjatni EHAT orqali qabul qilib, ro‘yxatdan o‘tkazadi va uni ijro uchun mas’ul rahbarga yo‘naltiradi.

Rahbar kiruvchi hujjatni ko‘rib chiqib, unga rekvizit – ya’ni ijrochilarni ko‘rsatadi. Ijrochilar sifatida, odatda, ichki bo‘lim vakillari belgilanadi. Zarur hollarda, bu ijrochilar o‘z navbatida hujjatni boshqa quyi bo‘limlarga yuborishlari mumkin. OTM misolida bu jarayon hujjatning bo‘lim xodimi yoki o‘qituvchiga yetib borishi bilan yakunlanadi, ya’ni u **so**‘nggi ma’lumot manbaiga yetkaziladi.

Keyinchalik, ushbu shaxslardan olingan ma’lumotlar teskari yo‘nalishda qayta yuqoriga yuboriladi, umumlashtiriladi va asosiy javob tayyorlanadi. Tayyorlangan javob hujjati tasdiqlanib, kanselariya bo‘limi tomonidan “chiquvchi” hujjat sifatida EHAT tizimi orqali qayta jo‘natiladi.

Bu jarayon:

- hujjat harakati izchilligini,
- mas’ullikni aniq taqsimlashni,
- hujjatlarni kuzatish imkoniyatini,
- inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirishni,
- vaqt va resurslarni tejashni ta’minlaydi.

Shunday qilib, OTM faoliyatida elektron hujjat aylanish tizimini graf modeli asosida ifodalash, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — oliy ta’lim muassasasi (OTM) ichki muhitida axborot oqimini samarali boshqarish, shuningdek, hujjat ma’lumotlarini tizimli tarzda to‘ldirish orqali tezkor va sifatli axborot yig‘ish samaradorligini oshirishdan iboratdir. OTMdagi elektron hujjat aylanishi jarayonlarini chuqur tahlil qilish natijasida, bu jarayonda aylanayotgan ma’lumotlarning ko‘p holatlarda takrorlanuvchan ekanligini aniqlash mumkin.

Xususan, o‘quv, ilmiy-tadqiqot va boshqaruv faoliyatlarida foydalaniladigan ko‘plab hujjatlar turli axborot tizimlarida yaratiladi va ayni turdagi ma’lumotlar bir necha bor kiritiladi. Bu esa ish jarayonlarining ortiqcha resurs talab qilishiga, inson omiliga bog‘liq xatoliklar yuzaga kelishiga va vaqt sarfi ortishiga sabab bo‘ladi.

Shu sababli, mavjud elektron hujjat aylanish tizimidan (EHAT) kelgan hujjatlarni ijro uchun ichki axborot tizimiga andozaviy va dinamik shaklda uzatish, to‘plangan ma’lumotlarni esa chiqish hujjatlari uchun statik tarzda umumlashtirishga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

Mazkur tizim DFIT (Dynamic Formation of Information Templates — Axborot Andozalarini Dinamik Shakllantirish) deb nomlanadi. Ushbu DFIT tizimi hujjatlarni

qayta va takroran yaratilishini oldini oladi, turli tizimlar o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlaydi va hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish darajasini oshiradi.

Kelajakda bu tizim umumiy EHAT bilan to‘liq integratsiya qilinadi va OTMda hujjatlar oqimi, ularning ijro holati, ma’lumot to‘plash va hisobot shakllantirish kabi jarayonlar ancha tezkor, aniq va tizimli tarzda amalga oshiriladi.

OTMda DFIT tizimini loyihalashda ushbu omillar inobatga olinishi lozim:

- Statik axborotlar;
- O'quv faoliyati axborotlari;
- Ilmiy faoliyatga tegishli mualliflik ma’lumotlar jamlanmasi
- Mavjud turli format va turdagi hujjatlar va axborot resurslar;
- Faoliyatdagi dasturiy ta’minotlar, axborot tizimlari va ularning resurslari;
- Xavfsizlik nuqtai nazaridan ma'lumotlarga bo’lgan ta’sirlar.

OTM ish oqimi strukturasining o'zgaruvchanligi sababli tizim moslashuvchan bo’lishi kerak. Ya’ni, turli xil tashqi va ichki omillar ta'sirida (vazirliklar, idoralar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar buyruqlari, me’yoriy hujjatlar o’zgarishi, ko'rsatmalari, yangi ta'lim standartlari va boshq.) tashkiliy tuzilma o'zgartirildi.

Tizimni yaratish O‘z DSt 1986:2018 – “Axborot tizimlari: Yaratish bosqichlari” va O‘z DSt 1987:2018 – “Axborot tizimlari: axborot tizimini yaratish uchun texnik topshiriq” standartlari asosida ishlab chiqiladi. Bunda ATni yaratish bosqichlari qilib quyidagilar belgilangan: axborotlashtirish ob’ektini tadqiq qilish; ATni yaratish konsepsiyasi; texnik topshiriq; texnik va ishchi loyiha; ATni ishga tushirish va kuzatish.

DFITni yaratishni rasmiylashtirish uchun IDEF0 notatsiyadagi funktsional sxemalar qo'llaniladi. Birinchidan, u bo’g’inlar(domen)da sodir bo'layotgan jarayonlarni batafsil ko'rsatishga imkon beradi; ikkinchidan, kirish va chiqishlarni, boshqaruv mexanizmlarini (vositalarini) ko'rsatadi. Sodda va ixcham bo'lgan IDEF0 texnologiyasi turli darajali tafsilotlardagi modellar va jarayonlarni tasvirlash uchun ishlatiladigan standart tildir. DFITni yaratishning strukturaviy-parametrik sintezi bir nechta bosqichlarni o'z ichiga olgan IDEF0 notatsiyasi (1-rasm) funktsional diagramma sifatida taqdim etiladi.

A1: Tashkilotning axborot oqimlarini tahlil qilish

Algoritmning ushbu birinchi bosqichi ta’lim muassasasining ichki faoliyati va tashqi tizimlardan kiruvchi hujjatlar asosidagi axborot oqimlarini aniqlashga qaratilgan. Dastlabki qadamlarda mavjud axborot oqimlari chuqur o‘rganiladi hamda ular og‘zaki tavsiflar yoki grafik tasvirlash vositalari (masalan, *Microsoft Visio*) yordamida vizual shaklda qayd etiladi.

Shundan so‘ng, OTMning tashkiliy tuzilmasi, ya’ni bo‘limlar, markazlar, kafedralar va ularning o‘zaro aloqasi aniqlanadi. Har bir strukturaviy bo‘linmaning bajaradigan funksiyalari, u orqali o‘tadigan axborot oqimlari va ishlov beriladigan ma’lumotlar turkumlanadi va tahlil qilinadi.

Keyingi bosqichda tashkilotda mavjud bo‘lgan boshqaruv organlari, ularning qaror qabul qilishdagi roli va axborot oqimlari bilan bog‘liq faoliyatlari aniqlanadi. Ushbu jarayonlar asosida DFIT tizimi uchun zarur bo‘lgan tuzilma va funksional talablar og‘zaki yoki matnli shaklda shakllantiriladi.

Bu bosqichning yakunida quyidagilar aniq bo‘ladi:

- OTMdagi axborot oqimlarining yo‘nalishlari va manbalari;
- Har bir bo‘limning hujjatlar bilan ishlashdagi ishtiroki;
- Ma’lumotlar qanday uslubda yaratilayotgani va uzatilayotgani;
- DFIT tizimining mazkur tuzilmalarga qanday integratsiyalashuvi lozimligi;
- Tizimga qo‘yiladigan dastlabki funksional va texnik talablar.

Ushbu tahliliy bosqich, DFIT tizimini samarali loyihalash va keyinchalik amaliyotga tadbiq etish uchun mustahkam asos yaratadi.



1-rasm. DFITni yaratish uchun strukturaviy-parametrik funktsional diagrammasi

A2: DFITning matematik modelini ishlab chiqish

DFIT (Dynamic Formation of Information Templates – axborot andozalarini dinamik shakllantirish) tizimining samarali ishlashi uchun uning asosiy komponentlarini matematik modellashtirish zarur. Bunda elektron hujjat aylanishi (EHAT) tizimlari va ularni modellashtirish yondashuvlari, jumladan, algoritmik, grafik, statistik va tizimli yondashuvlardan foydalaniladi. Taklif etilayotgan matematik model quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ish jarayonining tuzilmasi – Graf modeli

DFITda axborot oqimi va hujjatlar harakati orientirlangan graf orqali ifodalanadi:

$$G= (V, E)$$

bu yerda:

- V — DFIT tizimidagi tugunlar (bo‘limlar, foydalanuvchilar, xodimlar, hujjat manbalari);
- E — hujjat yoki axborot oqimlarini ifodalovchi qovurg‘alar (yo‘nalgan bog‘lanishlar).

2. Tizimning dasturiy-apparat parametrlari

DFIT ishlashi uchun zarur texnik resurslar matematik parametrlar shaklida aniqlanadi:

$$P=\{P_s,P_n,P_{sw}\}$$

- P_s — server resurslari (protsessor quvvati, tezkor xotira, saqlash hajmi);
- P_n — tarmoq kechikishi va o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari;
- P_{sw} — dasturiy modullar ishga tushish tezligi, xizmat ko‘rsatish darajasi va integratsiya imkoniyatlari.

3. Iqtisodiy xarajatlar modeli

DFIT tizimi uchun umumiy xarajatlar quyidagicha modellashtiriladi:

$$C_{total}=C_{dev}+C_{impl}+C_{maint}$$

- C_{dev} — ishlab chiqish (dizayn, dasturlash) xarajatlari;
- C_{impl} — joriy etish va sozlash xarajatlari;
- C_{maint} — ekspluatatsiya va texnik xizmat xarajatlari.

4. Ish unumdorligi va sifat ko‘rsatkichlari

DFIT samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi:

$$E=f(T_{resp},Q_{doc},R_{dup})$$

- T_{resp} — tizimning o‘rtacha javob vaqti (response time);
- Q_{doc} — hujjat sifati (rekvizitlar to‘g‘riligi, andozalarga mosligi);
- R_{dup} — axborotdagi takrorlanuvchanlik darajasi.

5. Predmet soha o‘zgaruvchilari

DFIT tizimi muayyan tashkilot (OTM) faoliyatiga moslashtirilgan holda ishlab chiqiladi. Predmet sohaga oid o‘zgaruvchilar:

$X=\{x_1,x_2,...,x_n\}$

bu yerda:

- x_i — foydalanuvchi rollari (mas’ul shaxs, ijrochi, xodim);
- hujjat turlari (buyruq, xat, hisobot va boshqalar);
- ish jarayon bosqichlari (ro‘yxatdan o‘tkazish, tahrirlash, jo‘natish).

6. DFITdagi jarayonlar majmuasi

$$J=\{j_1,j_2,...,j_m\}$$

bu yerda:

- j_1 — hujjatni qabul qilish;
- j_2 — avtomatik andoza tanlash;
- j_3 — ma’lumotni avtomatik to‘ldirish;
- j_4 — umumlashtirish va tasdiqlash;
- j_5 — chiquvchi hujjat shakllantirish.

Matematik model DFIT tizimining ishlash mantig‘i, texnik ehtiyojlari, iqtisodiy samaradorligi, va tashkiliy holatini to‘liq aks ettiradi. Bu model kelgusida:

- tizimni prototiplashtirish;
- samaradorlikni baholash;
- optimallashtirish imkoniyatlarini aniqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bu bosqich DFITni real tizimga aylantirishda ilmiy va texnologik poydevor vazifasini bajaradi.

A3: DFIT dasturiy ta’minotining xarakteristikalarini aniqlash

Ushbu bosqichda DFIT tizimining tuzilmasi hamda uning ishlash ko‘rsatkichlari — ish unumdorligi, ishonchliligi, sifati, foydalanuvchilarga qulayligi va boshqa muhim xususiyatlari aniqlanadi.

Asosiy jarayonlar:

- **Axborot tizimiga qo‘yiladigan talablarni shakllantirish.** Texnik topshiriq va masalaning rasmiy bayoni asosida tizimdan kutiladigan funksiyalar va parametrlar ro‘yxati tuziladi. Bu talablar DFIT dasturiy ta’minotining asosiy standartlari sifatida qabul qilinadi.
- **Dasturlashtirish vositalarini tanlash.** Loyihaning o‘ziga xos xususiyatlari, kerakli samaradorlik va integratsiya imkoniyatlariga mos ravishda dasturlash tillari, ramkalar (frameworks), kutubxonalar va platformalar tanlanadi.
- **Modullarning tuzilishini aniqlash.** DFIT tizimi tarkibidagi har bir modulning funksionalligi belgilab olinadi. Modul uchun kerakli kodlash kutubxonalari va interfeys andozalari ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, modullar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ma’lumot almashish mexanizmlari loyihalashtiriladi.
- **Dasturiy ta’minotning yakuniy xarakteristikalarini shakllantirish.** Belgilangan komponentlar va modullar asosida DFITning dasturiy xususiyatlari to‘liq aniqlanadi. Ushbu xususiyatlar orasida tizimning:
  - ishlash tezligi va samaradorligi,
  - ishonchlilik darajasi (xatoliklardan himoya, tiklanish imkoniyatlari),
  - foydalanuvchi interfeysining qulayligi,
  - moslashuvchanlik va kengaytirilish imkoniyatlari,
  - xavfsizlik choralari mavjud bo‘ladi.

Foydalanuvchi fikrlarini integratsiya qilish mexanizmi. DFIT dasturi foydalanuvchilar tomonidan berilgan taklif va mulohazalarni to‘plab, yangilash va optimallashtirish algoritmini boshqaradi. Bu tizimni doimiy rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhimdir.

Ushbu bosqichda ishlab chiqilgan tavsiflar va talablarga asoslanib, **DFIT dasturiy ta’minotining aniq, puxta va ishonchli xarakteristikalari** shakllanadi, bu esa uning muvaffaqiyatli yaratilib, amaliyotga joriy etilishiga asos bo‘ladi.

A4: DFITning optimal tuzilishi va parametrlarini aniqlash

Ushbu bosqichda yaratilayotgan DFIT tizimining modeli va texnik topshiriq bilan maqsadning muvofiqligi sinovdan o‘tadi.

Jarayon tavsifi:

6. **Dastlabki parametrlarni o‘rnatish.** Strukturaviy-parametrik sintezning birinchi iteratsiyasida tizimning dastlabki yaqinlashish qiymatlari belgilanadi. Bu parametrlar DFITning asosiy elementlari va ularning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi.
7. **Masala chegaralarini tekshirish.** Belgilangan parametrlar va tuzilma asosida tizimning chegaralari va ishlash diapazonlari aniqlanadi, hamda ular texnik va funksional talablar bilan solishtiriladi.
8. **Optimal qiymatlarni hisoblash.** Maqsad funktsiyasi — tizimning samaradorligi, ishonchliligi, iqtisodiyligi kabi mezonlarga ko‘ra baholanadi va ekstremum (maksimal yoki minimal) nuqtasi qidiriladi.
9. **Natijani baholash va tasdiqlash.** Agar topilgan parametrlar barcha boshqaruv cheklovlari va talablariga javob bersa, ushbu optimal qiymatlar DFIT tizimining keyingi dasturiy ta’minot bosqichlariga uzatiladi.
10. **Takroriy iteratsiyalar.** Agar parametr qiymatlarida muvofiqlik bo‘lmasa yoki maqsad funktsiyasining ekstremumiga erishilmasa, avvalgi qadamlar takrorlanadi. Bu jarayon maqsad funktsiyasi maksimal samaradorlikka erishguncha davom etadi.

Ushbu iterativ sintez orqali **DFIT tizimining eng maqbul tuzilishi va parametr qiymatlari aniqlanib,** samarali, ishonchli va talabga javob beruvchi dasturiy ta’minot yaratish ta’minlanadi.

A5: DFIT modullarini ishlab chiqish: DFIT modullari matematik modeli, tuzilmasi va parametrlarning optimal qiymatlari asosida ishlab chiqilgan. Bunda standart modul loyihalash sxemasidan foydalaniladi (2-rasm).



2-rasm. Standart modulli loyihalash sxemasi

Algoritm quyidagi bosqichlardan tashkil topgan:

5. **Ma'lumotlar bazasini yaratish.** Tizim uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi.
6. **Interfeysni dasturlash vositalari yordamida yaratish.** Foydalanuvchilar bilan o‘zaro aloqani ta’minlovchi qulay va funksional interfeys ishlab chiqiladi.
7. **Modul funktsiyalarini tadbiq qilish**
   - Kerakli kodlash kutubxonalari tanlanadi va integratsiya qilinadi.
   - Tegishli modellar yordamida kirishni boshqarish mexanizmlari joriy etiladi.
   - Turli darajadagi murakkablikdagi ma’lumotlarni qidirish vositalari tizimga qo‘shiladi.
   - Ma’lumotlar bazasida ma’lumotnomalar va yordamchi jadvallar to‘ldiriladi.
8. **DFIT modullarini ishlab chiqish.** Yuqoridagi bosqichlar asosida, tizimning funksionalligi va dasturiy ta’minot talablariga mos keladigan namunaviy modullar yaratiladi.

Ishlab chiqish jarayoni yakunlangach:

- Modullar tizimda tuziladi va sinovdan o‘tkaziladi.
- Aniqlangan xatolar, foydalanuvchilarning fikr va takliflari boshqaruv harakati sifatida A3 blokining kirish qismiga yuboriladi.
- Shundan so‘ng, DFITning strukturaviy-parametrik sintezining yangi iteratsiyasi boshlanadi, bu jarayon tizimni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yangi anzolali hujjatlarni shakllantirishda, agar boshlang‘ich hujjatni tashkil etuvchi atribut ma’lumotlar ichki va/yoki tashqi tizimlarda mavjud bo‘lsa, u holda tashqi tizim bilan bog‘lanish mexanizmi talab etiladi. Bu integratsiya DFIT tizimining samarali ishlashida muhim rol o‘ynaydi.

Maxsus shablonlar asosida hujjatlarni operativ yaratish va o'zgartirishni avtomatlashtirish mumkin. Hujjatning axborot tuzilmasini maxsus belgilar yordamida modellashtirish vositalari hujjatning axborot tuzilmasini taqdim etishda yagona yondashuvni amalga oshirish, murakkab hujjatlarni yaratish, shablonlarni ixtiyoriy sozlashni amalga oshirish va ularni dinamik to'ldirishni amalga oshirish imkonini beradi. Hulosa sifatida aytish mumkinki, DFIT ya’ni axborot andozalarini dinamik shakllantirish orqali qisqa vaqlarda shaffof malumotlarni olish imkoni tug’iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi 2022 — 2026 yillarda O’zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ-307-son qarori

2. Пенькова Т.Г. Информационная модель шаблона для автоматизиро ванного формирования документов // Матер. 10-й Всероссийской научно-практической конференции ПИР-2007. Красноярск, 2007. Т. 1. С. 157–163.

3. Нишанов А.Х., Холиқназаров Р.Х. Таълим муассасаларида электрон ҳужжат айланиши // ТАТУ хабарлари – Тошкент, 2009 – № 2 – 105-107 б.

4. Раджабов С.С., Холиқназаров Р.Х., Рўзиқулов А.Р. Программно-алгоритмические аспекты генерации произвольной требуемой информации с заданного множества информационных атрибутов // “Кибернетика масалалари” – Тошкент, 2008 – №177 – С. 94-98.

5.https://financesonline.com/best-electronic-document-management-systems

INKLYUZIV TA’LIMDA RAQAMLI PLATFORMALARNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich
Farg’ona davlat texnika universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim tizimida raqamli platformalarning pedagogik imkoniyatlari, ularning ta’lim jarayonini tashkil etishdagi o‘rni hamda individual yondashuvni ta’minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun moslashtirilgan elektron ta’lim muhiti, adaptiv AKT o‘quv kontentlari, masofaviy ta’lim texnologiyalari va interaktiv platformalarning samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda AKT va platformalar yordamida o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona va mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish hamda inklyuziv muhitni shakllantirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, raqamli platforma, elektron ta’lim muhiti, adaptiv ta’lim, AKT texnologiyalar, masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt, LMS tizimi, individual ta’lim, monitoring tizimi, interaktiv ta’lim.

KIRISH. Funksional cheklanishlari bo‘lgan bolalaringg ta’limiy ehtiyojlari juda ham turli ko’rinishda bo’ladi. Ular bir tomondan, o‘zlarining sog‘lom tengdoshlari bilan bir xil bilimlar olish ehtiyojiga egalar. Boshqa tomondan esa, ularda boshqa (ko‘pincha alohida ta’lim ehtiyojlari deb belgilanadigan), fiinksional chekinishlar bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlar ham bor bo‘lib, ular o‘quv jarayonida odatdagi ta’lim metodlaridan foydalanish imkoniyatini bermadi. Shu munosabat bilan bolalaming har turli toifalarining individual ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan AKTlardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

O‘quv jarayonda AKTlardan foydalanishning afzalliklari yangi texnologiyalarning kommunkatsiya va o‘zaro faoliyat jarayonini yo‘lga qo‘yishga, ta’lim resurslaridan eng qulay shakltda foydalanish imkonini berishga, hamda motivatsini oshirishga yordam berishi bilan bog‘liq.

AKTlami inklyuziv ta’limda qo‘llash sohalari juda ham xilma-xil bilishiga qaramay, ulardan foydalanishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- kompensator (o‘rnini bosish) masalalarini hal etish uchun AKTlar;
- didaktik masalalami hal etish uchun AKTlar;
- kommunikativ masalalami hal etish uchun AKTlar.

ASOSIY QISM. Bunday yondashuvni hisobga olgan holda AKTlaming o‘quv jarayonidagi rolni shu asosiy kategoriyalarga muvofiq bayon qilinadi.

AKTlardan foydalanishning umumiy afzalliklari: - bolalarga ko‘proq avtonomlik beriladi;

- kommunikatsiyada qiyinchiliklari bo‘lgan bolalarga ichki, yashirin imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish imkoni yaratiladi;
- bolalarga o‘z yutuqlarini ilgari an'anaviy pedagogik usullardan foydalanilganda amalga oshirib bo‘lmaydigan usullar bilan namoyish qilish imkoniyatini beradi;
- bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatini beradi.

AKTlardan foydalanishning alohida ehtiyojli bolalar uchun afzalliklari:

- kompyuterlar bolalarning avtonomligini va ta’lim olish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi;
- alohida ta’limiy ehtiyojlari bo‘lgan bolalar topshiriqlarni o‘zining o‘quv faoliyati maromida bajara oladilar;
- ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘zlarining koradigan tengdoshlari bilan bir qatorda intemetdan foydalanish imkoniyatini oladilar;
- ixtisoslashtirilgan qurilmalar va dasturlar kommunikatsiyada qiyinchiliklari bo‘lgan bolalar orasidagi, ularning tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan o‘zaro munosabatlarini yengillashtiradi;
- kommunikatsiyaning texnika vositalaridan foydalanish bolalarning maktabda ham, jamoatda ham yoqimli imidjni hosil qiladi;
- bolalarning AKTlarga ishonchi ularning uy vazifalarini tayyorlash va boshqa ehtiyojlari uchun intemetdan foydalanishlariga yordam beradi.

AKTlardan foydalanishning o‘qituvchilar va pedagog xodimlar uchun afzalliklari:

- AKTlardan foydalanish inklyuziv ta’limda ishlayotgan pedagoglaming hamkasblari bilan munosabatda bo‘lishlariga imkoniyat yaratib, ularning ajralib qolishlarini kainaytirishga yordam beradi;
- real vaqt rejimida kommunikatsiyani amalga oshirish imkoniyati o‘z kasbiy faoliyatini anglashning, ya’ni refleksiyaning rivojlanishiga yordam beradi;

- AKTlardan foydalanish pedagoglaming kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtiradi;

- texnologiyalami tengdoshlari bilan munosabatlar jarayoniga qo‘shish ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi;

- axborot resurslarining elektron shaklti ta’Iimdan foydalanish imkoniyatini jiddiy ravishda oshiradi.

Yangi texnologiyalami texnikaviy qo‘llab-quvvatlash sifatida qo‘llash alohida ehtiyojli bolalarga o‘quv jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Masalan, harakat nuqsonlari bo‘lgan holda AKT yozish imkonini beradi, ko‘rish nuqsonlari bo‘lgan holda esa, o‘qish jarayonini amalga oshirish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, texnologiyalar bolalaming o‘z atrof-muhitlarini boshqarish, o‘quv va ijtimoiy masalalar yechimini qo‘llab-quvvatlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda axborot resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Boshqachasiga aytganda, texnologiyalar organismning tabiiy funksiyalaridagi yetishmovchiliklarining o‘mini bosish (kompensatsiyalash) imkoniyatini beradi va shu bilan esa, bolalar tomonidan bilimlami olish va o‘zlashtirish jarayonlarini optimallashtiradi.

Xulosa. Inklyuziv ta’limda AKTlarni qo‘llash juda katta imkoniyatlarga ega, lekin bu yo‘lda ko‘p qiyinchiliklar mavjud, yangi texnologiyalar ta’lim tizimining an’anaviy tartibini o‘zgartirib, alohida ehtiyojli bolalar ta’limidagi ilgarigi passiv yondashuvlarga nisbatan munosib alternativlarni ilgari suradi. Mavjud shubhasiz afzalliklariga qara may, agar ularni bolalarning individual ehtiyojlarini va ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyat tamoyillarini hisobga olmagan holda qo‘llanilsa, bunday texnologiyalar ta’limga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.R.Muminova, R.Sh.Shomaxmudova, Z.M.Axmedova. “Inklyuiziv ta’lim” o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019.
2. Nurmuhamedova L.Sh. Nogiron bolalarning huquqiy asoslari va ilmiy-nazariy masalalari. Defektolog kadrlarni tayyorlash jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tadbiq etish: muammolar va istiqbollar. – T., 2014.
3. D.S.Qaxarova “Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” Toshkent. 2014.
4. J.G‘.Yuldashev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004.